

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERBO`TAYEVA O`S., ABDUSHUKUROVA I.Q.  
MAMATOV SH.**



**FANIDAN  
O`QUV – USLUBIY MAJMUA**

**GULISTON – 2018**

**Erbo`tayeva O`S., Abdushukurova I.Q. Mamatov Sh.M. O`zbekiston tarixi fanidan o`quv-uslubiy majmua. Guliston, 2018 yil. 180 bet.**

Mazkur fan I – blok – ijtimoiy-gumanitar fanlar blokiga kirgan bo`lib, barcha bakalavriat ta'lif yo`nalishlarida tahsil olayotgan I kurs talabalari uchun mo`ljallangan. O`quv-uslubiy majmua amaldagi dastur asosida tayyorlanib, unda kurs bo`yicha ma'ruzalar to`plami, seminar mashg`ulotlar ishlammalari, mustaqil ish topshiriqlari, tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati jamlangan. Mazkur o`quv-uslubiy majmua o`qituvchilar va talabalar uchun tavsiya etiladi.

GulDu o`quv metodik kengash tomonidan nashrga tavsiya qilingan  
**(2018 yil 27 avgust. №1 bayonnomma)**

**Mas`ul muharrir: t.f.n., dotsent Salimov T.**

**Taqrizchilar: t.f.d., dotsent Eshov B.**

**t.f.n., dotsent. Nazarov O.**

**Эрбутаева У.С., Абдушукрова И.К. Маматов Ш.М. Учебно-методическое пособие по предмету Iстория Узбекистана. Гулистан, 2018 г. 142 с.**

Данный предмет входит в первый блок социально-гуманитарных предметов и рассчитан на студентов первого курса обучающихся по всем направлениям бакалавриата. Учебно-методический сборник составлен на основе действующей программы и включает в себя тексты лекций, разработку семинарских занятия, задания по самостоятельной работе студентов, список рекомендуемой литературы. Данный учебно-методический сборник предназначен для преподавателей и студентов.

**Ответственный редактор: к.и.н., доцент Салимов Т.**

**Рецензенты: д.и.н., доцент Eshov B.**

**к.и.н., доцент Назаров О.**

**Erbotaeva U.S., Abdushukurova I.K. MamatovSh. The educational – methodic elaboration in History of Uzbekistan. Gulistan, 2018. 142 p.**

This educational – methodic elaboration intended for the first course students of humanitarian sphere of education. It consists of working program, course of lectures. seminars and tasks on individual work. It is also included the list of literatures. This educational – methodic elaboration is recommended for teachers and students.

## Mundarija

So`z boshi.....
Ishchi dastur .....
Reyting ishlanma va baholash mezoni.....
Ma`ruzalar kursi.....
1.O`zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari va uni o`rganishning ahamiyati.
Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasi o`choqlaridan biri.....
3.O`zbek xalqining etnik shakllanishi.....
4.O`zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari. Milliy davlatchilik qurilishi tajribasi.....
5.Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg`onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan hissalari (VIII-XII, XVI-XV).....
6.Amir Temur davlati. Temur tuzuklari.....
7.Turkistonning xonliklarga bo`linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....
8.Chor Rossiyaning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati.....
9.Chorizm istibbdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik.....
10. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o`rnatalishi. Istiqlolchilik harakati.....
11. Mustabid sovetlar tuzumining O`zbekistonda olib borgan qatag`onlik siyosati va uning oqibatlar.....
12.Sovetlar davrida O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy qaramligi.....
13.O`zbekistonda davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.....
14.O`zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni asoslarining barpo etilishi.....
15.Mustaqillik yillarda O`zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti.....
16.Mustaqillik yillarda O`zbekistonning ma`naviy-madaniy taraqqiyoti .....
17.O`zbekiston va jahon hamjamiyati.....
I. Amaliy va seminar mashg`ulotlari.....
II. Mustaqil ish topshiriqlari.....
III.Nazorat savollari.....
IV. O`tilgan mavzular bo`yicha xulosalar.....
V. Fan bo`yocha o`z yechimini kutayotgan ilmiy muammolar.....
VI. Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati.....
Glossari.....

**Fan mazmuniga qo`yiladigan malakaviy talablar  
Bakalavr «O`zbekiston tarixi» bo`yicha:**

O`zbekiston tarixi insoniyat tarixinining ajralmas qismi ekanligi, uning asosiy davrlari va taraqqiyotining tadrijiy bosqichlari to`g`risida, ularning uzviy bog`liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealarning vorisiyligi va qonuniyligi haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim.

- Fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyatini, O`zbekiston tarixi jahon tarixinining ajralmas qismi ekanligini;
- O`zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o`choqlaridan biri, O`rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi va uning davrlarga bo`linishini;
- o`zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, milliy davlatchilik qurilish tajribasini;
- o`zbek xalqining etnik shakllanishi, Buyuk Ipak yo`li shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini;
- ilk o`rta asrlardagi o`zbek davlatchiligi, IX-XI asrlardagi o`zbek davlatchiligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini;
- O`rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg`onish davrini;
- ajododlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`sghan hissasi, mo`g`ullar istilosи va zulmiga qarshi kurash, Amir Temur va temuriylar davrida o`zbek davlatchiligining yuksalishini;
- Turkistonning xonliklarga bo`linib ketishi, chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi, chorizm istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining kurashini;
- jadidchilik, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o`rnatalishi, uning mustamlakachilik mohiyatini;
- O`zbekistonda davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishini;
- mustaqillik yillarda O`zbekistonning iqtisodiy, ma`naviy va madaniy taraqqiyoti, O`zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o`rnini bilishi kerak.

O`zbekiston tarixida kechgan jarayonlarga nisbatan o`z nuqtai nazariga asosan xulosa chiqara olishi va o`z faoliyati, sohasining jamiyat tarixidagi o`rnini belgilash ko`nikmasiga ega bo`lishi lozim. Yosh avlodda milliy g`oyani, yuksak ma`naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog`lom g`ururni uyg`otishda, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda tarixiy tafakkurning ahamiyati katta.

Dasturni tayyorlashda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'llim vazirligi tomonidan oliy o`quv yurtlari uchun tasdiqlangan o`quv rejasida O`zbekiston tarixini o`qitish bo`yicha tavsiya etilgan 114 (38 soat ma'ruza, 38 soat seminar, 38 soat mustaqil ish) soat dars hajmi hisobga olindi. Viloyatimiz sharoitida talabalar paxta yig`im-terimiga jalb qilinayotgani tufayli auditoriya soatlar hajmi qisqatirildi va 68 soatni tashkil etdi (34 soat ma'ruza, 34 soat seminar). Mustaqil soatlar hajmi esa 2007-2008 o`quv yili uchun tuzilgan va o`quv bo`limi tomonidan taqdim etilgan o`quv reja bo`yicha 56 soat etib belgilandi.

**«O`ZBEKISTON TARIXI» FANIDAN ISHCHI DASTUR**  
**Kursning maqsadi va vazifalari**

**Kursning maqsadi:** "O`zbekiston tarixi" fanining mazkur dasturi O`zbekiston Respublikasining "Ta'llim to`g`risida"gi qonuni asosida va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida kelib chiqib, davlat standartlari bo`yicha bakalavriat darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashni, ularga O`zbekiston o`tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan voqeliklar, insonlar hayoti, jamiyat taraqqiyoti to`g`risida bilimlar berishni maqsad qilib qo`yadi. O`zbekiston tarixini o`rganish shuning uchun kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy

g`oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi. Yurtboshimiz aytganlaridek: «O`z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo`lmaydi».

«O`zbekiston tarixi» fani 1-ijtimoiy-gumanitar fanlar bloliga kirib, barcha bakalavriat ta'llim yo`nalishlarida Vatanimiz tarixi chuqurroq, ilmiy jihatdan asoslangan holda manbalarga tayanib o`rganiladi.

**Kursning vazifalari:** Yuqorida ta'kidlangan maqsaddan kelib chiqib, fanni o`qitishda quyidagi vazifalarni hal etish ko`zda tutiladi:

- talabalarni kelajakda voqeа-hodisalarни oldindan ko`ra bilishga ko`maklashish;
- yetuk mutaxassislar bo`lib yetishishlarida yordamlashish;
- o`zi yashayotgan va atrofdagi hududlar tarixini bilishga qiziqtirish;
- bo`lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g`oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish, shu maqsadda tarixiy ilmni keng o`rgatish;
- yoshlarda milliy tafakkur, g`urur va o`zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash;
- yoshlarda vatanparvarlik va harbiy jasoratni, milliy g`urur va Vatanga sadoqatlikni tarbiyalash;
- yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash;
- yoshlarni Vatan va xalq, millat, farzand, ota-onas, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarini chuqur his etish va ularga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Fanni o`rganishda tarixiy manba va adabiyotlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari, statistik ma'lumotlardan, shuningdek, mushohada, tahlil, kuzatish usullaridan keng foydalilanildi.

### Kursning mazmuni

«O`zbekiston tarixi» kursini o`rganish jarayonida mavjud o`quv dasturiga asoslangan holda masalalarning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalariga katta e'tibor qaratiladi. Vatanimiz hududida qadimgi davrdan boshlab to bugungi kungacha bo`lib o`tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqariladi.

### Leksiya mavzulari, ko`riladigan masalalar, vaqt:

Nº		Ko`riladigan masalalar	Vaqt, soat
1	<b>O`zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari va uni o`rganishning ahamiyati</b>	O`zbekiston tarixining fan sifatidagi o`rni, predmeti, o`rganish ob'ekti, manbalari. O`zbekiston tarixini yoritishning nazariy-ilmiy va metodologik asoslari.O`zbekiston tarixini davrlashtirish.O`zbekiston tarixining komil inson tarbiyalashdagi roli.	2
2	<b>Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasi o`choqlaridan biri</b>	Jahon sivilizastiylari tizimida O`rta Osiyo sivilizastiysining o`rni.O`rta Osiyo hududida ibridoiy jamoa tuzumi. Ibtidoiy jamiyat davrlari. Paleeolit, mezolit, neolit. Eneolit, bronza davrlari. Dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilikning kelib chiqishi. Antropogenez jarayonlari. Ibtidoiy tasviriy san'at.Bronza davri yutuqlari.	2
3	<b>O`zbek xalqining etnik shakllanishi</b>	O`rta Osiyoning qadimgi aholisi. O`zbek xalqi etnogenezinining davrlari. Urug`, qabila. Elat va millat tushunchalari."O`zbek" atamasining kelib chiqishi.Turli asrlarda	2

		boshqa mintaqalar qabila va elatlari va tubjoy aholi o`rtasida kechgan etnik jarayonlar.	
4	<b>O`zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari. Milliy davlatchilik qurilishi tajribasi</b>	Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo`lishining asosiy omillari. O`lkamiz hududida dastlabki shaharsozlik madaniyati. Eng qadimgi davlatlar. Baqtriya, So`gidiyona, Xorazm, Farg`ona, Choch. Antik davr davlatlari va madaniyati. O`rta Osiyoga ahmoniyalar bosqini. Avesto. Yunon-makedonlar bosqini va ularga qarshi kurash. Kushonlar. Buyuk Ipak yo`li. Salavkiylar. Ilk o`rta asrlar o`zbek davlatchiligi. IX-XII asrlar o`zbek davlatchiligi.	2
5	<b>Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg`onish davri. Ajdod larimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan hissalari (VIII-XII, XVI-XV)</b>	IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma`naviy madaniyatining yuksalishi. Ilm-fan, din, adabiyot va san`at. Binokorlok va me`morlik. Ma`mun akademiyasi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo moddiy-ma`naviy madaniyati ravnaqi. Mirzo Ulug`bek akademiyasi.	2
6	<b>Amir Temur davlati. Temur tuzuklari</b>	XIV asr 2 yarmida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur markazlashgan davlatining tuzilishi. Amir Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Temur tuzuklari. Amir Temurning harbiy sarkardalik salohiyati. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni. Movarounnahrda Mirzo Ulug`bek hukmronligi	2
7	<b>Turkistonning xonliklarga bo`linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari</b>	XV asr 2 yarmi- XVI asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. O`rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari. Shayboniyalar. Ashtarkoniylar. Mang`itlar, minglar va qo`ng`irotlar sulolalari hukmronligi. Xonliklardagi iqtisodiy va madaniy hayot. O`rta Osyoning xonliklarga bo`linib ketishi oqibatlari.	2
8	<b>Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati. Chorizm istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik</b>	Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi. Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi. O`lkada chor Rossiyasi iqtisodiy manfaatlarining amalga oshirilishi. Chor Rossiyasining Turkistonni ruslashtirish siyosati. Chorizm istibdodiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari. 1892 yilgi Toshkent qo`zg`oloni. 1898 yilgi Andijon qo`zg`oloni. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.	2

		I.Gaspirali, M.Behbudiy, Munavvar Qori, A.Avloniy, A.Fitrat. 1916 yilgi xalq qo`zg`oloni.	
9	<b>Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o`rnatalishi. Sovetlar tuzumiga qarshi qurolli harakati</b>	1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri. Sho`roi Islomiya, Sho`roi Ulamo. Oktyabr to`ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o`rnatalishi, uning shovinistik siyosati. «Turkiston muxtoriyati»ning tuzilishi va uning tor-mor keltirilishi. Harbiy kommunizm siyosati. Turkiston mintaqasidagi istiqlochilik harakati, uning bosqichlari va tarixiy ahamiyati. Farg`ona vodiysida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qarshilik ko`rsatish harakati.	2
10	<b>Mustabid sovetlar tuzumining O`zbekistonda olib borgan qatag`onlik siyosati va uning oqibatlari</b>	Totalitar tuzumning qaror topishi. Sovet tuzumining milliy rahbar-xodimlarga nisbatan qatag`onlik siyosati (1920-30). 18 lar guruhi, Qosimovchilik, inoq`omovchilik. 1920-50 yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi Qatag`onliknnng yangi to`lqinlari	2
11	<b>Sovetlar davrida O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy qaramligi</b>	Jamoalahtirish siyosati va uning oqibatlari. Sanoatlashtirish siyosati. Ikkinci jahon urushida qozonilgan g`alabaga o`zbek xalqining qo`shgan hissasi. Urushdan keyingi yillarda O`zbekiston iqtisodi va uning Markazga qaramligi. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" ning oqibatlari. Agrar siyosati, paxta yakkahokimligi. Orol fojiasi. Aholi turmush darajasi.	2
12	<b>O`zbekistonda davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati. O`zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asosla-rining barpo etilishi</b>	Sovetlar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi. "Qayta qurish" ziddiyatlari. "Kadrlar to`dasi", "Paxta ishi". "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi. I.A.Karimov – O`zbekistonning birinchi Prezidenti. O`zbekiston davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O`zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi. Siyosiy islohotlar. O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik tizimi va milliy siyosat. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlar hokimiyati organlari. Iklki palatali parlament.	2
13	<b>Mustaqillik yillarda O`zbekistonning</b>	O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o`tkazilishi. "O`zbek modeli", uning tamoyillari. Davlat mulkini xususiylashtirish va bozor infratuzilmasining shakllantirilishi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi. Agrar sektordagi o`zgarishlar.	2

	<b>iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyoti</b>	Mustaqillik yillarda ma'naviy hayot. Ma`naviy qadiyatlarning tiklanishi. Milliy istiqlol mafkurasi va milliy istiqlol g`oyasi Ta'lim to`g`risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O`zbekistonda fanning rivoji va intellektual salohiyatning o'sishi. Madaniyat va san`atning rivojlanishi.	
14	<b>O`zbekiston va jahon hamjamiyati</b>	Tinchliksevar tashqi siyosat asoslарining ishlab chiqilishi, uning asosiy tamoyillari. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo`shilishi, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi. O`zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O`zbekistonning o'rni.	<b>2</b>
<b>JAMI</b>			<b>28 soat</b>

### SEMINAR MASHG`ULOTLAR MAVZULARI, VAQT

<b>Nº</b>		<b>Ko`riladigan masalalar</b>	<b>Vaqt, soat</b>
1	<b>«Avesto» kitobi – Vatanimiz tarixini o`rganishda muhim manba</b>	«Avesto» paydo bo`lgan hudud haqida munozaralar. Zardushtiylik dini tamoiyllari va qonun-qoidalari. «Avesto»da qadimgi ajdodlarimizning boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar. «Avesto»ning qadimgi xalqlar ma'naviy hayotiga ta'siri	<b>2</b>
2	<b>Buyuk Ipak yo`li va hozirgi zamон</b>	Eng qadimgi yo`llar. Buyuk Ipak yo`lining paydo bo`lishi va rivojlanishi. Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo`li shuhratining ortishi. XVI asrdan boshlab Buyuk Ipak yo`li ahamiyatining pasayishi sabablari. Hozirgi davrda Buyuk Ipak yo`li an'analarini tiklash va rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatiga O`zbekistonning ishtiroki	<b>2</b>
3	<b>Vatanimiz hududida tashkil topgan dastlabki davlatlar</b>	Xorazm, Baqtriya, So`g`diyona. O`rta Osiyo antik davr davlatlari. Kushonlar davlati va madaniyatining Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan o'rni.	<b>2</b>
4	<b>O`zbek xalqining etnik shakllanishi</b>	O`zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz hududidagi qadimgi aholi. IX-XI asrlarda qarluqlar, saljuqiyarning o`zbek xalqi etnik shakllanishiga ta'siri. XVI asr boshlarida Movarounnahr hududiga kelib joylashgan o`zbek urug`lari. «O`zbek» atamasining kelib chiqishi	<b>2</b>
5	<b>Markaziy Osiyo xalqlarining IX-XII asrlar davri</b>	IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati yuksalishiga ta'sir ko`rsatgan tarixiy shart-sharoitlar. IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqi. O`rta Osiyolik allomalarining jahon	<b>2</b>

	<b>madaniyati</b>	sivilizatsiyasi xazinasiga qo'shgan hissasi. Badiiy adabiyotning rivoj topishi. O'rta Osiyolik buyuk islomshunos olimlar	
6	<b>Mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurash. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni</b>	Mo'g'ullar va Xorazmshohlar davlati o'rtasidagi munosabatlar. Temur Malik va Najmiddin Kubro. Jaloliddin Manguberdi. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni va uning ahamiyati	<b>2</b>
7	<b>Temuriylar davri madaniyati</b>	Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi. Temuriylar davrida ilm-fan. Ulug`bek ilmiy maktabi. Hattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati. Adabiyot va tarixnavislik	<b>2</b>
8	<b>Rossiya bosqini arafasida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti. Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati</b>	Mang`itlar sulolasi davrida Buxoro amirligi: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayat. Qo`ng`irotlar sulolasi davrida Xiva xonligi: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayat. Minglar sulolasi davrida Qo`qon xonligi: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayat. Rossiyaning Turkistonni bosib olishi va o`lkada mustamlakachilik boshqaruv tizimining o'rnatilishi. O`lka iqtisodiyotining chorizm manfaatlariga bo`ysundirilishi. Chorizmning aholini ko`chirish siyosati, uning oqibatlari. Chor mustamlakachi ma'murlarning o`lka xalqlarining ma'naviy-madaniy hayotiga salbiy ta'siri	<b>2</b>
9	<b>Turkistonda jadidchilik harakati</b>	XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jadidchilikning yuzaga kelishi. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar, qarashlar va ularning mohiyati. Jadidlarning madaniy-oqartuvchilik faoliyati. Jadidlarning demokratik va milliy-ozodlik harakatlariga ta'siri	<b>2</b>
10	<b>Mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat</b>	Turkiston muxtoriyati va uning fojiali taqdiri. Farg`ona vodiysi - qurolli harakat markazlaridan biri. Bu yerdagi harakatlarning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari. Buxoroda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat. Xorazmda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat	<b>2</b>
11	<b>Sovetlar davrida iqtisodiy va ma'naviy qaramlik oqibatlari</b>	Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag`on siyosati va uning oqibatlari. Sovet hokimiyatining 1920-30 yillarda O'zbekistonda o'tkazgan industrlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari. 1950-80 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy hayatı, inqirozli holatga tushish va uning sabablari	<b>2</b>
12	<b>O'zbekiston mustaqil davlat. O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati</b>	O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning ahamiyati. O'zbekistonning Davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi. O'zbekistonning o'z istiqlol taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning qonun ijodkorligi. Siyosiy islohotlar. Ikki palatali parlamentga saylovlar. Senat va Qonunchilik	<b>2</b>

	<b>asoslarining shakllanishi</b>	palatasi. Davlat boshqaruv hokimiyati organlarining tashkil etilishi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi va faoliyati. Sud islohoti	
13	<b>O`zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi</b>	O`zbekistonning bozor munosabatlarini shakllantirishda o`ziga xos yo`li. Ko`p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar tabaqasining shakllanishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. O`zbekistonning kuchli ijtimoiy siyosati. Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlashtirish va iqtisofiy o`sishga erishilganlik.	<b>2</b>
14	<b>O`zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi</b>	O`zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. O`zbekistonning milliy istiqlol g`oyasi, uning mohiyati va tarixiy ildizlari. O`zbekistonda diniy qadriyatlar va islam ma'naviyatining tiklanishi	<b>2</b>
15	<b>O`zbekiston va jahon hamjamiyati</b>	“O`zbekiston va jahon hamjamiyati” mavzusidagi seminar mashg`uloti uchun 2005-2012 yillardagi ma'lumotlar yuzasidan turli mamlakatlar bilan hamkorlik bo'yicha referat, maqola, buklet, taqdimot tayyorlash va seminar darsida himoya qiling. O`zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi. O`zbekiston va MDH. O`zbekistonning jahoning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarining kengayib borishi. O`zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi o`rni va roli. Markaziy Osiyo mamlakatlari va O`zbekiston.	<b>2</b>
	<b>JAMI</b>		<b>30 soat</b>

#### Mustaqil ish topshiriqlari mavzulari

	<b>MAVZU</b>	<b>O`rganiladigan masalalar</b>	<b>Vaqt</b>
1	<b>I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q» asari</b>	Insonning o`zligini anglash Vatan tarixi, tili, madaniyati va qadriyatlarini bilishdan boshlanishi. Tarix saboqlari. Komil insonni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati. Tarix – xalq ma'naviyati asosi.	9
2	<b>Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi va hozirgi zamon</b>	Turkiy xalqlarning kelib chiqishidagi qarashlar. Turkiy qatlamning azaliy etnos ekanligi. Turkiy elatlar. Turkiy elatlarning tarqalishi.O`zbek davlatchiligi tarixida turkiy davlatlar va ularda hukmronlik qilgan sulolalar.	10
3	<b>Temur tuzuklari.</b>	Temur tuzuklari davlat va jamiyatni idora qilishga doir qonun-qoidalar to`plami ekanligi. Asarning birinchi qismida Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda, fan va madaniyat homisi sifatidagi faoliyati haqida. Ikkinchi qismidagi vasiyat va pand-nasihatlar. «Kuch – adolatdadir» iborasi.«Temur tuzuklari» ahamiyati.	9
4	<b>Ikkinchi jahon urushi</b>	Ikkinchi jahon urushi kelib chiqishi sabablari,	10

	<b>yillarida o`zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g`alabaga qo`shgan hissasi</b>	fashgizmnning bosqinchilik, millatchilik qiyofasi. O`zbekiston xalq xo`jaligini front talablariga moslashtirilishi. Frontda o`zbek xalqi farzandlarining jasorati. O`zbek xalqining g`alabaga qo`shgan hissasi.	
5	<b>O`zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi</b>	O`zbekistonda milliy, huquqiy davlat hokimiyatiga o`tilishi. Hokimiyat va ma'muriy organlarda milliy, huquqiy demokratik davlat qurish asoslarining yaratilishi. O`zbekistonda hokimiyat bo`linishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari. Ommaviy axborot vositalari. O`zbekistonning demokratik saylov tizimi. Ikki palatali parlamentning shakllanishi	9
6	<b>O`zbekistonning milliy istiqlol g`oyasi</b>	Mustaqillik yillarida ma'naviy hayotda sodir bo`lgan muhim o`zgarishlar. Diniy qadriyatlarning tiklanishi. Milliy g`oya, milliy mafkuraning shakllanishi. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda fan, madaniyat va san'at rivojlanishi. "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".	9
	<b>Jami</b>		56 soat

### **Fakultetlararo “O`zbekiston tarixi” fanidan REYTING ISHLANMASI**

<b>Nazorat turlari</b>	<b>Mashg`ylot ko`rinishi</b>	<b>Soni</b>	<b>Jami ball</b>
<b>JB</b>	1.Seminar mashg`ylotni bajarish	15x1,5	22,5
	2. TMI(uyga vazifa)	6x3	18
	3. Referat tayyorlash	1x6,5	6,5
	4. Konspekt	2x1,5	3
	<b>JB</b>		<b>50 ball</b>
<b>OB</b>	1.Nazorat ishi	2x10	20
	<b>OB</b>		<b>20 ball</b>
<b>YAB</b>	Test yoki yozma, 3 ta savol	30x1 3x10	30
	<b>Jami: JB, OB, YAB</b>		<b>100ball</b>

### **“O`zbekiston tarixi” fanidan baholash mezoni**

#### **I. Joriy baholash:**

1.1.JB bo`yicha amaliy mashg`ylotga qatnashib, savollarga to`liq javob bergen talabaga javobning mazmyniga qarab 1.5-1 ball, agar to`liq bo`lmasa 0.9-0.5 ball beriladi.

1.2. TMI uygaga berilgan topshiriqning bajarilishi sifati va mazmyniga qarab to`liq, bajarilsa 3-2 ball, qisman bajarilsa 1.5-0.5 ball beriladi.

#### **1.3. Referat:**

- ✓ to`liq reja asosida ochib berilsa, 6.5-6 ball;
- ✓ mavzy mohiyati ochilgan, lekin kamchiligi bo`lsa, -5-4 ball;
- ✓ qisman va mazmunsiz ochilgan bo`lsa 3-2 ball beriladi.

1.4. Semestr oxirida seminar va ma`ryza daftarlari tekshirilib to`liqligigaqarab 1.5 balldan 0.5

ballgacha qo`yiladi.

## **II. Oralıq baholash:**

2.1 Nazorat ishi yozma tarzda o`tkaziladi. Har bir variant 5 ta savoldan iborat bo`lib, har bir to`g`ri javob ychyn mazmynini sifatiga qarab 2-1.5 ball, jami 10 ballgacha qo`yiladi.

## **III. Yakuniy baholash:**

3.1. Agar YAB yozma, og`zaki tarzida o`tkazilsa har bir to`g`ri javob ychyn 10-7 ballgacha, qisman to`g`ri bo`lmasa 6-1 ball qo`yiladi. YAB test shaklida bo`lsa, ynda talaba 300ta savollar bazasidan o`ziga berilgan 30 ta testni 30 minyt ichida ishlab, kamida JB+OB+YaB ballari **55** balldan yuqori yig`ishi lozim.

Izoh. Talabalar 39 balldan yuqori ball to`plasalar, YaBga kiritiladi. Saralash ball 55 ball hisoblanadi. Agar talaba JB va OB dan 55 ball va yndan yuqori ball to`plasa YaB ga kirmasligi mymkin.

## **FAN BO`YICHA TA`LIM TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI**

**“O’zbekiston tarixi”** o’quv kursi bo`yicha yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg`ulotlar o`tkazish, darslarni savol-javob tarzida tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo’llanmalardan foydalanish, talabchanlik, talabalar bilan yakka tartibda ishlash, erkin muloqotga kirishishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta’lim ustuvorligini ta’minlaydi.

**Fanning maqsadi.** Talaba-yoshlarda bilim, ko’nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish va shakllantirish.

**Fanni o’qitishning vazifalari.** Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo’ladi: talabalarga ma’naviyat haqida, uning manbalari va asoslari, tarixiy rivojlanishi, ma’naviyat taraqqiyot bosqichlarini ko’rsatib berish, shuningdek, ma’naviyat masalasidagi Prezidentimizning kontseptual g’oyalari, ta’riflarini o’rganishdan iboratdir. Bularidan tashqari mazkur fanni o’rganish davomida talabalarda tariximizga qiziqishini orttirish, Markaziy Osiyolik buyuk ajdodlarimizning ma’naviy qarashlari, mustaqillik yillarda “O’zbekiston tarixi” berilgan e’tibor haqida atroflicha ma’lumot oladi.

**Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim.** O’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishga e’tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta’minlaydi. Ta’limning markaziga bilim oluvchi qo’yiladi.

**Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o’zida mujassam etmog’i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo’g’inlarini o’zaro bog’langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo’lishiga hissa qo’shamdi.

**Faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o’quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo’naltirilgan ta’limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko’nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi sub’ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta’lim jarayonida “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlari tarkib topadi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni ta’minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va

vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

**O'qitish metodlari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyiha va amaliy ishslash usullari.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko'rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari keng ko'lamda tatbiq etiladi.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blitz-so'rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi amalga oshiriladi.

**Boshqarish usullari va tartibi:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati tartibli yo'lga qo'yiladi.

**Monitoring va baholash:** butun kurs davomida ham o'qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma ish yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

## M A ` R U Z A L A R K U R S I

### 1- MAVZU: O`ZBEKISTON TARIXI FANI PREDMETI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O`RGANISH AHAMIYATI.

### O`ZBEKISTON TARIXI PREDMETI, NAZARIY-METODIK ASOSLARI VA UNI O`RGANISH AHAMIYATI. MAVZUSI BO`YICHA MA`RUZA DARSINING TEKNOLOGIK XARITASI.

T\rl	Faoliyat.	Ma'sul shaxs
I	<p>Taylorov bosqichi.  Dars maqsadi:Talabalarni O'zbekiston tarixi fani predmeti,nazariy-metodik asoslari haqida va uni o'rganish ahamiyati bilan tanishtirish.</p> <p>Indentiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni,predmeti,o'rganish</li> <li>- obekti,manbalari haqida so'zlab beradi.</li> <li>-O'zbekiston tarixini yoritishning nazariy-ilmiy va metodologik asoslarini tushuntira oladi.</li> <li>-O'zbekiston tarixini davrlashtirishni izohlab beradi.</li> <li>-O'zbekiston tarixini komil inson tarbiyalashdagi rolini tushuntirib beradi</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul:aqliy hujum,davra suhbatibaxs.</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <p>1.1 O'zbekiston tarixi nimani o'rganadi?</p> <p>1.2 "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"asarida komil insonni tarbiyalashda tarixiy o'rniqa qanday baho berilgan.</p> <p>1.3 Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'qitishda millmiy istiqlol g'oyasi bilan o'zlashtirish borasida qanday ishlar qilish lozim.</p>	O'qituvchi.
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1 Mavzu va ko'rib chiqilgan masalalar tushuntiradi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikirlari so'raladi.</p>	O'qituvchi.
III	<p>Guruhda ishlash</p> <p>3.1 Talabalarning fikrlari ketma-ketlikda eshitiladi.Boshqa fikir,e'tirozlar bormi?-deb so'raydi.Bor bo'lsa ,izohlash talab etiladi.Boshqa talabalar baxsga jalb etiladi.</p> <p>3.2 Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama-qarshi tomonlar xamkorlikda aniqlanadi,boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3 Barcha talabalar tomonidan aytilan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikr jamlanadi.</p> <p>3.4 Aytilan g'oyalar to'ldiriladi,asosiy O'zbekiston tarixining davrlashtirish sanab o'tiladi.</p>	O'qituvchi. Talaba.
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytildi.Talabalar bilimini baholash uchun UUMdagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi(baholash me'zoni asosida)</p>	O'qituvchi
V	<p>TMI topshiriqlari beriladi.</p> <p>Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.</p>	O'qituvchi.

### **Asosiy savollar:**

1. O`zbekiston tarixining fan sifatidagi o`rni, predmeti, o`rganish obyekti, manbalari.
2. O`zbekiston tarixini yoritishning nazariy-ilmiy va metodologik asoslari.
3. O`zbekiston tarixini davrlashtirish.
4. O`zbekiston tarixining komil inson tarbiyalashdagi roli.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** O`zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari, o`rganish obyekti, bakalavr minimumi, O`zbekiston tarixini davrlashtirish, O`zbekiston tarixining ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati.

### **1-asosiy savol:**

O`zbekiston tarixining fan sifatidagi o`rni, predmeti, o`rganish obyekti.

### **Darsning maqsadi:**

O`zbekiston tarixining fan sifatidagi o`rni, predmeti, o`rganish obyekti to`g`risida tushuncha berish, uning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish. O`zbekiston tarixini davrlashtirish masalasini ochib berish. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", "Tarix xalq ma`naviyatining asosidir" kabi Prezident I. Karimov iboralarini talabalar ongiga singdirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. O`zbekiston tarixining fan sifatidagi o`mini ko`rsatadi.
- 1.2. O`zbekiston tarixi predmetini ochib beradi.
- 1.3. O`zbekiston tarixi manbalarini izohlaydi.
- 1.4. O`zbekiston tarixi fanining obyektini farqlaydi.

### **1-asosiy savol bayoni:**

Tarix fani turli xalqlar qanday yashaganligi, ularning hayotida qanday voqealar sodir bo`lganligi, odamlar hayoti qanday va nima uchun o`zgarib, hozirgiday bo`lib qolganligini o`rgansa, O`zbekiston tarixi esa shu ona-zaminimizda o`tmishda yashagan xalqlarning hayoti va ularning rivojlanishi jarayonida sodir bo`lgan o`zgarishlar, voqealar, ularning turmush tarzi, iqtisodi, madaniyati va shu kabilarni to`laligicha o`rganadigan fandir. Yurtboshimizning shu haqidagi fikrlari katta ahamiyatga egadir.

"Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini bilishga, o`zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodlari kimligini, nasl-nasabini, o`zi tug`ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Hozir O`zbekiston deb ataluvchi hudud, ya`ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko`rku fayzini, mahobatini yo`qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san`ati yuksak bo`lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo`lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san`at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o`n minglab asarlar bizning beqiyos ma`naviy boyligimiz, iftihorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo`lgan xalq dunyoda kam topiladi. Otabobolarimizning asrlar davomida to`plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiyl, ilmiy qarashlarini o`zida mujassam etgan bu nodir qo`lyozmalarni jiddiy o`rganish davri keldi. Chunki Sho`rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag`batlanrilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko`zidan iloji boricha yiroq saqlanardi" (I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:Sharq, 1998).

Shunday qilib, bizning ongimizdan tashqarida va bizning ongimizga bog`liq bo`limgan holda mavjud bo`lgan borliq, voqelik O`zbekiston tarixi fanini o`rganish obyektidir.

O`zbekiston tarixi faqat turli bilimlar tarzidagi fan emas, balki bir necha asrlar davomida to`planib kelgan o`zaro ichki qonuniyatlar bilan chambarchas bog`langan bilimlar tizimi sifatidagi fandir. Shu ma'noda u o`zining o`rganish obyekti va predmetiga ega bo`lgan mustaqil fandir.

O`zbekiston tarixini o`rganishda manbalarning ahamiyati beqiyos bo`lib, bular moddiy va yozma manbalaridir. Tariximizning eng qadimgi, ya`ni yozuvlarga oid davrni o`rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar topilmalardan iborat bo`lib, ularga qadimgi manzilgohlar, shaharlar xarobalari, mozor-qo`rg`onlar qoldiqlari, turmush va xo`jalikda ishlatalgan buyumlar, mehnat va jangovar qurollar, turli ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab, tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekiston tarixi nimani o`rganadi?
2. Qanday manbalar moddiy (ashyoviy) manbalar ekanligini tushuntiring
  - A. Hunarmandchilik asboblari, qurol-yarog`, sopol idish, tangalar
  - B. taqinchoq, bitiklar, uy-joylar
  - C. hunarmandchilik asboblari, qoyatosh yozuvlari, sopol idishlar
  - D. Uy-joylar, qo`lyozmalar, qurol- yarog`lar, mixxatlar
3. Arxeologik topilmalar deganda nimalar tushunuladi va ular manbalarning qaysi turiga oid?
4. Qoyatosh suratlarini manbalarning qaysi turiga kiritish mumkin?

### **2- asosiy savol:**

O`zbekiston tarixini yoritishning nazariy-ilmiy va metodologik asoslari

### **Darsning maqsadi:**

Talabalarda O`zbekiston tarixini o`rganishning nazariy-ilmiy va metodologik asoslari to`g`risida tushuncha hosil qilish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. O`zbekiston tarixini o`rganishda dialektik metodning o`rnini sharhlab beradi.
- 2.2. O`zbekiston tarixini o`rganishda xolisonalik metodining rolini izohlaydi
- 2.3. O`zbekiston tarixini o`rganishda tarixiylik metodining o`rnini ko`rsatib beradi
- 2.4. O`zbekiston tarixini o`rganishda ijtimoiy yondashuv metodining ahamiyatini asoslab beradi.

### **2-asosiy savol bayoni:**

Tarixiy voqealarni o`rganish qanday ilmiy-nazariy metodologik asoslarga tayanishining ahamiyati juda katta. Sho`rolar hokimiyati davrida tarixni o`qitish va o`rganish ishlari marksistik metodologiyaga bo`ysundirilgan edi. Har qanday voqeani yoritishga komfirqa mafkuraviyligi, partiyaviylilik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshildi. Oqibatda ko`pgina tarixiy voqe-hodisalar soxtalashdirildi, o`tmish qoralandi, ma`naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Bu borada mamlakatda hukmron bo`lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo`ldi. Tarix totalitar tuzum xizmatkoriga, targ`ibotchi va himoyachisiga aylantirilgan edi.

Kishilik jamiyatining tarixiy voqeasi, hodisalarini o`rganishning muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi dialektik metoddir. Inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo`ladigan hodisalar, voqealar umumiylar va o`zaro bog`lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo`ladi, deb ta`lim beradi. Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog`liq holda o`rganishni taqozo etadi. Negaki har bir xalq tarixda milliylik, o`ziga xos betakror xususiyatlari bilan birga jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog`lanishdadir.

O`zbekiston tarixi ham, avvalo, O`rta Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa,

bashariyat tarixi bilan chambarchas bog`langan. Shu sababli O`zbekiston tarixini qo`shni mamlakatlar tarixi bilan bog`liq holda o`rganish taqozo etiladi. Boshqa xalqlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O`zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama o`rganishga imkon yaratiladi, ko`maklashadi.

Tarixiy voqeа, hodisalarni o`rganish, tahlil etish va yoritishda xolisona, haqqoniy, adolatli yondashuv muhim metodologik qoidadir. Xolislik qoidasi tarixiy voqeа, hodisalarni o`rganayotganda ular bilan bog`liq bo`lgan barcha faktlarning, hech bir istisnosiz, butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda o`zaro aloqada va munosabatda deb tekshirish lozim.

Tarixni o`rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqeа, hodisalarni o`z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o`rganishni taqozo etadi.

Voqeа, hodisalarni o`rganishda tarixiy bog`lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir voqeа, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog`lab o`rgangandagina mazkur voqeа-hodisaning umumiylar tarixiy jarayondagi o`rnini to`g`ri aniqlash, belgilash mumkin bo`ladi. Har bir voqeа, hodisaga umumiylar tarixiy jarayonning bir qismi, bo`lagi deb qaramoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda paydo bo`lganligini, bu hodisa o`z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o`tganligini, keyinchalik u qanday bo`lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, ibridoiy davrda ayrim qabilalarda odamxo`rlik bo`lgan, bu bugungi kun nazaridan baho bersak, vahshiylik, lekin o`sha davr sharoitidan kelib chiqib baho bersak, bu zaruriyat (ilojsizlikdan qilingan harakat) dir.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o`tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o`tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiylar yo`ldan borar ekan, istiqbolda porloq hayot qurmoqchi bo`lgan avlod tarix fani orqali o`z o`tmishini yaxshi bilmog`i lozim. O`tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to`g`ri tasavvur etamiz.

Tarixiy jarayonni o`rganishda ijtimoiy yondashuv tamoyiliga rioya etish zarur. Ijtimoiy yondashuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o`rganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondashuv bo`lib, u tarixni soxtalashtiradi, to`g`ri xulosaga olib kelmaydi. Ijtimoiy yondashuv tamoyili davlat arboblarining, siyosiy kuchlar, partiyalarning tarixiy taraqqiyot darajasiga ko`rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatni u yoki bu yo`ldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekiston tarixini nima uchun ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanib o`rganish zarur?

2. Xolislik metodologiyani tushuntirib bering.

3. Dialektik metodologiya nimaga asoslanadi?

4. Tarixni yoritishda qaysi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq?

### **3 - asosiy savol:**

O`zbekiston tarixini davrlashtirish

### **Darsning maqsadi:**

O`zbekiston tarixinin davrlari to`g`risida talabalarda tushuncha hosil qildirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

3.1. Ijtimoiy-iqtisodiy davrlashtirishni izohlab beradi.

- 3.2. Arxeologik davrlashtirishni tushuntirib beradi.
- 3.3. Qolgan tipdagi davrlashtirishlarni sharhlab beradi.

### **3 –ASOSIY SAVOL BAYONI :**

Ilmiy tadqiqotlarda O`rtal Osiyo tarixi va madaniyati bo`yicha turli tipdagi davrlashtirishlar qo`llaniladi. Ijtimoiy-iqtisodiy davrlashtirish ijtimoiy tuzum xarakteridan kelib chiqadi. Bular: ibtidoiy-jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik, sostialistik, demokratik. Ularning O`rtal Osiyo tarixida qo`llanilishi maqsadga muvofiq emas. O`rtal Osiyo tarixiga to`g`ri keladigan yangi davrlashtirishni ishlab chiqish tarixchilar oldiga qo`yilgan vazifadir.

Arxeologik davrlashtirish asosiy mehnat qurollari nimadan yasalganligiga asoslanadi. Bular: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir. Ular, o`z navbatida, bosqichlarga bo`linadi. Masalan, paleolit davri quyil paleolit, o`rtal paleolit, yuqori paleolitga bo`linadi.

Yuqoridagilardan tashqari davlat va sulola nomidan kelib chiqadigan davlat-sulolaviy davrlashtirish ham mavjud. Masalan: ahomoniylar, salavkiylar, yunon-baqtriya, kushon va boshqalar.

Tarixiy xronologik mutlaq davrlashtirish esa aniq davrlashtirishga asoslanadi. Masalan, antik davr - er.av. IV - er. IV asrlari, ilk o`rtal asrlar -V-VIII asrlar, rivojlangan o`rtal asrlar -IX-XIII asrlar, so`nggi o`rtal asrlar -XIV-XVII asrlar va hk.

Tarixiy xronologik nisbiy davrlashtirish umumiy tushunchalarga asoslanib, katta xronologik davrlarni o`z ichiga oladi: eng qadimgi, arxaik, antik, ilk o`rtal asrlar, o`rtal asrlar, so`nggi o`rtal asrlar, yangi, eng yangi davrlar.

Tarixiy madaniy davrlashtirish hukmron (asosiy) madaniyat belgisiga qarab aniqlanadi. Masalan: ellistik davr.

Etnik davrlashtirish asosida qabilaviy mansublikka asoslangan davrlashtirish yotadi. Masalan: sak, eron, eftalit, turk, arab, o`zbek davrlari.

Diniy davrlashtirish asosida u yoki bu davrda hukmron bo`lgan din, e'tiqod yotadi. Masalan: otashparastlik, buddaviylik, musulmon davrlari. O`rtal Osiyo tarixini musulmon dinigacha va musulmon davrlariga bo`lish fanda keng tarqalgan. Bu o`ziga xos qadimgi va ilk o`rtal asrlar davrini o`rtal asrlar davridan ajratib turuvchi belgi sifatida ham qabul qilingan.

Bulardan tashqari O`rtal Osiyo tarixida lokal davrlashtirishlar ham qo`llaniladi. Masalan: O`rtal Osiyoning janubi uchun Kushon, O`rtal Osiyoning markazi va shimoli uchun Qang`uy davrlashtirishlari qo`llaniladi.

### **NAZORAT TOPSHIRQLARI:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy davrlashtirish nimaga asoslanadi?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy davrlashtirishning kamchiliklari haqida o`z fikringizni bildiring.
3. Arxeologik davrlashtirishni sharhlab bering
4. Qaysi tipdagi davrlashtirishni eng ma'qul deb topasiz va nima uchun?

### **4 - asosiy savol :**

O`zbekiston tarixinining komil inson tarbiyalashdagi roli.

### **Darsning maqsadi:**

Komil inson tarbiyalashda O`zbekiston tarixi o`rnini tushuntirish, komil inson tushunchasini ochib berish, ma`naviy barkamollikni kamol toptirishda O`zbekiston tarixi ahamiyatini ochib berish, talabalarga O`zbekiston tarixini o`rganish muhimligini anglatish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 4.1. Komil inson tushunchasini ochib beradi.
- 4.2. Komil insonni tarbiyalashda O`zbekiston tarixi fani ahamiyatini biladi.
- 4.3. Har tomonlama barkamol, yetuk insonni tarbiyalashda O`zbekiston tarixi fani o`rnini tushunadi.

### **4- asosiy savol bayoni:**

"Ma`naviyatini tiklashi, tug`ilib o`sgan yurtida o`zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko`tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson

irodali inson. Kim bo`lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o`z o`tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo`ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o`rgatadi, irodasini mustahkamlaydi". Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning bu so`zlari komil insonni tarbiyalashda Vatan tarixini xolisona va haqqoniy o`rganish naqadar muhim ekanligining dalilidir.

Har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda O`zbekiston tarixining o`rnini kattadir. Komil inson tushunchasiga yurtboshimiz yana shunday ta'rif beradilar: "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o`zgalarga ibrat bo`ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo`lmaydi, u har bir narsani aql-mantiq tarozisiga solib ko`radi, o`z fikr-o`yi, xulosasini mantiq, asosida qurban kishi yetuk odam bo`ladi".

Bugungi kunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muhim vazifalardan biri bo`lib qolmoqda. Ma'naviyat, ma'naviy barkamollik shundaygina kishi ruhiga kirib qolmaydi. Unga har kuni va har soatda tinmay mehnat qilish orqali yetishish mumkin. Bu xayrli ishda O`zbekiston tarixini o`rganishning o`rnini beqiyosdir. Milliy qadriyat, ma'naviyat, madaniyat umumbashariy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatining sarchashmasidir. Ana shu sarchashma ma'lum makonda, ya'ni Vatanda vujudga keladi. Shunday ekan, milliy qadriyat va madaniyat bevosita vatanparvarlik bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Turkiston xalqlari tarixi insoniyatning eng olijanob orzu-umidlari, ezgu niyatlarini o`zida mujassamlashtirgan ana shunday vatanparvarlik his-tuyg`ulari bilan to`lib-toshgan, desak mubolag`a bo`lmas. To`maris, Spitamen, Muqanna, Temurmalik, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Bobur, Dukchi Eshon, Qo`chqor Turdiyev, Sobir Rahimov... yana qancha dovyurak qalblar..."

Jafokash xalqimizning azaliy orzusi milliy mustaqillikka erishganimiz tufayli Amir Temur asos solgan buyuk davlat tarixini o`rganishga bag`ishlangan mavzuni o`tishning o`zi vatanparvarlik tarbiyasi uchun katta original faktik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlariga egamiz. Bugungi kunda Amir Temurga bag`ishlangan xalqaro konferensiylar o`tkazilib, uning shaxsiga xolisona ta'rif berilgan. So`nggi yillarda Bo`riboy Ahmedov kabi teran tarixchi olimlarimiz qatori Mirmuhsin, Muhammad Ali, Yavdat Illyosovlar kabi yozuvchilarimiz tarixiy mavzularda yetuk asarlar yaratib, milliy qadriyatlarimizni anglab olishimiz va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o`zlarining munosib hissalarini qo`shmoqdalar.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekiston tarixining komil inson tarbiyalashdagi o`rnini tushuntiring.
2. Har tomonlama barkamol inson tarbiyalashda O`zbekiston tarixini o`rganish ahamiyatini ochib bering.
3. I.Karimov qaysi asarida tarixga yuksak baho berganligini ko`rsating
  - A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida ...
  - B. Barkamol inson O`zbekiston kelajagining poydevori
  - C. Jamiyatimiz mafkurasi millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat estin.
  - D. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q
4. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" asarida komil insonni tarbiyalashda tarixning o`rniga qanday baho berilgan?
5. Bugungi kunda O`zbekiston tarixini o`qitishda milliy istiqlol g`oyasi bilan uyg`unlashtirish borasida qanday ishlar qilinmoqda?

### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Prezident asarlarining O`zbekiston tarixini o`rganishdagi ahamiyatini ochib bering.
2. O`zbek davlatchiligi tarixining zamonaviy davrlashtirilishini sxematik tarzda ko`rsating.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. - T.: Sharq, 1998

2. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi. - T., 1997
3. O`zbekiston tarixi. –T., 2005
4. Sagdullayev A. va boshq. O`zbekiston tarixi - T.:Universitet,1997.
5. O`zbekiston tarixi.- T.: Yangi asr avlodi, 2003.
- 6.Usmonov Q. O`zbekiston tarixini yoritishning nazariy-metodologik asoslari va komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati. Ma`ruza matni. T, 1998.
- 6.G`ulomov X, Tatibayev A. O`rta Osiyo va jahon tarixi. -T., Universitet, 1994.
- 7.Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T., 2002

## **2 - MAVZU: MARKAZIY OSIYO INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING O`CHOQLARIDAN BIRI**

### **Asosiy savollar :**

1. Jahon sivilizatsiyalari tizimida O`rta Osiyo sivilizatsiyasining o`rni.
2. O`rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari.
3. Ibtidoiy tasviriy san'at.
4. Bronza davri yutuqlari.

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Sivilizatsiya, taraqqiyot, sug`orma dehqonchilik, madaniyat, antropogenez jarayonlari, ibtidoiy jamiyat bosqichlari, tasviriy san'at, ona urug`i, ota urug`i, tabaqalanish.

### **1-asosiy savol:**

Jahon sivilizatsiyalar tizimida O`rta Osiyo sivilizatsiyasining o`rni.

### **DARSNING MAQSADI:**

Sivilizatsiya nima ekanligini tushuntirish, hududlarning madaniy rivojlanishidagi notekisliklarni taqqoslash, Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o`choqlaridan biri ekanligini talabalar ongiga singdirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Sivilizatsiya nima ekanligini tushunadi.
- 1.2. O`rta Osiyoda sivilizatsiya bosqichiga o`tish jarayonini aytib beradi.
- 1.3. O`rta Osiyo hududida dehqonchilik va chorvachilik qachon paydo bo`lganligini biladi.
- 1.4. Hududlarning madaniy rivojlanishidagi notekisliklarni taqqoslay oladi.

### **1-asosiy savol bayoni:**

Hozirgi kunga kelib, Vatan tarixiga bo`lgan diqqat-e'tibor nihoyatda kuchaygan bir davrda, O`zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o`choqlaridan biri ekanligiga hech qanday shubha qolmadi. Undan tashqari, nafaqat O`zbekiston, balki butun O`rta Osiyo hududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlaring natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan yuqori o`rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishini SIVILIZATSIYA tushunchasi o`zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo`lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O`rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda paydo bo`ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy hududlarda yashagan qadimgi qabilalar mil.av. VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o`tib, unumdar xo`jalikni rivojlantirgan bo`lsa, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar, asosan, ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug`ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy-geografik sharoitlar va o`zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin. Bu o`rinda O`rta Osyoning cho`l va dasht hududlari hamda tog`oldi va daryo vohalari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy

notekislikni taqqoslab ko`rish (Kopetdog', Hisor, Zarafshon tog` oldi hududlari hamda Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir.

Undan tashqari O`rtal Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni mil.av. VI-IV ming yilliklardi o`zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o`choqlari bilan uzviy aloqada bo`lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatgan.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

- 1 .Sivilizatsiya nima?
2. O`rtal Osiyo' hududida qadimgi qabilalar qaysi davrda dehqonchilikka o'tganini ko`rsating.

- 1) janubiy hududlardagi qabilalar
- 2) Shimoliy hududlardagi qabilalar.
  - A) Mil. av. VI ming yillik
  - B) Mil av. IV ming yillik
  - C) Mil av. III ming yillik
  - D) Mil av. II ming yillik

3. Mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga nimalar katta ta'sir ko`rsatgan?

4. Hududiarning rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslang.

- Kopettog`, Hisor, Zarafshon tog` oldi hududlari.

- Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari.

### **2- asosiy savol:**

O`rtal Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari.

### **Darsning maqsadi:**

O`rtal Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarini aytib berish, davrlashtirishni tushuntirish, antropogenez jarayonlarini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Ibtidoiy davr bosqichlarini ta`riflaydi.
- 2.2. O`zbekiston hududidagi qadimgi odamlar manzilgohlarini aytib beradi.
- 2.3. Neolit davri madaniyatlarini tavsiflaydi.
- 2.4. Antropogenez jarayonini tushuntiradi.

### **2-asosiy savol bayoni:**

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyat taraqqiyotidagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davrdir. Bu davrni yozma manbalar asosida o`rganib bo`lmaydi. Shuning uchun ham bu davrni chuqur o`rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o`z faoliyati davrida atrof-muhitga ta'sir ko`rsatib, kundalik hayotda o`ziga zarur bo`ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurbanlar. O`z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko`rsatgan.

Hozirgi paytda O`rtal Osiyo hududi ibtidoiy jamiyat rivojlanishining alohida bosqichlari quyidagi davrlarga bo`linadi:

1. Paleolit ("palayos" - qadimgi, "litos" - tosh) davri; bundan taxminan 800 ming yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi; u quyidagi bosqichlarga bo`linadi:
  - ilk paleolit -Ashel davri, 800-100 ming yilni o`z ichiga oladi;
  - o`rtal paleolit - Mustye davri, mil.avv. 100-40 ming yilliklar;
  - so`nggi paleolit - miloddan avvalgi 40-12 ming yillik.
2. Mezolit ( "mezos" - o`rtal, "litos" -tosh) davri miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar.
3. Neolit ("neos" - yangi, "litos"-tosh) davri - miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar.
4. Eneolit (mis-tosh) davri - miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri -3 ming yillikning boshi.
5. Bronza davri - miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.
6. Temir davri - miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlaridan.

O`zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg'ona vodiysidagi Selungur, Toshkent viloyatidagi Ko`lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo`pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo`lib ov qilish bilan shug`ullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihyatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz bo`lib, unda tayyor bo`lgan mahsulotlarni o`zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O`rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Xo`jakent, Samarcanddagi Omonqo`ton, Boysun tog`laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan. Obirahmat makoni yoysimon shaklda bo`lib, bu yerda 10 metr qalnlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Topilmalar orasida nukleuslar, parrakchalar, o`tkir uchli sixchalar, qirg`ichlar uchraydi, shuningdek, turli hayvonlar suyaklari ham ko`pchilikni tashkil etadi. Yana bir mashhur yodgorlik Teshiktosh g`or makoni bo`lib, bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qazib ochilgan. Qabrdagi murdaning yoniga turli tosh qurollari va arhar shoxi qadab qo`ylgan.

O`rta paleolit davriga kelib ibridoij jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib, turmushida yangi unsurlar paydo bo`la boshlaydi. Eng muhimi, ibridoij to`dadan urug`chilik jamoasiga o`tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Odamlar o`choqlar atroflarida to`planib, ibridoij turar-joylarga asos soladilar. Jamoa bo`lib ov qilish paydo bo`ldi.

So`nggi paleolit qadimgi tosh asrining so`nggi bosqichidir. Bu davrga oid makonlar Ohangarondagi Ko`lbuloq, Toshkentning g`arbidagi Bo`zsuv-I hamda Samarcand shahridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirg`ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, bolg`alar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar faqat tog`li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutug`i urug`chilik tuzumiga (matriarxat) o`tilishidir.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g`or-makonidan, Markaziy Farg`onaning ko`pgina yodgorliklaridan topib o`rganilgan. Bu davrga kelib, muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonot va o`simlik dunyosida katta o`zgarishlar sodir bo`ladi. Insoniyat o`z tarixidagi dastlabki murakkab moslama – O`Q-YOYNI kashf etadi. Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ixchamligi va sifatliligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo`jaligi yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib, dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashdirish boshlanadi.

Neolit davriga kelib, qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu davr odamlari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko`llar bo`yida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib, baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug`ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri - KULOLCHILIKning paydo bo`lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib, to`qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo`ladi. Neolit davri qabilalari xo`jalik shakllariga qarab, quyidagi madaniyatlarga bo`linadi: Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

**JOYTUN** madaniyati. Janubiy Turkmaniston hududidagi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O`rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiglari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug`ullangan.

**KALTAMINOR** madaniyati qadimgi Xorazm hududidan topilgan bo`lib, mil.avv. V-VI ming yilliklarga oiddir. Topilmalar Kaltaminor qabilalarining baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug`ullanganligidan dalolat beradi.

**HISOR** madaniyati. Asosan Hisor-Pomir tog`laridan topilgan. Mil.avv. V-IV ming yilliklarga oid. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan, chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug`ullanganlar.

**Eneolit** - mis-tosh davrida odamlar dastlabki metall bilan tanishdilar. Bu davrga kelib,

mis qurollar ancha takomillashgan bo`lsa-da, undan og`ir mehnat quollari yasashning imkonи yo`q edi. Misdan, asosan, uy-ro`zg`or buyumlari, taqinchoqlar va harbiy quollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbulloq, Uchtut (mis koni) mavzelarda, Samarcand atroflarida (Sarazm madaniyati) topib tekshirilgan. Bu davrga kelib, dehqonchilik O`rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi.

Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bo`layotgan muammolaridan biri - antropogenez- odamning paydo bo`lishi va rivojlanishidir. Turli hududlarda qadimgi zamonlarda yashagan ilg`or mutafakkirlar odamning paydo bo`lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Ular asosan, insoniyat hayvonot olamidan ajralib chiqqan degan fikrni bildiradilar. Insonning paydo bo`lishi millionlab yillar davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir. Eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Sharqiy Afrikadan (Olduvay), Indoneziyadan (Yava - pitekantrop), Xitoydan (sinantrop), Germaniyadan (Geydelberg) topib tekshirilgan. Keyingi zamonaviy odamga ancha yaqin bo`lgan odam qoldiqlari dastlab Neandertal (Germaniya) vodiysidan topilgan (O`zbekistohdagи Teshiktosh).

O`rta tosh davrida birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasida odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kromanyon ko`rinishidagi odamlar). Odamning paydo bo`lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo`lib, u dastlab toshdan oddiy to`qmoq yasagan bo`lsa, uzlusiz mehnat, intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa rivojlanish bosqichlarini tartibli joylashtiring:

- |                    |           |
|--------------------|-----------|
| ▪ Mezolit          | ▪ Temir   |
| ▪ Mustye           | ▪ Eneolit |
| ▪ So`nggi paleolit | ▪ Neolit  |
| ▪ Ashel            | ▪ Bronza  |
| ▪ Paleolit         |           |

2. O`zbekiston hududidagi eng qadimgi odamlar manzilgohlari qayerdan topilganligini ko`rsating.

- A. Selungur, Ko`lbuloq, Uchtut
- B. Obirahmat, Omonqo`ton, Teshiktosh
- C. Machoy, Selungur, Xo`jakent
- D. Ko`lbuloq, Bo`zsuv 1, Teshiktosh

3. Antropogenez nima?

4. Qazilma odam qoldiqlari nomlarini tartibga soling.

- |                          |              |
|--------------------------|--------------|
| ➤ Sharqiy Afrika         |              |
| ➤ Indoneziya             |              |
| ➤ Xitoy                  |              |
| ➤ Yevropa                |              |
| ➤ O`zbekiston            |              |
| ✓ neandertal             | ✓ arxantrop  |
| ✓ geydelberg, neandertal | ✓ Olduvay    |
| ✓ pitekantrop            | ✓ fergantrop |
| ✓ sinantrop              | ✓ kromanyon  |

### **3-asosiy savol:**

Ibtidoiy tasviriy san'at.

### **DARSNING MAQSADI:**

Ibtidoiy tasviriy san'at haqida tushuncha berish, O`rta Osiyo hududidagi qoyatosh rasmlari haqida gapirib berish, tarixni o`rganishda ularning ahamiyatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. Ibtidoiy tasviriy san'at qaysi davrga mansubligini biladi.
- 3.2. O`rtal Osiyo hududidagi ibtidoiy tasviriy san'at - qoyatosh rasmlarining qayerda topilganliklarini biladi.
- 3.3. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarining tarixni o`rganishdagi ahamiyatini ochib beradi.

### **3- asosiy savol bayoni:**

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g`orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so`nggi paleolit davriga oiddir. O`rtal Osiyoda g`orlar, o`ngurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo`ldi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko`tarildi. Kaltaminor, Hisor va ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning namunalari topilgan. O`rtal Osiyoning tog`lik hududlarida tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko`ra ikki xil. Bir xillari bo`yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o`yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlardir (petrogliflar).

O`zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsov, Bironsov, Ko`ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilalar bo`lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O`zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqlar, sherlar va yo`lbarslar, qoplon, tulki va bo`rilar, bug`u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o`q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg`a, qopqon kabi narsalar ham ko`pchilikni tashkil etgan.

Eng qadimgi rasmlar Zaraustoydag (Surxondaryo) bo`lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya`ni mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Cho`l (dasht) bronza asri qabilalarining manzilgohi Jizzax yaqinida topilgan. Bu yerda Sayxonsoydag qoyalarning birida qadimgi rassomlar tomonidan qoldirilgan qoyatosh rasmlari (petrogliflar)ning butun bir galereyasi mavjud. Qoyatosh rasmlari orqali o`sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi ajdodlarimizning g`oyaviy qarashlari, diniy e'tiqodlarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari mavjud joylarni sanab bering.
2. Zarautsov qoyatosh rasmlari qayerda joylashganligini toping

  - A. Qashqadaryo
  - B. Surxondaryo
  - C. Zarafshon
  - D. Farg`ona

3. Qoyatosh rasmlari orqali qadimgi ajdodlarimizning bilib olishimiz mumkin.

4. Jizzax viloyatining qaysi joydan qoyatosh rasmlari topilgan?

### **4-asosiy savol:**

Bronza davri yutuqlari.

### **DARSNING MAQSADI:**

O`rtal Osiyodagi bronza davrini boshqa hududlar bilan qiyoslash, bronza davriga mansub madaniyat izlari haqida gapirib berish, bronza davridagi kashfiyotlarni, ijtimoiy tuzumdag o`zgarishlarni tushuntirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 4.1. O`rtal Osiyo hududidagi bronza davri yodgorliklarini biladi.
- 4.2. Bronza davridagi ijtimoiy tuzumdag o`zgarishlarni izohlaydi.
- 4.3. Ona urug`idan ota urug`iga o`tish sababini tushuntiradi.
- 4.4. Mulkiy tabaqlanish ro`y berish sabablarini ochib beradi.

### **4-asosiy savol bayoni:**

Ko`pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va

Mesopotamiya bo`lgan. Mil.avv. II ming yillikka kelib, O`rta Osiyo hududlarida ham bronza qurollari keng tarqaladi. O`zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko`plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari dastlab Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg`ona vodiylaridan topilgan.

Ulardan eng yiriklari Tozabog`yob, Zamorbobo, Sopollitepa, Jarqo`ton, Chust, Amirobod yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyat madaniy taraqqiyotida katta-katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Aholi xo`jalik yuritishning muayyan ko`rinishlariga, ya`ni vohalarda, ko`llar, daryolar va soylar bo`ylarida dehqonchilikka, dasht va tog`oldi hududlarda chorvachilikka (MEHNATNING DASTLABKI YIRIK TAQSIMOTI) o`tib oldi.

Bu davrga kelib, O`rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o`zgarish jarayonlari bo`lib o`tdi. Urug`chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan bo`lsa-da, ona urug`ining mavqeい yo`qolib bordi. Metall eritish va xo`jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqeい birinchi darajali ahamiyatga ega bo`lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirot etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo`ldi. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo`liga o`tadi va ona urug`i tuzumi o`mini ota urug`i (**PATRIARXAT**) tuzumi egallaydi.

Bronza davriga kelib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o`sishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida ayrim kishilar qo`lida boylik (dehqonchilik qurollari, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari va boshqalar) to`planib borgan bo`lsa, ba`zi birlari qashshoqlashib, ularga qaram bo`lib boradi. Dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy tabaqalanish natijasida urug`chilik tuzumi harobalarida sinfiy jamiyat paydo bo`ldi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`rta Osiyo hududida bronza davriga mansub madaniyat izlari qayerdan topilgan?
2. Bronza davrida ijtimoiy tuzumda qanday o`zgarish sodir bo`lganini ko`rsating.
- A. Ayollar birinchi darajali ahamiyatga ega bo`ldi.
- B. Koxinlar yetakchilik qila boshladi.
- C. Ona urug`idan ota urug`iga o`tiladi.
- D. Ishlab chiqaruvchi kuchlar o`sadi.
3. Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti nimani anglatadi?
4. Matriarxatdan patriarxatga o`tish uchun qanday sharoitlar turtki bo`ldi?
5. Bronza davrining asosiy yutug`i nima bo`ldi?

#### **Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:**

1. O`rta asrlardagi Movarounnahr, yangi va eng yangi davrdagi Turkiston va O`zbekiston madaniyatlarini sivilizatsiya deb hisoblash mumkinmi?
2. Tabaqalanish jarayonining sodir bo`lishini izohlab bering.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O`zbekiston tarixi – T.,2005
2. Arxeologlar hikoya qiladi. To`plam. -T., 1974.
3. Borisovskiy A.I. Drevneyshey proshloy chelovechestva. -M.:Nauka, 1980.
4. Tolstov S.P. Qadimgi. Xorazm madaniyatini izlab. - T., 1964.
5. O`zbekiston tarixi. - T.:Universitet, 1997.
6. Kabirov J, Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - T.,1990.
7. Sagdullayev A. va boshq. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti.- T.:Akademiya, 2000
8. Sagdullayev A. Qadimgi O`rta Osiyo tarixi.- T.:Universitet, 2004.
9. [www.tarih.uz](http://www.tarih.uz)

### **3-MAVZU: O`ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI**

#### **Asosiy savollar:**

1. O`rtal Osiyoning qadimgi aholisi
2. O`zbek xalqi etnogenezining davrlari

#### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Etnogenez, xalq, etnik jarayon, odamzod qoldiqlari, yozuvlar, qabilalar, ikki daryo oralig`i tipi, Turk hoqonligi, turkiy til, turkiy qatlam, arab bosqini, o`zbek xalqi etnogenezining davrlari, "O`zbek" atamasi.

#### **1-asosiy savol:**

O`rtal Osiyoning qadimgi aholisi.

#### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbek xalqining kelib chiqishi xususida dastlabki ma'lumotlar, O`rtal Osiyoning qadimgi aholisi haqidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtirish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Etnogenez tushunchasini izohlab beradi.
- 1.2. O`rtal Osiyo, xususan, O`zbekiston hududidan odamzod qoldiqlari topilgan makonlarni biladi.
- 1.3. O`rtal Osiyo qadimgi aholisi to`g`risida ilk ma'lumotlarni solishtiradi.
- 1.4. O`rtal Osiyoda rivojlangan va tarqalgan irqiy tiplar xususida fikr yuritadi.

#### **1-asosiy savol bayoni:**

Har bir xalqning o`z kelib chiqishi va rivojlanish tarixi bor. O`zbek xalqining ham uzoq va voqeliklarga boy tarixi mavjud bo`lib, u xalq bo`lib shakllangunga qadar uzoq va murakkab etnik jarayonlarni boshidan kechirdi. Umuman olganda, hozirgi kunda xalqlarning kelib chiqishi - etnogeneziga e'tibor, ayniqsa, kuchayganki, bu holat millatlar ichida o`z-o`zini anglash jarayonining o`sganligi, o`z tarixi, o`tmishiga qiziqishning oshganligi, yangi mustaqil davlatlar paydo bo`lishi bilan o`z ifodasini topadi.

Mustaqillik sharofati ila o`tmishimiz, tariximizga bo`lgan munosabat tubdan o`zgardi. Tariximizni, boy o`tmishimizni ilmiy, xolisona tarzda bayon qilish zamon talabiga aylandi. Prezidentimiz I.A.Karimovning 1998 yil iyul oyida bir guruh olimlar bilan o`tkazgan uchrashuvida, O`zR Vazirlar Mahkamasining "O`zR Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risidagi" 1998 yil 27 iyul qarorida va Prezidentimizning tarixiy o`tmishimizni o`rganish muammolariga bag`ishlangan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" asarida o`zbek xalqining tarixini ilmiy, haqqoniylar tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko`lamda yo`l ochib berish, ko`plab muammolarni hal etish masalalari ko`rib chiqildi.

O`zbek xalqining kelib chiqishi tarixi hozirgi kunda tariximizda ilmiy asosda tamomila yangidan ko`rib chiqilishi kerak bo`lgan masalalardan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz". Uch ming yillikdan ziyod davlatchilik tarixiga ega bo`lgan xalqimizning ildizlari asrlar qa'rige borib taqaladi.

O`zbekiston O`rtal Osiyoning qadimgidan o`troq dehqonchilik madaniyati o`choqlari tarkib topgan hududda joylashgan. Diyormiz shu bois arxeologik va me'morchilik yodgorliklarga boy. Farg`ona vodiysining Selung`ur g`oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o`rtal paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo bilan bir qatorda insoniyat paydo bo`lgan hududlar tarkibiga kirganligi hozirgi kunda uzil-kesil isbotlandi. Shuningdek, mezolit davriga (o`rtal tosh davri) oid Machay g`oridan topilgan yodgorliklar, neolit (yangi tosh) davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o`zida jam qilgan Kaltaminor, janubdagagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo`lgan Joytun, Hisor tog` madaniyati, bronza davriga oid bo`lgan xilma-xil Chust, Zamombobo, Sopollitepa, Sarazm, Dalvarzintepa madaniyatları o`lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo`jaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbot qiladi.

O`lkamiz qadimgi tosh va bronza davrlarida qanday nom bilan atalganligi bizga noma'lum. Ilk bora O`rtta Osiyo aholisi xususidagi ma'lumotlar Yaqin Sharq va antik davr yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, Evroosiyoning Qora dengizdan Oltogyacha bo`lgan hududida yashovchi ko`chmanchi qabilalar umumiy "skiflar" nomi bilan atalgan. Grek tarixchisi Gerodot ularga: "bu xalqlar qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi", deb yuqori baho bergan edi. Pliniy O`rtta Osiyo hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi xususida o`z asarida eslab o`tadi. Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko`proq gap boradi. Ahmoniy mixxat yozuvlarida saklar uchta qismga bo`lib ko`rsatiladi (xaomavarka, tigraxauda, saka-tiay-tara-darayya). Massagetlar xususida ham turlichalik fikrlar mavjud bo`lib, ular ko`chmanchi chorvador harbiy qabilalar bo`lganligi ta'kidlanadi.

O`rtta Osiyoda qadimdanoq 2-xil: sharqiy-eroniy tilda so`lashuvchi aholi va turkiy tilda so`zlashuvchi qabilalar mavjud edi. O`zbek xalqining qadimgi aholisini xuddi shu ikki bo`lak tashkil etgan. Mil.avv. II-1 asrlarda va eramizning boshlarida esa uzoq davom etgan etnik jarayon natijasida hozirgi zamon o`zbek xalqiga xos bo`lgan «ikki daryo oralig`i tipi» (Amudaryo, Sirdaryo) dagi irq (Fergantrop) kishilari yuzaga keldilar. Milodning IV asrlariga kelib, bu tip kishilari hozirgi O`zbekiston hududining katta qismida uchray boshladi. Eron Ahmoniylarining O`rtta Osiyon bosib olishlari, so`ngra Makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari mahalliy aholi etnogeneziga sezilarli ta'sir etmadidi. Mil-av. I asr va eramizning IV asriga qadar O`rtta Osiyoda ko`chmanchi yuechjilar, xioniyalar, eftalit qabilalarining kirib kelishi davri bo`ldi. Xuddi shu davr yangi feudal munosabatlarning ham shakllanish davri bo`ldi. Yuqoridagi qabilalar turkiy tildagi qabilalar bo`lib, ularning kirib kelishi turkiylashuv jarayonini yanada kuchaytirdi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Etnogenet tushunchasini izohlab bering.
2. O`zbekistonda qadimgi odamzod qoldiqlari topilgan makonlaridan qaysilarini bilasiz?
3. O`rtta Osiyoning qadimgi aholisi manbalarda qaysi nom bilan tilga olinganligini ko`rsating.
  - A. yunon -rim manbalarli
  - B. Ahmoniyalar mixxat yozuvlari
- 1) skiflar
- 2) saklar va massagetlar
- 3) skiflar 2 turga bo`linib, saklar va massagetlar deyilgan
- 4) saklar uchga bo`linib, xaomavarka, tigraxauda va tiay-tara-darayya deyilgan
- 5) massagetlar
4. O`rtta Osiyo ikki daryo oralig`i tipidagi irq qanday atalgan?

### **2-asosiy savol:**

O`zbek xalqi etnogenezining davrlari

### **DARSNING MAQSADI:**

Turkiy qatlamning qalinlashishi jarayonini ochib berish, turkiy tilli elatlarining yoyilganligi, o`zbek xalqi shakllanish davrlarini sharhlab berish, "O`zbek" atamasi kelib chiqishini tushuntirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Markaziy Osiyo hududiga turkiy xalqlarning kirib kelishi jarayonini tahlil qiladi.
- 2.2. Turkiy tilli xalq va elatlarni, qabila va urug`larni biladi, ularning O`zbek xalqi etnogenezida tutgan o`rnini ochib beradi
- 2.3. O`zbek xalqi shakllanishi davrlarini izohlab beradi.

### **2-asosiy savol bayoni:**

Eramizning 551 yilda Oltoya yangi davlat - Turk hoqonligi yuzaga keldi. Turk hoqonligi hukmdori Mukan hoqon (554-576 y.y.) va uning amakisi Istami yabg`ularning O`rta Osiyoga yurishlari, VI asrning 50-yillar oxiri va 60-yillarda, ayniqsam kuchaydi. 568 yili O`rta Osiyo batamom ular qo`liga o`tdi. Turk hoqonligi davrida o`lkamizga turkiy xalqlarning kirib kelishi tezlashdi. Ular avval qo`riq, o`zlashtirilmagan yerlarga, mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarga yaqinlashib, yerli xalq madaniy-xo`jalik yutuqlari ta'sirida yarim o`troq va ko`p hollarda o`troq turmush kechirishga, ular bilan iqtisodiy va madaniy aloqani kuchaytirishga tuyassar bo`ldilar. Natijada Xorazm, Farg`ona, So`g`dning katta qismida turkiylashish jarayoni kuchaydi.

VI asrning 60-70 yillarida turkiy xalqlar Buxoro vohasi va hatto Shimoliy Afg`oniston hududlariga ham borib o`rnasha boshladilar. Buning natijasida mahalliy aholi bilan o`zaro yaqinlashuv va qon-qarindoshchilik aloqalarining rivojlanishi jarayoni sodir bo`la boshladи. VII asrdan boshlab esa turkiy xalqlarning yangi guruhlari ancha osoyishtalik bilan ichki hududlarga borib o`rnasha boshladilar. Bu jarayonni to`xtatish uchun hech bir siyosiy kuch maydonga chiqmadи. Aksincha, mahalliy aslzodalar, ayniqsa, So`g`d zodagonlari turk hoqonlari himoyasida o`z savdo-sotiq ishlarini rivojlantirib, undan katta daromad olar edilar. Turkiy aholi son jihatdan ko`payib, ularning mahalliy aholi o`rtasidagi etnik qatlami tobora qalinlashib bordi. Ayniqsa, turkiy qatlam VII-VIII asrlarda Shosh va Farg`onada ustun darajaga ega edi. Garchi G`arbiy Turk hoqonligi 659 yilga kelib, parchalanib ketsada, turklarning ta'siri o`lkada saqlanib qoldi.

VII asr boshida arablarning O`rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholi etnogeneziga deyarli ta'sir ko`rsatmadи. Arablar turklardan siyosiy hukmronlikni tortib olib, turkiy xalqlarning O`rta Osiyoga kirib kelish jarayoniga chek qo`ya boshladilar. Turklerning mahalliy aholi bilan aralashib ketishi, ularning tobora o`troq hayot tarziga o`tishi holati yuz berdi. Turkiy til tobora keng tarqala boshladи. Arablar turkiy xalqlar ta'sirini sindirish maqsadida Movarounnahrni eronliklarga yaqinlashtirish siyosatini tutdilar. Shu maqsadda O`rta Osiyoga VIII-IX asrlarda arablar va eroniy oilalarni ko`chirib keltirib, joylashtirish siyosatini yurgizdilar. Turklar o`z ta'sirlarida Yettisuvni saqlab qoldilar, xolos.

Shunday qilib, o`zbek xalqi etnogenezining birinchi davri VI-VIII asrlardagi etnik jarayonlar, o`zbek xalqi shakllanishining ikkinchi muhim davri IX-XII asrlar hisoblanadi. X asrning oxirlarida turkiy etnik qatlaming Movarounnahrning barcha hududlarida ustunligini ta'minlovchi tarixiy voqealar sodir bo`ldi. Arg`u, tuksi, qarluq, tagil, yag`mo qabilalarining ittifqidagi Qoraxoniylar davlati yuzaga kelib, bu davlat 999 yili Movarounnahrni o`z qo`liga kiritdi. Qoraxoniylar davlatida qarluq-chigil turkiy til lahjasи keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Qoshg`ariy "eng ochiq va ravon til" deb atagan edi. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo`lib, Ahmad Yugnakiyning (775-869) "Hibatul-haqoyiq" (Haqiqatlar tuhfasi) dostoni, Yusuf Xos Hojib (IX asr)ning "Qutadg`u bilik" (Saodatga yo`llovchi bilim) asari, Mahmud Qoshg`ariyning mashhur "Devonu lug`otit-turk" asari, Ahmad Yassaviyning (1041-1167) "Hikmatlar" hamda "O`g`uznama"si, "Alpomish", Go`ro`g`li" kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilida so`zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab, o`zini "tozik", ya`ni "tojik" deb yurita boshlaydi. Somoniylar va Qoraxoniylar IX asr o`rtalaridan - 1213) dan tashqari hukmronlik qilgan keyingi sulolalar, G`aznaviylar (997-1187), Saljuqiylar (1040-1157), Xorazmshoh-anushteginiyilar (1097-1231) ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo`lib, o`z vaqtida nafaqat O`rta Osiyo, balki O`rta Sharqda ham hukmronlik mavqeiga ega bo`lganlar. Mo`g`ullar istilosи, garchi aholi boshiga nihoyatda og`ir kulfatlar va yo`qotishlar olib kelgan bo`lsada, T.Xodjayov fikricha, o`zbek xalqi etnogenezi va irqiga deyarli ta'siri bo`lmadi.

O`zbek xalqi shakllanishidagi uchinchi davr XV asr oxiri-XVI asrga to`g`ri keladi va bu davr ko`chmanchi o`zbeklarning Dashti Qipchoqdan Movarounnahr yerlariga kirib kelishi

davri bilan bog`liqdir. Movarounnahr va Xorazmdan shimolda joylashgan viloyatlarni, musulmon mualliflari Dashti Qipchoq - Qipchoq cho`li deb atashgan. Qadimdanoq bu yerlarda, asosan, turkiy xalqlar va turklashgan mo`g`ullar istiqomat qilar edilar. Chingizxon bosqinidan so`ng bu yerlar katta o`g`il Juchining ilkiga tushgan edi. Keyinchalik bu hudud ikki qismga bo`linib ketdi. Juchining o`g`li bo`lmish Shaybonning avlodidan bo`lgan Sulton Muhammad 13 yoshda (1312-1341) Oq O`rdaga hukmdor bo`ladi. Sulton Muhammadga - O`zbekxon deb taxallus berilgan.

O`zbekxon Dashti Qipchoqda yashaydigan qabila va elatlar ustidagi nazoratni saqlab, 30 yilga yaqin mamlakatni boshqargan. Uning qo`l ostidagi aholi ko`pchiligi o`zbeklar deb nom olgan. Ko`pchilik manbalarga qaraganda, Dashti Qipchoq o`beklari shajarası 92-ta urug`dan iborat deyiladi. O`bek nomi bu vaqtida hali etnik ahamiyatga ega bo`lmay, balki turli qabilalarni birlashtiruvchi siyosiy atama edi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida tashkil topgan eng katta davlatning mashhur xonlaridan biri Abulxayrxon (1429-1468) bo`lgan edi. Uning davlatiga Dashti Qipchoqning katta qismi va Sirdaryo bo`yidagi yerlar kirar edi. Abulhayrxonning nabirasi Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1451-1510) keyinchalik taxtga o`tirib, 1499-1508 yillar mobaynida Movarounnahr va Xurosonni bosib oladi va temuriylar saltanatiga chek qo`yadi. Dashti Qipchoq o`beklari Movarounnahrga kelib o`rnasha boshlaydilar.

"O`bek" nomi ostidagi turkiy qabilalar O`zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazm, Farg`ona vodiysiga ko`plab kelib o`rnashib, mahalliy turkiy aholi bilan aralashib keta boshlaydilar. Dashti Qipchoq ahli, asosan, yarim o`troq, chorvadorlardan iborat edi. XVI asrdayoq ko`chmanchi o`zbeklar va mahalliy turkiy aholining aralashuvi sodir bo`lib, "o`bek" atamasi barcha turkiy aholiga nisbatan ishlatila boshlandi. Shunday qilib, ko`chmanchi o`zbeklar O`rtal Osiyoga "O`bek" degan atamani olib kelib, o`bek xalqi shakllanishining so`nggi - uchinchi bosqichini yakunladilar. "O`bek" atamasi ilmiy jihatdan hali to`liq o`rganilmagan. Dastavval "o`bek" atamasi arab muallifi Usam ibn Munqiz (XII asr oxiri), Eron tarixchisi Rashididdin (XIII asr oxiri-XIV asr boshi) asarlarida uchraydi. Hamidulloh Kazviniy (1281-1350) Dashti Qipchoqni "mamlakati O`bek" deb yozsa, Al-Kalkoshandiy (1418 vaf.) ularning podshohlarini "maliki bilag O`bek" ("O`zbeklar podshosi") deb ataydi.

Xullas, "O`bek" degan atama bizga XVI asrda kirib kelib, tarqalib, bu nom xalqimizga nisbatan ishlatila boshlandi. Zero, necha-necha bosqinlarni boshidan kechirgan xalqimiz "qoni", "genetikasi" deyarli o`zgargani yo`q, u hamisha o`zligini saqlab qoldi. Ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo`shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o`bek xalqining shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashdi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`rtal Osiyo hududiga turkiy xalqlarning kirib kelishi kimlar davrida tezlashganini ko`rsating.
  - A. Shayboniyxonlar
  - B. Turk hoqonligi
  - C. Qoraxoniyolar
  - D. mo`g`ullar
2. Arab bosqini natijasida arablarning O`rtal Osiyo aholisi etnogeneziga ta'siri qanday bo`lgan?

  3. O`bek xalqi shakllanishi davrlarini belgilang va izohlang.
  4. Adabiy turkiy tilni ko`rsating.
    - A.O`bek
    - B. mo`g`ul
    - C. qarluq-chigil
    - D.Qipchoq

5. Ozbek atamasi qachon paydo bo`ldi?

**Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. "O`zbek" atamasining kirib kelishi va tarqalishi haqida K.Shoniyofov, B.Ahmedov va A.Asqarov fikrlarini solishtiring.

2. O`rta Osiyoda turkiy qatlamning qalinishi va yoyilishi jarayonini tahlil qiling.

**ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.- T.:Sharq,1998.

2. O`zbekiston tarixi – T.,2005

3. Abulg'oziy. Shajarayi turk. -T.:Cho'lpon, 1992.

4. Zaki Validiy. O`zbek urug'lari - T., 1992

5. Ahmedov B. O`zbek ulusi.-T. :Nur, 1992

6. Ahmedov B, Asqarov A. O`zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. // O`zbekiston ovozi, 1994, 20 yanvar

7. Jabborov I. O`zbek xalqining etnografiyasi. -T.:O`zbekiston, 1994

8. Shoniyofov K. O`zbek xalqining etnogeneziga oid ba`zi nazariy masalalar // O`zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998.No1

9. Shoniyofov K. O`zbek xalqining shakllanish jarayoni – T.,2002

10. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi.- T.:Cho'lpon, 1994.

**4-MAVZU: O`ZBEK DAVLATCHILIGI, UNING POYDEVORI VA TARAQQIYOT  
BOSQICHLARI.MILLIY DAVLATCHILIK QURILISHI TAJRIBASI**

**Asosiy savollar:**

1. Ilk davlatlar paydo bo`lishining asosiy omillari. O`lkamiz hududida dastlabki shaharsozlik madaniyati.

2. Eng qadimgi davlatlar. Antik davrat davlatlari va madaniyati.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** shahar-davlatlar, hunarmandchilik, suq`orma dehqonchilik, shaharsozlik, davlatchilik.

**1-asosiy savol:**

Ilk davlatlar paydo bo`lishining asosiy omillari.O`lkamiz hududida dastlabki shaharsozlik madaniyati.

**DARSNING MAQSADI:**

O`rta Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo`lishi shart-sharoitlari va omillarini ko`rsatish, o`lkamiz hududida ilk shaharsozlik madaniyati haqida tushuncha hosil qilish.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

1.1. Ilk davlatlarning paydo bo`lish omillarini tushuntiradi.

1.2. O`rta Osiyo hududida dastlabki shaharlar paydo bo`lishini asoslab beradi.

1.3. Ilk shaharsozlik madaniyati shakllanishi va rivojidagi muhim ahamiyatga ega omillarni ochib beradi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Nafaqat O`zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo`lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo`lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Masalani o`rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin davlatchilikning ildizlari va paydo bo`lish shart-sharoitlariga diqqat-e'tiborni qaratmog'imiz lozim.

Neolit va bronza davrlariga kelib, aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab

chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, o'z navbatida, mahsulot hajmining o'sib, qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Jamiyatdagi ayrim kishilar qo'lida boylik to'plana boshlaydi. Qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan esa ijtimoiy va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda esa turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayrboshlash va savdo-sotiqa taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra dunyo tarixidagi eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Misr va Mesopotamiyada paydo bo'ladi. Mil.avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Misrda sug'orma dehqonchilik (Nil daryosi), savdo-sotiqa va hunarmandchilik rivojlanib boradi. Qadimgi Misrning rivojlanishi o'rta, yangi va so`nggi podsholik davrlariga bo`linadi. Mil.avv. III -ming yillikning boshlari Mesopotamiyaning (Frot va Dajla daryolari vodiysi) janubida Shumer, o'rta qismida esa Akkad kabi davlatlar, Eru, Ur, Larsa, Uruk, Umma, Lagas kabi bir nechta shahardavlatlar mavjud edi. O'sha davr Mesopotamiya rivojlanishining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi.

O'lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyatiga to`xtalsak.

Jamiyat hayotida sodir bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar mil.avv.III ming yillikning oxiri II- ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo`lgani kabi uzlusiz taraqqiyot yo`li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil. avv. II ming yillikka oid Jarqo'ton, Sopolli (O'zbekiston), Dashli (Afg'oniston), Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulustepa (Turkmaniston) kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo`ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'y lab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashuvi;
- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqlarning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Shahar madaniyati dastavval O'zbekistonning janubida, - Surxondaryo hududida shakllandi, so`ngra esa shimalga So'g'd (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, Shosh va Farg'ona hududlariga tarqaldi. Bu aynan yurtlar va xalqdar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillarini tushuntiring.
2. Shahar madaniyati dastlab O'zbekistonning qaysi hududlarida tarqalgan?
3. O'zbekiston hududidagi qaysi ilk shaharlarni bilasiz?
4. Ilk shaharlar paydo bo'lishida qaysi omillar asosiy o'rinn tutadi?

### **2-asosiy savol:**

Eng qadimgi davlatlar. Antik davr davlatlari va madaniyati.

### **DARSNING MAQSADI:**

O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar to'g'risida tushuncha hosil qilish, qadimgi davlatlar haqida ma'lumot berish, antik davr davlatlari va madaniyatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. O'rta Osiyo hududida qadimgi davlatlarni biladi.
- 2.2. Qadimgi davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izohlaydi.
- 2.3. Antik davr davlatlari va madaniyatiga baho beradi.

## **2-asosiy savol bayoni:**

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko`rsatadiki, mil.avv. I ming yillikning boshlariga kelib O`rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo`la boshlaydi. Mil.avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O`zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg`oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. Marg`iyona va So`g`diyona qadimgi Baqtrianing ayrim qismlari bo`lganligi haqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo`lib, aholi, qudratli shaharlar, qal'alarining ko`pligi, tabiiy xom ashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo`llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

So`nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar "Katta Xorazm", "Qadimgi Baqtriya" masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko`ra Xorazmda mil.avv. VIII-XI asrlarga oid paxsa yoki xom g`ishtdan yasalgan turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarimyerto`lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. VII asrda Amudaryoning o`rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo`lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya Xorazm davlatining hududiy chegaralari «O`rta Amudaryo» oqimidagi yerlar orqali o`tgan. Xorazmning yirik sug`orish inshootlari mil.avv. V-VI asrlarga oiddir. O`lkada bu davrlarga oid ko`pgina shahar va qishloqlar harobalari ochib o`rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar xom g`isht va paxsadan qad ko`tarib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan. Qadimgi So`g`diyona Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo`lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-g`arbda Xorazm bilan chegaradosh bo`lgan. Qashqadaryodagi bir qator turar joylar va uy-qo`rg`onlar qoldiqlari mil.avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So`g`diyonada Afrosiyob, Yerqo`rg`on, Uzungir kabi yirik shahar markazlari hamda qo`shni viloyatlar va davlatlar bilan o`zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi.

O`zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardushtiyarning muqaddas diniy kitobi "Avesto", Ahmoniyarning mixxat yozuvlari (Bexistun, Naqshi-Rustam, Suza, Persepol), grek-rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kurstiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So`nggi yillarda qadimgi Baqtriya, So`g`diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko`p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Mil.avv. 559 yilda Eronda podsho Kir II Ahmoniyalar davlatiga asos soladi. Mil.avv. 545-540 yillarga kelib, Ahmoniy podsholari O`rta Osiyodagi Parfiya, Marg`iyona, Baqtriya, So`g`diyona kabi viloyatlar va ko`chmanchi qabilalar o`rtasida o`z hukmronliklarini o`rnatdilar. O`rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko`chmanchi massaget qabilalari Ahmoniyarning katta qo`shinlarini tor-mor etdilar ( mil.avv. 530 yil). Bu jangda fors podshosi Kir II vafot etdi.

Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg`uloti dehqonchilik edi. Qal'aimir, Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil.avv. VI-IV asr yodgorliklaridan ko`plab mehnat qurollari topilgan. Mil.avv. VIII-IV asrlarda So`g`diyonada ham ko`plab shahar va qishloqlar bo`lib, ular fors podsholari katta-katta soliqlar to`lab turganlar. Xususan, bu davrga oid Uzungir, Erqo`rg`on, Afrosiyob, Lolazor, Xo`jabo`ston, Sangirtepa, Chordara, Qo`rg`oncha, Ko`ktepa kabi 50 dan ziyod yodgorliklar o`rganilgan. Bu hududlardan topilgan ko`pgina topilmalar aholining dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug`ullanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, savdo-sotiq va o`zaro aloqalar ham ancha rivojlanadi. Bu davrda Xorazm hududlarida ham yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda esa hunarmandchilik rivojlangan edi. Jonbosqal'a, Ko`zaliqir, Tuproqqal'a kabilar madaniy markazlar hisoblangan. O`zbekistondagi eng qadimgi mahalliy yozuv namunalari ham Xorazm hududlaridan (Tuproqqal'a, mil.avv. IV asr) topilgan.

Mil.avv. 329 yilga kelib, Makedoniyalik Iskandarning O`rta Osiyoga yurishlari

boshlanadi. Iskandar qo`shinlari So`g`diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Janglarda Iskandarning o`zi ham bir necha marta yarador bo`ldi. Mil.avv. 329-327 yillar davomida mahalliy aholi Spitamen boshchiligidagi yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talofat yetkazdi.

Mil.avv. 323 yilda Makedoniyalik Iskandar vafot etgandan so`ng, O`rta Osiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o`tgani (mil.avv. 306 yil). Salavkiylardan bo`lgan Antiox I davrida (mil.avv. 280-261 yy) O`rta Osiyo viloyatlari tinch hayot boshlanib, qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiqa anchagini rivojlanadi. O`rta Osiyo yerlari Salavkiylar davlatining muhim qismi bo`lib, harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi.

Mil.avv. III asrning o`rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o`zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada dastlab Parfiya, keyin esa Grek-Baqtriya davlatlari salavkiylardan ajralib chiqqdi. Mil.avv. 250 yilda birinchi Grek-Baqtriya podshosi Diodot o`zini hukmdor deb e`lon qildi va tangalar zarb etdi. Tangashunoslik ma'lumotlariga ko`ra, mil.avv. III asrning oxirigacha Grek-Baqtriyada bir necha podsholar o`tganki, ular yozma manbalarda eslatilmaydi. Mil.avv. II asr boshlariga kelib Demetriy, Evkratid kabi podsholar Grek-Baqtriya yerlarini janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ko`chmanchi qabilalarning hujumlari va o`zaro kurashlar natijasida Grek-Baqtriya podsholigi qulatiladi.

Mil.avv. III asrning o`rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o`z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo`lib, u mil.avv. 247 yilda taxtga o`tiradi. Mil.avv. 235 yildan boshlab Parfiya podsholari o`z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida Sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo`lga oldilar. Antik davrda Parfiyaning qishloq xo`jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O`rta Osiyo va Xitoyning G`arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo`lib, zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan.

Qadimgi Farg`ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o`tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug`ullanishgan. Dovonning "samoviy otlari" o`lkadan tashqarida ham ma'lum va mashhur bo`lgan. Mil.av. II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qiladilar. Ammo qo`shni davlatlar tomonidan qo`llab-quvvatlangan dovonliklar o`z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo`ladilar.

Mil.avv. III asrning boshlarida paydo bo`lgan Qang` davlatining hududlari Sirdaryoning o`rta oqimidagi yerlar edi. Mil.avv.II-I asrlarda Qang` davlati kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi yerlar va Xorazmni o`z ichiga oladi. Antik davrda Qang` davlati ancha rivojlangan davlat edi. O`troq aholi, asosan, vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog`dorchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelishgan. Qang` hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O`trorda (Hazorasp va Turkiston oralig`ida), qishlovni esa Qanqa (hoz. Toshkent viloyati Oqqa`rg`on tumanida) shaharlarda o`tkazar edilar.

Mil.avv. I asrga kelib, O`rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo`lgan Kushon davlati tashkil topadi. Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II -lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o`tkazadilar. II asrga kelib, Kushon davlati yerlari Shimoliy Hindiston, Afg`oniston, O`rta Osiyo, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan, Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiqa, ichki va tashqi savdo, ayniqsa, rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham taraqqiy etadi. Bu jarayonda Buyuk ipak yo`lining ahamiyati nihoyatda katta bo`ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo`lib, grek, zardushtiylik aqidalariga ham e'tiqod qilinadilar.

Antik davr O`rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ldi. Mil.avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So`g`d yozuvlari paydo bo`ldi. Kushon davriga kelib, yana bir yozuv - Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllandi. O`rta Osiyo va Afgoniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab-yashnaganligidan dalolat beradi Ayritom va Ko`xna Termizda Buddha ibodatxonalar ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko`xna shaharlardan ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan. 1972 yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasi (32 kg) topilgan. Bu xazina orasida antik davrga oid bilaguzuk, halqalar, tugmalar, bo`yin taqinchoqlari kabi san'at buyumlari ham bor. Umuman, antik davr Qang`, So`g`d, Farg`ona yerlarida mavjud bo`lgan madaniyat o`z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko`tarilgan.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki qadimgi davlatlarni sanab bering.
2. "Katta Xorazm" va "Qadimgi Baqtriya" davlatlari haqida gapirib bering.
3. O`rta Osiyo qadimgi davlatlaridagi yirik madaniy markazlarni to`g`ri ko`rsating:
  - 1) Xorazm
  - 2) So`g`diyona
  - A.Qizilcha, Chordara,Bandixon
  - B. Afrosiyob, Yorqo`rg`on, Uzunqir
  - C.Qal'aimir, Lolazor, Kuchuktepa
  - D. Jonbosqal'a, Ko`zaliqir, Tuproqqa'l'a
4. Birinchi Grek-Baqtriya podshosi kim bo`lganini toping.
  - A. Demetriy
  - B. Evkratid
  - C. Diodot
  - D. Salavka
5. O`rta Osiyodagi antik davr davlatlaridan qaysilarini bilasiz?

### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ilk shaharsozlik madaniyati shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo`lgan omillarni izohlab bering.
2. Antik davr O`rta Osiyo xalqlarining madaniyati ma'naviyatidagi o`zgarishlarni baholang.
3. Jahan tarixida dastlabki davlatlarni O`rta Osiyo hududidagi dastlabki davlatlar bilan taqqoslang.

### **Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
2. G`ulomov YA.G'. Xorazmning sug`orilishi tarixi. - T., 1959
- 3.Dandamayev M.A. Politicheskaya istoriya Axamenidskoy derjavi M.,1985
4. Zeymal' Ye.V. Amudar'inskiy klad. - Л., 1979
5. Masson B.M. Strana tisyachi gorodov. - M.,1966
6. Pidayev Sh.P. Sirli Kushonlar sultanati.- T, 1990
7. Sagdullayev A.S. Qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda. - T., 1996
8. Sagdullayev A. Qadimgi O`rta Osiyo tarixi.- T.:Universitet, 2004
9. Asqarov A. Eng qadimiy shaxar- T., 2001
10. Annayev T., Shaydullayev Sh.. Surxondaryo tarixidan lavxalar.- T.:O`zbekiston, 1997
11. Qudratov S. O`rta Osiyoda ilk davatlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi- Guliston, 1999
12. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar – T., 2004

## **5- MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG`ONISH (RENESSANS) DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO`SHGAN HISSASI (IX-XII, XIV-XV ASRLAR).**

### **Asosiy savollar:**

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi
2. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo moddiy-ma'naviy madaniyati ravnaqi.

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Somoniylar davri, "Bayt ul-hikma", buyuk allomalar, qomusiy mutafakkirlar, Xorazm Ma'mun Akademiyasi, me'morchilik, dunyoviy fanlar, diniy bilimlar, islom dini ta'llimoti, Amir Temur va temuriylar davrida me'morchilik, temuriylar Renessansi, Ulug`bek Akademiyasi.

### **1-asosiy savol:**

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi.

### **DARSNING MAQSADI:**

Somoniylar hukmonligi davrida ijtimoiy-siyosiy hayot bilan tanishtirish, IX-XII asrlarda o'tgan qomusiy olimlar hayoti va ijodini, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissalarini ochib berish, mo`g`ullar istilosining oqibatlariga baho berish, talabalarda milliy iftihor tuyg`usini shakllantirish, buyuk qomusiy mutafakkirlar merosini o`rganishga qiziqish uyg`otish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Somoniylar davlatining tashkil topishi va parchalanib ketishi tarixini biladi.
- 1.2. "Baytul-hikma"da ta'lif olgan olimlarni biladi.
- 1.3. IX-XII asrlardagi buyuk mutafakkir olimlarni va ular qoldirgan merosni biladi.
- 1.4. Buyuk qomusiy mutafakkirlar qoldirgan merosga baho beradi.
- 1.5. Mo`g`ullar istilosining oqibatlarini tushuntiradi.

### **1-savol bayoni:**

VIII asr oxiri-IX asr boshida xalifalikni lartzaga keltirgan og`ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o`zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O`rta Osiyoda Tohiriyilar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo`lgan bunday siyosiy o`zgarishlardan so`ng Movarounnahr Xurosandan ajralib, o`z mustaqilligini to`la tiklab olish imkoniga ega bo`ldi. Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam feudal davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib, ulkan davlat tuzdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmonlik yorlig`ini yuborishga majbur bo`ldi. IX asr oxiriga kelib, Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo`ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo`lgan yirik davlat – Somoniylar davlati tashkil topadi.

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat 10 ta devon (devoni vazir, devoni mustavfiy, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash shurat, devoni sohibi muayyid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumalliqayi xos, devoni muhtasib, devoni avkof, devoni qazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feudal davlat edi. X asr oxiriga kelib, mamlakatda avj olib ketgan o`zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazadi va bu Qoraxoniylar davlatidan mag`lubiyatga uch rashiga olib keldi. XI asr boshlarida Somoniylar davlati ikki davlatga: Qoraxoniylar va G`aznaviyilar davlatlariga bo`linib ketadi.

Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo`lib idora qildilar. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda mulkchilikning yangi turi –iqto' o`rnatilib, mulk turlari to`rtta bo`ladi (mulki sultoniy, vaqf yerkari, mulk yerkari, iqto'). XII asrning 30-yillari oxirida Mavarounnahr Sharqdan kelgan ko`chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo`ladi.

IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi. Lekin shuni aytish kerakki, mahalliy bilimdonlar o`z vatanlarida quvg`inga uchrab, xalifalikning yirik shaharlari –Damashq, Qohira, Bag`dod, Qufa va Basraga borib, bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo`lgan edilar. Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag`dod edi. Bag`dodda «Bayt ul-hikma» tashkil etilgan edi. Unda Ahmad Farg`oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Marvaziylar ta'lif olgan. IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan Farg`oniy, Xorazmiy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Masihiy, Hammar va boshqalar yetishib chiqdi.

IX-XI asrlar Islom davlatlarida kuchli yuksalish davri bo`ldi. Bu tarixda «Islom Renessansi», ya'ni uyg`onish davri bilan mashhur. O`sha davrda Islom dini musulmon davlatlarini o`zaro yaqinlashtirishda, ular o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ma'naviy tayanch vazifasini bajardi. Xalifa Xorun ar-Rashidning ikkinchi o`g`li Abul Abbas Abdulloh al-Ma'mun 809 yilda otasi tomonidan xalifalikning sharqiy yerlardagi noibi etib tayinlandi. Noiblikning poytaxti Xurosondagi Marv shahri edi. Al-Ma'mun Marvda davlat ishlari bilan birga ilm-ma'rifat bobida ham katta ishlarni boshlaydi, atrofiga ilmga moyil yosh olimlarni to`playdi. Olimlar orasida Muhammad al-Xorazmiy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid al-Marvarruziy, Sanab ibn Ali, Abbas al-Javhariy, Ahyo ibn Aksam, Qozi Hammod, Ahmad al-Marvaziy kabi buyuk olimlar bor ediki, keyinchalik bu ulamolar yaratgan asarlar dunyo fanining poydevori bo`lib qoldi. Otasi vafotidan keyin Bag`dod xalifaligi taxtini egallagan Al-Ma'mun 819 yilda Bag`dodga o`zi bilan bir guruh olimlarni ham olib keladi va ularni «Baytul hikma» («Hikmatlar uyi») deb atalgan ilmiy muassasaga birlashtirdi. Avvaliga bu ilmiy jamoaga mutasaddi etib, u Yahyo ibn Abu Mansurni tayinlaydi. Yahyo 829 yili vafot etganidan so`ng «Baytul hikma» mudiri etib Muhammad al-Xorazmiy tayinlanadi va bu ishni u to umrining oxirigacha davom ettiradi. Al-Xorazmiy bu yerda o`rta osiyolik olimlardan Ahmad Farg`oniy, Abulvafo Buzjoni, Isoq Ibodiy, Abu Ja'far Xurosoniy, Abul Fatix Isfixoni, Al-Marvaziy va boshqa olimlar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi .

O`rta Osiyolik olimlar «Baytul hikma»ning faoliyatiga juda ulkan quvvat berdi, chex tarixchi olim Yu.Rushkaning ta'kidlashicha, bu ilmiy maskan olimlarning aksariyat Xorazm, Farg`ona, Shosh va Xurosondan bo`lgan. Bu «aksariyat»ning ham deyarli uchdan ikki qismini xorazmliklar tashkil qilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, mashhur arab geografi ibn Havkal X asr boshlarida yozib qoldirgan «Yo`llar va mamlakatlar» nomli asarida Xorazm mintaqasiga ta'rif berayotib, Xorazm aholisining ilmga chanqoqligi va zukkoligi haqida aytib ketadi. «Hozir Bag`dodda xorazmlik shogirdi bo`Imagan birorta qozi, faqih yoki ilm ahli yo`qdir», - deb yozadi ibn Havkal.

Al-Xorazmiy rahbarligida «Baytul hikma» olimlari juda keng miqyosida tarjimonlik ishlari bilan shug`ulanadilar, qadimgi Suriya, Eron, Yunon, Hind olimlarining asarlarini arab tiliga ag`daradilar; osmon yoritgichlarini kuzatish bilan shug`ulanadilar; xalifalikning turli mintaqalarida ilmiy ekspeditsiya uyushtiradilar. Ilmiy maskan sifatida Al-Xorazmiy va Al-Farg`oniy tashabbusi bilan Bog`dod yaqinida rasadxona va ulkan kutubxona tashkil qilinadi.

«Baytul hikma»ning jahon ilm-fani, sivilizatsiyaga qo`shgan hissasi juda ulkandir. Faqat al-Xoraziy yaratgan buyuk durdona o`nlik sanoq sistemasi va matematika asosini yaratganligini o`zi ham «Baytul hikma» akademiyasining naqadar buyuk bir dargoh bo`lib

shakllanganligini ko`rsatadi. Hozirgi davrda juda ko`p ishlataladigan «algebra» va «algoritm» terminlari al-Xorazmiy kitobi nomidan va Al-Xorazmiyning o`z nomidan olingan.

X asrning oxirlariga kelib, O`rta Osiyoda saroylarga ilm-ahlini yig`ish, ma'rifat-ma'naviyat masalalarini davlat siyosati darajasida tutish odat tusiga kirib qoladi. Bu borada Xorazmning hukmdorlari – Xorazmshohlar alohida o`rin tutadi. Xorazmda, uning qadimiy poytaxti Katda (hozirgi Beruniy) 305 yildan to 995 yilgacha afrig`ylar hukm suradi. Lekin arablar istilosiga - 712 yildan boshlab, Xorazmning ikkinchi qadimiy shahri Gurganch arablar tomonidan qo`yilgan amirning qarorgohi vazifasini bajarardi. 995 yili Gurganch Amiri Ma'mun-I ibn Muhammad ibn Iroq Afrig`ylar sulolasiga barham beradi. Kat shahrini bosib oladi va poytaxtni Gurganchga ko`chirib, o`zini Xorazmshoh deb e'lon qiladi. O`sha davrning eng mashhur matematigi va astronomi Abu Nosir Mansur ibn Ali ibn Iroq qo`lida tarbiyalangan, Kat shahrida tug`ilib-o`sgan iste'dodli yosh olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy yurtini tark etib, Eronning Ray shahriga ketishga majbur bo`ladi. 998 yili Jurjon viloyatining amiri Qobus ibn Vashmgir Beruniyni o`z saroyiga taklif qiladi. Amir uning ilmiy ishlariga homiylik qiladi. Bu yerda Beruniy matematika va astronomiyadan ko`p narsa o`rganadi. Beruniy o`sha yilda buxorolik yosh olim ibn Sino bilan xat orqali tanishib, ilmiy muloqotda bo`ladi .

998 yil Ma'mun-I vafot etib, Ali ibn Ma'mun o`tirgandan so`ng Xorazmdagi siyosiy ahvol bir oz barqarorlashadi. Shuni ham aytish kerakki, o`sha davrlarda Beruniy ma'lumotlariga qaraganda, Xorazm aytarlik katta davlat emas, lekin boy davlat edi. Shuning uchun ham o`sha davrning yirik imperiyalari - G`aznaviyalar va Qoraxoniylar davlatlari Xorazmni o`z ta'sir doirasiga o`tkazishga urinar edilar.

Ali ibn Ma'mun ana shunday siyosiy muhitda dono va zukko maslahatchilarga muhtoj edi. Uning baxtiga tog`asi, Beruniyning ustozи Abu Nasr ibn Iroq o`z davrining o`ta bilimdon olimi edi. U tirikligadayoq o`z zamonasining «Ptolomeyi» degan laqabni olgan edi. 1004 yilning boshida Ibn Iroq taklifi bilan Beruniy Gurganchga qaytib keladi va Ma'mun saroyida ilm ahli uchun ideal sharoit yaratiladi. Bu ikki shax yaqin va o`rta sharqdagi ko`plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab iroqidan ko`plab olimlar Gurganchga keladilar. Shular qatorida mashhur tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino, Abu Salx Masixiy, Al-Xo`jandi, kimyogar olim Abdul hokim Muhammad ibn Abdumalik as-Saolibiy va boshqalar bor edi.

Shu tariqa 1004 yildan boshlab, Gurganchda «Dorul hikma va Maorif» (ba'zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to`la shakllanadi. Bu ilmiy muassasa xuddi Afinadagi Platon Akademiyasi, Bog`doddagi «Baytul hikma» akademiyasi faoliyatiga o`xshab, ilmning barcha sohalarida taddiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko`p manbalar to`plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o`rganilgan; Al-Xorazmiy, Al-Farg`oniyning o`lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va taddiqot qilingan. XVIII-XX asr tarixchi olimlar tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o`rganildi va o`z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o`z davrining akademiyasi bo`lganligi isbotlandi. Unga «Ma'mun akademiyasi» nomi berildi .

Ali ibn Ma'mun vafotidan keyin (1009 yil) uning ukasi Abul Abbas Ma'mun II Ma'mun Xorazmshohlar taxtini egalladi. U Beruniyni saroya yaqinlashtiradi va 1017 yilgacha u Xorazmshohga eng yaqin maslahatchi bo`lib xizmat qiladi. Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun yanada ko`proq imkoniyatlar ochiladi.

Xorazmshoh Ma'mun II saroyidagi olimlar shuhrati tez orada uzoq yerlarga tarqaladi. Bu esa shuhratparast Mahmud G`aznaviyning g`ashiga tegmay qolmas edi. U uyushtirgan fitna natijasida 1017 yilning bahorida Abul Abbas Ma'mun II o`ldiriladi va o`sha yilning iyun oyida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan Mahmud G`aznaviy Xorazmshohga bostirib kiradi. Katta qirg`inlar, talon-tarajlik natijasida Ma'mun akademiyasi faoliyati tugatiladi va bu yerdagи olimlar tarqalib ketadilar.

1998 yili Ahmad Farg`oniyning 1220 yilligi nishonlandi. U astronom, matematik, geograf

edi. Bag`dod yaqinidagi Rakok mavzesida rasadxona qurdirgan va astronomiya matabini tashkil etgan edi. Abu Nasr Forobi esa Sharq falsafasining ulug` mutafakkiri bo`lib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishga katta hissa qo`shti. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Abu Ali ibn Sino tibbiyot va falsafa sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Uning «Al qonun fit-tib», «Kitob ush shifo» va boshqa asarlari bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qtgani yo`q. Xorazm madaniyati Abu Rayhon Beruniyning nomi bilan bog`langan. Beruniy 150 dan ortiq asar yaratgan bo`lib, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Meteorologiya» kabi yirik asarlari mashhurdir.

IX-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham taraqqiy etdi. Rudakiyning prozaik asarlari, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Gardiziyning «Zayn ul axbor»i, Nizomulmulkning «Siyosatnama»si, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarlari yaratildi. Bu davrda Zamaxshariy, Qoshg`ariy, Amak Buxoriy va boshqalar ham ijod qildilar.

Me'morchilik rivojini Buxorodagi Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag`oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqo`rg`on minorasi, Ko`hna Urganchdagi Fahriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi va boshqa yodgorliklar aks ettiradi. Diniy bilimlar rivojiga esa Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burhonuddin Marg`inoniy kabi ulamolar ulkan hissa qo`shtilar. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ`ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o`rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib, O`rta Osiyoda uning turli yo`nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo`ldi va tarqaldi.

XIII asr boshlariga kelib, Mo`g`ulistonda Chingizzon hukmronligida ko`chmanchi mo`g`ullarning ulkan davlati paydo bo`ladi (1206-1215). Bu davrda Markaziy Osiyo hududida Xorazmshohlar davlati mavjud bo`lib, o`zaro urushlar va boshboshoqlik oqibatida bu qudratli sultanat inqirozga yuz tuta boshlagan edi. Chingizzon bilan Muhammad Xorazmshoh o`rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etishiga qaramay, ular oxir-oqibat fojea bilan tugadi. Mo`g`ul qo`shinlari Xorazmshohlar davlatidagi tang vaziyatdan foydalanib, Markaziy Osiyon 1218-1221 yillar davomida bosib oldilar. Buxoro, Samarcand, Termiz, O`tror, Xo`jand, O`zgand, Urganch kabi yirik shaharlar vayronaga aylantirildi. Mo`g`ul bosqinchilari mahalliy aholiga va madaniyatga shafqat qilmadilar. Arab tarixchisi Ibn al Asir (1160-1244) mo`g`ullar bosqini haqida shunday yozgan: «...Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib, Turkistondagi Qashg`ar va Balasog`un kabi viloyatlarni, Movarounnahrdagi Samarcand, Buxoro va boshqa shaharlarni... vayron etib, qirg`in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar(mo`g`ullar) hech qaysi shaharni omon qoldirmadilar, ketayotib vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o`tgan bo`lsalar, o`zlariga yoqmagan narsalarga o`t qo`ydilar».

Markaziy Osiyo xalqlari mo`g`ul bosqinchilariga qarshi qahramonona kurash olib bordilar. Xususan, O`tror hokimi Inalxon, Buxoro mudofaachilari Ixtiyoriddin Kushlu, Hamid Pura, Qorxitoy, Suyunchxon, Xo`jand hokimi Temur Malik, Urganch shayxi Najmiddin Kubro, shahzoda Jaloliddin kabilar Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qon to`kdilar. Ammo ular ona-yurt ozodligini saqlab qola olmadi, mo`g`ullar istilosini oqibatida Movarounnahr va Xurosonning obod viloyatlari, shaharlari xarobazorga aylantirildi. Bu davrda ilm-fan va ma'rifatga yetkazilgan zarar ham katta bo`ldi. Buxoro, Samarcand va Urganchdagi kutubxonalar yonib ketdi.

XIII asr 70-80 yillariga borganda Markaziy Osiyoda asta-sekinlik bilan shahar hayoti, hunarmandchilik jonlana boshladi. Mo`g`ullar davrida inqirozga yuz tutgan fan va adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshladi. XIII asrda Buxoroda Mas'udiya va Xoniya madrasalari qurildi. Jaloliddin Rumi, Sa'diy Sherazi, Amir Xusrav Dehlaviy kabilar adabiyot sohasida ijod qildilar. Abu Umar Mirhojiddin Juzjoniyning «Tabakoti Nosiriy», Alouddin Otamatlik Juvayniyning «Tarixi jahon gushoyi», Fazlulloh Rashididdinining «Jome at-tavorix» kabi tarixiy asarlari yaratildi.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Somoniylar davrida mamlakatni boshqargan o`nta devonni sanab bering.
2. Bag`dod shahrida qaysi Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ta'lim olgan?
3. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari kimning qalamiga mansub:
  - A. Forobiy
  - B. Beruniy
  - C. Nizomulmulk
  - D. Ibn Sino
4. IX-XII asrlarda diniy bilimlarni rivojlantirgan ulamolar qatorini toping.
  - A. Naqshbandiy, Kubro, Moturudiy
  - B. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziyy, Burhonuddin Marg`inoniy
  - C. Buxoriy, Juzjoniy, Jaloliddin Rumiy
  - D. Yusuf Xos Hojib, Amir Xusrav Dehlaviy, Najmiddin Kubro
5. Arab tarixchilari mo`g`ullar istilosini oqibatlari haqida nimalar yozib qoldirganlar?
6. Ma`mun Akademiyasi qachon tashkil topdi?

## **2-asosiy savol:**

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda moddiy-ma'naviy madaniyat ravnaqi

### **DARSNING MAQSADI:**

XIV asrdagi siyosiy tarqoqlik sabablarini tushuntirish, Amir Temur va Temuriylar davrida ilmiy-madaniy hayot ravnaqini baholash, bu davr nima uchun Temuriylar Renessansi deb atalishini tushuntirish, Amir Temur va temuriylar davrida rivojlangan fan sohalarini ko`rsatish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqini tahlil qiladi.
- 2.2. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga hissa qo`shgan mutafakkirlarni biladi.
- 2.3. Temuriylar Renessansini ta'riflaydi.

### **2-savol bayoni:**

XIV asr 50-60 yillarda Markaziy Osiyoda siyosiy tarqoqlik g`oyatda kuchayib, qonli urushlarga aylandi. Amir Bayon Sulduz Samarcandda, Amir Xoji Barlos Keshda, Amir Boyazid Jaloir Xo`jandda, Uljoytu Sulduz Balxda, Muhammad Ho`ja Yazdiy Shibirg`onda o`zlarini mustaqil hisoblagani sababli, ular o`rtasida doimiy nizolar bo`lib turdi. Natijada davlatning boshqaruv ishlari va xo`jalik hayoti butunlay izdan chiqdi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin (1370) u va uning avlodlari davri mamlakatimiz tarixida turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga boy davr bo`ldi. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida uzoq muddat davom etgan mo`g`ullar istibdodiga barham berildi, buyuk markazlashgan davlat qaror topdi, ilmiy-madaniy hayot gurkirab rivojlandi. Xususan, Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e'tibor berdi. Uning saroyida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Bahriddin Ahmad, Alouddin Koshiy kabi allomalar faoliyat ko`rsatgan. Amir Temur me'moriy obidalar qurishga ham katta e'tibor berdi. Uning davrida Samarcandda ko`plab me'morchilik obidalarini, bog`lar, saroylar buniyod etildi. Bibixonim masjidi, Shohizinda maqbarasi, Ko`ksaroy, Bo`stonsaroy va boshqalar shular jumlasidandir.

Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Zangiota maqbarasi, Tabriz, Sherz, Bag`donna masjid va madrasalar qurdirdi. Butun Markaziy Osiyo hududida ko`plab karvonsaroylar, qishloqlar, hammomlar, madrasalar, maqbaralar barpo ettirdi.

Temuriylar ham jahon moddiy-ma'naviy madaniyatiga ulkan hissa qo`shdilar. Ulug`bek davrida fan va madaniyatga homiylik qilish, qurilish ishlari avj oldi. Ulug`bek zamonida

Samarqand, Buxoro, G`ijduvon, Shahrisabzda masjid va madrasalar, saroylar buniyod etildi. 1428-1429 yillari Samarcandda rasadxonada barpo etildi. Bu rasadxonada Ulug`bek bilan mashhur olimlar Qozizoda Rumiy, G`iyosiddin Jamshid, Ali Qo`shchi va boshqalar astronomiya sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Ulug`bek o`zining mashhur astronomik jadvallari «Ziji Ko`ragoniy»ni tuzdi.

Tarix fani sohasida ham ko`pgina ishlar qilindi. 1424-1425 yillarda Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»ni tugatdi. Hofizi Abro` «Tarixiy yilnomalar», «Butun jahon tarixi» asarlarini yozdi. Abdurazzoq Samarcandi Shohruh davri tarixini yoritib berdi. Mirxon, Xondamir kabi tarixchilarning ijodi ham gurkirab yashnadi.

Adabiyotda, ayniqsa, mashhur shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning xizmati katta bo`ldi. Temuriylar davrida Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy o`lmas asarlar yaratdilar. Behzod rassomchilik faoliyati rivojlandi. XIV-XV asrlarda mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar orasidan Abduqodir Nayiy, Kulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G`ijjakiy, Qosim Rabboniy va boshqalar yetishib chiqdilar. Umuman olganda, Temuriylar davridagi madaniy taraqqiyot Temuriylar uyg`onishi (Renessansi) atamasiga muvofiq keladi. Bu haqiqatan ham turli madaniy doiralar – fan, adabiyot, badiiy ijod, musiqaning O`rta Sharq zaminida o`ziga xos uyg`onish davri edi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Amir Temur atrofida qaysi olimu ulamolar to`plangan edi?
2. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqi omillarini ko`rsating
3. Amir Temur saroyida ijod etgan olimlar va donishmandlar qatorini toping
  - A. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg`oniy, Buxoriy
  - B. Qozizoda Rumiy, Kermoniy, Munshiy, Koshiy
  - C. Ali Qushchi, Boysung`ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Sakkokiy, Atoyi
  - D. E. Ulug`bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Koshiy
4. Temuriylardan kimning davrida aniq fanlar ayniqsa rivojlandi?
  - A. Shohrux
  - B. Boysung`ur Mirzo
  - C. Ulug`bek
  - D. Husayn Boyqaro
5. Alisher Navoiy kim bo`lgan, uning davrida qaysi sohalar rivojlangan?

### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ilmiy jamoatchilik orasida Musulmon Rennessansi degan atama qaysi davrga qarata ishlatiladi va nima uchun bunday deb atalishini izohlang.
2. Ulug`bek akademiyasida qaysi olimlar faoliyat ko`rsatgan va ular qanday yutuqlarni qo`lga kiritishganini adabiyotlardan topib, tezis tayyorlang

### **Adabiyotlar:**

1. Абдунабиев А. Вклад в мировую цивилизацию.- Т.:Узбекистан, 1998
2. Буюк сиумолар, алломалар. –Т.:Мерос. 1 kitob- 1995 y.; 2 kitob – 1996 y.
3. Мўминов И. Амир Темурning О`рта Осиyo tarixida тутган ўрни ва роли.- Т.:Fan, 1993
4. O`zbekiston tarixi.- T.:Yangi asr avlodi, 2003.
5. Мец А. Мусульманскиу ренессанс.- М., 1984.
6. Хоразм tarixi. –Урганч, 1997
7. Temur va Ulug`bek davri tarixi – T.:Qomuslar bosh tahririyati, 1996
8. Temur davrining me`moriy qahkashoni – T.:Sharq, 1996
9. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlodi, 2005.

**6-MAVZU. AMIR TEMUR DAVLATI. TEMUR TUZUKLARI.**  
**AMIR TEMUR DAVLATI. TEMUR TUZUKLARI.**  
**Ma’ruza darsining texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma’sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:  Dars maqsadi: Talabalarni Amir Temur davlati va Temur tuzuklari va uning ahamiyati bilan tanishtirish.</p> <p>Identiv o’quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• XIV asr 2-yarmida Mavarounnahrdagi ijtimoiy siyosiy vaziyat haqida so’zlab beradi.</li> <li>• Amir Temur markazlashgan davlatning tuzilishi, ijtimoiy – iqtisodiy asoslarini tushuntira oladi.</li> <li>• Temur tuzuklari. Amir Temur harbiy sarkardalik salohiyati va O’rta Osiyo tarixida tutgan roli tushtirib beradi.</li> </ul> <p>Qo’llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, babs, klaster</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Temur maslahatlarining bugungi kundagi ahamiyati qanday?</li> <li>2. Sizningcha, Amir Temurning «Kuch - adolatda» degan iborasi nimaga qarata ishlatilgan.</li> </ol>	O’qituvchi
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko’riladigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so’raladi.</p>	O’qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e’tirozlar bormi? – deb so’raladi. Bor bo’lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalg qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar fikrlaridagi o’xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to’g’ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytilgan g’oyalar to’ldiriladi. Qo’qon xonlarini sanab o’tiladi.</p>	O’qituvchi - talaba
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun O’UM dagi test savollari beriladi. Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O’qituvchi
V	<p>TMI topshiriqlari beriladi</p> <p>Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayrlashiladi.</p>	O’qituvchi

**Asosiy savollar:**

- 1.XIV asr 2-yarmida Mavarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur markazlashgan davlatining tuzilishi.
2. Amir Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.Temur tuzuklari.
3. Amir Temurning harbiy sarkardalik salohiyati.
4. Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni.

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Chig`atoy ulusi, Sohibqiron Amir Temur, Amir Husayn, Ilyosxo`ja, “Loy jangi”, Sarbadorlar, markazlashgan davlat, Temur tuzuklari.

## **1-asosiy savol:**

XIV asr 2-yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur markazlashgan davlatining tuzilishi.

## **DARSNING MAQSADI:**

XIV asr 2-yarmida Movarounnahrda ijtimoiy vaziyatni tushuntirish, Amir Temurni siyosiy sahnaga chiqargan omillarni ko`rsatish, markazlashgan davlat tuzishga Amir Temur tomonidan qilingan sa'y-harakatlarni olib berish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Amir Temurning siyosiy sahnadagi birinchi qadamlarini izohlaydi.
- 1.2. "Loy jangi" oqibatlarini olib beradi.
- 1.3. Amir Temurning sarbadorlarga munosabatini aniqlaydi.
- 1.4. Amir Temur davlatining tuzilishini tahlil qiladi.

## **1-savol bayoni:**

XIV asr o`rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo`rlari qo`l ostida bo`lsa ham mayda bo`laklarga bo`linib, viloyat xonlari o`rtasida toju taxt, davlat uchun o`zaro nizolar kuchayib ketgan edi. Movarounnahrda 1340-1370 yillarda fitna-fasod, o`zaro feodal kurashi va ulusda feodal tarqoqlik kuchaygan davr bo`ldi. XIV asr 50-yillarda Chig`atoy ulusining har ikkala qismi mayda mustaqil bekliklarga bo`linib ketdi. Ulusning g`arbiy qismida hokimiyatni asosan turk-mo`g`ul qabila boshliqlari egalladi. Kesh shahri va viloyati amir Hoji Barlos, Xo`jand viloyati Boyazid Jaloir, Balx viloyati Amir Qozag`onning nabirasi Amir Husayn qo`liga o`tdi. Buxoro sadrlar tarafidan boshqarildi. Termizni mahalliy maliklar qo`lga olgan edilar.

1348 yilga kelib, Sharqiy Turkiston yerlarida Chig`atoy avlodidan Tug`luk Temur xon ko`tarildi. U Movarounnahrni o`z davlatiga qo`shib olish uchun bir necha harbiy yurishlar uyushtirdi. Movarounnahrda mo`g`ul bosqinchilariga qarshi harakatlar boshlanib ketdi. Mana shunday ijtimoiy-siyosiy jihatdan og`ir sharoitda XIV asr 60-yillarda barlos urug`idan bo`lgan mohir sarkarda, ulkan saltanat sohibi Amir Temur tarix sahnasiga kirib keladi.

Amir Temur 1336 yil 8 aprelda Kesh yaqinidagi Xo`ja Ilg`or qishlog`ida barlos beklaridan biri Amir Tarag`ay ibn Barkal oilasida dunyoga keldi. Uning bolalik va o`spirinlik yillari Keshda o`tdi. 1350-60 yillarda Temur otliqlar guruhini tuzadi va harbiy mashq qilishga qiziqadi. 1360-61 yillarda Mo`g`uliston hukmdori hoqon Tug`luk Temur Movarounnahr ichki hayotiga rahna soladi. Movarounnahr amirlari va Xo`ja Barlos Xurosonga qochib ketadilar. Amir Temur Keshda qolib, mo`g`ul xoni xizmatiga kirib, davlatni saqlab qolishga intiladi. U 25 yoshida Kesh hokimi bo`lishga tuyassar bo`ladi.

1360-70 yillarda Balx va uning atrofidagi yer-mulklar Amir Qozog`onning nabirasi Amir Husayn tasarrufida edi. 1361 yilda Amir Temur Amir Husaynga yaqinlashgan edi. Ular birlashib, mo`g`ul xonlariga qarshilik ko`rsata boshladilar. 1362 yil Seyistonda bo`lib o`tgan jang vaqtida Amir Temur o`ng qo`li tirsagidan va o`ng oyog`idan kamon o`qi tegishidan qattiq jarohatlandi va bir umr oqsoqlanib yuradigan bo`ldi. Shu bois dushmanlar uni Temurlang (Temur-oqsoq) deb atashgan.

1363 yilda Tug`luk Temurning o`g`li Ilyosxo`ja katta lashkar bilan Movarounnahr tomon harakat qila boshlaydi. Temur va Amir Husayn unga qarshi chiqdilar. Tarixga «Loy jangi» nomi bilan kirgan jang Chinoz bilan Toshkent oralig`ida 1365 yil bahorida ro`y beradi. O`sha kuni qattiq jala quyib, hammayoq loy bo`lgan edi. Amir Temur va Amir Husayn Chirchiq bo`yidagi jangda mag`lubiyatga uchradilar. Amir Temur qolgan askarlari bilan avval Samarqandga, keyin Keshga, so`ngra Balxga o`tib ketadi.

Bu paytda Movarounnahr amiri Amir Husayn edi. Samarqand mudofaasini sarbadorlar o`z qo`llariga olgan edi. Ularning asosiy maqsadi mo`g`ul istilochilari va mahalliy zulm o`tkazuvchi qatlamlarga qarshi kurash edi. Ilyosxo`ja Samarqandga yo`l olganida, Samarqandni mudarris Mavlonozoda rahbarligidagi sarbadorlar va shahar aholisi mudofaa qilgan edi. Ilyosxo`ja lashkari safida ot vabosi tarqalib, ular Movarounnahrni tark

etishga majbur bo`ldilar.

Bu xabarni Amir Temur Amir Husaynga yetkazadi. 1366 yil bahorida ular Samarcandga kelib, sarbadorlar rahbarlarini chaqiradilar va ularni qatl ettiradilar. Sarbadorlar harakati bostirilgandan so`ng Amir Temur va Amir Husayn o`rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga sabab Amir Husaynning sarbadorlargaadolatsizligi va Uljoy Turkon xotunning o`limi edi. Temur o`z oliyanobligi va sahiyligi bilan haqiqiy sarkarda va rahbar sifatida obro` qozongan bo`lsa, Husayn qo`rsligi va xudbinligi bilan o`zini amaldorlar e'tiboridan chetlashtirdi.

1366-1370 yillar oralig`ida Amir Temur o`z e'tiborini mamlakat ichki ahvolini yaxshilashga qaratdi. 1370 yilda Amir Husayn o`ldirilganida, Amir Temur taxtga o`tiradi. O`sha yili Amir Temur xonlik unvonidan voz kechdi va o`zini amir deb e'lon qildi. Kesh shahridan Samarcandga ko`chib o`tdi va uni o`z davlatining poytaxtiga aylantirdi.

Amir Temurning o`z oldiga qo`yan muhim vazifalaridan biri feodal tarqoqlikni yo`qotish, alohida mulklarni mustahkam, markazlashgan va kuchli davlat ostida birlashtirish edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi hududlarni o`ziga bo`ysundirib, o`ziga itoat ettirdi. Farg`ona, Shosh viloyatlarini o`z tasarrufiga kiritdi. Sirdaryo quyi oqimidagi Oltin O`rdaga qarashli hududlarni egallahda ichki sulolaviy urushlardan foydalandi. Mo`g`ullar hukmronligi davrida ikki qismga bo`lib yuborilgan Xorazm XIV asr 60-yillarda mustaqil davlat bo`lib qolgan edi. Qo`ng`irotlar sulolasiga mansub hukmdor Husayn So`fixon Berdibek o`limidan so`ng, Oltin O`rdadagi ichki nizolardan foydalanib, Oltin O`rdaga qarashli shimoliy qismini poytaxt Urganch bilan Chig`atoy ulusiga qarashli janubiy qisminini poytaxt Qiyot bilan o`z tasarrufiga oldi.

1372 yili Amir Temur Xorazmga qo`shin tortib keladi va Qiyotni ishg`ol qilib, qo`lga kiritadi. Husayn o`limidan so`ng hokimiyat tepasiga kelgan Yusuf So`fi Amir Temur bilan yarash bitimini tuzadi. Lekin Amir Temur ketganidan keyin Qiyotni bosib oladi. Shundan so`ng Amir Temur Xorazmga 2 marta yurish qiladi va Janubiy Xorazmni o`z davlati tarkibiga kiritadi (1374).

1387-1388 yillarda To`xtamishxon Amir Temurning Movarounnahrda yo`qligidan foydalanib, Xorazmga hujum qiladi. 1388 yili Amir Temur Xorazmga yurish qilib, Urganchni ishg`ol etadi va so`fiylar sulolasini tugatadi. Shu vaqtadan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi. Shu tariqa Yettisuvdag'i va Sirdaryo etaklaridagi hududlardan tashqari Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo`liga o`tadi

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Chig`atoy ulusi bekliklaridagi hukmdorlarni ko`rsating
- I. Kesh shahri va viloyati
- II. Xo`jand viloyati
- III. Balx viloyati
- IV. Buxoro va uning atrofi
- V. Termiz
- 1) mahalliy maliklar
- 2)Amir Husayn
- 3)Xoji Barlos
- 4)Sadrlar
- 5)Boyazid Jaloir
2. «Loy jangi» qachon va qayerda bo`lib o`tgan?
- A. 1336 yilda Xo`ja Ilg`or qishlog`ida
- B. 1361 yilda Keshda
- C. 1362 yilda Seyistonda
- D. E. 1365 yilda Chinoz bilan Toshkent oralig`ida
3. Sarbadorlar harakatining maqsadi nima edi?
4. Amir Temur qachon taxtga o`tirganini va o`zini amir deb e'lon qilishi vaqtini toping
- A. 1365 y.              B. 1362 y.              C. 1366 y.              D. 1370 y.
5. Xorazm qachon Amir Temur davlati tarkibiga kiritildi?

## **2-asosiy savol:**

Amir Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Temur tuzuklari

### **DARSNING MAQSADI:**

Temurning ichki va tashqi siyosatini ochib berish, Amir Temur davlatidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilish, «Temur tuzuklari» adolatli davlat barpo etishda muhim qonun-qoidalar ekanligini asoslab berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Amir Temurning ichki va tashqi siyosatiga baho beradi
- 2.2. Amir Temur davlatidagi boshqaruv tizimini tushuntiradi
- 2.3. «Temur tuzuklari» ahamiyatini ochib beradi

### **2-savol bayoni:**

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan davrida o`z faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlikka tushgan va kuchli feudal tarqoqlik hukm surgan Movarounnahrni birlashtirishdan boshladi va markazlashgan mustaqil davlat tuzishga kirishdi. Davlat ishlarini zafarli yurishlar bilan birga olib bordi.

Davlat boshqaruvi bobida mukammal bo`lgan qonunlar ishlab chiqdi. Sohibqiron tuzgan qonunlar «Temur tuzuklari» deb ataladi. Unda Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzumi, 1342-1405 yillarda amal qilingan tartib-qoidalar haqida yozadi.

Amir Temur davlatida feudal munosabatlар hayotga keng joriy etilgan edi. Bu davrda yerga egalik qilishning cheklanmagan hukmronligi o`rnatildi. Qaysi mamlakat bosib olinsa, o`sha yerda yerga egalik qilishning feudal munosabatlari qaror topa boshladi. Davlat tuzumiga Amir Temur bir qator o`zgarishlar kiritdi. Mamlakat xonliklarga ajratilib, o`lkalar suyurg`ol sifatida hukmdorlarga taqsimlab berildi. Bu davrda suyurg`ol – yer in'om qilishning asosiy turi hisoblangan. Suyurg`oldan keladigan foydaning uchdan ikki qismi davlat xazinasiga, uchdan bir qismi suyurg`ol egasiga tegishli edi. Suyurg`olni boshqarish ham oila a'zolariga qarindoshlariga, o`z xizmatlari bilan sadoqat ko`rsatgan kishilarga topshirilib, bu yerlar keyinchalik avloddan avlodga meros bo`lib qolardi. Amir Temur o`zi istilo qilgan mamlakatlarda hukmronlikni o`g`illari va nabiralari, sarkardalari, barlos urug`idan chiqqan qabiladoshlariga suyurg`ol tarzida topshirgan, ular orqali boshqargan. Movarounnahrdan tashqari o`z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni to`rt ulusga bo`ldi. Katta o`g`li Jahongirga Balx viloyatini, ikkinchi o`g`li Umarshohga Fors viloyatini, Mironshohga Ozarbayjon, Iraq va Armanistonni, kichik o`g`li Shohruxga Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyistonni berdi.

Bu davrda yerga egalikning «tarxon» degan turi ham bo`lgan. Xususiy yer egalari taxon unvonini olgan, davlatga soliqlar to`lashda imtiyozlarga ega bo`lganlar. Tarxon deb yer, mulk yoki korxona egasining davlat xazinasi foydasiga to`lanadigan soliq, o`lpon va majburiyatlardan ozod qilingan qismi tushunilgan. Tarxon yerliklari amir, bek, lashkarboshi, amaldorlar, ruhoniylarga berilgan. Diniy boshqarmaga qarashli vaqf yerlarini esa mutavvalilar boshqargan. Masjid, madrasa va xonaqolar uchun vaqf yerlari ajratilgan. Ular shayhlar, darvesh, eshonlar uchun boyish manbai hisoblangan. Vaqf yerlaridan soliq olinmagan.

Amir Temur davlatni qattiqqo`llik bilan boshqardi. Unga qarshilik ko`rsatganlarni jazolardi. Uning davrida dehqon va hunarmandlarning ahvolida ijobji o`zgarishlar sodir bo`ldi. «Temur tuzuklari»da soliq yig`ish to`g`risida yozib, «soliq yig`ishda xalqni og`ir ahvolga solishdan, yoki o`lkani qashshoqlikka tushirib qo`yishdan ehtiyoj bo`lish zarur, xalqni xonavayron qilish, davlat xazinasini kambag`allashishiga olib keladi, xazinaning kam quvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlashishiga, bu esa, o`z navbatida, hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo`ladi», deb ta'kidlagan edi. Dehqonlar g`allani yig`ib olmasdan oldin soliq to`plash qat'iy man etilgan. Hiroj yer solig`i sifatida yiliga 2 marta yig`ib olingan. Jon solig`i ham mavjud edi.

Amir Temur davlatida dehqonlarning yerni ishlashdagi fidoiyligi e'tiborga olingen. O'zlashtirilmagan yerni ishlab, yaroqli holga keltirib, ekin ekkan odam 1-yili soliqdan ozod etilgan, 2-yili o`zi xohlasa to`lagan, xohlamasa to`lamagan, 3-yildan boshlab esa soliq haqidagi umumiy qoidaga bo`ysungan. Suv inshootlari qurishga, bog`dorchilikka ham katta ahamiyat berilgan. Amir Temur davrida hunarmandchilik rivojlangan, mahsulot ishlab chiqarish kengaygan. Samarcand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlariga aylangan. Yangi bozorlar, savdo rastalari qurilgan. Savdo yo`llarida karvonsaroylar barpo etilgan. Savdo karvonlarining xavfsizligi ta'minlanardi.

Mamlakatdagi davlat boshqaruvi ma'lum tartib asosida amalga oshirilgan. Bosh boshqarma –Devoni Buzurgdan tashqari, har bir viloyatda devonlar bor edi. Ular barcha davlat ishlari, soliq yig`ish, tartib saqlash, jamoat binolari – bozor, hammom, yo`llar, sug`orish tarmoqlariga qarab turish va aholi xulqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug`ullanardi.

Temur mohir diplomat bo`lib, chet davlatlar bilan diplomatik aloqalarni kuchaytirishga katta ahamiyat bergen. Uning o`g`li Mironshoh Fransiya, Angliya, Vizantiya davlatlari bilan elchi yuborish yoki xat yozish orqali aloqada bo`lgan. Shohrux va Ulug`bek davrlarida Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar bilan aloqalar o`rnatalgan.

Amir Temur davlatida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo`lgan. Amir Temur butun umri davomida «Kuch – adolatda» so`zlariga amal qilib, hokimiyatni boshqardi. O`zining tajribasini, pandu nasihatlarini «Temur tuzuklari»da yozib qoldirgan. «Temur tuzuklari» 2 qism, 56 banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo`lib, unda sohibqiron davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususida bayon qiladi. Bu asardan Shoh Jahon (1628-1657), Qo`qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdulahadxon (1885-1910) o`z faoliyatlarida foydalanganlar.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning 7 yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo`lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo`shni yurtlarni o`z tasarrufiga kiritishi, Oltin O`nda xoni To`xtamish, turk sultonı Boyazid Yildirimga qarshi kurashi, Ozarbayjon, Gurjiston va Hindistonga qilgan yurishlari ixcham tarzda bayon qilingan.

Ikkinci qism sohibqironning nomidan vorislariiga aytilgan o`ziga xos vasiyat, pandu nasihatlardan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo`shin boshliqlarini saylash, sipohiyalar maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo`shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo`lib, mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyanardi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Amir Temur davlatida yerga egalikning qanday ko`rinishlari bo`lgan?
2. Amir Temur o`z tasarrufidagi hududlarni to`rt ulusga bo`lgan edi. Bu uluslarga kimlarni hukmdor etib tayinlaganini ko`rsating.

A. Jahongir

B. Umarshoh

C. Mironshoh

D. Shohrux

1)Fors viloyati

2)Xuroson, Jurjon,Mozandaron,Seyiston

3)Balx viloyati

4)Ozarbayjon, Iroq, Armaniston

3. “Temur tuzuklari” da nimalar bayon qilingan?

4. Suyurg`ol nima?

### **3-asosiy savol:**

Amir Temurning harbiy sarkardalik salohiyati.

### **DARSNING MAQSADI:**

Amir Temur tomonidan o`tkazilgan harbiy islohotlarni izohlab berish, qo`shin tuzilishi bilan tanishtirish, Amir Temur harbiy yurishlarini tahlil qilish, harbiy sarkardalik salohiyatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. Amir Temurning o`tkazgan harbiy islohotlari haqida ma'lumot beradi.
- 3.2. Amir Temur qo`shinining tuzilishini tushuntiradi.
- 3.3. Amir Temur harbiy yurishlari vaqtini biladi.
- 3.4. Amir Temur harbiy sarkardalik salohiyati haqida fikr yuritadi.

### **3-savol bayoni:**

Amir Temurning davlat ishlarida ham, harbiy yurishlarida ham asosiy va sodiq tayanchi qo`shin edi, shuning uchun u harbiy islohotga, ayniqsa, qo`shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, lashkarning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi, ichki intizom masalalariga katta ahamiyat bergen. Amir Temur o`tkazgan harbiy islohotlar uni mashhur sarkarda va yirik lashkarboshi sifatida tanitdi. Uning harbiy mahorati askar qismlarni qayta tashkil qilishda hamda qo`mondonlikda namoyon bo`lgan.

Amir Temur qo`shini tashkiliy tuzilishi jihatidan Chingizzon tartiblarini o`zlashtirdi va yangi asosda davom ettirdi. Qo`shin o`ntalik askariy birikmalardan iborat edi. Lashkar «tuman» - o`n minglik, «hazorat» - minglik, «xushan» - yuzlik, «ayl» - o`nlik birikmalarga bo`lingan. Qo`shinda askarlar soni yuz mingdan ortiq bo`lgan.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda «uch yillik» (1386-1388), «besh yillik» (1392-1396), «yetti yillik» (1399-1405) urushlar deb nom olgan.

«Uch yillik» urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G`ilonni bo`ysundiradi. Shundan keyin Kavkazga yo`l olib, Tiflis, Arzirum, Van qal'asini egallaydi. Xuddi shu vaqtida To`xtamish Movarounnahrga yurish boshlaydi. Amir Temurning amirlari Husayn, Shayx Ali Bahodir dushmani Sarisuv degan joyda quvib yetib, unga katta talofat yetkazadilar.

1389 yilda To`xtamishni batamom yo`q qilish maqsadida Amir Temur katta qo`shin bilan Dashti Qipchoq chegaralariga bostirib kiradi va To`xtamishni quvib Yoyiq (Ural) daryosigacha yetib keladi. 1391 yil 18 iyunda Itil (Volga) irmog`i Qunduzcha yonidagi jangda Amir Temur yangi usul qo`llab, qo`shinni 7ta mustaqil bo`limga ajratgan. Qanot qismlariga o`g`illari Mironshoh va Mirzo Umarshayx, markazga nabirasi Muhammad Sulton boshchilik qildilar. Bu jangda Oltin O`rda qo`shinlari katta talofat ko`rdi, To`xtamish qo`shinlarini tashlab qochib ketdi.

1391 yilgi mag`lubiyatdan keyin To`xtamish ittifoqchilar qidirib, Polsha va Litvaga yaqinlashdi. Amir Temur esa Movarounnahrga qaytib, Eronga yurish boshlandi. 1392-1393 yillarda Ahmad Jadoriy va Amir Temur o`rtasida urush harakatlari boshlandi. Biroq urushning borishiga yana To`xtamish halaqit berdi. Amir Temur Sheki (Ozarbayjon shimoliy qismi) da turgan paytda, To`xtamish Kavkazorti viloyatlariga hujum qildi. 1395 yil apreliida Amir Temur va To`xtamish o`rtasida urush boshlanib ketdi. To`xtamish qo`shinlari Terek daryosi bo`ylarida tor-mor etildi va 1395 yilda Saroy Berkaning xarob qilinishi Oltin O`rda uchun kuchli zarba bo`ldi. To`xtamish Litvaga qochdi. Amir Temur uni quvib, Rossiya janubidagi Yelets shahrigacha borgan.

1387 yilda Amir Temur Ozarbayjoni, 1392 yilda Armaniston va Gruziyani bo`ysundirdi. 1392 yilda Astrobod va Mozandaronni ham qo`lga kiritdi. 1398 yil may oyida Amir Temur Amudaryodan o`tib, Hindistonga yurish qiladi. Avgustda Qobulni zabit etadi. So`ngra Hind daryosidan o`tib, dekabrda Dehliga yetib boradi. 1399 yil boshida Gang daryosigacha

boradi. Temurning Hindistonga yurishi 1399 yil bahorida nihoyasiga yetdi.

1400 yilda Temur qo'shnulari turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni Faraj bilan kurash olib bordi. 1402 yilda Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to'qnashdi va uni tor-mor keltirdi.

Amir Temur o'z qo'shnulari bilan 1404 yilning oxirida Xitoya qarab chiqdi, biroq kasal bo`lib, 1405 yil yanvarida O'trorda to'xtashga qaror qildi va shu yerda 18 fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qildi va ularning natijasida buyuk davlat tashkil qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Iraq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kirgan edi. Amir Temur muvaffaqiyatiga, avvalo, uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo`ldi. Uning armiyasida qattiq intizom va tartib o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasi va barcha qismlar uchun yo'l-yo`riqlarni o`zi ishlab chiqardi. Mohir lashkarboshi og`ir janglarda ham tadbirdorlik qilib, harbiy san'atni ishlatib g'alaba erishgan. Amir Temurning harbiy islohotlari bugungi kunda ham harbiy doiralarda tan olinmoqda.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI :**

1. Amir Temur qo'shini qaysi bo`limlardan tuzilgan edi?
  2. To`g`ri javoblarni aniqlang
    - a) uch yillik urush
    - b) besh yillik urush
    - c) yetti yillik urush
  - 3) Ozarbayjonning bo`ysundirilishi
  - 2) Qunduzcha yonidagi jang
  - 3) To`xtamishni Terek bo`ylarida tor-mor qilinishi
  - 4) Armaniston va Gruziyaning bo`ysundirilishi
  - 5) Anqara jangi
  - 6) Seyiston va Balujistonning zabit etilishi
  - 7) Eronning zabit etilishi
  - 8) Hindistonga yurish
3. Amir Temur harbiy muvaffaqiyatlari sababi nimada deb o`laysiz?
  4. Amir Temur Boyazid ustidan gachon g'alaba qozondi?

#### **4-asosiy savol:**

Amir Temurning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni

#### **DARSNING MAQSADI:**

Amir Temurning ilm-fan va madaniyat homiysi bo`lganini ko`rsatish, islam diniga munosabatini ochib berish, obodonchilik faoliyatini yoritish, tarixda tutgan o`rnini ochib berish.

#### **IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:**

- 4.1. Amir Temurning ilm-fan sohiblariga, din va dindorlarga bo`lgan munosabatini ochib beradi
- 4.2. Amir Temurning obodonchilik va me'morchilik sohasidagi faoliyatini tahlil qiladi
- 4.3. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o`rniga baho beradi

#### **4-savol bayoni:**

Manbalarda ko`rsatilishicha, Amir Temur turk, arab, eron tarixini yaxshi bilgan. Aniq fanlarga hurmat bilan qaragan, amaliy foyda keltiradigan har qanday bilimni qadrlagan. Davlat ahamiyatiga molik bo`lgan har bir masalani hal etishda shu soha bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan. Amir Temur saroylarida ulamo va olimlar faoliyat ko`rsatishgan.

Amir Temur o'z reja va maqsadlarini amalga oshirishda zodagonlarga, harbiylarga va

xalqqa ta'sir eta oladigan, obro`li, taqvodor ruhoniylarga tayangan. Uning hayotida uchta piri bo`lgan. Amir Temur me'morchilik va qurilish ishlariga katta e'tibor bergan. Turli shaharlarda masjid va madrasalar, maqbara va saroylar qurdirgan. Ayniqsa, Samarcand shahrida qurilish ishlari avj olgan. Mo`g`ullar davrida vayron qilingan Samarcand deyarli qayta qurildi. Shahar devor bilan o`ralib, Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Qorizgoh, So`zangaron va Feruza kabi darvozalar, Temur qarorgohlari – Ko`ksaroy va Bo`stonsaroylar, hunarmandlar mahallari barpo etildi. Shahar atrofida bog`lar yaratildi. Bundan tashqari yo`llar, ko`priklar, kanallar, karvonsaroylar qurilishiga ham katta e'tibor berildi.

Yangi-yangi qishloqlar barpo etilib, ularni Sharqning mashhur shaharlari nomi bilan atadi (Damashq, Misr, Bag`dod, Sultoniy, Sheroz). Savdo va hunarmandchilikning rivojiga katta e'tibor berib, bozor va savdo rastalari quzdirdi. Karvon yo`llari qaroqchilardan tozalandi. Yo`llarga soqchilar qo`yildi. «Buyuk Ipak yo`li»ning asosiy yo`nalishlarini egallab olgan Amir Temur bu yo`lda karvonlar xavfsizligini ta'minlash uchun tadbirlar ko`rdi, Sharq va G`arb o`rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari rivojiga e'tibor berdi.

Amir Temur Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Kastiliya, Fransiya, Angliya bilan aloqalar o`rnatish sohasidagi faoliyatini rivojlantirdi. G`arb va Sharqda Amir Temur dono rahbar, harbiy san'at ustasi sifatida tan olingan. XV asrda Amir Temurga «Yevropa xaloskor» yodgorligi o`rnatilgan.

Amir Temurning Turkiston tarixidagi o`rni beqiyosdir. Eng avvalo, uning xizmatlari Movarounnahrni mo`g`ullar hukmronligidan xalos etganligi va markazlashgan davlat tuzganligi bilan izohlanadi. U parchalanib ketgan davlatni birlashtirib, uning iqtisodi, madaniyati va qadriyatlarini tikladi. Savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirdi. Uning davrida me'morchilik rivojlandi, shahar qurilishiga katta e'tibor berildi, hunarmandchilik kamol topdi, fan va madaniyat rivojiga katta imkoniyatlar yaratildi. Harbiy soha barkamollikka etishdi. Amir Temur dono siyosatchi, mashhur davlat arbobi va buyuk lashkarboshi bo`lganligi shubhasizdir.

Amir Temur o`z yurishlari natijasida Qora, Egey, O`cta Yer dengizlaridan to Hindistonning sharti, Mo`g`uliston va Xitoy, Hind okeanidan to Urol tog`larigacha bo`lgan hududni zabit etdi va ulkan sultanat barpo qildi. Albatta, bu janglarda ko`p qon to`kildi. Amir Temur yurishlariga tarixiylik va adolat yuzasidan qarash taqozo etiladi. Insoniyat tarixida bo`lib o`tgan urushlar sabablari tahlil qilinsa, ko`pgina chigalliklar oydinlashadi. Amir Temur yashagan davrda jamiyatda shunday vaziyat yuzaga kelgan ediki, yo sen dushmanlaringni mag`lub etgan holda davlatni saqlab, kengaytirib, qudratingni oshirasen, yo dushmanlaring sening davlatingni bosib oladi. Bunga Temur bilan To`xtamish o`rtasidagi munosabatlar misol bo`la oladi.

Temurning buyuk sarkarda, davlat arbobi, bunyodkor va ijodkor ekanligini tan olish kerak. U tashabbuskor quruvchi edi, buyuk imoratlar barpo etdi, ularni bog`lar bilan o`radi. Shahar va qishloqlarni tikladi, suv inshootlari quzdirdi. Amir Temur o`z zamonining farzandi edi va shunday zamonda yashadi. U feodal guruhlarning o`zboshimchalogiga va davlat tarqoqligiga qarshi qattiq kurash olib borgan. U o`z yurtini sevadi va parchalangan viloyatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli davlatga asos soladi. Fan va adabiyot homysi bo`ldi, turli islohotlar o`tkazdi. YUNESKO tomonidan 1996 yil Amir Temur yili deb e'lom qilinishi uning jahon tarixidagi buyuk xizmatlari va qoldirgan merosiga nisbatan avlodlar hurmatini ko`rsatadi.

Temur ma'naviyati – ulkan manba va tunganmas bir buloqdir. O`z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga amal qildi. Temur o`z farzandlariga aytgan vasiyatida shunday deydi: «Millatning dardlariga darmon bo`lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko`ring, yo`qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va iyilik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo`lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor, albatta, xalq orasida obro`-e'tiborga ega bo`lgani tabiiy hol. Temurning «Kuch – adolatda»

degan so`zleri shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olgan. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o`rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy etgan. Solqlar, moliyaviy masalalarda qattiq tartib-qoida o`rnatgan.

Hozirgi davrda «Temur tuzuklari»ning ahamiyati beqiyosdir. U rahbar xodimlar, mansabdorlar, qolaversa, barchamiz uchun dasturilamal sifatida juda ahamiyatlidir.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Amir Temurning denga va dindorlarga munosabati qanday bo`lgan?
2. Amir Temurni nima uchun bunyodkor deymiz?
3. Amir Temurga dastlabki haykal qaysi mamlakatda va nima uchun o`rnatalgan?
5. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o`rni qanday?

#### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ma'lumki, «Temur tuzuklari»da mamlakatni boshqarish bobida maslahatlar berilgan. Temur maslahatlarining bugungi kundagi ahamiyati qanday? Temur o`gitlariga sizning shaxsiy munosabatingiz qanday? Mini-esse yozing.

2. Sizningcha, Amir Temurning «Kuch – adolatda» degan iborasi nimaga qarata ishlatalgan? Prezident Islom Karimov bu iborani qanday o`zgartirdi va nima uchun?

#### **Adabiyyotlar:**

1. Karimov I.A. Амир Темур davridagi бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин.- Т.:O`zbekiston,1996.
2. Темур тузуклари.- Т.:G'.G'ulom, 1991.
3. Низомиддин Шомиу. Зафарнома.- Т.,1996
4. Шарофиддин Али Уздиу. Зафарнома.- Т.:Камалак, 1994
5. Мўминов И. Амир Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan ўрни va роли.- Т.:Fan, 1993.
6. Ahmedov B. Амир Темур: ривоЧат ва ҳақиқат.- Т.:Qomuslar, 1996.
7. Sagdullayev A. va boshq. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Т.:Akademiya, 2000
8. Hakim Sattoriy. Hazrat Sohibqiron – Т.:G'.G'ulom, 2005
9. Temur va Ulug'bek davri tarixi – Т.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996
10. Temur davrining me'moriy qahkashoni – Т.:Sharq, 1996
11. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005.

### **TURKISTONNING XONLIKLARGA BO`LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI.**

#### **Ma'ruza darsning texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I.	<p>Tayyorlov bosqichi.</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni Turkistonning xonliklarga bo`linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari bilan tanishtirish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• XV asr 2–yarmi XVI asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy–siyosiy vaziyat haqida so'zlab beradi.</li> <li>• O'rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablarini tushintira oladi.</li> <li>• Shayboniyalar, Ashtarkoniylar, Mang'itlar, Minglar va Qo'ng'irotlar sulolalari hukmronligi haqida tushuntirib beradi</li> <li>• O'rta Osyoning xonliklarga bo`linib ketishi oqibatlarini tushuntirib beradi</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbatib bahs</p>	O'qituvchi

	Beriladigan sabablar: 1.1. Xonliklarda qaysi urug' vakillari hukumronlik qilganini aniqlang? 1.2. O'rta Osiyonni xonliklarga bo'linib ketish oqibatlarini aniqlab bering? 1.3. Shayboniyalar davlatiga qachon asos solinganini aniqlang?	
II.	Kirish. 2.1. Mavzu va ko'rib ko'rildigan masalalar tushuntiriladi 2.2. Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.	O'qituvchi
III	Guruhda ishlash. . 3.1. Talabalarining fikrlari ketma – ketlikda eshitiladi, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalg qilinadi. 3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi. 3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi. 3.4. Aytilgan g'oyalalar to'ldiriladi. Qo'qon xonlarini sanab o'tiladi.	O'qituvchi - talaba
IV	Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi. Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)	O'qituvchi
V.	TMI topshiriqlari beriladi Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.	O'qituvchi

## **7-MAVZU. TURKISTONNING XONLIKLARGA BO`LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI**

**Asosiy savollar:**

1. XV asr 2-yarmi - XVI asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. O'rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari.
3. O'rta Osyonining xonliklarga bo'linib ketishi oqibatlari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Movarounnahr, ko'chmanchi o'zbeklar, Shayboniyalar, ashtarxoniyalar, mang'itlar, minglar, qo`ng`irotlar, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Buxoro xonligi (amirligi).

**1-asosiy savol:**

XV asr 2-yarmi – XVI asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

**DARSNING MAQSADI:**

XV asr 2-yarmi - XVI asr boshlaridagi Movarounnahrdagi vaziyatga baho berish, siyosiy tarqoqlik sabablarini tushuntirish, Shayboniyarning hokimiyat tepasiga kelishini ochib berish.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

1. XV asr o'rtalari- XVI asr boshlari Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni sharhlaydi.
2. Temuriylar o`rtasidagi ichki nizolar mamlakatni inqirozga olib borganini ko`rsatadi.
3. Bobur mag`lubiyati sabablarini ochib beradi.
4. Shayboniyxon hokimiyat tepasiga chiqishi omillarini tahlil qiladi.

**1-savol bayoni:**

XV asr o`rtalariga kelib, Mirzo Ulug`bek vafotidan keyin Temuriy shahzodalar o`rtasida toj-taxt uchun kurash avj oldi. Abulqosim Bobur va Abusaid Mirzolarning faoliyati ham

o`zaro urushlarga barham bera olmadi. 1469 yilga kelganda Xurosonda Husayn Boyqaro hokimiyatni egallab, bu hududlarda nisbatan tinchlik o`rnatdi. Uning do`sti – buyuk shoir Alisher Navoiy muhrdor, vazir, Astroboqdor hokimi lavozimlarida ishlab, Xuroson ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o`ynadi. Navoiyning sa'y-harakatlari bilan Hirotda ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. O`zaro urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnahrda esa bu davrga kelib, siyosiy tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharda Temuriy shahzodalar o`zlarining mustaqil hukmronligini o`rnatishga harakat qildilar. Ular hokimiyat uchun o`zaro kurashlarda Dashti Qipchoq o`zbeklari kuchlaridan foydalanishar edi. 1451 yilda Urusxon nabiralari Abusaidga hokimiyatni egallah uchun yordam bergen bo`lsa, oradan 3 yil o`tgach, Abulxayrxon Muhammad Juqiyga hokimiyatni egallahga ko`maklashdi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarning bir-biridan o`zaro mustaqil bo`lgan uchta hokimiyati vujudga keldi.

1. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi.
2. Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi.
3. Andijonda Umarshayx Mirzo hukmronligi.

Bu uchala hokimiyat o`zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Temuriyzodalarning davlat boshqaruvi mustahkam tayanchga ega emasdi. Bu vaqtida Temuriylar huzurida ta'lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbaxt Shayboniy Dashti Qipchoqda ko`chmanchi o`zbek urug`larini birlashtirib, o`z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib, markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh Temuriylar, goh shimoldagi mo`g`ullar bilan ittifoq tuzdi. 1487-1488 yillarda O`tror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig`nok shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o`rtasida o`zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini Shayboniyxon 1500 yil boshlarida jangsiz egalladi. Ko`chmanchi o`zbeklar shaharni bir necha oy talon-taroj qildilar. Bu mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo`ldi. 1500 yilning o`zidayoq Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxtini egalladi. Ammo mahalliy oqsuyaklar Boburni qo`llab-quvvatlamadi. 1501 yil bahorida Bobur Shayboniyxon bilan bo`lgan jangda yengiladi va Samarqandni ko`chmanchi o`zbeklarga topshiradi.

Ko`chmanchi o`zbeklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Hisor (1504), Urganch (1505), Hirotda (1507) kabi shaharlar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg`oniston hududlarigacha cho`zilgan yerlarda markazlashgan Shayboniylar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik, ayrim hukmdorlarning ajralib, mustaqilligiga intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo`lsa, Shayboniyxon bunday tarqoqlikka chek qo`yib, mamlakat birligini mustahkamlay oldi. Shayboniyxonning janubga yurishi Eron shohi Ismoil tomonidan to`xtatildi. 1510 yilda Marv atrofidagi jangda ko`chmanchi o`zbeklar qo`shinlari tor-mor etildi va Shayboniyxon halok bo`ldi. Eroniylar tomonidan qo`llab-quvvatlangan Bobur 1511 yilda Hisor, Kulob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo 1512 yilda shayboniylardan bo`lgan Ubaydulla Sulton qo`shinlari G`ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoil birlashgan kuchlarini mag`lubiyatga uchratdi. Shundan so`ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Hindistonda o`z hokimiyatini o`rnatdi. Ko`chmanchi o`zbeklar esa Movarounnahrda o`rnashib qoldilar.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. 1469 yilda Xurosonda kim hokimiyatni egallaganini ko`rsating.
  - A. Mirzo Ulug`bek
  - B. Abulqosim Bobur
  - C. Husayn Boyqaro

- D. Abusaid Mirzo
2. XV asrda Movarounnahrda 3 ta hokimiyat vujudga kelgan edi. Bular qaysilar va kim tomonidan boshqarilgan?
- Samarqandda
  - Toshkentda
  - Andijonda
- Umarshayx Mirzo
  - Sulton Ahmad Mirzo
  - Sulton Mahmud Mirzo
3. Shayboniylar davlatiga qachon asos solinganini toping.
- XIII asrda
  - XIV asrda
  - XV asrda
  - XVI asrda
4. Yetmagan so`zlarni joyiga qo`ying: Shayboniylardan bo`lgan \_\_\_\_\_ Bobur va \_\_\_\_\_ birlashgan kuchlarini \_\_\_\_\_ yilda mag`lubiyatga uchratdi.
5. Shayboniylar davlati qaysi hududlarni egallagan?

## **2-asosiy savol:**

O`rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari.

## **DARSNING MAQSADI:**

O`rta Osiyo hududlari parchalanish sabablarini, mahalliy hukmdorlarning markazga bo`ysunmaslik siyosatini ko`rsatish, Ashtarkoniylar sulolasining hokimiyat tebasiga kelishini tahlil qilish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- Movarounnahrning hududiy parchalanishi sabablarini olib beradi.
- Ashtarkoniylar sulolasi haqida ma`lumot beradi.
- Feodal o`zaro nizolar mohiyatini olib beradi.
- Xonliklarning tashkil topishini izohlaydi.

## **2-savol bayoni:**

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so`ng Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo`ysunmay qoldilar. Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo`lgan bo`lsa, 1534 yildan butun markazlashgan o`zbek davlatining oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko`chirdi.

XVI asr 40-yillariga kelib, mahalliy sulolalar va feodallar o`rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552) bilan Buxoro xoni Abdulazizzon (1540-1550) o`rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo`yidagi shaharlar hukmdori Baroqxon yanada kuchaytirdi. U 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonkol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi.

1561 yili taxtga o`tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Uning o`g`li Abdullaxon II markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg`ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo`l ostida birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon vafotidan so`ng uning o`g`li Abdulmo`min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So`nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II ham bebosham amirlarni tiyib qo`ya olmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan Eron safaviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar foydalandilar. Eroniyilar Balxni, qozoq sultonlari Toshkentni egalladi, Xorazm inoqlari mustaqil bo`lib

oldilar. Buxoroda Astraxanlik Jonibek taxtni egalladi. Jonibek o`z o`g`illari foydasiga taxtdan voz kechdi va O`rta Osiyoda Ashtarxoniyalar sulolasini hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniyalar Balxni va Toshkentni qayta tortib, o`z davlatlari tarkibiga qo`shdilar.

Ashtarxoniy hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642), Abdulazizzon (1645-1680), Ubaydullaxon (1702-1711) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga qanchalik harakat qilinmasin, bu harakatlar ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amir va sultonlar o`zlarini joylashgan shahar va hududlarda hokimlik qilib, o`zlariga xo`jayin edilar. Abulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747) markaziy hokimiyat o`z ahamiyatini yo`qotib bordi. Hokimiyat asta-sekinlik bilan mang`it urug`lari qo`liga o`ta boshladidi. Bu urug` vakili bo`lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o`tirdi va Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshladidi.

Xorazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Unga Shayboniy urug`idan bo`lgan Elbarsxon (1512-1525) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. Xon hokimiyati qabila zodagonlari bilan cheklangan bo`lib, o`zaro nizolar va siyosiy kurashlar deyarli tinmagan. Bu davorda Xorazm chuqur inqirozni boshdan kechirdi. XVII-XVIII asr boshlarida Xorazmda siyosiy va iqtisodiy tanazzul davom etdi.

Feodal o`zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623) va uning o`g`illari davrida yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643), Abulg`ozixon (1643-1663), Anusha (1663-1687) lar davrida Buxoro bilan Xiva o`rtasida mamlakat ahvolini xarob qilgan urushlar bo`lib o`tdi.

Ashtarxoniyalar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Farg`ona xonlikdan alohida o`lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasidan bo`lgan Shohruxbiy Farg`onada hokimiyatni o`z qo`liga oldi. Minglar keyinchalik Sirdaryo havzasini, Yettisuvning bir qismini egalladi va Qo`qon xonligiga asos solishdi. Bu davlatning poytaxti Qo`qon shahri bo`ldi.

Shu tariqa ichki kelishmovchiliklar, nizolar, siyosiy parokandalik mamlakatning bo`linib ketishining asosiy sababi bo`ldi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Ashtarxoniyalar kim bo`lganini ko`rsating.
  - A. Dashti Qipchoq o`zbeklari
  - B. Astraxanlik Jonibek Sulton vorislari
  - C. Mahalliy zodagonlar
  - D. Qozoq qabilalari
2. Buxoro taxtiga amir unvoni bilan birinchi bo`lib kim va qachon o`tirganini ko`rsating.
  - A. 1702 yilda
  - B. 1645 yilda
  - C. 1711 yilda
  - D. 1753 yilda
  - 1) Ubaydullaxon
  - 2) Abdulazizzon
  - 3) Imomqulixon
  - 4) Muhammad Rahimxon
3. \_\_\_\_\_ sulolasidan bo`lgan \_\_\_\_\_ Farg`onada hokimiyatni o`z qo`liga olib, \_\_\_\_\_ yilda Qo`qon xonligiga asos soldi.
4. Xiva xonligiga \_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ urug`idan bo`lgan \_\_\_\_\_ asos soldi.

### **3-asosiy savol:**

O`rta Osiyoning xonliklarga bo`linib ketishining oqibatlari.

### **DARSNING MAQSADI:**

Xonliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tushuntirish, soliq turlari bilan tanishtirish, Movarounnahrning xonliklarga bo`linib ketishi oqibatlarini ochib berish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. Uch xonlikdagi feodal munosabatlarini tahlil qiladi.
- 3.2. Xonliklardagi soliq tizimini izohlaydi.
- 3.3. Mavarounnahrning xonliklarga bo`linib ketish oqibatlarini ochib beradi.

## **3-savol bayoni:**

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingen edi. Xonliklar hududida yer egaligining uchta turi – davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yeri mavjud edi. Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik bilan shug`ullanar edi. Asosiy soliq turlari hiroj, zakot bo`lib, turli majburiyatlar ham mavjud edi. Xiva xonligida begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo`lsa, Buxoro amirligida urush paytida olinadigan favqulodda soliq - jul, suv haqi, nimsara va boshqalar, Qo`qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatları bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o`rinni egallab, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko`rsatardi. Xonliklar ichidagi etnik guruhbozliklar fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to`sinq bo`lardi. Bundan tashqari turli urug` vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo`lish uchun boshqa urug` vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarardi. Xiva xonligida XVIII asrda turli urug` vakillaridan bo`lgan xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirardi. XVIII asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida qo`ng`irotlarning mavqeい osha bordi va 1845 yilda ular xonlik taxtini egallab, to 1920 yilgacha hukmronlik qilishdi.

Qo`qon xonligida hukmronlik qilgan minglar sulolasi istilochilik urushlari va o`zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og`irlashtirdi. Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingen ko`plab soliqlar xalqning noroziligiga sabab bo`ldi. Minglar sulolasi Qo`qonda 1710 yildan 1876 yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII-XVIII asrning I yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil xonlikka ajralib ketishi, ular ichidagi sulolaviy va o`zaro urushlar xalqning og`ir ahvolini yanada og`irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug`lariga qarshi uyushtiradigan mavsumiy talonchilik yurishlari, Buxoro amirligining Kitob va Shahrisabz bekliklariga qarshi olib borgan doimiy urushlari, Qo`qon xonligining Toshkent va Xo`jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari bitta xalqning parchalanishiga, o`zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo`ldi. Xonliklar hududidagi norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg`or fikr, yangilik diniy mutaassiblarning ta'qibiga uchrar edi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan, balki Qo`qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o`zaro aloqalari yo`q edi. Bu esa o`z navbatida, O`rta Osiyo ilm-fanini turg`unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabiiy fanlarga e'tibor umuman yo`qoldi. O`rta Osiyo xalqlari Yevropa fan-texnika taraqqiyotidan bexabar bo`lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o`rnatalgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo`lida bo`lib, ular madaniy aloqalarga, fan-texnika taraqqiyotining kirib kelishiga aytarli ta'sir ko`rsatmadni va o`lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat chor Rossiyasining o`z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O`rta Osiyon osonlik bilan bosib oldi.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Xonliklar hududiga yerga egalik turlari qatorini toping.
  - A. davlat yerlari, vaqf yeri, xususiy yeri
  - B. qabila yeri, amir yeri, lashkar yeri
  - C. vaqf yeri, lashkarboshilar yeri
  - D. vaqf yeri, xususiy yeri, qabilaviy yeri
2. Nima uchun xonliklar o`zaro tinch-totuv yashamagan?
3. Buxoro xonligi qachon amirlik deb yuritila boshlandi va kimning davrida?
4. Xonliklarda qaysi urug` vakillari hukmronlik qilganini aniqlang.
  - A. Xiva xonligida

B. Qo`qon xonligida  
 C. Buxoro amirligida  
 1) minglar sulolasi  
 2) qo`ng`irotlar sulolasi  
 3) mang`itlar sulolasi  
 4) Shayboniylar sulolasi  
 5) Ashtarkoniylar sulolasi  
 6) Temuriylar sulolasi  
 5. Rossiya bilan o`rnatilgan savdo aloqalarining o`lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sirini tahlil qiling.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Mamlakatning xonliklarga bo`linib ketishi sabablari va oqibatlari haqida tezis yozing.
2. Xonliklar davriga oid xronologik jadvallar tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Баений М.Ю. Шажарауи Хоразмшоҳиу.- Т.:G'.G'ulom, 1994
2. Бобобеков Х. Кўқон тарixi.- Т.:Fan,1996
3. Сомиу Мирза Абдулазим. Tarixi салотини мангитиYa.- М.,1962
4. O'zbekiston tarixi.- T.:Yangi asr avlod, 2003.
5. Sagdullayev A va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.:Akademiya, 2000
6. O'zbek davlatchiliigi tarixi очерклари – Т.:Sharq, 2000
7. O'zbekiston tarixi – T.:Universitet, 1999
8. O'zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005.

**CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.**  
**Ma'ruza darsning texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati bilan tanishtirish. Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari bilan tanishtirish, chorizm tuzumi zulmiga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik harakati maqsadi, mohiyati va oqibatlarini ochib berish. Jadidlar haqida tushuncha berish</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi haqida tushuncha berish.</li> <li>• O'lkada chor Rossiyasi iqtisodiy manfaatlarining amalga oshirishi haqida tushuncha berish.</li> <li>• Chor Rossiyasining Turkistonni ruslashtrish siyosati haqida tushuncha berish</li> <li>• Chorizm istibdodiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari haqida so'zlab beradi.</li> <li>• 1892 yilgi Toshkent va 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonlarini tushuntira oladi.</li> <li>• Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va uning faoliyatini tushuntirib beradi</li> </ul>	O'qituvchi

	<p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbatibahs, klaster.</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1 Uch xonlik boshqaruv tizimida qaysi munosabatir asos qilinganini ko'rsating?</li> <li>1.2 O'rta Osiyoda paxtachilikka kirib kelgan rus banklarini aytинг?</li> <li>1.3 Turkistonni ruslashtirish uchun chorizm amalga oshirgan tadbirlrni aniqlang?</li> <li>1.4 Turkistondagi Rus mustamlakachiligi va Hindistondagi ingliz mustamlakichiligini qiyosiy solishtiring?</li> <li>1.5. Turkiston general – gubernatorligi tashkil etilgan sanani toing?</li> <li>1.6. Andijon qo'zoloni va uning mag'lubiyat sababini aniqlang?</li> <li>1.7. Jadid so'zining ma'nosini aniqlang?</li> </ol>	
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko'rilaadigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishslash:</p> <p>3.1.Talabalarning fikrlari ketma–ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalg qilinadi.</p> <p>3.2.Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytilgan g'oyalar to'ldiriladi. Chorizm boshqaruv tizimining chizmasi chiziladi.</p>	O'qituvchi - talaba
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O'qituvchi

## **8 –MAVZU: CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI**

### **Asosiy savollar:**

1. Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi.
2. O`lkada chor Rossiyasi iqtisodiy manfaatlarining amalga oshirilishi.
3. Chor Rossiyasining Turkistonni ruslashtirish siyosati.
4. Chorizm istibbdodiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari.
5. Jadidchilik harakatining boshlanishi.

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Chorizm siyosati, mustamlaka tizimi, harbiy xalq boshqaruvi, general-gubernatorlik, iqtisodiy zulm oqibatlari, ko`chiruvchilik siyosati, ruslashtirish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar. Xalq harakatlari, Vabo qo'zg`oloni, Dukchi Eshon, g`azovot, demokratik harakatlar, mardikorlik, 1916 yil qo'zg`oloni, jadidchilik.

### **1-asosiy savol:**

Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi.

### **DARSNING MAQSADI:**

Turkistondagi chorizm mustamlakachilik boshqaruv tizimining mohiyatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Turkistonda chorizm joriy etgan mustamlakachilik boshqaruv tizimi xususiyatlarini

aniqlaydi.

1.2. «Harbiy xalq boshqaruvi» mohiyatini tushuntiradi.

1.3. O`lkadagi mustamlakachilik boshqaruv tizimi bo`g`inlarini yuqoridan quyiga ajratib ko`rsatadi.

### **1- asosiy savol bayoni:**

Chor Rossiyasi o`zining tish-tirnog`i bilan qurollangan harbiy kuchlaridan foydalanib, Turkiston xalqlarining mardona qarshiliklarini sindirib, har bir qishloq va shaharni egallash uchun minglab-o`n minglab mahalliy aholining, vatan himoyachilarining qonini to`kib, butun O`rta Osiyoni bo`ysundirdi.

1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o`lka to`la ravishda harbiylar qo`liga o`tdi va o`lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo`lgan Turkiston general-gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general-gubernatorligi lavozimiga general Fon Kaufman tayinlandi. U Rossiya imperatoriga 1873 yilda Turkiston o`lkasini boshqarishning yangi nizom loyihasini taqdim etdi. Nizom 1886 yilda podsho Aleksandr II tomonidan tasdiqlandi. Nizomning asosiy g`oyasiga ko`ra, o`lkada Rossiya hukmronligi yanada mustahkamlanishi, o`lka yerlari avvalgidek harbiy vazirga bo`ysundnrilishi nazarda tutilgan.

Xiva xonligi mustaqil qo`shin saqlash, tashqi siyosat olib borish huquqidan mahrum etildi. Uning xavfsizligini Rossiyadan keltirilgan kazak polklari ta'minlab turadigan bo`ldi.

1868 yil chorizm bilan Buxoro o`rtasida tuzilgan bitim asosida Samarcand, Jizzax, Xo`jand, O`ratepa va boshqa hududlar Rossiyaga o`tdi. Buxoro amirligi esa Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldi. Turkistonda harbiy gubernatorlik boshqarmalari ta`sis etildi. Harbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo`ldi. Voloct boshqarmalari, uyezd boshliqlari esa doimo harbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo`ldi. Qozilar mahalliy aholi o`rtasidagi huquqiy muammolarni shariat va odad normalariga tayanib, hal qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Ular general-gubernator tomonidan tasdiqlanib, uyezd boshliqlari nazorati ostida ish olib bordi.

Turkiston general gubernatorligining markazi Toshkentda boshqaruv 1870 yilgi shahar qoidasiga ko`ra to`liq podsho ma'muriyati qo`lida bo`ldi. 1877 yilda shahar Davlat dumasiga saylov bo`ldi. Saylangan 71 deputatning atigi 21 nafari mahalliy aholidan bo`ldi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan sanani toping.

- A. 1865 yil 9 may
- B. 1868 yil 23 iyun
- C. 1867 yil 14 iyul
- D. 1873 yil 12 avgust

2. Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi qaysi bo`limlardan iborat edi?

3. 1868 yil Turkiston general-gubernatorligi hududiga qo`shib olingan hududlarni toping.

- A. Samarcand, Qo`qon, Marg`ilon
- B. Samarcand, Jizzax, Xo`jand, O`ratepa
- C. Andijon, Toshkent, Chirchiq daryosi bo`ylari.
- D. Kaspiyorti, Kattaqo`rg`on, Amudaryo quyisi qismi

4. Turkiston general-gubernatorligi qaysi huquqlarga ega bo`lgan?

### **2- asosiy savol:**

O`lkada chor Rossiyasi iqtisodiy manfaatlarining amalga oshirilishi.

### **DARSNING MAQSADI:**

Chor mustamlakachilarining iqtisodiy zulmini yoritish, o`lkani xomashyo bazasiga aylantirish siyosatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

2.1. Rus mustamlakachilarining Turkistonni bosib olishdagi asosiy maqsadini biladi.

2.2 Chorizmning Turkistondagi iqtisodiy zulmini tahlil qiladi.

2.3. Chor Rossiyasi iqtisodiy zulmining oqibatlarini ko`rsatib beradi.

## **2-asosiy savol bayoni:**

Chor Rossiyasi Turkiston o`lkasini egallagandan keyin o`zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi. Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya guberniyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xom ashyo bilan ta'minlab turuvchi temir yo`llar qurildi. Shu maqsadda 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko`rfazi – Chorjo`y, Zakaspiy temir yo`li qurildi. 1888 yilda bu yo`l uzaytirilib, Samarqandga yetkazildi. 1906 yilda Toshkent-Orenburg temir yo`li ishga tushirildi. 1912 yilda Farg`ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo`l orqali bog`landi.

O`lkaning xomashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi o`rni mustahkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida yil sayin o`z ta'sirini kuchaytirdi. Ular o`lkadan xomashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo`jalik mahsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay, sug`oriladigan yerlarni sotib olib, paxta ekishni kengaytirdi. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, mahalliy sudxo`r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular asosan xomashyo yetishtirish yo`liga o`tib olgan dehqonlarga kelasi yil oladigan hosili hisobidan pul qarz berar edi. Dehqonlarning moddiy ahvoli og`irlashgan sari, ularning hosildan tushgan daromadi qarzini uzishiga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga ham yetmas edi. Buning natijasida bir tomonidan, dehqonlarning yersizlanishi ortib boraversa, ikkinchi tomonidan, katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo`rlar qo`lida to`plandi.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo`lgan ehtiyojning ortib borishi bu yerdarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga zo`r berishni kuchaytirdi. Shu maqsadda o`lka yerlarida paxtaning Amerika navlarini yetishtirishni yo`lga qo`yish bo`yicha ilmiy ishlar olib boruvchi stansiyalar tashkil etildi. Hatto bu navlarni o`rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuborildi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o`lka paxtachiligidagi yetti barobar ko`paydi.

Rossiya uchun Turkistondan ko`proq foyda ko`rish maqsadida o`lkaning o`zida xomashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishildi. 1900 yilgacha Turkistonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80% ni paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O`lkaning o`zida ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan sanoatning rivojlanishi va Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlari asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelayotgan aholini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida hunarmandchilikning ko`plab sohalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo`lgan hunarmandlar ham yersiz dehqonlar singari ishsizlar safini to`ldirib bordi. O`lkaning ko`plab unumdar yerlariga paxta ekinishi boshoqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o`zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo`ldi. G`alla mahsulotlari o`lka Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o`zi narx-navoni belgiladi. Sanoatda band bo`lgan mahalliy ishchilarining turmush sharoiti yana ham og`ir edi. Chunki ularning ish haqi rusiyabzon ishchilaridan 2- 2,5 barobar kam bo`lsa, olinadigan soliqlar va jarimlar shuncha ko`p edi.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Rus mustamlakachilarining O`rtta Osiyoni bosib olishdan asosiy maqsadi nima edi?

2. Chorizmning Turkistonda iqtisodiy hukmronlikni oshirish sohasidagi tadbirlari va uning oqibatlarini tushuntiring.

3. Chorizm yuritgan iqtisodiy siyosat natijasida Turkistonning qoloiq iqtisodiyoti yuksalgani to`g`rimi va nima uchun?

### **3-asosiy savol:**

Chor Rossiyasining Turkistondagi ruslashtirish siyosati.

### **DARSNING MAQSADI:**

Chorizmning Turkistonda mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlari va uning oqibatlarini ko`rsatib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

3.1. Mustamlakachilarning Turkistonda amalga oshirgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarini tahlil qiladi.

3.2. Chor Rossiyasining o`lka xalqlari madaniy hayotiga salbiy ta'sirini aniqlaydi.

3.3. Chor Rossiyasining ruslashtirish siyosati oqibatlarini biladi.

### **3-asosiy savol bayoni:**

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biri Turkiston o`lkasini ruslashtirishdan iborat bo`ldi. Podsho hukumati Turkistonni ko`p minglab yersiz dehqonlarni, ishsizlarni ko`chirib keltiradigan, rus inqilobchilari va sotsial-demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan minglab Rossiya monarxiyasining raqiblari Turkistonning yirik shaharlariga joylashib oldilar. Rossiyadan ko`chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi. Ularning joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko`p miqdorda mablag`lar ajratildi, o`zini o`nglab olgunga qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turildi.

Yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko`proq ekin maydonlariga ega bo`ldi, ma'lum muddatgacha soliqdan ham ozod qilindi. Natijada, rus dehqonlari qisqa vaqtida ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini ham yaxshilab oladilar. Bunday imtiyozlarni chor ma'murlari "Rossiyadan ko`chib kelayotganlar bo`sh yerlarni o`zlashtirishga, bog`lar yaratishga yordam beradi", deb ko`rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab aholining O`rta Osiyoga kirib kelishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotan ichki ziddiyatlarni hal etishning bir yo`li bo`ldi. Mustamlaka o`lkada ko`p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo`ldi. Ular ayni bir vaqtida mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo`lgan harakatlarini bo`g`ib turish uchun tayanch vazifani bajarar edi.

Chorizmning Turkistondagi madaniy-ma'rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to`la bo`ysundirildi. Bu boradagi siyosat mahalliy aholining ma'naviy hayotiga aralashmaslik, deb ko`rsatilgan bo`lsa-da, aslida aholini ruslashtirish, milliy madaniyatni cheklash, kamshitishdan iborat bo`ldi. Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. Yillar davomida o`rta va oliy diniy ta`lim beruvchi madrasalarni rivojlantirish borasida hech qanday amaliy tadbirlar o`tkazilmadi. O`lkada rus-tuzem maktablari haqidagi loyiha binoan 1884 yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqodlariga ta'sir o`tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda yashash uchun Rossiya ma'muriyati eski mustamlakachi davlatlarning o`z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ilminski, Ostromov va boshqa missionerlarning o`lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir. Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatlarni yaxshilash borasida ham biron bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdлarda bir, yoki ikki vrach bo`lib, ular ham asosan soldatlar va rus aholisiga yordam ko`rsatish bilan band bo`lganlar.

O`lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarni kuchayishiga sabab bo`ldi.

### **NAZORAT TOPSHNRIQLARI:**

I. Turkistonni ruslashtirish uchun chorizm qaysi tadbirlarni amalga oshirgan?

3. Rus-tuzem maktablarida qaysi bilimlarga ega bo`lingan?

4. Rus mustamlakachilarining Turkiston madaniy-ma'rifiy hayotiga salbiy ta'sirini yorituvchi manbalardan qaysilarini bilasiz?

#### **4-asosiy savol:**

Chorizm istibdodiga qarshi milliy-ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari.

#### **DARSNING MAQSADI:**

Mustamlakachilik zulmini keltirib chiqargan sabablar va mohiyatini yoritib berish, milliy ozodlik va demokratik harakatlarni harakatlantiruvchi kuchlarini aytib o'tish, qo`zg`olonlarning o`ziga xos tomonlarini tushuntirish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Chorizmning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosatini baholaydi.
- 1.2. 1870-90 yillardagi qo`zg`olonlar mohiyatini ochib beradi.
- 1.3. Chorizm istibdodiga qarshi qo`zg`olon va harakatlar oqibatlarini tahlil qiladi

#### **1-asosiy savol bayoni:**

O`lkada XIX asr 2-yarmiga kelib, chor Rossiyasining mustamlakachilik, shovinistik siyosati mahalliy aholi milliy ozodligi uchun kurashining kuchayishiga Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida chor Rossiyasi armiyasining O`rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan, unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining ag`darilishiga qadar davom etganligi haqidagi ma'lumotlar qayd qilinadi. Jumladan, 1837-1846 yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi va Buxoro xonligining Buxoro shahri, Shahrisabz bekligidagi harakatlar; 1871 yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligidida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar; 1871 yildagi Farg`onada Yetimxon qo`zg`oloni, 1872 yilda Chirchiqdagi isyonlar; 1873-76 yillar Qo`qondagi Po`latxon qo`zg`oloni; 1892 yildagi Toshkent qo`zg`oloni; 1898 yildagi Andijonda Dukchi Eshon qo`zg`oloni; 1899 yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar; 1916 yildagi Jizzax qo`zg`oloni kabi yirik va ommaviy tus olgan kurashlarni qayd qilishimiz mumkin.

XIX asr 70-yilning boshlaridagi Farg`onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868 yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib, Qo`qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergen va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo`qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik Shaufus ma'lumotlariga qaraganda, norozi beklar tepasida Abdurahmon Oftobachi turgan. 1872 yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati, ayniqsa, kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon Oftobachi tanishi mulla Ishoq Hasan o`g`lini qirg`izlar orasida Po`latxon nomi bilan qo`zg`olon ko`tarishga undaydi va o`zi ham bu harakatga qo`shiladi. 1873 yilda boshlangan bu qo`zg`olonda oddiy xalq, dehqonlar, hunarmandlar ishtirok etib, bu harakat butun Farg`ona vodiysi bo`ylab yoyildi. Xudoyorxonning o`g`li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo`shinlari ham qo`zg`olonchilarni qo`llab-quvvatlashdi. Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so`rab, Toshkentga qochdi. Qo`qon taxtiga uning o`g`li Nasriddinbek (1875-76) xon qilib ko`tarildi. Qo`zg`olonchilar kelishuviga binoan esa Po`latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko`tarilishi va ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, qo`zg`olonchilar o`rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg`ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po`latxon tarafдорлари yarlarni kambag`allarga bo`lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo`qon xonligining ruslarga qarashli bo`lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini havotirga solib qo`ydi va Kaufman Qo`qon xonligini tugatish to`g`risida podshoning roziliginini so`rab, iltimosnama jo`natdi. Qo`qon xonligiga Skobelev boshchiligidagi harbiy jazo otryadi kiritildi. Harbiy jihatdan ustun bo`lgan rus qo`shinlari qo`zg`olonchilarni tezda mag`lubiyatga uchratdi.

Po`latxon qo`shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875 yilda Toshkent viloyatida Ohangaron, Telov, Pskent, Toshkentda bo`lib o`tgan harakatlarni o`z ichiga oldi. Qattiq zarbaga uchragan qo`zg`olonchilar 1876 yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom

ettirdilar. Ammo harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876 yil 1 martda Po`latxon tutib olinib, Marg`ilonda osib o`ldirildi. Boshqa qo`zg`olonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyrug`i bilan Qo`qon xonligi tugatilib, Farg`ona viloyati tashkil etildi.

Farg`ona vodiysidagi 70-80 yillardagi xalq harakatlarida Qurbonjon dodxoh, Yetimxon, Darvishxon to`ra, Yoqubbek boshchilpgidagi qo`zg`olonlarni ham qayd qilishimiz mumkin. Qurbonjon dodxoh rus qo`sishinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Rus generali Skobelev u bilan sulh tuzdi va uni "Oloy malikasi" deb atadi.

1892 yilgi Toshkent qo`zg`oloni ko`plab adabiyotlarda rus hukumatini o`lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrining o`zida ko`rilgan chora-tadbirlarga qarshi ko`tarilgan qo`zg`olon deb ta'riflangan bo`lsa-da, aslida u chor Rossiyasining o`lkada ko`p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi. Rus hukumatining vaboning oldini olish uchun ko`rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e'tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi natijasida, sabr kosasi to`lgan xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Natijada qo`zg`olonda Toshkent shahri aholisining barcha qatlamlari ishtirot etdi. Mahalliy aholi diniy bayrami "Qurban hayiti" kunida boshlangan qo`zg`olon tezda chor askarlari tomonidan bostirilib, qo`zg`olonchilardan 8 kishini dorga osib o`ldirilishiga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o`tashga hukm qilishdi. Lekin chor Rossiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo`lishidan cho`chib, o`lim jazosini umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo`zg`olon Toshkent shahrida yuz bergen bo`lsa-da, uning aks-sadosi butun Turkiston o`lkasi bo`ylab tarqaldi.

XIX asr oxirlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy ozodlik harakatining yorqin namunasi 1898 yil may oyida Andijonda bo`lib o`tgan Dukchi Eshon qo`zg`olonidir. Bu qo`zg`olon rahbari Muhammadali Eshon o`z davrining obro`li, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar, davr siyosatini to`g`ri tushungan shaxs edi. U o`z muridlari va hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib borayotgan zulmkor siyosatini qoralari edi.

Dukchi Eshon Mingtepa qishlog`idan turib, Farg`ona shaharlari va qirg`iz yerlaridagi mustamlakachilardan norozi aholini birlashtirish va bu zulmni ag`darib tashlashga harakat boshladi. Qo`zg`olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo`qligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo`zg`olonning tezda mag`lubiyatga uchrashiga sabab bo`ldi, ayniqsa, qo`zg`olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi uning mag`lubiyatiga asosiy sabablardan biri bo`ldi. Qo`zg`olon bostirilib, uning rahbarlari qattiq jazolandi. Qo`zg`olon natijasida Farg`ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi.

XX asr boshlariga kelib, Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat Turkistonga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. O`lka hududida demokratik-inqilobi harakatlar avj ola boshladi. Turkiston o`lkasi hududida temir yo`llarning qurilishi, zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi Rossiya markaziga ko`plab o`lka boyliklarining chiqib ketishini osonlashtirdi. Bu mahalliy aholi ahvolini yanada og`irlashtirdi. Turkiston o`lkasi hududida dehqonlar g`alayonlari, norozilik chiqishilari ortib bordi. 1904-1907 yillardagi Nomoz Primqulov boshchiligidagi harakat shu chiqishlarning eng ko`zga ko`ringanidir. Samarqand, Jizzax atrofidagi bu harakatda Nomoz yigitlari, mahalliy amaldorlar va rus mustamlakachilariga qarshi kurash olib borib, ulardan tushgan o`ljalarni kambag`al xalqqa bo`lib berar edi. Chor ma'murlarining ayyorlik bilan olib borgan ishlari natijasida Nomoz yigitlari orasiga xoinlar kiritildi va Nomozning o`zi ham josuslar tomonidan o`ldirildi.

1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushiga Rossiyaning tortilishi natijasida mahalliy xalqdan olinadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Turkiston o`lkasi hududida yersiz dehqonlarning soni ko`paydi. Rossiya frontda va front orqasidagi qora ishlarda mahalliy

aholi vakillaridan foydalanish uchun 1916 yil 25 iyunda farmon chiqardi. Ushbu farmonga muvofiq hozirgi O`zbekiston hududidan 19-43 yoshgacha bo`lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlarga (mardikorlikka) chaqiriladigan bo`ldi. Ular uch oyda qaytib kelishlari va bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta'minlanishi va'da qilindi. Ro`yxatga olish davomida boylarning bolalarini pul evaziga ro`yhatga kiritishmadni. Bu xalq noroziligini ortib borishiga sabab bo`ldi. 1916 yil iyul oyidan mahalliy aholining qo`zg`oloni boshlandi. 4 iyul kuni Xo`janda, 5 iyul Samarqand viloyatida, 9 iyul kuni Qo`qon uyezdida, 10 iyul kuni Marg`ilonda, 11 iyulda Samarqand va Toshkentda mardikorlikka olishga qarshi qo`zg`olonlar boshlandi. 1916 yil 18 iyulda butun Turkiston harbiy holatda deb e'lon qilindi.

1916 yildagi qo`zg`oloning eng kuchaygan nuqtasi 13 iyul kuni boshlangan Jizzax qo`zg`oloni bo`ldi. Jizzaxdagi qo`zg`olonga Nazirxo`ja Abdusalom o`g`li, Abdurahmon Jevachi kabi "xalq beklari" boshchilik qilib, aholini mustaqilbeklik tuzishga chaqirdilar, qo`zg`olon davomida temiryo`l bekatlari, ko`priklar vayron qilindi. Polkovnik Afanasyevning jazo otryadi qo`zg`olenchilardan yengiladi. Shundan keyin polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta jazo otryadi qo`zg`olonni shafqastizlik bilan bostiradi. Chor qo`shinlari bilan so`nggi to`qnashuv 1916 yil 21 iyulda Qilich qishlog`ida bo`lib o`tdi. Mingga yaqin kishi hibsga olinib jazolandi. 1916 yilgi qo`zg`olon hukmron sinflarning zulmiga qarshi qaratilgan xalq qo`zg`oloni edi. Qo`zg`olonni harakatga keltirgan asosiy kuch dehqonlar va hunarmandlar, kambag`allar bo`ldi. Qo`zg`olenchilarni mahalliy ziyyolilar, ruhoniylarning bir qismi qo`llab-quvvatladi. Qo`zg`olon bostirilgach, uning yo`lboshchilari jazoga tortilib, o`limga mahkum etildi. Jami 51 kishi qatl qilindi. 168 kishi surgun qilindi. 128 kishi qamaldi, 228 kishi turli xizmatlarga safarbar etildi. 1916 yilgi qo`zg`olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo`zg`olon bo`ldi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik va demokratik harakatlarning kelib chiqish sabablarini toping.
  - A. Iqtisodiy zulm, xalq hayotining qashshoqlashuvi
  - B. madaniyatning oyoq osti qilinishi
  - C. ruslashtirish siyosati
  - D. Hamma javob to`g`ri
2. Vabo qo`zg`oloni qachon bo`lib o`tdi?
  - A. 1890 yil
  - B. 1891 yil
  - C. 1892 yil
  - D. 1893 yil
3. Voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
  - 1) Madalixon qatl qilindi
  - 2) Vabo qo`zg`oloni boshlandi
  - 3) Xudoyorxon vafot etdi
  - 4) Nasriddinbek Qo`qon taxtini egalladi
  - 5) Jizzax qo`zg`oloni bostirildi
4. 1916 yilgi qo`zg`olon sabablari nimada edi?
5. Andijon qo`zg`oloni nima uchun mag`lubiyatga uchradi?

#### **5-asosiy savol:**

Turkistonda rus mustamlakachiliga qarshi demokratik harakatlar. Jadidchilik

#### **DARSNING MAQSADI:**

Jadidchilik harakati maqsadlarini ochib berish, jadidlar amalga oshirgan tadbirlarni yoritish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Jadidchilik harakati vujudga kelishini sharhlaydi.
- 2.2. Jadidchilik g`oyalarini ochib beradi.

2.3. Turkiston jadidlari faoliyatiga baho beradi.

### **2-asosiy savol bayoni:**

XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida Turkiston xalqlari o`ziga xos ijtimoiy, siyosiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotini boshidan kechirdi. Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o`z milliy davlatchiligin tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo`l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko`rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o`ynadi.

Jadidchilik harakatining g`oyaviy otasi qrimlik Ismoilbek G`asprali (1851-1914) 1884 yilda Qirimdag'i Bog`chasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi va o`zi dastur tuzib, darslik yozdi. Uning o`qitish usuli "usuli saftiya", ya'ni "yangi usul" nomi bilan shuhrat qozondi. Ismoil G`aspirali nashr etgan "Tarjimon" jurnali mahalliy yoshlar orasida yangicha ijtimoiy qarash uyg`otdi. Bu qarash natijasida ziyolilar orasida tabaqalanish yuz berdi. Taraqqiyparvar kishilar yangi usul tarafдорлари - "jadidlар", eski usulda o`qitish tarafдорлари - "qadimlar" deb atala boshladi.

Jadidlар оғолининг о`сishida "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Siroti mustaqim» gazeta va jurnallari katta rol o`ynadi. Ismoil G`asprali 1893 yilda Buxoro amirligida birinchi jadid maktabi "Muzaffariya"ning ochilishiga sababchi bo`ldi. Turkiston jadidlarining eng yirik vakillaridan biri toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1929), 1901-1904 yillarda Toshkentda yangi usul maktablarini ochdi. Jadidchilik harakatining yirik yetakchi rahbarlaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1931) 1911 yilda jadid maktablari uchun darsliklar yaratdi.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiyo yo`nalishdan iborat bo`lgan:

- 1) yangi usul maktablari tarmog`ini kengaytirish;
- 2) umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o`qishga yuborish;
- 3) turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxon`ja Asadullaxon`jaev, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho`lpon, Abdurauf Fitrat va boshqa ziyolilar jonbozlik ko`rsatishdi. Yangicha o`qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko`ra maktablarda o`qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo`lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo`lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o`qigandan ko`ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinci bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so`zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edi. Adabiyotda ham til, janr, shakl, mavzu, uslub borasida yangiliklar ro`y berdi. Jadid ulamolari o`z asarlarini vaqtli matbuotda e'lon qilib, ularda mavjud jamiyatning salbiy tomonlarini ochib berishdi. Jadid ulamolarining publisistik maqolalari, badiiy asarlari "Samarqand", "Oyina", "Sadoi Turkiston", "Yurt", "Najot" kabi gazeta va jurnallarda nashr qilinari edi.

Turkistonning yangi ziyolilari dastlabki yaratgan asarlarida XX asr qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy ongni davr darajasiga ko`tarish g`oyalarini yoritdilar. Turkistonda mustamlakachi ma'murlar, shuningdek, amirlar, xonlar va din peshvolarining jadid matbuotiga qarshi olib borgan kurashi jadidlarni madaniy islohotdan siyosiy qarshilik ko`rsatishga olib keldi. Jadidlarning dastlabki siyosiy harakatlarida ma'rifiy xayriya jamiyatlarini tuzish, firqalar tashkil etish, mavjud tuzum kamchiliklarini fosh etish yaqqol ko`zga tashlanadi. Shuning uchun ham jadidlarga chor ma'murlari ham, xon va amirlar ham qattiq qarshilik ko`rsatishdi, joylarda ularning faoliyatini ta'qilashdi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. "Jadid" so`zining ma'nosi bu:

A. Yaratuvchilik

B. yangi usul

- C. Uyg`onish  
D. Mustaqillik
2. Jadidlarning oldiga qo`yilgan maqsadlari nimadan iborat edi?
  3. Voqealarni ketma ketlikda joylashtiring.
    - 1) "Samarqand" gazetasi chiga boshladi
    - 2) "Muzaffariya" jadid maktabi ochildi
    - 3) "Xurshid" gazetasi chop etilishi to`xtadi
    - 4) Bog`chasaroy shahrida jadid maktabi ochildi
    - 5) Andijonda jadid maktabi ochildi  4. Mahmudxo`ja Behbudiy faoliyatiga baho bering.
  5. Munavvar Qori kim bo`lgan va uning jadidchilikda tutgan o`rni nimada ifodalanadi?

#### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Turkistondagi rus mustamlakachiligi va Hindistondagi ingliz mustamlakachiliginini qiyosiy tavsiflang.
2. Ruslashtirish siyosati oqibatlarini ohib bering.
3. Abdurahmon oftobachi va Po`latxon qo`zg`olonlarini qanday baholash mumkin?
4. Jadidlarning madaniy islohotdan siyosiy qarshilik ko`rsatishga o`tishi sabablari nimada edi?
5. «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» ni jadid tashkilotlari desa bo`ladimi, nima uchun?

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Истиқлол ва Ma'naviyat. –T.:O'zbekiston, 1994.
2. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Turkiston РусиYa босқини davrida. - Андижон: Мерос, 1995.
3. Мажидиу Ҳ. Turkiston босқини. - T.:Nur, 1992.
4. Аҳмаджонов Г'. Россия империяси Марказий Осиёда – Т.:Таълим манбаси, 2003
5. Алимова Д. ва boshqalap. Tarix shohidlari va saboqlari – T.:Sharq, 2001
6. O'zbekistonning Yangi tarixi. 1 kitob. Turkiston chorizm mustamlakasi davrida – T.:Sharq,2000
7. O'zbekiston tarixi – T.:Yangi asr avlod, 2003
8. O'zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005.

#### **TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'R NATILISHI. MUSTABID TUZUMGA QARSH QUROLLI HARAKATI. Ma'ruza darsning texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:  Dars maqsadi: Talabalarni O'zbekiston SSRning tashkil topishi, O'zbekistonda istiqlolchilik harakati bilan tanishtirish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 1917 yil fevral inqilobining Turkistonda ta'siri va Sho'roi Islomiya, Sho'roi ulamo faoliyati bilan tanishtirish.</li> <li>• Oktyabr to'ntarilishi va Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi uning shovinistik siyosati haqida ma'lumot berish.</li> <li>• «Turkiston muxtoriyati»ning tuzilishi va tor – mor keltirilishi va harbiy kommunizm siyosati haqida ma'lumot berish.</li> </ul>	O'qituvchi

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Turkistonda Istiqlolchilik harakati, uning bosqichlari va tarixiy ahamiyati va Farg'ona vodiysi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qarshilik ko'rsatish harakati haqida ma'lumot berish.</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, bahs, klaster</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. «Sho'ro islomiya» tashkilotiga kim boshchilik qilganini toping ?</li> <li>1.2. Butun Turkiston musulmonlarining I qurultoyi qachon ish boshlagan?</li> <li>1.3. Turkistonda istiqlochilik harakatini boshlab bergan qo'rzboshini toping?</li> <li>1.4. Turkistonda istiqlolchilik harakatini birinchi davra qaysi yillarni o'z ichiga oladi?</li> </ol>	
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalg qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytilgan g'oyalari to'diriladi. Istiqlolchilik harakati bosqichlarini ajratib ko'rsatiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytiladi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi. Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O'qituvchi
V	<p>TMI topshiriqlari beriladi</p> <p>Dars Yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.</p>	O'qituvchi

## **9 MAVZU: TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O`RNATILISHI, ISTIQLOLCHILIK HARAKATI**

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

**Asosiy savollar:**

1. 1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri
2. Oktyabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o`rnatilishi, uning shovinistik siyosati
3. «Turkiston muxtoriyati»ning tuzilishi va uning tor-mor keltirilishi
4. Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Inqilob, "Sho'roi islom", "Sho'roi ulamo", Muvaqqat hukumat, qurultoy, Oktyabr to'ntarishi, xalq komissarlari Soveti. Turkiston muxtoriyati, bolsheviklar, Qo'qon fojeasi, istiqlolchilik harakati, qo'rishi, g`oyaviy rahnamolar.

**1-asosiy savol:**

1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri.

**Darsning maqsadi:**

1917 yil fevral inqilobidan keyingi Turkistondagi vaziyatni tushuntirish, Turkiston ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari faoliyatini sharhlab berish, inqilobning Turkistondagi demokratik

harakatga ta'sirini ko`rsatish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLAR:**

1.1. 1917 yil fevral inqilobining Turkistondagi vaziyatga ta'sirini ochib beradi.

1.2. O`lka musulmonlari tashkilotlarining faoliyatini izohlaydi.

1.3. O`lkadagi demokratik harakat maqsadlarini aniqlaydi.

#### **1-asosiy savol bayoni:**

1917 yil fevral inqilobi g`alabasi Turkiston o`lkasiga ham o`z ta'sirini o`tkazdi. Turkistonda ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifa vakillaridan tuzilgan ijroiya qo`mitalar tashkil etila boshlandi. Toshkentdagi dahalarning vakillari to`planib, "Sho`roi Islom" tashkilotini tuzdilar. 1917 yil mart oyida o`lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy masala bo`lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g`oyasi nafaqat demokratik ziyorolar o`rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham keng tarqaldi. 31 mart kuni rus podshosining o`lkadagi tayanchi - Turkiston general-gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917 yil aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shchepkin raisligida Turkiston qo`mitasi tashkil qilindi. 9 kishidan iborat bu qo`mita a`zolarining to`rttasi: Buxeyxonov, Tinishboyev, Maqsudov va Davlesthin turkiy xalqlar vakillaridan edi.

Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi sharoitida Toshkentda 1917 yil 16 aprelda "Sho`roi Islomiya"ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining 1 qurultoyi ish boshladi. Qurultoyning so`nggi majlisida markaziy rahbar organ-Turkiston O`lka musulmon Sho`rosi tashkil etilish haqida qaror qabul qilindi. Shunday qilib, Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam qo`yildi. Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Munavvar Qori boshchiligidagi "Sho`roi Islomiya"dan 1917 yil iyun oyida asosan diniy ulamolardan tashkil topgan "Sho`roi Ulamo" ajralib chiqdi.

Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o`rtasidagi ushbu bo`linishdan ustalik bilan foydalanishga urindi. Sentyabr voqealari natijasida Toshkent Soveti hokimiyatni qo`lga olishga harakat qildi. 1917 yil 10 sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining 2 qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentyabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o`lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo`llarini bir-biridan ajratib yubordi.

Toshkentda 1917 yil 17-20 sentyabrda turkistonlik va qozoq musulmonlarining qurultoyida "Sho`roi Islomiya", "Sho`roi Ulamo", "Turon" va boshqalarni biriktirish yo`li bilan butun Turkiston va Qozog`iston uchun umumiy bo`lgan "Ittifoqi muslimin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilishdi. "Ulamochilar" qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o`lkasining bo`lg`usi siyosiy boshqaruvi to`g`risida bo`lib, unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federastiya - Turkiston Federativ Respublikasi tuzilishi g`oyasi olg`a surildi. Fevral inqilobining ta'siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari ommaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy xalqlar tillarida gazetalar chiqa boshladi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Butunturkiston musulmonlarining 1 qurultoyi qachon ish boshlaganini toping.

A. 1917 yil 27 fevralda

B. 1917 yil 25 martda

C. 1917 yil 16 aprelda

D. 1917 yil 10 sentyabrda

2. Oktyabr to`ntarishi arafasida Turkistonda \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ kabi mahalliy tashkilotlar faoliyat ko`rsatgan.

3. "Sho`roi Islomiya" tashkilotiga kim boshchilik qilganini toping.

A. Tinishboyev

B. Munavvar Qori

C. Maqsudov

D.Zakiy Validiy

4. "Sho`roi Ulamo" tashkiloti qanday maqsadlarni ko`zlagan?

5. Oktyabr to`ntarishi arafasida Turkistonda qaysi siyosiy kuchlar faoliyat ko`rsatishgan?

## **2-asosiy savol:**

Oktyabr to`ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o`rnatalishi, uning shovinistik siyosati.

### **Darsning maqsadi:**

Turkistonda Oktyabr to`ntarishi oqibatlarini ochib berish, Oktyabr to`ntarishidan so`ng hokimiyat uchun kurashni tushuntirib berish, Xalq Komissarlari Sovetining tuzilishi va dastlabki faoliyatini sharhlab berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

2.1. Turkistonda Oktyabr to`ntarishidan keyingi hokimiyat uchun bo`lgan kurashni sharhlab beradi.

2.2. Bolsheviklar va mensheviklar harakatlariga baho beradi.

2.3. Mustaqil davlat tuzish huquqining amalda qanday oshirilganligini tahlil qiladi

### **2-asosiy savol BAYONI:**

1917 yil sentyabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli rossiyalik ishchilarni o`z tomoniga torta olgan edi. Toshkentdagagi Oktyabr to`ntarishi qatnashchilari 1 noyabrda Bosh komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston komitetini qamoqqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyati o`rnatalganligi e'lon qilindi. Qurollangan rusiyzabon ishchilar, asosan temiryo`lchilar, Toshkent garnizonining soldatlari bilan birgalikda bir guruh mahalliy binokor ishchilarning xayrixohligi bilan davlat to`ntarishini o`tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o`lkadagi butun hokimiyatni o`z qo`llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordi. 1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo`lib o`tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o`lka s`yezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston xalq komissarlari Soveti tuzildi. U 8 ta so`l eser va 7 ta bolshevikdan iborat edi. Hukumatga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. Sherali Lapin boshliq "Ulamochi"lar, menshevik va so`l eserlarning O`lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadidi. Bu esa bolsheviklar tarafidan milliy masalada yo`l qo`yilgan katta siyosiy xatolik bo`lib, bunda Sovet rahbarlarining shovinistik kayfiyatları ochiq namoyon bo`ldi. Hukumatning bunday ziddiyatli tarkibi o`lkada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamladi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2 noyabrda "Rossiya xalqlari huquqlarining deklarasiyasi" va 20 noyabrda "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mahnatkashlariga" murojaatnomasini e'lon qildi. Dabdabali deklarasiyada xalqlarning o`z taqdirini o`zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi berildi; hamma va har qanday milliy, diniy va boshqa cheklashlar bekor qilindi. Ushbu deklarasiyalar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda quruq tashviqot bo`lib chiqdi. Ko`p o`tmay Turkiston XKS "Sho`roi Islomiya", "Sho`roi Ulamo" tashkilotlarini tarqatib yubordi. Keyinchalik bu tashkilotlarning rahbarlari "Turkiston muxtoriyati"ga kirib, milliy istiqlol harakatida qatnashdi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Turkiston xalq komissarlari Soveti qachon tuzilgan va unda nechta mahalliy vakil kiritilganini ko`rsating.

A) 1917 yil 17-20 sentyabrdra

B) 1917 yil 22-25 oktyabrdra

C) 1917 yil 15-22 noyabrdra

1) 8ta

2) 3ta

- 3) biron ta qo'shimcha kiritilmadi
2. 1) "Rossiya xalqlari huquqlarining Deklaratsiyasida:
- 2) "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojaatnomasida:
- A. Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi, xalqlarga mustaqil davlat tuzish huquqi berildi.
- B. Xalqlarga ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi berildi, barcha cheklashlar bekor qilindi.
- C. Rasmiy ravishda tan olingan huquqlar amalga oshirildi.
- D. Ikkala hujjatda rasmiy ravishda o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi tan olingan bo'lsa, amalda quruq gap bo'lib chiqdi.
3. "Sho'royi ulamo" tashkilotiga kim boshchilik qilgan?
- A. Munavvar Qori
- B. Behbudiy
- C. Sherali Lapin
- D. Fayzulla Xo'jayev
4. Oktyabr to'ntarishi qachon bo'ldi?

### **3- asosiy savol:**

«Turkiston muxtoriyati»ning tuzilishi va uning tor-mor keltirilishi.

### **DARSNING MAQSADI:**

«Turkiston muxtoriyati» tashkil topishi va maqsadlarini ochib berish, Qo`qon fojeasi oqibatlarini tushuntirish, Turkiston muxtoriyati mustaqillik sari qadam bo`lganligini talabalar ongiga singdirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLAR:**

- 3.1. Turkiston muxtoriyati faoliyatiga baho beradi.
- 3.2. Qo`qon fojeasi oqibatlarini tahlil qiladi.
- 3.3. Sovetlar hokimiyatining Turkiston muxtoriyatiga munosabatini aniqlaydi.

### **3-asosiy savol bayoni:**

1917 yil 26-28 noyabrda Qo`qon shahrida Turkiston o`lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo`lib o`tadi. Qurultoya demokratik musulmon ziyorolarini talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham teng huquqli bo`lib ishtirok etdilar. Turkistonni boshqarish tuzumi to`g`risidagi masalada uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyning barcha viloyatlardan vakil bo`lib kelgan qariyb 200ga yaqin qatnashchilari muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish g`oyasini qo`llab-quvvatladilar. Qurultoya qabul qilingan qarorda "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z taqdirini o`zlarini belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi". 28 noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, "Turkiston muxtoriyati" deb ataladigan bo`ldi. Butunrossiya Ta`sis majlisi chaqirig`iga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qo`lida bo`lishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi a'zolaridan tuzilgan Muvaqqat hukumat hay'ati tarkibiga 8 kishi saylandi, ulardan 4 o`rin rusiyabon aholi vakillariga ajratildi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shundan uchdan ikki qismi, ya'ni 36 nafari mahalliy aholidan edi. Turkiston muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o`rtasida katta e'tibor qozondi. Afsuski, o`lka bolsheviklari Turkiston muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston Sovetlarining IV s'yezdi Turkiston muxtoriyat hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari deb hisobladi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. Turkiston XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnaksutyun" partiyasi a'zolaridan keng foydalandi.

1918 yilning 19 fevralida Qo`qon shahrida faoliyat ko`rsatayotgan Turkiston muxtoriyati

hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag`darib tashlandi. Hukumat ag`darilgach ham Qo`qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o`ldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qo`qonning o`zida uch kun davomida 10 000 kishi o`ldirildi. Turkiston muxtoriyatining ag`darilishi O`rtal Osiyoniy sovetlashtirishga keng yo`l ochib berdi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

- 1.O`lka musulmonlarining favqulodda IV s'yezdi qayerda chaqirilganligini ko`rsating.
  - A. Andijonda
  - B. Toshkentda
  - C. Qo`qonda
  - D. Samarqandda
2. 1917 yil 28 noyabrda Muvaqqat hukumat hay'atiga necha kishi va kimlar saylangan edi?
  3. Turkiston xalqlari "Muxtor Turkiston" tuzilishini qanday kutib oldi?
  4. O`lka sovet hukumati Turkiston muxtoriyatiga qanday munosabatda bo`lgan?
    - A. Bu hukumatni birinchi kurnlardan tan olmadi
    - B. Bir to`da boylar hukumati deb baho berdi
    - C. Ruhoniylar hukumati deb atadi
    - D. Aksilinqilobiy burjua hukumati deb baholadi

#### **4-asosiy savol:**

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati

#### **Darsning maqsadi:**

Turkistondagi istiqlolchilik harakati sabablari va mohiyatini ochib berish, uning harakatlantiruvchi kuchlarini tahlil qilish, harakat yetakchilari va g`oyaviy rahnamolari bilan talabalarni tanishtirish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 4.1. Turkistondagi istiqlolchilik harakati boshlanish sabablarini tahlil qiladi.
- 4.2. Istiqlolchilik harakati mohiyatini ochib beradi.
- 4.3. Istiqlolchilik harakati g`oyaviy rahnamolarini aniqlaydi.

#### **4-asosiy savol bayoni:**

Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinsa ham, Farg`ona vodiysida istiqlolchilik harakatini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi, unga milliy bo`yoq va tus berdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Farg`ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turki vazifasini o`tadiki, chor Rossiyanining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg`onaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyaniga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Demak, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakatining boshlanishi xronologik jihatdan 1918 yil fevral oyining so`nggi o`n kunligida deb belgilashimiz mumkin.

Dastlabki istiqlolchi guruhlarning tuzilishi Qo`qon atrofidagi Bachqir qishlog`idan chiqqan Kichik va katta Ergashlarning nomlari bilan uzviy bog`liqdir. 27 fevralda bo`lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo`lgach, uning o`rniga Katta Ergash qo`rboshi bo`lib, Farg`ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrog`ini ko`tardi.

Milliy ozodlik harakati mash'alini Skobelev uyezdida Marg`ilon miliitsiyasining sobiq boshlig`i Muhammad Aminbek Ahmadbek o`g`li (Madaminbek) ko`tardi. "Yakkatut volosti G`arbobo qishlog`idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo`shilardi", -deb yoziladi 1918 yilga oid arxiv hujattlarining birida. 1918 yil mart oyiga kelib Farg`ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo`rboshi dastlari faoliyat ko`rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg`ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobil,

Sotiboldi Qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo`rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo`rboshi Qo`qonning Buvayda qishlog`ida, Umar Choli Organji qishlog`ida, Oybola Naymancha qishlog`ida, Jonibek Qozi O`zgan tomonda, Muhiddinbek Novkatda o`z faoliyatlarini boshladilar.

Istiqlolchilik harakatining harbiy birlikka aloqasi bo`limgan qurolli bezorilik yoki bosqinchilik yohud bosmachilik harakati emasligini alohida ta'kidlab o`tish kerak. Istiqlolchilik harakatining o`ziga xos milliy yo`nalishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo`lgan. Harakatning boshdan oxirigacha bir ustuvor g`oya yotadiki, bu butun Turkistonning milliy istiqolli va mustaqilligi g`oyasidir. Istiqlolchilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turishiga qaramay, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi almashib turganligi va ikkilamchi manfaatlar muvozanatiga salbiy ta'sir qilganiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo`lib qolaverdi.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Farg`onadagi qurolli muxolifat kuch va son jihatdan tish-tirnog`igacha qurollangan sovet qo`shinlaridan ba`zan mag`lubiyatga uchrab tursa-da, e'tiqod va ozodlik uchun kurashayotgai mujohidlar vodiydagi butun aholi orasidan doimo madad va yordam olib turadilar. Qizil armiyaning zo`ravonligi va bosqinchiliga qarshi fidokorona kurashayotgan istiqlolchilar safiga doimo yangi kurashchilar kelib qo`shilardi.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining uyushgan bir shaklda namoyon bo`lishida qo`rboshilar ko`rsatgan g`ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o`tish kerak. O`z vaqtida Farg`ona vodiysida Kichik va katta Ergashlar, Madaminbek, Islom Paxlavon, Yormat Mahsum, Xolxo`ja Eshon va Muhiddinbek, Samarcand viloyatida Ochilbek va Bahrombek, Buxoro Xalq Respublikasida Said Olimxon (sobiq amir), Ibrohimbek, Mulla Abduqahhor, Anvar Poshsho, Salim Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbek, Oston Qorovulbegi, O`rmon Polvon, Hayit Amin, Fuzayl Mahdum, Doniyorbek, Xorazm Xalq respublikasida Junaidxon, G`ulomalixon, Qo`shmamedxon, Temir Alixon kabi qo`rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o`z qo`llariga olsalarda, lekin Farg`ona vodiysi, Xorazm va Buxorodagi istiqlolchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to`liq uyusha olmadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, qo`rboshilar o`z saflarida harbiy uyushqoqlikni mustahkamlash maqsadida murakkab tuzilmani ishlab chiqqan edilar. Harakatning bosh kurashchilari "Amir al-muslimin", keyinroq esa "Amir-lashkarboshi" deb nomlanadi. Nufuzli qo`rboshilar (odatda qo`rboshi unvoni general bilan teng bo`lsa, ponsod polkovnik bilan barobar edi), "lashkarboshi", "mingboshi", "to`qsabo", "to`pchiboshi" unvonlariga sazovor bo`lgan bo`lsa, o`rtacha darajadagi sardorlar – ponsod, qo`rboshilar esa "yuzboshi", "miroxur", "qorovulbegi" deb atalgan.

Farg`ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919 yil yozining oxiri va kuzida o`ziniig yuqori cho`qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo`shinlari safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo`shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag`darish uchun real kuch edi. Madaminbek qo`shinlari sentyabr oyida O`sh, Eski Marg`ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Afsuski, bu hujumi mag`lubiyat bilan tugadi. 1919 yil 22 oktyabrda Pomirniig Ergashtom ovulida bo`lgan anjumanda Madaminbek boshchiligidida "Farg`ona Muvaqqat muxtoriyat hukumati" tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo`lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig`i bo`lishi bilan birga bosh qo`mondon qilib ham tayinlandi.

1919 yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo`l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglarni olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbekda 20.000 yigit, Ergash qo`rboshida 8000 yigit bo`lgan.

1920 yil 3 maydag'i istiqlolchilarning navbatdagi Oltiariqda bo`lib o`tgan qurultoyida

Turkiston-turk mustaqil islom Jumhuriyati yoki qisqacha qilib aytganda Turkiston muvaqqat hukumati tuzildi. Bu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo'shinlarining oliv bosh qo'mondoni qilib saylandi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari ham yetarli darajada mavjud bo'lib, ular asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Namanganlik Nosirxon To'ra Sayd Kamolxon To'ra o'g'li, Toshkentlik muftiy Sadriiddinxon Mahsum Sharifxo'ja Qozi o'g'li, Turkiston MIQning sobiq a'zosi To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy To'g'on va boshqalar istiqlolchilik harakatining g'oyaviy mafkurachilari edilar.

1920-24 yillarda istiqlolchilik harakati Buxoro va Xorazm resiublikalarida ham avj oldi. BXRdag'i harakatning Turkistondagi istiqlolchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdori bo'lgan mujohidlar jadidlardan iborat yoki Buxoro hukumatiga va, shuningdek, Qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash odib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abduqahhor va b.). Ikkinci tomondan, milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lgan buxorolik vatanparvarlar Fayzulla Xo'jayev boshliq BXR hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishini, BXRning mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyorbek va b.).

Buxorodagi bu harakat turkiyalik sarkarda Anvar Poshshoning bu yerga kelishi bilan o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildiki, 1921 yil qishi va 1922 yil bahor-yozida butun Turkistondagi siyosiy jarayonlarning markazi aynan Sharqiy Buxoroga ko'chgani ham bejiz emasdir.

XXRda qizil armiyaga qarshi kurashning tepasida Junaidxon turgan. U Xorazmda siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20 ming kishiga yetkazdi. O'zbek hunarmandlari va dehqonlardan tashkil topgan dastalarda Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola va boshqalar rahbarlik qilgan.

1924 yilga kelganda istiqlolchilar iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik, dahshatli ochlik va xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan 7 yillik kurashdan Turkiston xalqlari ham, qo'rбoshi va ularning yigitlari ham juda toliqqan edi. Shuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi 1924 yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Ular keyingi janglar uchun ham kuch to'plashlari lozim edi. Shunday qilib, Turkiston mintaqasida 1918-1924 yillarda davom etgan istiqlolchilik harakatining birinchi davri yakunlandi. Lekin hali oldinda kurashning to'liq o'n yili turar edi. Vatanparvarlar yana 1935 yilgacha ozodlik bayrog'i va mustaqillik yalovini xilpiratib, islomning yashil bayrog'i ostida bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi hayot-mamot kurashini olib bordilar. Demak, Turkistonda xalqlarning istiqlol janglari qariyb 20 yil davomida aslo tinmadidi. Istiqlolchilik harakati faqat 1935 yilda butunlay mag'lubiyatga uchradi.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Turkistonda istiqlolchilik harakatlarini boshlab bergan qo'rбoshini toping.
  - A. Madaminbek
  - B. Abduqahhor
  - C. Kichik Ergash
  - D. Katta Ergash
2. Rus mustamlakachiligiga qarshi milliy ozodlik harakati bilan istiqlolchilik harakatini qiyosiy tavsiflang.
  - 3 Voqeyleklarni xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
  - 1) Turkistondagi istiqlolchilik harakatida 15.000 kishi qatnashayotgandi
  - 2) Turkistonda istiqlolchilik harakati eng yuqori pallasiga chiqdi.
  - 3) Madaminbek o'ldirildi
  - 4) "Farg'ona Muvaqqat hukumati" tuzildi

- 5) Istiqlolchilik harakati saflarida 60 ming kishi qatnashdi  
 4. Mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatni o'zbekistonlik qaysi olimlar o'rgangan?  
 5. Mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat nechta bosqichga ajratiladi?

**Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Turkistondagi istiqlolchilik harakati harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risidagi sovet davri va hozirgi mustaqillik yillardagi adabiyotlarni qiyosiy tahlil qiling.  
 2. Istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolariga tavsif bering .

**ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev R.M. Национальные политические организации в Туркестане в 1917-1918 гг. Автореф. дис...д-ра ист.н. - Т.,1998
2. Azamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati - T.:Fan, 1996
3. Мустафо Чўқау. Истиқпол жаллодлари - Т, 1992
4. Амир Саид Олимхон. Buxoro xalqining hasrati tarixi -T.:Fan, 1991
5. Аҳмад Закиу Валидиу ТүГ'он. Бўлингани бўри ер. -T.:Adolat. 1997
6. O'zbekistonning Yangi tarixi. 2 kitob. O'zbekiston совет мустамлакачилиги davrida – T.:Sharq, 2000
7. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston uchun mujodalalar. –T.:O'zbekiston, 2000
8. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash – T.: Ma'naviyat, 2002

**MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDA OLIB BORGAN  
QATAG'ONCHILIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI.**  
**Ma'ruza darsning texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:  Dars maqsadi: Talabalarni sovet tuzumining qatag'onlik siyosati va uning bosqichlari hamda oqibatlari bilan tanishтирish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Totalitar tuzumming qaror topishi va sovet tuzumining milliy raxbar - xodimlariga nisbatan qatag'onlik siyosati (1920 - 1930) 18 lar guruhi, Qosimovchilik, Inog'omovchilik to'g'risida tushuncha berish</li> <li>• 1920 – 50 yillarda ziyolilarni ta'qib qilishi va qatag'onlikning Yangi to'lqinlari to'g'risida to'la ma'lumot berish</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, bahs Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qosimovchilik deb nomlangan ish kimlar ustidan ochilganligini ayting?</li> <li>2. 1930 yillarda qatag'on qilingan milliy ziyolilir sanab bering?</li> <li>3. 1950 – yillar boshlarida qatag'on qilingan O'zbekistonlik madaniyat arboblariga qo'llangan asosiy ayb nima edi?</li> </ol>	O'qituvchi
II	<p>Kirish.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi.</li> <li>2.2. Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</li> </ol>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>3.1.Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi.</li> <li>3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</li> </ol>	O'qituvchi - talaba

	3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi. 3.4. Aytilgan g'oyalalar to'ldiriladi. Qatag'on qurbanlari sanab o'tiladi.	
IV	Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)	O'qituvchi
V	TMI topshiriqlari beriladi Dars Yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.	O'qituvchi

## **10-MAVZU: MUSTABID SOVETLAR TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG`ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI**

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

### **Asosiy savollar:**

1. Sovet tuzumining milliy rahbar-xodimlarga nisbatan qatag`onlik siyosati (1920-30)
2. 1920-50 yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi
3. Qatag`onliknnng yangi to`lqinlari

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Turkiston ASSR, Turkbyuro, Musbyuro, Turkkomissiya, inog`omovchilik, qosimovchilik, 18-lar guruhi, siyosiy qatag`onlik, buyruqbozlik tizimi, panturkizm, shaxsga sig`inish, "o`zbeklar ishi", "paxta ishi".

### **1-asosiy savol:**

Sovet tuzumining milliy rahbar-xodimlarga nisbatan qatag`on siyosati.

### **DARSNING MAQSADI:**

Turkkomissiya va Turkbyuro faoliyati haqida gapirib berish, milliy rahbar-xodimlarni noto`g`ri ayblanganliklarini tushuntirish, markazning adolatsiz qatag`onlik siyosatini tushuntirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

1. Turkkomissiya va Turkbyuro markazning mustamlakachilik siyosatini olib borish uchun tuzilganligini tushunadi.
2. Siyosiy qatag`onliklar oqibatlarini sharhlaydi.
3. Dindorlarga munosabatni tahlil qiladi.

### **1-asosiy savol bayoni:**

1918 yil aprel oyida RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. 1919 yil sentyabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga halaqit beruvchi, sovet hokimiyatining o`lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb hisoblaydigan, mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlariga nisbatan choralar ko`rildi. O`lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil qilgan Turkkomissiya va RKP(b) MQ Turkbyurosi, keyinroq uning o`rniga VKP(b) MQning O`rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko`rsatdilar.

Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan Turor Risqulov (TurkMIQ raisi) boshliq mahalliy communistlar turkiy xalqlar, Turkiston mustaqilligi va o`z taqdirini o`zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurash boshladi. 1920 yilda TKP Musulmon byurosining III konferentsiyasi va TKPning V-o`lka konferentsiyasida T.Risqulovning turk xalqlari communistik partiyasi tuzish va Turkiston Respublikasini Turk respublikasi deb atash haqidagi g`oyalari ko`rib chiqildi va ma'qullandi. Biroq bu g`oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqilligi bo`lganligi bois, Markaz T.Risqulov va uning tarafdarlarining fikrlariga qarshi chiqdi. Markazning Turkistondagi hukmronligining ijrochisi Turkkomissiya bu harakatni rad etadi va millat fidoyilarini quvg`inga uchratdi.

A.Ikromov va T.Risqulov o`lkada ulug` davlatchilik shovinizmi, burjua millatchiligi yuzaga

kelayotganligi to`g`risidagi masalalarni ko`tarib chiqdilar. A.Ikromov partiya ichidagi toqat qilib bo`lmas holatlar, qo`rinch hissi mavjudligini ochiq-oydin bayon qildi. U Turkistonda ko`p sohalarda mustamlakachilik qoidalari saqlanib qolganligini ko`rsatib o`tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari keyinchalik ularni jismoniy yo`q qilishda ayblov uchun asos bo`ldi.

Turkistonning sotsial-iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O`zbekistonning ilg`or, hurfikrlar farzandlari "inog`omovchilik", "18-lar guruhi", "qosimovchilik" kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi millatchilikda ayblanib, qatag`on qilindilar.

20-yillarning oxiriga kelib respublikada mustabid tuzum o`zini to`liq namoyon etdi. Siyosiy qatag`onlar avj oldi. 1929 yilda mashhur jadidchi, ma'rifatparvar Munavvar Qori Abdurashidxonov boshliq "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolarini qamoqqa olish boshlandi. Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a`zosidan 15 tasi otildi, qolganlari ahloq tuzatish lagerlariga jo`natildi. "Milliy ittihod" tashkilotining a'zolari ham qatag`on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramzi), Nosir Saidov. Mahmud Mirxodiyev, Xosem Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o`lim jazosiga hukm qilindilar, so`ngra bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi.

1930 yilda Davlat banki apparatida o`tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar qamoqqa olindilar. O`zSSR Sudi raisi Sa'dulla Qosimovning "qosimovchilik" deb nomlangan ishini ko`rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko`zga ko`ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgandi.

30-yillarning boshida dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo`ravonlik siyosati qatag`onlikning cho`qqisi bo`ldi. Juda katta miqdordagi islam, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo`q qilindi. Bu davrda O`zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo`natildi. O`tmishda nafaqat diniy rasm-rusmlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazi, xalqning ko`p asrlik merosini saqlovchisi bo`lgan machit va madrasalarni deyarli barchasi yopib qo`yildi, ayrimlari buzib tashlandi. Butun respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostiga o`tdi. Partiya direktivalaridan har qanday chekinish kontrrevolyutsion, siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937 yildan "antisovet", "xalq dushmanlari"ni qidirib topish, jazolash keng tus oldi. Siyosiy boshqaruvi organlari (OGPU) F.Xo`jaev, A.Ikromov, D.Manjara, A.Karimov kabi partiya va davlat rahbarlarini hibsga oldi. Ular o`lim jazosiga hukm qilindi.

O`zbekiston Ichki ishlar Xalq komissarligining "uchliklari" olib borgan faoliyati ogibatida 1939-1953 yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otuvga hukm qilingan. Keyinroq ularning ko`pchiligi oqlandi, ming afsuslar bo`lsinki, ular bu adolatga o`limidan so`ng sazovor bo`ldilar.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda \_\_\_\_\_ tashkil qilgan \_\_\_\_\_ kabi tashkilotlar katta xizmat ko`rsatdilar.
2. Musbyuro vakillari, millat fidoyilarini ko`rsating.  
A. T.Risqulov.  
B. A.Ikromov, S.Qodirov  
C. M.Abdullayev.  
D. Javoblarning barchasi to`g`ri
3. "Qosimovchilik" deb nomlangan ish kimlar ustidan ochilgan?
4. "Inog`omovchilik" va "18 lar guruhi" ishi moiyatini ochib bering
5. 30-yillarda dindorlarga munosabat qanday bo`lgan?
6. "Xalq dushmanlari" deb kimlar atalganini tushuntirib bering.

### **2-asosiy savol:**

1920-50 yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi

## **DARSNING MAQSADI:**

30-yillarda O`zbekiston taniqli yozuvchilari va shoirlarining fojeali taqdirini olib berish, ularning qatag`on qilinishi sabablari va oqibatlarini tushuntirish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Respublika Yozuvchilar Ittifoqi qaysi vaziyatda tashkil etilganini tushuntiradi.
- 2.2. O`zbek milliy ziyolilar ijodini tavsiflaydi.
- 2.3. Ziyolilarni ta'qib ostiga olish sabablarini tahlil qiladi.

## **2-asosiy savol bayoni:**

Shaxsga sig`inishning rutubatli iqlimiga qaramay, respublikamizda ijodiy hayot so`nmadi. Yozuvchilar va adabiyotshunoslar qatori kengaydi. 1934 yil martda Toshkentda O`zbekiston yozuvchilarining s'yezdi bo`ldi va unda Respublika Yozuvchilar ittifoqi tashkil qilindi. O`zbek yozuvchilarining nomlari jahonga keng yoyila boshladi. G`afur G`ulom, Oybek, G`ayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Uyg`un, Komil Yashin va boshqalarning asarlarida xalq maishiy turmushi, an'analari, mehnat qahramonlari, davrning romantik va shijoatli xususiyatlari o`z badiiy ifodasini topgan.

30-yillarda kuchaygan ma`muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig`inish mafkurasi ijod ahlini, qolaversa, respublikaning madaniy hayotini bug`a boshladi. Ijodni partiyaviylik va yagona kommunistik mafkuraga bo`ysundirilishi hayotning badiiy tasvirida vulgar-sotsial ko`rinishlarga keng yo`l ochdi. Partiya tomonidan yangi hayotni kuylashga bo`lgan chaqirig`i va majburiy normalar ijodiy jarayonda tarixiy o`tmishni unutilishiga olib keldi. Adabiyotda borliqni, murakkab ijtimoiy muammolarni bo`yab ko`rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukul saqlash zaruriy shart bo`lib qoldi. Milliy madaniyat 30-yillarda qattiq fojeaga duchor qilindi. Inson haq-huquqlari poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin kabi adabiyot va san'atning qobiliyatli vakillarining asarlarini o`qishdan jamoatchilik uzoq vaqt mahrum bo`ldi.

40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag`on qilishlar davom etdi. VKP(b) MQning 1946 yil "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqida"gi qarorlari qatag`onlar yangi to`lqinining g`oyaviy asosi bo`lib xizmat qildi. Shu paytdan boshlab adabiyot va san`atda ijodiy demokratik rivojanish uzoq yillar davomida sun'iy ta'qib qilindi, joylarda hurfikrlilik siquvga olindi. Markazning ko`rsatmalariga asoslanib, respublikaning partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g`oyalar ularni ayplash uchun foydalanildi. Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o`rtasidagi inqilobgacha bo`lgan davrdagi xalq tarixini va madaniyatini badiiy tasvirlash o`tmishni qo`msash, ideallashtirish, deb ayblandi va ularga "millatchi" degan tamg`alar yopishtirildi. Shu kabi Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o`zbek yozuvchilari qoralandi.

1951 yil avgustda respublika matbuotida qator shoir va yozuvchilarning ijodida "mafkuraviy og`ishlar" mavzusida maqola chop etildi. Unda Turob To`la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A.Bobojonov, Sobir Abdulla, Habibi kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. Shuningdek, Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, I.Sultonov va boshqalar "o`zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda turish"da va jiddiy g`oyaviy hatoliklar"ga yo`l qo`yanlikda ayblandilar. 1951 yilda Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G`ulom Alimov, Salohiy va boshqa bir qator ijodkorlar "antisovet millatichilik faoliyati"da ayblanib, qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Shu yillari jamiyasthunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V.Zohidov, tarixchi A.Boboxo`jayev, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda ayblanib, ta`qib qilindi.

Qatag`on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari gurillagan mustabid tuzum davrida ham huquqsizlik qurboni bo`ldilar. Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig`inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag`on qilingan madaniyat va fan arboblari to`liq oqlandilar.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Respublika Yozuvchilar Ittifoqi qachon tashkil topganini ko`rsating  
A. 1918 yil aprelda C. 1930 yil kuzida  
B. 1929 yil bahorida D. 1934 yil martida
  2. 30-yillarda qatag`on qilingan o`zbek milliy ziyolilarini sanab bering.
  3. Qatag`onlar yangi to`lqini g`oyaviy asosi bo`lib nima xizmat qilganini ko`rsating.  
A. Turkistonni turk respublikasi deb atash g`oyasi  
B. Partiya direktivalari  
C. OGPU faoliyati  
D. VKP(b) MQning 1946 yil "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqida"gi qarorlari
  4. 50-yillar boshlarida qatag`on qilingan o`zbekistonlik madaniyat arboblariga qo`yilgan asosiy ayb nima?

A Millatchilik

## B. antisovet faoliyat

C. G`arb oldida sia`inish

D. Sotsializmqa qarshi chiqish

5. Qataq`on qilinganlarga ganday iazolar go`llangan?

### **3. Qutay shi qili 3-asosiy savol:**

Qataq`onlikning yangi to`lgainlari.

## **DARSNING MAQSADI:**

80-yillar o`rtalariga kelib O`zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni qisqacha yoritib berish, "Kadrlar desanti" mohiyatini tushuntirish, qatag`onlik yangi to`lqinida markazdagি emissarlar tomonidan minglab begunoh kishilar nohaq qatlom qilinganini tushuntirish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. 80 -yillar o`rtalariga kelib O`zbekistondagi vaziyatga baho beradi.  
3.2. "Kadrlar desanti" asl mohiyatini ochib beradi.  
3.3. "Paxta ishi", "O`zbeklar ishi" ga munosabatini bildiradi.  
3.4. Sh. Rashidov shaxsiga taysif beradi.

### **3-asosiy savol bayoni:**

80-yillarning o`rtalariga kelib qatag`onlik va qonundan chekinishlar yana bo`y ko`sata boshladi. Endilikda nafaqat ijod ahli, balki xo`jalik xodimlari va davlat arboblari ham qatag`onlik to`lqiniga tortildi. O`zbekistonning milliy ziyorilari hech qachon, hattoki mustabid tuzumning «gullab-yashnagan» davrida ham o`zbek xalqining milliy mustaqilligiga oyalaridan voz kechmadilar. Ochiq kurash imkoni bo`maganda ham, milliy mustaqillikni qo`lga kiritish uchun zimdan kurash olib bordilar.

O`zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan niqob bilan markazdan katta vakolatga ega bo`lgan mas`ul xodimlarning "desant" guruhlari kela boshladi. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo`lgan lavozimlar berildi. O`ydirma, to`qib chiqarilgan "paxta ishi" va "o`zbeklar ishi" deb sun'iy tayyorlangan ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go`yoki butun O`zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyg`otishga harakat qilindi. Gdlyan va Ivanov boshlik emissarlar guruhi respublikadagi turli sohalarda ishlayotgan bir necha minglab rahbar va hodimlarni tergov jarayoniga tortdilar. Bularga poraho`rlik, ko`zbo`yamachilik va jinoyatchilikning boshqa ko`rinishlaridagi aybnomalar qo`yildi. Mahbuslarni «o`z aybiga iqror qilish» uchun jismonan zo`ravonliklar, ruhiy azoblar qo`llanildi. O`zbekiston Kompartiyasi MQning sobiq birinchi kotibi Sh.R.Rashidov nomiga ham nohak tuhmatlar qilindi. Milliy g`urur toptaldi. Ommaviy gamoqqa olishlar avi oldi.

Qiynoqlarga ko`plab halol, sof vijdonli kishilar ham tortildi. Qo`shib yozishlar, ko`zbo`yamachilik va poraxo`rlik kabi illatlar sotsialistik jamiyatda tabiiy holat bo`lib, barcha respublikalarda mavjud hodisa edi. O`zbekistonga nisbatan "paxta ishi" oldindan maxsus

tayyorlangan, uzoqni mo`ljallab tashkil qilingan siyosiy suiqaiddan boshqa hech narsa emas edi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng "paxta ishi"ni qayta ko`rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O`zbekistonning taniqli davlat va jamoat arbobi Sh. Rashidovning pok nomi tiklandi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1.80-yillar tarixda qaysi nom bilan atallganini toping.

- A. Rivojlangan sotsializm yillari.
- B. Turg`unlik yillari
- C. Shaxsga sig`inish yillari
- D. Ma'muriy-buyruqbozlik yillari

2. "Kadrlar desanti" nima?

3. "Paxta ishi", "O`zbeklar ishi" bilan shug`ullangan shaxslar faoliyatiga baho bering.

4. Sharof Rashidov shaxsiga munosabatingizni ayting.

5. O`zbekistonda Qatag`on yillar qurbanlariga bag`ishlangan majmua qachon ochildi va bu kun qachon va qaysi paitdan boshlab nishonlanmoqda?

#### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Qataq`onlik qurbanlari nohaq qamalgani, ularga havioyi ayblov qo`yilgani bugungi kunda barchamizga ma`lum. Qatag`onlik oqibatlarini bartaraf etish borasida O`zbekistonda qanday ishlar amalga oshirildi?

2. 20-50 yillarda ziyolilarning ta'kib qilinishiga munosabatingizni bildiring.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O`zbekiston XX1 asr bo`sag`asida... - T., 1997

2. Karimov I.A. O`zbekiston буюк келажак сари - T., 1998.

3. Karimov I.A. O`zbekiston: миллии истиқбол, иқтисод, сиёсат, мағкура - Т., 1996

4. Ризаев YA. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету. - Т.:Nur, 1992

5. Махмудов М. Қатағон қурбонлари . - Т.: O`zbekiston. 1991

6. Усмонов Ш. Қатағон қурбонлари -Т. : O`zbekiston, 1992

7. O`zbekistonning Yangi tarixi. 2 kitob. O`zbekiston совет мустамлакачилиги davrida.-

T.:Sharq, 2000

8. O`zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. – Т., 1999

9. Erbo'tayeva O'. Qatag`on yillar qurbanlari – Guliston, 1998

10. O`zbekiston tarixi – T.:Yangi asr avlod, 2003

11. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005.

### **MUSTABID SOVET TUZIMINING O`ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI. Ma'ruza darsning texnologik xaritasi.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni sovet tuzumining qatag`onlik siyosati va uning bosqichlari hamda oqibatlari bilan tanishitirish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Totalitar tuzumning qaror topishi va sovet tuzumining milliy raxbar - xodimlariga nisbatan qatag`onlik siyosati (1920 - 1930) 18 lar guruhi, Qosimovchilik, Inog'omovchilik to'g'risida tushuncha berish</li> <li>• 1920 – 50 yillarda ziyolilarni ta'qib qilishi va qatag`onlikning Yangi to'lqinlari to'g'risida to'la ma'lumot berish</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, bahs Beriladigan savollar:</p>	O'qituvchi

	1.4. Qosimovchilik deb nomlangan ish kimlar ustidan ochilganligini ayting? 1.5. 1930 yillarda qatag'on qilingan milliy ziyolilir sanab bering? 1.6. 1950 – yillar boshlarida qatag'on qilingan O'zbekistonlik madaniyat arboblariga qo'llangan asosiy ayb nima edi?	
II	Kirish. 2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi. 2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.	O'qituvchi
III	Guruhda ishslash: 3.1.Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi. 3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi. 3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi. 3.4. Aytilgan g'oyalar to'ldiriladi. Qatag'on qurbanlari sanab o'tiladi.	O'qituvchi - talaba
IV	Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)	O'qituvchi
V	TMI topshiriqlari beriladi Dars Yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.	O'qituvchi

## **11-MAVZU: SOVETLAR DAVRIDA O`ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI**

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

**Asosiy savollar:**

1. O`zbekiston iqtisodiy va uning Markazga qaramligi
2. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" ning oqibatlari

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Harbiy kommunizm siyosati, industrlashtirish, jamoalashtirish, ikkinchi jahon urushi, paxta yakkahokimligi, Orol fojeasi, totalitar tuzum, "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat", qadriyatlarning toptalishi.

**1-asosiy savol:**

O`zbekiston iqtisodi va uning Markazga qaramligi.

**DARSNING MAQSADI:**

"Harbiy kommunizm", industrlashtirishning salbiy va ijobjiy tomonlarini ko`rsatish, qishloq xo`jaligini jamoalashtirish oqibatlarini ochib berish, O`zbekiston markazga iqtisodiy jihatdan qaram bo`lganligini asoslab berish.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. "Harbiy kommunizm" va industrlashtirish siyosatining salbiy va ijobjiy tomonlarini ko`rsatadi.
- 1.2. Jamoalashtirish siyosati mohiyati va oqibatlarini ochib beradi.
- 1.3. "Orol fojeasi" ni izohlaydi.

**1-asosiy savol bayoni:**

1920 yillarning boshlarida joriy etilgan iqtisodiy siyosat O`zbekistonning iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. "Harbiy kommunizm" siyosati va o`lkadagi ocharchilik oqibatida millatning ko`plab qirilib ketishining oldi olindi. Lekin 20-yillarning ikkinchi yarmida bu

siyosat o`zining mohiyatini yo`qota boshladi va 1929 yili batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirdorlikka chek qo`yildi, qishloq xo`jalik mahsulotlari harid narxining tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashshoqlashdi.

O`zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalgalashdi. Shu bahona malakali ishchilar, muhandis-texnik xodimlar Rossiyaning markaziy hududlaridan ko`chirib keltirildi. Faqat 1931 yilning kuzida ko`chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatla 1926-1936 yillari O`zbekiston aholisi 37 foizga ko`paygan bo`lsa, yevropaliklar soni 62 foizga oshdi. Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostantsiyalari, qishloq xo`jaligi, paxtachilikka qaratilgan xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib, ishga tushirildi. Chirchiqdagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyafzal, tamaki, Farg`ona to`qimachilik, Samarkand va Margilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to`qimachilik kombinati, qishloq xo`jalik mashinasozligi zavodi, Chirchiq kimyo kombinati va boshqa ko`plab yirik korxonalar ishga tushirildi. Jami 30-yillar oxirida Respublikada 1445 ta har xil sanoat korxonalri mavjud bo`lib, ularda 142 ming ishchi mehnat qilar edi.

Markaz tomonidan respublikaning yer osti va yer usti qazilma boyliklari, xom-ashyo manbalari talon-taroj qilinib, arzon, deyarli tekin ish kuchidan foydalanib o`lkadan maksimum foya olish harakatida bo`ldi. 1930 yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib, katta yer egalari, o`rta hol dehqonlar va kambag`allarning yerlari jamoa xo`jaliklariga birlashtirildi, ularning qo`llaridagi ot-ulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburan umumiylashtirildi. Badavlat xo`jaliklar, ayrim o`rta xol dehqonlardan 5,5 mingdan ortig`i "quloq" qilinib, Rossiyaning chekka o`lkalariga surgun qilindi. Bu bilan qishloqlarning bosh ko`tarishga qodir, esini tanigan, vaziyatni tushunadigan qismini yo`q qilib, talonchilik siyosatini osonlashtirishga harakat qildi.

Jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo`jaligida mehnat unmdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo`qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi, dehqonning ekspluatatsiya qilishning birdan-bir takomillashgan uslubi kashf etildi. Buning evaziga O`zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo`li bilan sobiq SSSR paxta mustaqilligiga erishdi. 1941 yili O`zbekiston 1,646 ming tonna paxta yetishtirib, paxta hosildorligi jihatidan jahonda 1 o`ringa chiqdi.

Ikkinci jahon urushi yillari izdan chiqqan O`zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950 yillari g`oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklandi. Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash jarayoni xalq boshiga og`ir kunlarni keltirdi. O`zbekiston xalq xo`jaligini, ayniqsa, chorvachilikni tiklash ishlari ancha og`ir o`tdi. 1945 yil 15 iyuldan Markaziy hukumatning "O`zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralarini to`g`risida"gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O`zbekistonning markazga bog`liqligi yana ham mustahkamlandi.

1954-1956 yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yirik korxonalar respublika ixtiyoriga o`tkazildi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmog`i 31 foizdan 55 foizga ko`tarildi. 60-70 yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga kelib, O`zbekistonda oltin, uran, rangli metallurgiya ishlab chiqarish keng yo`lga qo`yildi. Energetika, kimyo sanoati rivojlandi. Yangi shaharlar: Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod kabilar qad ko`tardi. Lekin, mustamlaka holatidagi Respublikaning rivojlanayotgan iqtisodidan boshqalar ko`proq manfaatdor edilar. So`nggi hisob-kitoblarga qaraganda, bevosita Ittifoq ministrliklariga bo`ysundirilgan faqat oltin va uranning o`zidan 15 milliard Amerika dollariga teng boylik Markazga olib ketilgan. O`zbekistonning aksariyat shahar-qishloqlari gazlashtirilmagan holda Respublikada ishlab chiqarilgan tabiiy gaz Rossiyaning sanoat

markazlariga yetkazib berildi.

1950-60 yillari O`zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo`riq va bo`z yerlarni o`zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985 yillari qariyb 2.400 ming hektar yangi yerlar o`zlashtirildi. Sug`orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi. Qishloq xo`jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunalarini tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy moddalardan keng foydalanildi. Natijada 1970 yili respublikada paxta maydoni 1.7000.000 hektarni tashkil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga yetdi. Yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog`lanishi yana ham kuchaydi. Prezident I.A. Karimov: «...u paytda O`zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga-markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo`lgan yarimmustamlaka mamlakatga aylangan edi», deydi.

1985 yilning bahorida qishloq xo`jaligini boshqaruv tizimiga o`zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan xolda ko`rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan, iqtisodiyotda, inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb bosholangan quruk kompaniya Prezident I. Karimov ta'biri bilan aytganda "hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o`g`rilik, qotillikni kuchaytirdi". Paxta ekin maydonlarining o`rinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi pasayib ketdi. Hosildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o`g`itlardan foydalanish oqibatida bu yerlar ma'lum bir vaqtan keyin batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo`riq va bo`z yerlarni o`zlashtirish, O`rta Osiyoning yirik daryolari suvlardan nazoratiz foydalanish, o`lkada o`rinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va XX asrning eng yirik "Orol fojeasi" vujudga keldi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. "Harbiy kommunizm" nima?
2. Industrlashtirish siyosatining ijobiy va salbiy tomonlarini ochib bering.
3. Jamoalashtirish siyosati oqibatlarini ochib bering.
4. Yoppasiga jamoalashtirish nechanchi yildan bosholanganini toping.
  - A. 1921 yil
  - B. 1922 yil
  - C. 1925 yil
  - D. 1929 yil
5. Oziq-ovqat prodravzyorstkasi mohiyatini tushuntiring.

#### **2- asosiy savol:**

"Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" ning oqibatlari.

#### **DARSNING MAQSADI:**

Totalitar tuzum davrida o`lkadagi "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat mohiyatini tushuntirish, ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda ma`rifiy-madaniy ishlarni yoritish, sovet tuzumining denga munosabatini ochib berish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. 1920-80 yillardagi O`zbekiston madaniy-ma`rifiy hayotini ochib beradi.
- 2.2. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" mohiyatini tushuntiradi.
- 2.3. Markazning sohta baynalmilalchilik siyosatining asl maqsadini ochib beradi.

#### **2-asosiy savol bayoni:**

Totalitar tuzum davrida o`lkadagi madaniy-ma`rifiy ishlar e'tibordan chetda qolmadı. 20-30 yillarda savodsizlikni tuqatish ishlari astoydil qo`lga olindi. 1941 yili O`zbekistonda 5.504 məktəb bo`lib, ularda 42.000 o`qituvchilar dars berdi, 1 mln.315 ming o`quvchi ta`lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishning ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o`quv yurtlari ochildi. 1940 yili respublikada 30 ta oliy, 100 ga yaqin o`rta

maxsus o`quv yurtlari ishlab turdi.

20-30 yillarda adabiyot va san'at sohasida jahonga mashhur yozuvchilar va shoirlar yetishib chiqdi. Teatr va kino san'ati o`zining dastlabki qadamlarini qo`ydi. Madaniy-oqartuv muassasalarining soni ortib bordi. Achinarlisi shundaki, respublikada ta'limgartabiya, madaniy-ma'rifiy ishlar "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" shiori ostida olib borildiki, asl maqsad "baynalmilalchilik" niqobi bilan pardalanib, o`lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo`ldi. Idoralarda ish yuritish 1929 yildan boshlab lotin, 1940 yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladigan bo`ldi. Bularning oqibatida ko`p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o`rganishdan respublika tub aholisi mahrum bo`ldi. 1927 yili o`tkazilgan "Hujum" harakati oqibatida o`zbek xotin-qizlari, bir tomondan, jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb qilinib, o`zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda sharqona fazilatlaridan mahrum bo`ldilar. Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g`oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o`rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi.

Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'limgartabiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970 yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin, amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirilib ko`rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko`ra faoliyatini deyarli tugatib qo`yan. Ularning moddiy texnika bazasi qoniqarsiz bo`lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Bu muassasalar marksizm-leninizmning soxta g`oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotchisi, tashviqot – targ`ibot qilishning qudratli quroli bo`lib xizmat qildi.

Urushdan keiyn majburiy 7 yillik, 1959 yildan 8 yillik, 1970 yildan boshlab 10 yillik ta'limgartabiya oshirila boshlandi. 1980 yillarda o`rtta va oliy ta'limgartabiya tarmoqlari kengayib bordi. 1990 yil O`zbekistonda maktablar soni 9.000 ga yetdi. Lekin ulardan 1700 tasi vayrona ahvolda bo`lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-79 o`quv yilida respublikada 43 ta oliy o`quv yurti bo`lgan. Respublika fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Ta'limgartabiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko`rsatkichlari qanchalik yuqori bo`lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o`zlarining ish faoliyatida Kompartiyaning mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O`quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar xaddan tashqari siyosatlashtirildi. O`tmishda dunyoga mashhur bo`lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan Vatanimiz mutafakkirlari esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o`qitilmadi.

Markazning baynalmilalchilik siyosati mamlakatda istiqomat qiluvchi 120 dan ortiq millatlar va elatlар yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro`yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. Shu maqsadda rus tilini butun hayotga kiritish faollahdi. 1969 yildan boshlab O`zbekistonning barcha bolalar bog`chalarida rus tilini o`rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalmilal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o`zbek tilining jamiyatdagi o`rni, milliy, diniy qadriyatlar yo`qola bordi.

Sobiq sovet hukumati dastlabki kunlardan boshlab dinga, diniy tashkilotlarga qarshi keng miqyosda kurash boshlab, ateistik jamiyat qurish tomon yo`l tutdi. Machit va madrasalarni yopib, ularning binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanildi. "Navro`z" kabi umumxalq bayrami, diniy marosimlar bekor qilindi. Ruhoniylarning ko`pchiligi har xil bahonalar bilan qamoqqa olindi, surgun qilindilar.

1920-yillarda jadidchilik harakatining samarali yillari bo`lib, A.Qodiriy, Cho`Ipon, Botu, Elbek, Fitrat, Xamza, S.Ayniy, so`ngroq yangi yosh ijodkorlar Oybek, G.G`ulom, H.Olimjon, A.Qahhor kabi o`zbek adabiyotining yirik namoyondalari faoliyat ko`rsatdi. 1930-yillarda sahna san'atida opera va balet sohasida dastlabki yutuqlarga erishildi. Kino

san'ati qaror topdi. Aynan shu davrda adabiyot va san'atda sotsialistik realizmi deb atalmish yo`nalish hukmron bo`la boshladi va respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo`ysundirildi.

Urushdan keyingi 50-60 yillarda respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodи shakllandi. Shaxsga sig`inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan iliqlik shamoli bilan badiiy adabiyotda ko`pgina salmoqli asarlar yaratildi, san'atda bir qancha yangi o`zbek teatr va kontsert san'atining dong`ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarning kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Chirib borayotgan sotsializm g`oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug`lik ko`rmaydigan bo`ldi. Faqat 80-yillar 2 yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g`oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Sovet davrida madaniy-ma'rifiy ishlar qaysi shior ostida olib borildi?
  2. Ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy ishlarning baynalmilalchilik niqobining asl maqsadini ochib bering.
  3. Sovet davrida madaniy -ma'rifiy ishlar olib boradigan muassasalar nimaga xizmat qilganini ko`rsating
    - A) shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qurishga
    - B) bolalarni rus tilida o`qitishga
    - C) diniy muassasalarni yo`q qilishga
    - D) marksizm-leninizm soxta g`oyalarini tashviqot-targ`ibot qilishga
  4. Sovet tuzumining din va dindorlarga munosabat qanday bo`lgan?
  5. Sovet davrida yashab ijod qilgan o`zbek milliy -ziyolilarini sanab bering.
  6. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qurish deganda nimani tushunasiz?
- Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**
1. I.Karimov sovet davridagi O`zbekistonni nima uchun yarim mustamlaka mamlakat deb ta'riflaganini sharhlab bering.
  2. Mustabid sovet tuzumining O`zbekiston boyliklarini talash siyosati nimalarda namoyon bo`ldi?
  3. "Hujum" harakati va uning oqibatlari.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O`zbekistonning ўз истиқтол ва tarqqiyot уўли. Асарлар. 1 жилд.-Т., 1996.
2. O`zbekiston tarixi. - T.:Yangi asr avlodi,2003
3. Аҳмедов Э., Сайдаминова З. O`zbekiston Республикаси. Қисқача маълумотнома. - Т.,1995.
4. O`zbekistonning Yangi tarixi. 2 kitob. O`zbekiston совет мустамлакачилиги davrida. – Т.:Sharq, 2000
5. Мустабид тузумning O`zbekiston миллиу боуликларини талаш сиёсати – Т.:Sharq, 2000
6. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlodi, 2005.

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI VA UNING  
TARIXIY AXAMIYATI. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA  
FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI  
MA'RUDA DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI.**

T. S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni O'zbekistonning mustaqillikning qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati bilan tanishtirish. O'zbekistonda yangi davlatchilik huquqiy-siyosiy asoslarining, boshqaruv tizimining yaratilishi, sud islohotlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqaruv organlari tizimining shakllanishi haqida tushuncha berish Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Sovetlar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi. Qayta qurish ziddiyatlari haqida so'zlab beradi.</li> <li>✓ «Kadrlar to'dasi», «Paxta ishi» to'g'risida tushuncha beradi.</li> <li>✓ «Davlat tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi I.A.Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti to'g'risida tushuncha beradi.</li> <li>✓ O'zbekiston davlat Mustaqilligining qo'lga kiritilishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tushuntirib beradi</li> <li>✓ Huquqiy davlatga o`tish jarayonini tushuntiradi</li> <li>✓ Fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishiga baho beradi</li> <li>✓ Sud islohotlarini izohlaydi</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, bahs, klaster.</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. SSSR ning inqirozga yuz tutishi sabablarini ayting?</li> <li>1.2. Mustaqillik e'lon qilinishining ahamiyatini ochib bering?</li> <li>1.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?</li> </ol>	O'qituvchi
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1.Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytilgan g'oyalar to'ldiriladi. Muhim voqealar sanab o'tiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O'qituvchi
V	<p>TMI topshiriqlari beriladi</p> <p>Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.</p>	O'qituvchi

## **12- MAVZU: O`ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO`LGA KIRITILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.**

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

### **Asosiy savollar:**

1. O`zbekiston davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishi
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O`zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi
4. O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik tizimi va milliy siyosat

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Suverenitet, O`zbekiston Prezidenti, Mustaqillik Deklaratsiyasi, referendum, davlat ramzları, Konstitutsiya. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari, o`zini-o`zi boshqaruv organları, ko`ppartiyaviylik, siyosiy partiyalar, Parlament, Oliy Majlis, Senat, Qonunchilik palatası.

### **1-asosiy savol:**

O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritilishi.

### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekistonning 80-yillar oxiri 90 yillar boshidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini tavsiflash, SSSR ning inqirozga yuz tutishi sabablarini ochib berish, O`zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo`lga kiritilishi jarayonini izohlash.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. SSSRning inqirozga yuz tutish sabablarini ochib beradi.
- 1.2. O`zbekistondagi 80-yillar oxiridagi vaziyatni izohlaydi.
- 1.3. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganining ahamiyatini ochib beradi.

### **1-asosiy savol bayoni:**

1980-yillar oxiri 90-yillar boshlarida O`zbekistonda jamiyatning turli sohalarida mustaqillikka intilish harakatlari kuchaya bordi. 80-yillarning ikkinchi yarmidan mustaqillikni qo`lga kiritish shart-sharoitlari vujudga keldi. Respublikada "Paxta ishi" degan asossiz tuhmatdan O`zbekiston fuqarolarini himoya qilish zarur edi. O`zbekiston rahbariyati ba`zi yuqori rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilingan shaxslarni Moskvada suhbatdan o`tkazish amaliyotini tugatdi. Sh.R.Rashidovning nomini tiklash ishlari boshlandi. 1989 yil oktyabrda "Davlat tili to`g`risida"gi Qonunning qabul qilinishi mustaqillik yo`lida muhim bosqich bo`ldi. Qonunni amalga oshirish maqsadida o`zbek tilini tekinga o`qitish maxsus kurslari tashkil etildi, o`zbek tilidagi adabiyotlar, darsliklar nashr etilishiga va o`quv yurtlarida o`qitilishiga e'tibor kuchaydi.

1990 yil bahorida Markazning qattiq qarshiligiga qaramasdan, sobiq Ittifoq respublikalari orasida birinchi bo`lib O`zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Bu o`zbek davlatchiligi va mustaqillikning printsipial yangi bosqichi bo`ldi.

I.A.Karimov 1990 yil 24 martda O`zbekiston Oliy Kengashida O`zbekistonning birinchi Prezidenti qilib saylandi. 1990 yil 20 iyunda Mustaqillik to`g`risidagi Deklaratsiyaning qabul qilinishi xalqning davlat mustaqilligiga intilishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to`ldirdi va g`oyat katta tarixiy ahamiyatga ega bo`ldi. 1991 yil 31 avgustda O`zbekiston Respublikasi Oliy Soveti XII chaqiriq navbatdan tashqari V1 sessiyasi davlat mustaqilligi va mustaqil suveren O`zbekiston Respublikasi davlati tashkil topganligini e'lon qildi. Unda "O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to`g`risida Oliy Kengash Bayonoti" va "Respublika davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida" O`zR Qonuni qabul qilindi, hamda 1 sentyabr -Mustaqillik kuni, milliy bayram deb belgilandi. Bu asosiy hujjatlar O`zbekiston oldida turgan maqsad va vazifalarni ko`rsatib berdi.

Mustaqillikning e'lon qilinishi Respublika tarixida muhim voqeal bo`lib, jahon hamjamiyati uni tezda tan ola boshladi. Mamlakatimizda huquqiy, demokratik jamiyat

shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. O`zbekistonning boy imkoniyatlaridan xalq turmushini yaxshilash uchun foydalanishga keng imkoniyatlari ochildi. O`zbekiston bozor munosabatlariga o`tishda har xil salbiy holatlar tug`diradigan "falaj" yo`li bilan emas, o`ziga xos yo`l orqali o`tildi. Istiqlolga erishgan xalqimiz jahon minbarida o`z manfaatlari hag`ida bor ovoz bilan gapirish, xalqaro tashkilotlar ishida faol qatnashish imkoniga ega bo`ldi. Eng asosiy natijalardan yana biri xalqning tarixiy, ma`naviy qadriyatlarini tiklash imkonini yaratildi.

O`zbekistonda mustaqillik sharoitida siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar amalga oshirila boshlandi. Birinchi navbatda mustaqil davlatning huquqiy asoslari yaratildi. 1991 yil 18 noyabrda Respublika Oliy Kengashi VIII sessiyasida 1991 yil 29 dekabrdagi O`zR Prezidentligiga saylov va Mustaqillik g`oyasini butun xalqning muhokamasidan o`tkazish to`g`risida qaror qabul qildilar. Saylov komissiyalari tashkil qilinib, ularga O`zR Prezidentligiga saylovlari va referendum to`g`risidagi qonunnniga bajarilishini ta'minlash, O`zbekiston fuqarolariga o`z xohishlarini erkin bildirish, Prezidentlikka nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratish vazifalari yuklandi. 29 dekabr kuni muqobililik asosida o`tkazilgan saylovda Islom Abdug`anievich Karimov nomzodiga saylov qatnashchilarining 86 foyizidan ko`prog`i o`z ovozini berdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov haqidagi qonunning 35-moddasiga asosan I.A.Karimov birinchi Prezident etib saylanganligi to`g`risida qaror qabul qilindi. I.A.Karimov 1991 yil 31 dekabrdan o`z vazifasini bajarishga kirishdi. Prezidentlikka saylovlari bilan bir vaqtida "O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo`llab-quvvatlaysizmi?" savol bo`yicha referendum ham o`tkazildi. Ovoz berishda ro`yxatga olinganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Qatnashganlarning 98,2 foizi mustaqillikni qo`llab ovozini berdi.

Mustaqil O`zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish uchun boy tabiiy resurslar va keng imkoniyatlarga egadir. O`zbekistonda foydali qazilma boyliklarning 2.700 dan ortiq o`rni aniqlangan. Har yili respublika hududidan 5 mlrd. dollardan ortiqroq qimmatdagi foydali yer osti boyliklari qazib olinmoqda. Respublika oltin zahirasi bo`yicha jahonda to`rtinchchi, qazib olish bo`yicha ettinchi o`rinni egallaydi, mis zahirasi bo`yicha jahonda 7-8 o`rindadir. Rangli metallar, fosforitlar, tabiiy gaz, neft, ko`mir va boshqalarning zahira manbalari ham aniqlangan. O`zbekiston yeri juda ham hosildor bo`lib, bu yerda paxta, don, sabzavot va mevalardan yuqori hosil olish mumkin. Respublika energetikasi bugun 11 mln. kilovatt quvvatdan ko`proq kuchga ega bo`lgan 37 issiqlik va gidroelektrostantsiyani o`z ichiga oladi. Transport yo`llari bo`yicha katta imkoniyatga ega. Respublikada sanoatning 100 dan ortiq sohasiga oid 2 ming atrofida zavod va fabrikalar ishlab turibdi. Mustaqil O`zbekiston moddiy boyliklar bilan birga katta ilmiy va ma`naviy imkoniyatlarga ham ega.

Har bir mustaqillikka erishgan davlat o`z ramzlariga ega bo`ldi. 1991 yil 18 noyabrda Respublika Oliy kengashining VIII sessiyasida O`zbekiston Davlat Bayrog`i tasdiqlandi. Uning belgilari mamlakatimiz hududidagi qadimda mavjud bo`lgan yirik saltanatlarning tug`laridagi an`analarni davom ettiradi hamda xalqning milliy va madaniy o`ziga xosligini, respublika tabiiy sharoitini aks ettiradi. O`zbekiston respublikasi Oliy kengashining 1992 yildagi X sessiyasida O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to`g`risidagi qonun, 1992 yil 10 dekabrdagi XI sessiyada O`zR madhiyasi to`g`risidagi qonun qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi mamlakatimiz mustaqilagini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

- I. SSSRning inqirozga yuz tutishi sabablarini aytинг.
  - 2 . O`zbekistondagi 80-yillar oxiridagi vaziyatni ta'riflang.
  - 3 Davlat tili to`g`risidagi qonun qachon qabul qilinganini toping
- |                     |                      |
|---------------------|----------------------|
| A. 1989 yil oktyabr | C. 1991 yil sentyabr |
| B. 1990 yil mart    | D. 1992 yil noyabr   |

4. Mustaqillik e'lon qilinishining ahamiyatini olib bering.
- 5.O`zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi haqida gapirib bering
6. O`zbekiston Prezidenti saylovlari va Referendum ahamiyati nimada?

## **2-asosiy savol:**

O`zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi.

### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi va uning qabul qilinishi haqida gapirib berish, konstitutsiya ahamiyatini tushuntirish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. O`zR Konstitutsiyasining oldingi konstitutsiyalardan farqini biladi.
- 2.2. O`zR Konstitutsiyasi asosiy qoidalarini sharhlaydi.
- 2.3. O`zR Konstitutsiyasining ahamiyatini olib beradi.

### **2-savol bayoni:**

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo`lib, buyuk kelajakning huquqli kafolatidir. Yangi Konstitutsiyani tayyorlash g`oyasi 1990 yilning mart oyida ilgari surila boshlandi. Iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida I.Karimov boshchiligidagi Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasining dastlabki nusxasi 1991 yil noyabrida tayyorlanib, har tomonlarga ko`rib chiqildi va 1992 yilning sentyabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Tuzatishlar va aniqlashlar loyihaning 60 dan ortiq muddasiga kiritildi. 1992 yil 8 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida Mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning mohiyati Asosiy qoidalar bo`limida bayon etilgan. Bu qoidalar: davlat suvereniteti, xalq hokimiyyati, fuqarorlar huquq va erkinliklarini himoya qilish, shaxs va davlat birligini ta'minlash, qonuniylik, hokimiyatni ajratish, mahalliy o`z-o`zini boshqarish, sud tizimi va odil sudlovni tashkil qilish va boshqalar. Konstitutsiya preambula, 6 bo`lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo`ldi.

Mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning inson huquqlari demokratik xartiyasi bo`lib, insonparvar huquqiy davlat shakllantirishning strategik dasturidir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 7 dekabr kuni “Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat” mavzusida qilgan ma'rurasida Konstitutsiyamizda mujassam etilgan asosiy g`oyalar, ya'ni hamma amaliy faoliyat inson manfaatlariga xizmat qilishi, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish va ta'minlash nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning har bir a'zosining bosh maqsadi bo`lishi lozimligi alohida ta'kidlab o'tildi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat hayotini tubdan o`zgartirish, yangi jamiyat qurish, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va shu orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi ulkan maqsadlarimizni amalga oshirishdagi o`rni va ahamiyatini bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida yaqqol ko`rshimiz mumkin. Konstitutsiyamizda, avvalo inson omiliga berilgan alohida e'tiborni kuzatamiz. Chunki, har qanday ijtimoiy islohotlar avvalo jamiyat ehtiyoji, shaxs manfaati orqali yuzaga keladi. Jamiyatning talablari esa, o`z navbatida uning faol a'zolari sa'yি-harakatlari tufayli ko`zga tashlanadi. Masalan, O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida 1996 yildan buyon 28 ta o`zgartirish bo`ldi. Uning aksariyati yangi qonunlar taqozosi bilan kelib chiqqan qo`shimcha va to`ldirishlardir. Oila kodeksiga esa 1998 yildan e'tiboran 4 ta o`zgartirish kiritildi.

Mamlakatimizda huquq ijodkorligi jarayoni keng ko`lamli huquqiy asosga ega. Eng birinchi huquqiy asos – O`zbekiston Konstitutsiyasi. Unda huquq ijodkorligi sub'ektlari bu boradagi faoliyatlarining umumiyligi qoidalari mustahkamlangan. Konstitutsiyadagi bu umumiyligi qoidalari bir qator qonun hujjalarda aniq, batafsil ifodasini topgan. Bunday qonun hujjalari sirasiga 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasi qonunlarni tayyorlash to`g`risida”gi, 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Normativ huquqiy hujjalar

to`g`risida"gi, 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan "Qonun loyihalarining muhokamasi to`g`risida"gi, 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida"gi hamda 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining Reglamenti to`g`risida"gi qonunlarni kiritish mumkin. Mazkur qonunlarda huquq ijodkorligi jarayoni, uning sub'ektlari va bu faoliyatining bosqichlariga doir asosiy qoidalar mustahkamlangan.

Amalga oshirilgan huquqiy islohotlar borasida, Konstitutsiyaning qabul qilinishining o`zi katta voqelik bo`lib, "...bu Konstitutsiya o`zining tub mohiyati, falsafasi, g`oyasiga ko`ra yangi hujjatdir" – u shuning uchun jamiyat hayotini tubdan o`zgartirishni maqsad qilib, avvalo inson shaxsini ulug`laydi, uni – oliv qadriyat deb e'tirof etadi, jamiyat hayotidagi munosabatlar o`zagini insonlar manfaatiga bog`laydi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan sobiq tuzum butkul emirildi, ya'ni yangi davlatning asl qiyofasi namoyon bo`ldi, bu qiyofa o`zida "...inson huquqlari va davlat mustaqilligi g`oyalariga sadoqat, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, o`zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni hurmatlash xalqaro huquqning jahonda e'tirof etilgan qoidalarini tan olish, O`zbekiston fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar va huquqiy jamiyat barpo etish va nihoyat, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatlikni kafolatlash kabi oljanob maqsadlarni..." aks ettiradi.

O`zbekiston Respublikasining yosh davlatchilik tarixiga nazar solsak, butun tariximiz islohotlar davri, demokratik yangilanish va taraqqiyot davri, jamiyatni erkinlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish davri bo`lib namoyon bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidagi sobiq totalitar tuzumdan voz kechib, demokratik davlat qurish, erkin bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiy makonni yuzaga keltirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishni talab qiluvchi konstitutsiyaviy normalar o`zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1. Davlat suvereniteti. Davlat hokimiysi o`z organ va idoralari, mansabdar shaxslari siyemosida jamiyat va fuqarolar oldida mas`ul bo`lib, xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat suvereniteti faqat xalqqa tegishli, davlat hokimiyatini shakllantirish va amalga oshirish xalq erki va irodasiga bog`liq.

2. O`zbekiston xalqini O`zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil qiladi. Ularning erkinrodati ustuvor bo`lib, jamiyat va davlat hayotidagi eng muhim masalalar umumxalq muhokamasiga qo`yilishi orqali hal qilinadi. Xalq xokimiyatini amalga oshirish umuminsoniy printsiplariga asoslanadi. Inson, uning hayoti, huquq va erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati hamda manfaatlari oliv qadriyat hisoblanadi.

3. O`zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonun ustunligi so`zsiz tan olinadi. Qonunga hurmat bilan qarash va unga itoat etish O`zbekiston hududidagi barcha shaxslarga tegishlidir. Inson huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar orqali himoya qilinadi.

4. O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotning barcha sohalari hurfikrlilik va ularning xilma-xilligi, ko`ppartiyaviylik va demokratik mafkuralar asosida rivojlantirish hamda biron bir siyosiy-ijtimoiy guruhlarning mafkurasi davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishiga yo`l qo`yilmaydi. O`zini o`zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va diniy uyushmalarning manfaatlari himoya qilinadi. Siyosiy institutlar jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi.

5. Jamiyatning iqtisodiy tizimi bozor munosabatlarini rivojlantirish orqali O`zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishga qaratilgan. Mulk shakllarining barcha turlari huquqiy jihatdan tenglik asosida muhofaza etiladi. Davlat o`z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

6. Oila jamiyatning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan hamda u davlat va jamiyat muhofazasida.

7. Davlat hokimiysi hokimiyat bo`linishi printsipi asosida shakllantiriladigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi tizimlaridan iborat bo`lib, ular o`z faoliyatlarida

mustaqildir.

8. O`zbekiston Respublikasi o`z tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatini mustaqil amalga oshiradi. O`zbekiston o`zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish borasida, xalqaro huquq normalarini o`z ichki normalaridan ustunligini tan oladi. O`zining mudofaa va xavfsizlik chora-tadbirlarini ko`radi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini, davlat chegaralarining daxlsizligini ta'minlaydi.

Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo`yilgan, yuqorida sanab o`tilgan asosiy qoidalar nafaqat qonunlar hamda qonun osti hujjatlari uchun, balki har bir fuqaro turmush tarzining barcha jabhalarida ham, hayotimizning har bir kunida ham so`zsiz bajarilishi lozim bo`lgan talablardan iborat. Ushbu talablarga barchamizning vijdonan mas'uliyat bilan yondashuvimiz tufayligina mustahkamkam davlat va farovon hayotga ega bo`lamiz. Demak, o`tgan qisqa davrda erishilgan yutuqlar olib borilgan islohotlarimizning samarasи sifatida ko`rilsa-da, uning huquqiy asosi Konstitutsiya ekanligini ham anglab yetmoq, bunga lozim darajada baho bermoq zarur.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
  - A. 1991 yil sentyabrda
  - B. 1992 yil aprelida
  - C. 1991 yil dekabrida
  - D. 1992 yil dekabrida
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarkibida necha modda mavjud?
3. Konstitutsiyamiz qaysi bo`limlardan iborat?
4. Konstitutsiyaga o`zgartirishlar kiritish mumkinmi?
5. Prezident I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag`ishlangan ma'ruzasi qanday nomlanadi ?

### **3-asosiy savol:**

O`zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni asoslarining barpo etilishi

### **DARSNING MAQSADI:**

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

#### **1-savol bayoni:**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. O`zbekiston rahbariyati tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o`lkaning milliy-tarixiy rivojlanishiga hamda uning o`ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa: 1) eski ma'muriy buyruqbozlik tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish; 2) yangi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, yangi markaziy va mahalliy boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari hal qilindi.

O`zbekistonda hokimiyat bo`linishi tamoyillariga amal qilinib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi joriy etilib, Konstitutsiyada mustahkamlandi. Bu organlar faoliyati erkin, bir-biridan mustaqil bo`lib, ayni vaqtida bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir.

1994 yil 24 dekabrda ko`ppartiyaviylik asosida saylangan Respublika Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajarib keldi. Oliy Majlisiga saylovlar yangi bosqichga o`tganligidan 2004 yil dekabridagi saylovlar dalolat beradi. Oliy Majlis endilikda ikki palatadan - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat bo`ldi. O`tgan davr davomida Oliy Majlisda ko`plab yangi qonunlar qabul qilindi, oldingi qonunlarga o`zgartirishlar kiritildi.

Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakat boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig`i bo`lib, bir vaqtning o`zida Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajaradi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish, Konstitutsiya va O`zbekiston qonunlariga roya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasasi ijro etuvchi hokimiyat organi bo`lib, u

ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijro etilishini ta'minlaydi. 2007 yil dekabrida bo`lib o`tgan saylovda 4ta nomzoddan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti demokratik tamoyillarga asoslangan holda saylandi.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo`lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab o`z vazifalarini hal etadi. Mahalliy o`z-o`zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo`llab-quvvatlash, ijtimoiy jamg`armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirdi o`tkazishda mahallaning o`rni kattadir.

Fuqarolik jamiyat bu insонning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to`la darajada ta'minlaydigan, qonun ustuvor bo`lgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat'yan rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroni davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

O`zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy Sud, Oliy sud, Oliy xo`jalik sudi, harbiy sudlar tizimi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog`iston Respublikasi xo`jalik sudi, viloyat, tuman va shahar sudlari kiradi. Sud hokimiyatining faoliyati to`g`risidagi qonun qoidalar O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to`g`risida»gi qonunda bayon etilgan.

Respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o`tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmni shakllantirdilar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil oxirgi sessiyasi sud-huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida advokatura tizimini kuchaytirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash vazifalarini qo`ydi.

2004 yil dekabrida o`tkazilgan saylovlardan keyin respublika parlamenti – Oliy Majlis ikki palata tarkibida faoliyat yuritmoqda. Quyi palata - Qonunchilik palatasi o`z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borib, qonun ijodkorligi bilan shug`ullanadi. Yuqori palata - Senat ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat o`rtasidagi o`zaro muvofiqlikni ta'minlash, respublikaning turli hududlaridagi aholi manfaatlarini himoya qilish va hisobga olish, qonunlar bajarilishini nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Ijro etuvchi hokimiyat deganda nima tushuniladi va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Xalq deputatlari Kengashlari qanday organ hisoblanadi?
  - A. qonun chiqaruvchi
  - B. ijro etuvchi
  - C. vakillik
  - D. o`zini-o`zi boshqaruv
3. Fuqarolik jamiyat deb qanday jamiyat nazarda tutiladi?
4. Oliy Majlis quyi palatasi qanday vazifalarni bajaradi?
5. Senat nima bilan shug`ullanadi?
6. O`zbekistonda ikki palatali Parlamentga saylovlar qachon bo`lib o`tdi?

#### **4-asosiy savol:**

O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik tizimi va milliy siyosat

#### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekiston siyosiy partiyalari haqida tushuncha berish, siyosiy partiyalarning siyosiy

tizimdagи o`rnini ochib berish, O`zbekiston milliy siyosatini tushuntirish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. O`zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan siyosiy partiyalar haqida tushuncha beradi
- 2.2. Siyosiy partiyalarning siyosiy tizimdagи o`rnini ochib beradi
- 2.3. Respublikada faoliyat ko`rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarni sanab beradi
- 2.4. O`zbekiston milliy siyosatini baholaydi

#### **2-savol bayoni:**

Muxolif partiyalar va harakatlar demokratik jamiyat qurishning zaruriy shartidir. 80-yillarning oxirlaridan boshlab O`zbekistonda bir qator ijtimoiy harakatlar paydo bo`ldi. Mustaqillik yillari mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya tashkil topdi. O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991 yil noyabrdan faoliyat ko`rsatib, o`z safida 420 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan. Oliy Majlisning 69 ta deputati uning a'zolaridir. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi 1992 yil may oyida tuzilgan bo`lib, uning saflarida 35 mingdan ortiq a'zo bor. Uning 14 a'zosi Oliy Majlis deputati. «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995 yil fevralda tashkil topgan bo`lib, 30 mingdan ortiq a'zo bor. Oliy Majlisda 47 deputatdan tashkil topgan o`z fraktsiyasiga ega. «O`zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi» 1995 yil iyunda tashkil topgan. Saflarida 6 mingga yaqin a'zo bor. 1999 yil «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. Shuningdek, Respublikada 1995 yil iyun oyida ta'sis etilgan «Xalq birligi» harakati ham mavjud. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Milliy tiklanish» partiyasi birlashdi. 2004 yilda O`zbekiston ishbilarmonlar va tadbirkorlar harakati – Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi.

Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyatda ma'lum qatlamlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'nnaviy qarashlarini ifodalaydi. Ular parlament shaklidagi partiyalar bo`lib, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari saylovlariiga ishtiroy etadilar va qonun doirasida faoliyat ko`rsatadilar. Shuningdek, bu partiyalar saylangan deputatlari orqali qonun chiqarish jarayonida ishtiroy etadilar.

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200ga yaqin kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasida eng ommaviy kasaba uyushmalari bo`lib, tarkibida 7,5 mln. a'zo bor. O`zbekiston hayotida yoshlarning o`rni beqiyosdir. 1991 yil oxirida O`zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg`or taraqqiy etgan oliy gohlarda bilim olishlarini tayyorlash, tashkil etish uchun «Umid» javg`armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko`rsatmoqda. Prezident I.A.Karimov «bu tashkilotlar faqat xayriya va muvaqqat muassasalariga aylanib qolmasdan, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishlari kerak», deb vazifa qo`ydi.

O`zbekiston Respublikasi 120dan ortiq millatlar va elatlarni birlashtirgan ko`p millatli davlat. Bugungi kunda respublikada yashovchi har bir fuqaro millati, kelib chiqishi, dini va irqidan qat'i nazar teng huquq va imkoniyatlarga ega. Aynan mana shu tamoyil milliy siyosatimizning asosini tashkil etadi. Respublikadagi barcha millatlarni rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ularning tili va dinini hurmat qilish, milliy va xalq an'analarini saqlash, erkin va har tomonlama taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 80 ta milliy markazlar tashkil etilgan. Bularning faoliyatini 1993 yil yanvarida tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniy markazi boshqarib boradi. Respublikamizda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishilgan. Bu – O`zbekistonda demokratik jamiyat qurishning garovidir. Millat va elatlarga o`zaro hurmatda bo`lish-jamiyat ma'nnaviy barkamolligini belgisidir. Bu holat davlatdagi milliy barqarorlikdan tashqari, bu barqarorlikning yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi bosqichda jamiyatning demokratiyalashuvida «to`rtinchi hokimiyat» - matbuotning ahamiyati kattadir. 1997 yil Respublikamizda 8 tilda 495 ta gazeta 1844,2 ming nusxada, 113 ta jurnal 820 ming nusxada nashr etilgan. Ommaviy axborot vositalarini

demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etilgan. Respublikamizda jurnalist kadrlarni, ayniqsa, xalqaro jurnalistlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada 1999 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda jurnalist kadrlarni tayyorlashni, Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakulteti va jahon tillari universitetida markazlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O'zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan qaysi siyosiy partiyalarni bilasiz?
2. Siyosiy partiyalarning O'zbekiston siyosiy tizimidagi o'rni qanday?
3. Respublika Baynalmilal madaniy markazi qachon tashkil topdi?
4. «To`rtinchi hokimiyat» deganda nima tushuniladi?
  - A. matbuot
  - B. o`zini-o`zi boshqaruv organlari
  - C. nodavlat tashkilotlar
  - D. ommaviy axborot vositalari

#### **Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qayta tahrir etilgan va unga ayrim qo'shimchalar kiritilgan. Buning sababi nimada?
2. «Islohot, islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun» g`oyasini qanday tushunasiz?
3. 2004 yil dekabrida o'tkazilgan ikki palatali Parlamentga saylovlarda siyosiy partiyalarning ishtiroki
4. Demokratiyanı rivojlantirish yo`lidagi muammolarni bartaraf etish borasidagi vazifalar nimalardan iborat?
5. Inson omili va uning demokratik jamiyat qurilishidagi o'rni va ahamiyatini siz nimalarda ko`rasiz?
6. 2007 yildagi Prezident saylovlari to`g`risida esse yozing

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining КонституциЯси.- Т.:O'zbekiston,1992
2. O'zbekiston Respublikasining КонституциЯси.- Т.:O'zbekiston,2003
- 3.Karimov I.A. Буюқ келажагимизning хиқуқија кафолати.- Т.:O'zbekiston,2002
4. O'zbekiston tarixi.- Т.:Yangi asr avlod, 2003
5. Юсупов Э. Истиқпол уўлида.- Т.:Fan,1996
6. Karimov I.A. Inson, унинг хукуқи ва эркинликлари ҳамда манбаатлари – энг олиу қадрият. O'zbekiston Respublikasi Президенти И.Каримовning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 13 уйлигига bag'ishlangan tantanali marosimda 2005 yil 7 dekabrda so'zlagan ma'ruzasi.
7. O'zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005.
8. Karimov I.A. O'zbek ҳалқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмауди. 13-жилд. –Т.: O'zbekiston, 2005 у.
9. Karimov I.A. Бизning bosh мақсадимиз – jamiyatni демократлаштириш va Yangiлаш, мамлакатни модернізациЯа ва ислоҳ этишdir -Т.:O'zbekiston,2005
10. O'zbekiston Respublikası КонституциЯси.- Т.,2003
11. O'zbekistonning Yangi tarixi. 3 kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi.- Т.:Sharq,2000
12. O'zbekiston tarixi.-Т.:Yangi asr avlod, 2003
13. Миллии истиқпол G'oYasi. (O'zbekiston Respublikası Олиу таълим бакалавриат босқичи uchun darslik).–T.: Akademiya, 2005y.
14. O'zbekistonda Demokratik jamiyat qurish назариЯаси ва амалиёти. (Олиу таълим myaccasalari талabalari uchun darslik). –T.: Akademiya, 2005 y.

**13-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O`ZBEKISTONNING  
IQTISODIY VA MA`NAVIY MADANIY TARAQQIYOTI  
MA`RUZA DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI.**

T.S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni mustaqillik yillardagi O`zbekistonning ma`naviy - madaniy taraqqiyoti bilan tanishtirish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Mustaqillik yillarda ma`naviy hayot va ma`naviy qadriyatlarining tiklanishi haqida tushuncha berish</li> <li>Milliy istiqlol mafkurasi va milliy istiqlol G`oyasini tushuntirib berish</li> <li>Ta'lif to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida tushuncha berish</li> <li>O`zbekistonda Fanning rivoji va intelektual salohiyatining oshishi va madaniyati va san'atning rivojlanishi to'g'risida tushuncha berish</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbati bahs.</p> <p>Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O`zbekiston milliy valyutasi – so'm achon muomalaga kiritildi?</li> <li>Diniy qadrYatlarni tiklash dngancha nima tushuniladi?</li> <li>«Ma`naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tuzish haqida farmon achon e'lon qilinganini toping?</li> <li>Ta'lif to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.</li> </ol>	O'qituvchi
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1.Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda Aniqlanadi , boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytigan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytigan G`oyalar to'ldiriladi. Muhim voqealarni sanab o'tiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
IV	Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)	O'qituvchi
V	TMI topshiriqlari beriladi Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.	O'qituvchi

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

**Asosiy savollar:**

- O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o`tkazilishi
- Davlat mulkini xususiylashtirish va bozor infratuzilmasining shakllantirilishi
- Agrar sektordagi o`zgarishlar
- Mustaqillik yillarida ma`naviy hayot
- Milliy istiqlol mafkurasi va milliy istiqlol g`oyasi
- Ta'lif to`g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

## **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Islohotlarning besh tamoyili, xususiy lashtirish, infratuzilma, ko`p ukladli iqtisodiyot, mulkdorlar sinfi, fermerlar, shirkat xo`jaliklari. Ma`naviy kamolot, milliy mafkura, milliy istiqlol g`oyasi, qadriyatlar, ma`naviy meros, Ta`lim to`g`risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

### **1-asosiy savol:**

O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o`tkazilishi

### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`lini tushuntirish, islohotlarning besh tamoyili haqida tushuncha berish, bozor iqtisodiyotiga o`tish bosqichlarini tavsiflash.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. «O`zbekiston modeli»ning besh tamoyilini bilib oladi
- 1.2. Iqtisodiy islohotlar o`tkazish bosqichlarini sharhlaydi
- 1.3. Bozor infratuzilmasi tushunchasini izohlaydi
- 1.4. Agrar sektordagi o`zgarishlarni tahlil qiladi

### **1-savol bayoni:**

O`zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin bozor munosabatlariiga o`tishning o`z yo`lini ishlab chiqdi. Bu yo`Ining asosiy qoidalari I.Karimovning «O`zbekiston bozor munosabatlariiga o`tishning o`ziga xos yo`li» nomli asarida, respublika parlamentida qilgan ma`ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda o`z aksini topgan. Bu yo`Iga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olingan. Ikkinchidan, respublikamizning xo`jalik imkoniyatlari va shart-sharoitlari hisobga olingan. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`lini belgilashda mamlakatimizning tarixan tarkib topgan milliy qadriyatlar, xususiyatlari, an`analari va manfaatlari hisobga olindi.

O`zbekistonning bozor munosabatlariiga o`tish yo`liga doir Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil nafaqat respublika, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ma'qullandi.

1. Iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo`ysundirilmasdan, o`ziga xos bo`lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog`i zarur. Iqtisodiyot siyosatga nisbatan ustuvor mavqeida bo`lishi lozim. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilish, unga tazyiq o`tkazish darajasiga ko`tarilmasligi zarur. O`zbekistonda «avval iqtisod, keyin siyosat», «avval taom, keyin kalom» degan hikmatlarga amal qilindi.

2. Bozor munosabatlariiga o`tish davrida davlat bosh islohotchi bo`lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o`zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur.

3. Qonun va qonunlarga riosa etish ustuvor bo`lishi lozim. Negaki, bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanadi. Yaxlit bozor tizimini yaratish uchun uning turli tomonlariga oid qonunlar yaratilishi hamda ularga riosa qilinishi shart. Qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir.

4. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o`tkazish. Buning zaruriyati iqtisodiy ahvol bilan bog`liq. Aholi tarkibida davlat va jamiyat o`z himoyasiga olishi zarur bo`lgan bolalar, o`smirlar, qariyalar ko`pchilikni tashkil etadi. Himoyaga muhtoj qatlamni kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralarini ko`rish zarurligi inobatga olindi.

5. Bozor iqtisodiyotiga o`tish evolyutsion yo`l bilan, puxta o`ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti murakkab tizim bo`lib, uni birdaniga yaratib bo`lmaydi.

Iqtisodiyotni tubdan isloh qilish, bozor munosabatlarini shakllantirishda yuqorida barcha tamoyillar birday muhim va belgilovchi ahamiyatga egadir.

O`zbekistonda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlari shakllantirilmoqda.

Mustaqillikning o`tgan 14 yilda kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim barpo etilmoqda. Ko`p ukladli iqtisodiyotning, tadbirkorlikning har tomonlama o`sishi uchun asos bo`lgan xususiy mulkchilik vujudga keltirildi. Korxona va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berilmoqda. Moddiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalab borish, kishilar dunyoqarashini o`zgartirish, ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga ahamiyat berilmoqda.

Bozor islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish O`zbekiston iqtisodiy siyosatining negizini tashkil etadi. Bugungi kunda O`zbekiston iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlari yaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillarda xususiy mulkchilikni va ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar majmuasi yaratildi: mulk to`g`risida, yer to`g`risida, ijara to`g`risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish to`g`risida va boshqa bir qator qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar faoliyati to`g`risida, pul tizimi to`g`risida, tadbirkorlik to`g`risida kabi qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni belgilab beruvchi huquqiy me'yorlar yaratildi. Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar keng jalb qilinmoqda.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekistonning bozor munosabatlariiga o`tishga doir besh tamoyil I.Karimovning qaysi asarida ishlab chiqildi?
  - A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat
  - B. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin
  - C. O`zbekiston bozor munosabatlariiga o`tishning o`ziga xos yo`li
  - D. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida
2. Kuchli ijtimoiy siyosat deganda nima tushuniladi?
3. Qonun va qonunlarga rioya etish zaruriyatini tushuntiring
4. Investitsiya nima?
5. O`zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi qonunlar haqida so`zlab bering.

### **2-asosiy savol:**

Davlat mulkini xususiylashtirish va bozor infratuzilmasini shakllantirilishi

### **DARSNING MAQSADI:**

Xususiylashtirishning zaruriyati va tamoyillarini tushuntirish, bozor infratuzilmasi haqida tushuncha berish, milliy valyuta joriy etilishi, soliq siyosati mohiyatini ochib berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Mulkni xususiylashtirish tamoyillarini izohlaydi
- 2.2. Xususiylashtirishning huquqiy asoslarini tahlil qiladi
- 2.3. Kichik biznes va tadbirkorlikning o`rnii haqida fikr yuritadi
- 2.4. Narxlarni erkinlashtirish zaruratini tushuntiradi

### **2-savol bayoni:**

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy islohotlarda yetakchi o`rinda turdi. Xususiylashtirish jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun 1992 yil fevralida Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo`mitasi ta'sis etildi. 1994 yilda uning funktsiyalari o`zgartirilib, u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash Davlat qo`mitasiga aylantirildi. Mazkur qo`mita zimmasiga ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda yagona siyosatni amalga oshirish va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash, mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning ustuvor yo`nalishlarini belgilash va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish, xususiy biznesning rivojlanishiga yordam ko`rsatish va boshqa vazifalar kiritildi. Xususiylashtirish tanlov va kim oshdi savdosi orqali amalga oshirildi. O`zbekistonda xususiylashtirishdan tushgan barcha mablag`lar

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun berildi. Davlat bosh islohotchi sifatida xususiylashtirishni boshqarib bordi. Davlat mol-mulkni yangi mulkdorlarga sotish yo'li bilan mulkchilikning yangi shakllarini joriy etdi. «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to`g`risida»gi qonun O`zR Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrdagi VIII sessiyasida qabul qilindi. Unga ko`ra xususiylashtirish va mulkchilik shakllarini o`zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Dasturga asosan dastlabki bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiyligi uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko`rsatish korxonalarini hamda qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom olib, 1994 yilda tugallandi. 1992-94 yillarda 54 mingga yaqin korxona va ob'yekt davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy firma, aktsiyadorlik jamiyatasi, ijara korxonalariga aylandi. Uy-joylar xususiylashtirilib, urush faxriylari, o`qituvchilar, tibbiyot xodimlariga bepul berildi.

1994 yil 21 yanvarda qabul qilingan «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi va 1994 yil 16 martda qabul qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida»gi Prezident Farmonlari bu jarayonni yangi pog`onaga ko`tardi. Bu qarorlarga muvofiq ochiq turdag'i hissadorlik jamiyatlarini tashkil etish, xorijiy investorlarni keng jalb qilish vazifasi qo'yildi. Qimmatli qog`ozlar va ko`chmas mulk birjalarini tashkil etish uchun asos yaratildi.

1995 yildan boshlab ommaviy xususiylashtirish davri boshlandi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. 1000dan ortiq ochiq turdag'i hissadorlik jamiyatlar, 6 mingta xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi. Mamlakatda ko`p ukladli iqtisodiyot va o`rta mulkdorlar sinfi vujudga keldi.

1996 yil 12 martda tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida turli jamg`armalar tuzildi. Keyingi yillarda respublikamizda ko`plab qo'shma korxonalar vujudga kelib, xorijiy investitsiyalar keng jalb qilinmoqda.

Bozor munosabatlari bozor infratuzilmasiz amal qila olmaydi. Bozor infratuzilmasi deganda tovar va pul bozorida, mehnat resurslari bozorida xo`jalik yurituvchi sub'yektlar o`rtasida o`zaro aloqani ta'minlovchi iqtisodiy vositalar – tegishli moliya va bank-kredit tizimi, sug`urta, auditorlik, yuridik va xususiy firmalar tizimi tushuniladi. Bozor infratuzilmasini shakllantirish jarayoni odamlarning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabilar bilan ham bog`liq.

O`zbekistonda bozor infratuzilmasini shakllantirishdagi muhim qadamlardan biri mahsulot yetkazib berishga majburiy davlat buyurtmasining tugatilishi bo`ldi. Davlat buyurtmasi zarur mahsulotlar erkin, kelishilgan narxlarda xarid qilish bilan almashtirildi. Tovar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi.

Ommaviy xususiylashtirish amalga oshirilayotgan bir paytda malakasiz kishilargagina emas, ma'lum ixtisosga ega bo`lgan xodimlarga ham talab cheklandi, ishsizlar soni ko`paydi. Mehnat birjalari tashkil etilib, ishsizlar ro`yxatga olindi va ish bilan ta'minlanib kelinmoqda.

1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi qonun bank sohasini isloq qilish yo'llarini belgilab berdi. Respublikada tijorat va xususiy bank tarmoqlari vujudga keldi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan muhim tadbirdaridan biri pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish bo`ldi. 1994 yil 1 iyuldan boshlab O`zbekiston Respublikasining pul birligi – so`m muomalaga kiritildi. Soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar muhim rol o`ynadi. Soliqlar – xazinani to`ldiruvchi asosiy manbadir. Mamlakatimizda soliq tizimi jahon andozalari darajasiga ko`tarilmoqda.

Yangi mingyillik boshlarida O`zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish ishlari jadal davom ettirildi, bank-moliya tizimi, xususiylashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator muvaffaqiyatlarga erishildi.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Kichik xususiylashtirish qachon tugallandi?
2. 1995 yil xalq xo`jaligida qanday davr bo`ldi?
3. Mulkni xususiylashtirish degan iborani izohlab bering
4. Bozor infratuzilmasi deganda nima tushuniladi?
5. O`zbekiston milliy valyutasi – so`m qachon muomalaga kiritildi?
  - A. 1992 yil 18 noyabr
  - B. 1993 yil 21 yanvar
  - C. 1994 yil 1 iyul
  - D. 1995 yil 16 avgust

### **3-asosiy savol:**

Agrar sektordagi o`zgarishlar

### **DARSNING MAQSADI:**

Qishloqda tub islohotlar o`tkazish zarur bo`lganini tushuntirish, agrar islohotlar mohiyatini ochib berish, islohotlar mamlakat aholisining farovon hayot kechirishiga xizmat qilayotganini asoslab berish

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. Qishloq xo`jaligini taraqqiy ettirish O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili ekanligini isbotlaydi
- 3.2. Qishloqda o`tkazilgan tub o`zgarishlarni tahlil qiladi
- 3.3. Agrar islohotlar natijalarini ochib beradi
- 3.4. Dehqon-fermer xo`jaliklari ahamiyatini tushuntiradi

### **3-savol bayoni:**

Qishloqda tub islohotlar o`tkazishning bir necha o`ziga xos omillari mavjud. Qishloq xo`jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklamasdan turib, mamlakatda iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishish qiyin. O`zbekiston Respublikasi aholisining 60 foizi qishloqda istiqomat qiladi. Qishloqda katta ishchi kuchi potentsiali joylashgan. Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida mustaqillik yillarda qishloq xo`jali majmuiga rahbarlikni yaxshilash, agrar islohotlarning huquqiy asosini yaratish choralarini ko`rildi. 1991 yil 21 dekabrda qabul qilingan «Dehqon (fermer) xo`jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash to`g`risida»gi Farmon qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini zamon talablari asosida tashkil qilishga katta ahamiyatga ega bo`ldi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qishloqda islohotlar o`tkazishga doir o`nlab qaror qabul qilindi.

1996 yil 3 aprelda Prezident tomonidan imzolangan «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmon qishloqda islohotlarni yauqurlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilab berdi. Odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo`shimcha ravishda sug`oriladigan yerlar ajratildi. Dehqon-fermen xo`jaliklarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoxda. Fermer xo`jaliklari nafaqat paxta, balki poliz, sabzavot, don mahsulotlari, chovchilik mahsulotlari yetishtirishda salmoqli o`rin egalladi. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashni tiklash izchillik bilan amalga oshirildi. Qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida yangi vrachlik punktlari ishga tushirildi, aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash borasida katta ishlar qilindi. Mehnatga yaroqli aholining mehnat bilan band qilishga e'tibor kuchaytiirdi.

O`zbekistonda qishloqni har tomonlama rivojlantirishga, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga islohotlarni chuqurlashtirish, moddiy bazasi va moliyaviy ahvolini mustahkamlash borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirish va uni rivojlantirishning bosh maqsadi aholiga munosib turmush sharoitini yaratish va farovon hayot kechirishini yangi sifat darajasiga ko`tarishga qaratilgan, zero iqtisodiyotning ijtimoiyligi ham mana shunda. Inson

manfaatlarini himoya qilish, uning daromad topish imkoniyatlarini to`laqonli ro`yobga chiqarish uchun yetarlicha shart-sharoitlar hozirlash zarur bo`lmoqda. Natijada ishlab chiqarishni iste'molchilar talabini qondirishga, uning ijtimoiyligini ta'minlashga, inson salohiyatini to`liq ishlatalishga, homiyalar tomonidan ko`rsatilgan shaxsiy tashabbuskorlikni iqtisodiy rag`batlantirishga erishiladi.

Shu o`rinda Prezident Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasida "davlat qurilishi va uning taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratik yangilanishi, iqtisodiyotimizni rivojlantirish va erkinlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan bog`liq bo`lgan, qisqacha aytganda, oldimizda turgan barcha muammo va vazifalarni yechishda "Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun" - degan teran ma'noli fikrning mag`zini ohib berar ekan, "...sodda qilib aytganda, bugun qaysi sohani olmaylik - bu paxta yoki g`alla yetishtirish bo`ladimi, ijtimoiy hayotimiz yoki yangi-yangi qurilishlar, shahar va qishloqlarimizni obodonlashtirish bo`ladimi - nimaiki ish qilmasak, ularning hammasi oxir-oqibatda inson uchun, shu yurtda yashayotgan odamlar uchun qilinayotganligini ko`rish qiyin emas", - deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, agar biz mustaqilik yillarda erishgan natija va yutuqlarimizga bir nazar tashlasak, qilingan barcha ishlar va tub o`zgartirishlar, avvalambor, inson uchun, uning manfaatlarini ko`zlab, uning uchun munosib turmush sharoitlarni yaratish maqsadida amalga oshirilganligiga shohid bo`lamiz. Hozirgi davrda iqtisodiyotimizning tez sur'atlari bilan o'sib borayotganligi bu borada katta yutuqlarga erishganimizdan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarda erishgan yutuqlarimizning qadr-qimmatini his etish uchun orqaga bir nazar tashlash lozim bo`ladi. Sobiq totalitar tuzumdan bizga mo`rt, zaif, biryoqlama rivojlangan, xom-ashyoga ixtisoslashgan, paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiyot meros bo`lib qolgan edi. Shu boisdan XX asrning 90-yillarining boshlarida O`zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha mamlakatda 12-o`rinda turgan edi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo`yicha esa Ittifoqdagi o`rtacha darajadan ikki hissa, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo`yicha 2,5 barobar past darajada edi. O`zbekiston aholisi o`cta hisobda go`sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni umuman Sobiq Ittifoq aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilardi. Rasmiy kambag`allik chegarasidan past darajada yalpi daromad topadigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko`proq bo`lsa, bizning respublikamizda 45 foizni tashkil etardi. 1 millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o`zining qo`lidan keladigan ishni topa olmasdi. Shuningdek, sog`lijni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalari juda og`ir ahvolga tushib qolgan edi. Bu iqtisodiyot sobiq ittifoqning so`nggi yillarda tanazzulga uchrab, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib bordi. Sobiq ittifoqning tarqab ketishi tufayli respublikalar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarning buzilishi XX asr 90-yillarining boshida ishlab chiqarish hajmlari keskin kamayib ketishiga olib keldi.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida kam ta'minlangan aholi qatlamlarini, moddiy yordamga muhtoj kishilarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining muhim yo`nalishi hisoblanadi.

O`zbekistonda dunyoviy davlat tizimi amal qilib, insonlararo mehr-muruvvat munosabatlari, insonparvarlik g`oyalari, umuminsoniy qadriyatlar davlat ijtimoiy siyosatining tamoyillari sifatida asos qilib olingan. Shuning uchun ham ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri "demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o`tish bilan bir qatorda, odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish" hisoblanadi.

Kam ta'minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda muhtoj oilalarga subsidiya, mikrokreditlar berish, ularga mikrofirma, kichik korxona, fermer va dehqon xo`jaliklarini

tashkil etishi uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Mehnat faoliyati bilan shug`ullanish imkoniyatiga ega bo`lмаган ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga ko`rsatiladigan ko`makning samaradorligini oshirish uchun davlat mablag`lari bilan bir qatorda, mehnat jamoalari, jamoat va hayriya tashkilotlari jamg`armalarining mablag`larini keng jalb qilish nazarda tutilmoqda. Kishilarning hayr ehsonlari asosida nodavlat sug`urta, xayriya fondlarining tashkil etilishi hamda ularni kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga, turli ijtimoiy dasturlari amalga oshirishga yo`naltirish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo`jalik sub'ektlarining homiylik, xayriya ishlariqa mablag`lar ajratishlarini rag`batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir. Buning uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada oshirish, iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish lozim bo`ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun:

- investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda xususiy kapitalning yetishmasligi;
- ichki bozorni rivojlantirishni ta'minlashda aholining to`lov qobiliyati yetishmasligi;
- iqtisodda monopol mavqening balandligi raqobatni va xususiy biznesni rivojlantirishdagi to`siq ekanligi;
- xususiy sektorning rivojlanishida ba'zi to`siqlarning saqlanib qolganligi, qonuniy ish olib borayotgan ishlab chiqaruvchilarga soliq yukining yuqoriligi;
- tashqi savdoning erkinlashtirilishi tugallanmaganligi;
- bank sohasidagi islohotlarning tugallanmaganligi va pul muomalasidagi kamchiliklarni hal etish kerak bo`ladi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshib borishi bilan xalq turmush darajasi ham o'sib boradi, uning salomatligini mustahkamlashga, kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayib boradi. Eng muhim insonlararo mehr-muruvvat va oqibatilik kuchayishi uchun zamin yaratiladi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

- 1.O`zbekiston Respublikasi aholisining necha foizi qishloqda istiqomat qiladi?  
A. 100%                    B. 85%                    C. 48%                    D. 60%
2. «Dehqon-fermer xo`jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirdorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to`g`risida»gi Farmon qachon qabul qilindi?  
A. 1991 yil 21 dekabrda  
B. 1996 yil 26 noyabrda  
C. 1994 yil oxirida  
D. 1996 yil 21 mayda
3. O`zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining o'rni va ahamiyatini ochib bering (yozma)
4. Agrar islohotlar va ularning natijalarini tushuntiring
5. Aholini ish bilan ta'minlash muammosi haqida gapirib bering

#### **4-asosiy savol:**

Mustaqillik yillarda ma'naviy hayot

#### **DARSNING MAQSADI:**

Ma'naviyat mohiyatini tushuntirish, qadriyatlarni tiklash borasida qilingan ishlarni tahlil qilish, ma'naviy hayotdagi o`zgarishlar haqida tushuncha berish

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Ma'naviyat haqida tushuncha beradi
- 1.2. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash borasidagi ishlarni tahlil qilish
- 1.3. Ma'naviy hayotdagi o`zgarishlarni baholaydi

## **1-savol bayoni:**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko`lamda faoliyat ko`rsatmoqda. Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo`lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir.

Jamiyatimiz hayotida ma'naviy kamolotni tezlashtirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni o`rganish mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biridir. Hayotimizda ma'naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy merosini o`rganish ham katta o`rin egallaydi. Milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o`rganish va targ`ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqillikning dastlabki kunlaridan amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1991 yili buyuk alloma, g`azal mulkining sultonı Alisher Navoiy yubileyini o`tkazish katta voqeа bo`ldi. Shoiring asarlari nashrdan chiqarildi. 1994 yili Mirzo Ulug`bek tavallud topgan kunning 600 yilligi keng ko`lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag`ishlangan haftalik va ko`rgazma ochildi.

Amir Temurning 660 yilligi 1996 yilda nishonlandi. YUNESKO tomonidan 1996 yil – Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Mamlakatimizda Temur va temuriylar tarixi muzeyi ochildi, Amir Temurga haykallar barpo etildi, uning nomi bog`larga, xo`jaliklarga, ko`chalarga berildi.

Respublikamizda bizgacha yetib kelgan boy merosni o`rganish, milliy o`zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga keng ko`lamda e'tibor berilmoqda. Islom olamining allomalari Iso at-Termizi, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Moturidiy, Marg`inoniy kabilarning to`yonalari keng ko`lamda nishonlanib, ularga bag`ishlab haykallar qo`yildi, asarlari chop etildi. Bundan tashqari xalq qahramonlarimizning to`yonalari ham o`tkazildi. Jumladan Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish borasida 1994 yili O`zR Prezidenti tomonidan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish haqida farmon e'lon qilindi. Markaz tomonidan Imom al-Buxoriy yubileyiga bag`ishlab «Al-jome' as-sahih» (Ishonarli to`plam) va «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) o`zbek tilida nashr etildi.

1998 yilda Imom al-Buxoriy 1225 yilligi, Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligi nishonlandi. Bularning barchasi O`zbekistonda chinakam milliy qadriyatlarni tiklash uchun yuritilayottgan katta ishlardan dalolat beradi.

Ma'naviy taqdriyatlarning tiklanishi uning bir bo`lagi bo`lgan diniy qadriyatlarga ham e'tiborni kuchaytirdi. 1992 yil Prezident Farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayitlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Muborak Haj safari tiklandi. «Mavarounnah» diniy boshqarmasining faoliyati respublikamiz hayotida o`z o`rnini egalladi. Xalqining asrlar davomida nishonlanib kelgan «Navro`z» bayrami umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

Jamiyat taraqqiyotida ro`y berayotgan o`zgarishlarni tushunish, hur fikrlikka intilish uchun kishilarni yangi yo`ldan olib boruvchi g`oyaviy qarashlar ham hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Qaysi yil va kim tomonidan «Amir Temur yili» deb e'lon qilinganini ko`rsating
  - A. 1992 yil
  - B. 1994 yil
  - C. 1995 yil
  - D. 1996 yil
- 1) Prezident I.Karimov tomonidan
- 2) BMT tomonidan
- 3) YUNESKO tomonidan
- 4) Oliy Majlis tomonidan

2. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tuzish haqida farmon qachon e'lon qilinganini toping
- |             |             |
|-------------|-------------|
| A. 1998 yil | C. 1995 yil |
| B. 1994 yil | D. 1996 yil |
3. Diniy qadriyatlarni tiklash deganda nima tushuniladi?
4. «Navro`z» bayrami nima ekanligini ko`rsating
- |                    |                         |
|--------------------|-------------------------|
| A. milliy qadriyat | C. umuminsoniy qadriyat |
| B. diniy qadriyat  | D. urf-odat             |
5. Imom al-Buxoriy 1225 yilligi nechanchi yilda nishonlandi?
- |              |              |
|--------------|--------------|
| A. 1994 yili | C. 1998 yili |
| B. 1996 yili | D. 2000 yil  |

### **5-asosiy savol:**

Milliy istiqlol mafkurasi va milliy istiqlol g`oyasi

### **DARSNING MAQSADI:**

Milliy mafkura va milliy istiqlol g`oyasi ma'nosini ochib berish, milliy istiqlol g`oyasi ahamiyatini ko`rsatish, milliy istiqlol g`oyasi asosiy tushunchalarini ochib berish

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Milliy mafkura ma'nosini ochib beradi
- 2.2. Milliy istiqlol g`oyasi asosiy tushunchalarini izohlaydi
- 2.3. Milliy mafkura va milliy istiqlol g`oyasi ahamiyatini ochib beradi

### **2-savol bayoni:**

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotgan biri vaqtida kishilar ongida mustaqillik g`oyasi, milliy mafkura muhim o`rin olishi zarur edi. Busiz, ya'ni fikrflash, e'tiqod o`zgarmasdan bozor munosabatlariga o`tish davrida siyosiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkam bo`lishi qiyin vazifa bo`lardi. I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasiga ta'rif berib, uning «asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo`lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat» deydi. Mustaqillik g`oyasi va milliy mafkuraning xalqimizga to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsad uchun butun kuchlarini uyg`unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.Karimov 1993 yil 6 may O`zR Oliy Kengashining 2 chaqiriq XII sessiyasida «oldimizda turgan eng muhim maqsad bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir»degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhdan bo`lishidan qat'i nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g`oya atrofida birlashtiradigan birdanqbir qudratli kuch milliy mustaqillik mafkurasi bo`ldi.

Yagona maqsad, yagona g`oya bo`lmasa jamiyat inqirozga uchraydi. Buni biz yaqin va olis tarixdan bilamiz. Milliy mafkura kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog`laydigan, ana shu buyuk maqsad yo`lida kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

O`zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o`z mohiyatiga ko`ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalay digan, uning o`tmishi iva kelajagini bir-biri bilan bog`laydigan, asriy orzu-istiklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g`oyalari tizimidir.

Milliy istiqlolimizning asosiy g`oyalari xalqimiz mustaqil taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasidan kelib chiqadi. O`zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasi – mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag`rikenglikdir.

Bugungi kunda milliy istiqlol g`oyasini keng xalq ommasi ongiga singdirish borasida qator tadbirlar yushtirilmoqda. Bu borada ziylolarimizning o`rni kattadir, chunki aynan ular milliy mafkuramizning, milliy istiqlol g`oyasining faol tashvi` otchi va targ`ibotchilaridir.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Milliy istiqlol mafkurasi ma'nosini ochib bering
2. Milliy mafkura va milliy istiqlol g`oyasi ahamiyatini tushuntiring
3. Milliy mafkuraning bosh g`oyasini ko`rsating
- A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat
- B. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot
- C. O`zbekiston – Vatanim manim
- D. Jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish
4. Milliy mafkuraning asosiy g`oyalarini sanab bering

### **3-asosiy savol:**

Ta'lism to`g`risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

### **DARSNING MAQSADI:**

«Ta'lism to`g`risida»gi Qonun ahamiyatini ochib berish, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mohiyatini tushuntirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlarini izohlab berish

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. Ta'limni isloh qilish tamoyillarini o`rganadi
- 3.2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mohiyatini tushuntiradi
- 3.3. Dasturni amalga oshirish bosqichlarini ajratadi

### **6-savol bayoni:**

Istiqlol yo`lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillarga e'tibor berish bilan birga fan, maorif, ta'lism-tarbiya ishlariga ham e'tibor kuchaytirildi.

Respublikamizda ta'larning yangi tizimini amalga oshirishda, O`zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lism jarayonlarini o`rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lism tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko`tarish va O`zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda Respublikamizda «Ta'lism to`g`risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta'lism-tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lism tizimining uzlusizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy, milliy-madaniy va ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'i nazar barcha fuqarolar uchun ta'lism olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta'lism muassasalarining siyosiy partiylar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur har bir shaxs hamda davlat va jamiyat manfaatlari iqtisodiy xolat va uning raqobatbardoshligi bilan bog`liq bir qator muammolarni echishga, hal qilishga yo`naltirilgan. «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to`g`risida»gi Qonuni haqida Prezident I.Karimov O`zR Oliy Majlisining 9 sessiyasida bu qonun «Mustaqilligimizning bugungi va ertangi hayotimizning kafolati hisoblanadi», degan edi. Milliy dasturning maqsad va vazifalari, ularning asoslanganligi, muhimligi va muammolarni hal qilish yo'llari mustahkam ilmiy fundamentga tayanadi.

Birinchidan, Milliy dastur negizida tizimli yondashuv etadi. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muammosi va uni hal qilish yaxlit bir sistema kadrlar tayyorlash tizimining samarali ishlashga ta'sir ko`rsatuvchi o`zaro bog`langan barcha omollar bo'yicha ko`rib chiqiladi.

#### **1. Ta'lism-tarbiya yo`nalishlari:**

- kadrlar tayyorlash sifati va kadrlar raqobatbardoshligi;
- ma'naviyat va ma'rifat;

- professional ta'limgan, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ilmiy-pedagogik kadrlar;
- qishloq maktablarini rivojlantirish;

## 2. Informatsion yo`nalish:

- axborot texnologiyasi va ta'limni informatizatsiyalash;
- o`quv jarayonini axborotlar bilan ta'minlash va XXI asr kutubxonasi;
- oliy professional ta'limgan xolatini baxolash va kadrlar tayyorlashni bashorat qilish tizimi;

## 3. Ijtimoiy yo`nalish:

- bolalar va o`quvchi yoshlar salomatligi muxofazasi;
- maxsus ta'limgan: alohida nuqsoniy tarbiya va ta'limgan;
- ijtimoiy himoya.

Ikkinchidan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini hal qilish professional ta'limgan hamma bosqich va tabaqalari uchun, xalqaro modellar va meyorlar asosida yaratiladigan ilmiy asoslangan, ilg`or ta'limgan standartlari kompleksiga tayanadi.

Uchinchidan, milliy dasturda ko`zlagan rejalarini amalga oshirish negizida islohotlarni o`tkazish o`zbek modelining eng asosiy tamoyili islohotlarni bosqichma-bosqich o`tkazish printsipli yotadi.

Iqtidorli o`quvchi yoshlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

1 bosqichda 1997-2001 yillar amaldagi kadrlar tayyorlashdagi tizimi salohiyatlarini saqlagan holda bor tizimningsh rivojlanishi uchun huquqiy, me'yoriy, ilmiy-metodik va moliyaviy moddiy shart-sharoitlarni yaratish bilan bog`liq bo`lgan vazifalar majmuasi hal qilindi.

2 bosqichda 2001-2005 yillar rejalashtirilgan masalalar bo`yicha Milliy dastur deyarli to`la amalga oshirildi.

3 bosqichda 2005 yildan keyingi yillar XXI asr raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning yalpi tizimini taraqqiy ettirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.

Milliy dasturning birinchi va ikkinchi bosqichini amalda bajarilishi O`zRning mustaqillik yillarda erishgan intelektual va moddiy, ilmiy-metodik, me'yoriy va huquqiy potentsiallari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ta'limgan va fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi yutuqlarga tayandi. Oliy ta'limgan sohasidagi markazdan belgilash o`rniga kadrlar tayyorlashning mintaqaviy demokratik printsiplariga amal qilish siyosati o`tkazilmoqda. Oliy o`quv yurtlari ko`paymoqda. Reyting tizimi va test usuli asosida abiturient va talabalarning bilimdonligini xolisona baholash usullari joriy qilindi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Yangi talablarga muvofiq ravishda aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlashga keng yo`l ochildi. Oliy attestatsiya xay'ati faoliyoti ko`rsatayapti. Iqtidorli o`quvchi yoshlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilyapti. Maxsus fondlar yaratildi va qobiliyatli yoshlarni xorijdagi etakchi o`quv va ilmiy markazlarda o`qitish tashkil qilindi. O`zR Prezidentining davlat stipendiyalari, buyuk allomalar nomi bilan atalgan stipendiyalar joriy qilindi.

O`quv ta'limgan va fan sohalarida xalqaro aloqalar kengaymoqda. Bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqin munosabatlar o`rnatilmoqda. Ta'limgan sohasidagi xukumatlararo bitimlar tuzilgan. Ta'limgan jarayonining mazmuniga oid muammolar sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarilmoqda. O`quv dasturlari, rejalariga o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, odamiylik alomatlari kirib bormoqda. Gumanitar ijtimoiy iqtisodiy fanlar turkumi butunlay yangidan ko`rib chiqilmoqda. Ta'limgan barcha tabaqalariga ma'naviyat, iqtisod, chet tillarini o`rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

## **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. «Ta'lif to`g`risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qachon qabul qilinganligini ko`rsating.
  - A. 1999 yil 19 fevral
  - B. 1992 yil 8 dekabr
  - C. 1993 yil 6 may
  - D. 1997 yil 2 avgust
2. Ta'lifni isloq qilish tamoyillarini sanab bering.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi negizida \_\_\_\_\_ ta yo`nalish bo`lib, ular quyidagilardir \_\_\_\_\_.
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi bosqichlari va sanalarini ko`rsating.
5. Bugungi kunda “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunni hayotga tatbiq etilishi holatini tavsiflang

**Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning o`rni va ahamiyati
2. Fuqarolik jamiyati qurishda ijtimoiy islohotlardagi muammolar
3. O`zbekistonda intellektual salohiyatning o`sishi: muammo va yechimlar.
4. Mafkuraviy va g`oyaviy tarbiyaning ahamiyati
5. Yoshlar ma`naviyati

**Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O`zbekiston bозор муносабатларига ўтишning ўзига хос уўли.- Т.,10993
2. Karimov I.A. O`zbekiston иқтисодиу islohotlарни чуқурлаштириш уўлида.- Т.,1995
3. Karimov I.A. Inson, yning ҳукуки ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олиу қадрият. O`zbekiston Respublikası Президенти И.Каримовning O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 13 yiliga bag`ishlangan tantanali marosimda 2005 yil 7 dekabrda so`zlagan ma`ruzasi.
4. Karimov I.A O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. T.: O`zbekiston, 1997 y.
5. Yangi O`zbekistonning 7 zafarli yili.- Т.,1999
6. O`zbekistonning Yangi tarixi. 3 kitob. Mustaqil O`zbekiston tarixi.- Т.:Sharq,2000
7. O`zbekiston tarixi.-Т.:Yangi asr avlod, 2003
8. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005
9. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-xuquqiy asoslari. T.:O`zbekiston, 2007
10. Karimov I. A. Истиқпол va Ma`naviyat. –T.: O`zbekiston, 1994.
11. Karimov I.A. Jamiyatimiz мафкураси ҳалқні-халқ, миллатні-миллат қилишга хизмат этсин. –T.: O`zbekiston, 1998.
12. O`zbekiston Respublikasining «Таълим тўғрисида»ги Қонуни – Т.,1997
13. Кадрлар тауёрлаш Миллиу дастури – Т., 1997
14. Karimov I.A O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. T.: O`zbekiston, 1997 y
15. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан тууГ'уси. –Т., 1996.
16. O`zbekistonning Yangi tarixi. 3 kitob. Mustaqil O`zbekiston tarixi.- Т.:Sharq,2000
17. O`zbekiston tarixi.-Т.:Yangi asr avlod, 2003
18. G`ulomov C., Usmonov Q. Mustaqillik бизга піма берди – Т.,2000
19. Гафарли М., Касаев А. Ривожланышнинг O`zbek модели: тинчлик ва барқарорлик tarqqiyot асоси – Т.,2001
20. O`zbekiston tarixi. T.:Yangi asr avlod, 2005

**O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI. MA'RUZA DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI.**

T.S	Faoliyat	Ma'sul shaxs
I	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi jarayoni bilan tanishtirish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinchliksevar tashqi siyosati asoslарining ishlab chiqarilishi, uning asosiy tamoyillarini so'zlab beradi.</li> <li>• O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, xalaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan xamkorligi to'g'risida tushuncha beradi.</li> <li>• O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi xokimligini yoritib beradi.</li> <li>• Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning o'rni haqida tushunchani beradi.</li> </ul> <p>Qo'llaniladigan interfaol usul: aqliy hujum, davra suhbat, babs Beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekistoning tashqi aloqalarni ta'minlovchi vazifalar va muassasalarini ayting?</li> <li>2. O'zbekistonning jaxon iqtisodiyotiga integratssiYalashuv yo'lidan borib, qaysi tashkilotlarga a'zo bo'lgan ?</li> <li>3. MDH qachon tuzildi?</li> </ol>	O'qituvchi
II	<p>Kirish.</p> <p>2.1. Mavzu va ko'rildigan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2.2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
III	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1.Talabalarning fikrlari ketma – ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>3.4. Aytilgan g'oyalar to'ldiriladi. O'zbekiston hamkorlik qiluvchi xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar sanab o'tiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
IV	<p>Yakuniy fikrlar aytildi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O'qituvchi
V	<p>TMI topshiriqlari beriladi</p> <p>Dars yakunlanadi va talabalar bilan hayirlashiladi.</p>	O'qituvchi

**14-MAVZU. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI**

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

**Asosiy savollar:**

1. Tinchliksevar tashqi siyosat asoslарining ishlab chiqilishi, uning asosiy tamoyillari.
2. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.
3. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi.

## **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Mustaqil davlat, geografik-strategik imkoniyatlar, tashqi siyosat, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, BMT, hamkorlik, integratsiyalashuv, mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy sarmoyalar, tashqi aloqalar, MDH, yagona iqtisodiy makon, Markaziy Osiyo mintaqasi.

### **1-asosiy savol:**

Tinchliksevar tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning asosiy tamoyillari.

#### **DARSNING MAQSADI:**

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi yo`lini tushuntirish, mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarni oshib berish, tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni tartibga solinadigan qonunlarni sharxlab berish.

#### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga soladigan qonunlarni izohlab beradi.
- 1.2. O'zbekiston tashqi siyosati asosiy tamoyillarini biladi.
- 1.3. O'zbekistonning tashqi siyosati tinchliksevar siyosat ekanligini anglaydi.

#### **1-savol bayoni:**

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo`lga qo'yishi nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda geosiyosiy jihatdan markaziy o'rinn tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo`lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston tashqi dunyodan ajralgan, to`g`ridan-to`g`ri aloqa qila olmaydigan yopiq mamlakat bo`lib, tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosati qoidalari qonunlashtirildi. Bu qoidalalar «O'zR tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to`g`risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to`g`risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida»gi kabi xujjalarda asoslab berildi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48 (1993) va 5-yubiley (1995) sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo`nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston hukumatining respublika tashqi siyosatidagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizomlarni tinch yo`l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoolar tuzish, hamdo`stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklarga va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o`zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarning ustunligi;

- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik tamoyillariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug`lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish bilan birga O`zbekiston Respublikasi jahon hamjamiatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekistonning tashqi aloqalarini ta'minlovchi vazirliklar va muassasalarni ayting.
2. O`zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir qonunlarni izohlab bering.
3. Mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan qayerda asoslab berilgan?
- A. O`zR Konstitutsiyasida
- B. I.Karimov asarlarida
- C. «O`zR tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to`g`risida»gi Qonunda
- D. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida»gi Qonunda
4. O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini izohlang
5. Bugungi kundagi tashqi siyosatimiz mustaqillik boshidagidan farq qiladimi?

### **2-asosiy savol:**

O`zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.

### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv yo`lini ochib berish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni o`rnatish jarayonini tushuntirish, qo`shma korxonalar haqida tushuncha berish.

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 2.1. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish zaruratinu tushuntiradi
- 2.2. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni tahlil qiladi
- 2.3. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv ahamiyatini ochib beradi

### **2-savol bayoni:**

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tan olinishini ta'minladi. O`zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti dunyodagi ko`plab mamlakatlar tomonidan tan olindi, ularning barchasi bilan diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o`rnatildi va o`rnatilmoqda. Toshkentda 40 dan ortiq mamlakatning elchixonalari ochildi. O`zbekistonda 90 dan ortiq xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko`rsatmoqda.

O`zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo`lidan borib, Juhon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko`maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo`lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga O`zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Juhon sog`liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Juhon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo`yicha xalqaro ittifoq, Juhon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo`mitasi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakillik tashkilotlari respublikamizda ochilib, faoliyat ko`rsatmoqda. O`zbekiston ko`pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi tashkiloti, Qo`shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

O`zbekiston o`zining tashqi siyosatida G`arbiy va Sharqiy Yevropa, Amerika, Tinch okean havzasi, Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatları, AQSh bilan ko`p tomonlama va ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga alohida e'tibor berilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga

ko`maklashish muassasalari – chet el investitsiyalari bo`yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi. Xorijiy investitsiyalar yordami O`zbekistonda ko`plab qo`shma korxonalar barpo etilib, faoliyat ko`rsatmoqda. Jumladan AQShning «Nyumont Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib olinadigan «Zarafshon-Nyumont» qo`shma korxonasi, Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan «O`zDEUavto», «O`zDEUelektroniks» qo`shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Germaniya, Turkiya, Xitoy va boshqa qator mamlakatlardagi firmalar bilan ham qo`shma korxonalar barpo etilgan va iqtisodiyotimizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon yaratilgan.

O`zbekistonning barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalari kengayib bormoqda.

### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv yo`lidan borib, qaysi tashkilotlarga a'zo bo`lganini toping
  - A. Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, va boshqa moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar
  - B. BMT, EXHT, NATO, EI
  - C. Qo`shilmaslik harakati, Islom konferentsiyasi tashkiloti, Evropa Ittifoqi
  - D. Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH, MOH
2. Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko`maklashish maqsadida qanday muassasalar tuzildi?
3. O`zbekiston mustaqilligini dunyodagi nechta davlat tan oldi?
4. O`zbekiston qaysi mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda?
5. O`zbekiston BMTning qaysi ixtisoslashgan tashkilotlari bilan aloqa o`rnatgan?

### **3-asosiy savol:**

O`zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi

### **DARSNING MAQSADI:**

O`zbekistonning MDH ga a'zo bo`lishi, MDH va MOH davlatlari bilan ikki tomonlama va ko`ptomonlama hamkorligini yoritib berish

### **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- 3.1. MDH tashkil topishini va uning ahamiyatini sharhlab beradi
- 3.2. O`zbekistonning MDH davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorligini tahlil qiladi
- 3.3. Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasidagi hamkorlik haqida tushuncha beradig`

### **3-savol bayoni:**

1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida sobiq ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligiga asos solindi. MDH a'zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

- tashqi siyosiy faoliatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumyevropa, Yevroosiyo bozorini shakkantirish;
- bojxona, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;
- ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo`stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo`lga qo`yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi. 1991-2004 yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 dan ortiq kengashlari bo`lib o`tdi va muhim hujjalarni imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo`lga qo`yish, iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish kabilan muhim o`rin egalladi.

1993 yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo`lib o`tgan uchrashuvidan so`ng

Markaziy Osiyo Hamdo`stligiga asos solindi. Hamdo`stlikka a'zo bo`lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishishi, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xom ashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda jahon bozoriga olib chiqish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o`tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi. Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar - Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik qardoshlarcha do`stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. O`zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda mintaqaviy xalqaro tashkilotlarga a`zo bo`lib, mintaqamizdagi qator siyosiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni hal qilishga harakat qilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo hamjamiyati, Shanxay xalqaro tashkiloti, Yevropa-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatining faol a`zosi sifatida mintaqada ekologik muhitni yaxshilash, terrorizm va narkobiznesga qarshi kurashish borasida muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

O`zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilgan. O`zbekiston o`zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o`zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rnini egalladi.

#### **NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. MDH qachon tuzildi?  
A. 1991 yil                    B. 1992 yil                    C. 1993 yil                    D. 1994 yil
2. MOH ga qachon asos solindi?  
A. 1991 yil                    B. 1992 yil                    C. 1993 yil                    D. 1994 yil
3. Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasidagi ko`ptomonlama aloqalar qaysi sohalar bo`yicha rivojlanmoqda?
4. Yagona iqtisodiy makon deganda nima tushuniladi?

#### **Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

Fikringizni yozma bayon qiling:

1. Bugungi kunda MDH faoliyatiga salbiy baholar ham berilmoqda. Sizningcha, MDH ni saqlab qolish kerakmi yoki tarqatish kerakmi? Nima uchun?
2. Sizningcha Markaziy Osiyo deyish to`g`rimi yoki O`rta Osiyomi? Nima uchun?

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997
2. Karimov I.A. ИмпериYa davrida бизні иккінчи даражали одам деб ҳисоблашарди.- T.:O'zbekiston,2005
3. Касымов А.,Васькин И. Основные направлениYa внешнеу политики Республики Узбекистан.- Т.,1994
4. O'zbekistonning Yangi tarixi. 3 kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi.- T.:Sharq,2000
5. O'zbekiston tarixi.-T.:Yangi asr avlod, 2003
6. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili.- T.,1999
7. G'ulomov C., Usmonov Q. Mustaqillik бизга піма берди – Т.,2000

**I. SEMINAR MASHG`ULOTLARI**  
**1-MAVZU: “AVESTO” KITOBI –O’ZBEKISTON TARIXINI O’RGANISHDA MUHIM**  
**MANBA**

**Ajratilgan vaqt-2 soat**

Ko’riladigan savollar rejasi

1. “Avesto” paydo bo’lgan hudud haqidagi munozaralar.
2. Zardushtiylik dini tamoyillari va qonun – qoidalari.
3. “Avesto”da Qadimgi ajdodlarimizning davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma’lumotlar.
4. “Avesto”ning O’rta Osiyo va boshqa hududlar bo’ylab keng tarqalishi va uning qadimgi xalqlar ma’naviy hayotiga ta’siri.

**Darsning maqsadi:**

“Avesto” kitobi – O’zbekiston tarixini o’rganishga oid dastlabki yozma manba sifatida ahamiyatli ekanligini tushuntirish. Unda ajdodlarimizning qadimgi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid ma’lumotlarning mavjudligini ko’rsatib berish. Talabalar ongida moddiy va ma’naviy merosga hurmat hissini shakllantirish.

**Seminar mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rish uchun metodik ko’rsatmalar:**

1-asosiy savol bo’yicha:

“Avesto” paydo bo’lgan hudud haqida fanda yagona fikr bo’lmasdan, olimlar o’rtasida munozaralar mavjud. Ana shu munozaralar qanday manbalarga asoslanadi.( 1. 64-71; 2.52; 4. 10-13; 5.4-13; 6.97-99)

2-asosiy savol bo’yicha:

Zardushtiylik dinining mohiyati nimaga asoslanadi, uning qonun-qoidalari negizini nima tashkil qiladi. Bu dinning asosiy g’oyalalarini tushintirib bering.(1. 87-90; 2.53-56; 3. 7-16; 5.13-51; 6.100-107)

3-asosiy savol bo’yicha:

“Avesto”da ajdodlarimizning boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid qanday ma’lumotlar o’z aksini topgan.

(1. 71-73; 2.54-55)

4-asosiy savol bo’yicha:

“Avesto”ning juda keng hudud bo’ylab tarqalishining sababi va xalqimiz ma’aviy hayotida chuqur iz qoldirganligi, yashovchanligining sirini tushuntiring. ( 1.87-89; 2.52-56; 7.6-26.)

**Adabiyotlar:**

1. O’zbekiston tarixi (Oliy o’quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O’AJBNT markazi, 2003. 675 b.
2. O’zbekiston tarixi (Oliy o’quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. “Avesto” Yasht kitobi. M. Ishoqov tarj. T. : Fan. 2001.
4. “Avesto” Vedivdod kitobi. M. Ishoqov tarj. T. : Sharqshunoslik instituti. 2007.
5. Mahmudov T. “Avesto” haqida T. : Sharq, 2000.63 b.
6. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi T.:O’qituvchi. 1997.527b.
7. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. T.,2001.30 b.
8. Sagdullayev A. Qadimgi O’zbekiston ilk yozma manbalarda T.: O’qituvchi,1996. 111 b.
9. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxon’jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. T. :Yozuvchi. 2001. 230 b.

## **2-MAVZU: O'zbek xalqining etnik shakllanishi**

### **Ajratilgan vaqt – 2 soat**

#### **Ko'rildigan savollar rejasি**

1. O'zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz hududidagi Qadimgi aholi, ularning ijtimoiy – madaniy hayoti.
2. IX- XI asrlarda qorluqlar, saljuqiylarning O'zbek xalqining etnik shakllanishiga ta'siri.
3. O'zbek xalqining etnik shakllanishida XVI asr boshlarida Movarounnahrga kelib joylashgan O'zbek urug'larining muhim ta'siri. "O'zbek" atamasining kelib chiqishi.

#### **Darsning maqsadi:**

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, uning xalq sifatida shakllanishi masalalarini o'rganish muhim ekanligini tushuntirish. Bu jarayonning murakkabligi ko'plab tadqiqotlar yutuqlarini ushbu masalaga jalg etish va davom ettirishni talab qiladi. O'lkamiz hududlaridagi qadimgi mahalliy aholi va o'zbek xalqining shakllanish bosqichlarini o'rgatish. Talabalarga o'zlikni anglash g'oyalarini chuqurroq singdirish.

#### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

##### **1-asosiy savol bo'yicha:**

O'zbekiston hududidagi qadimgi mahalliy aholi va Turkiy qatlarning avtoxtonligi masalasini o'rganish. Ushbu masalani o'rganishda antropologik va arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati.( 1.48-55;2.77-80; 3.72-96;6.298-300)

2-asosiy savol bo'yicha: Yurtimiz hududida kechgan etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishining tugallanishi. IX-X asrlarda Movarounnahrga kelib o'rashgan Turkiy elatlar.(1.55-59;2.80-85;5.46-48.)

##### **3-asosiy savol bo'yicha:**

O'rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar. "O'zbek" atamasi va uning keng yoyilishi. Dashti Qipchoqda yashagan urug'larning nomlari. (1.58-59; 2.85-89; 3.223-254.)

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b.
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006,520 b.
3. Shoniyofov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni T.:Sharq.2001.
4. Shoniyofov K. Qang' davlati va qang'lilar. T. : Fan,1990.
5. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixining ba'zi nazariy masalalari G'G' O'zbekiston tarixi 4-soni, 2004.46-54 b.
6. Karimov Sh.,Shamsuddinov R. Vatan tarixi T.:O'qituvchi. 1997. 527b.

## **3-MAVZU: Vatanimiz hududida tashkil topgan dastlabki davlatlar.**

### **Ajratilgan soat – 2 soat**

#### **Ko'rildigan savollar rejasи**

1. Xorazm va Baqtriya ilk davlatlari paydo bo'lishining asosiy omillari.
2. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. Kushonlar sultanati. Kushon davlati va madaniyatining Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan o'rni.

#### **Darsning maqsadi:**

Ikk davlatchilikning asosiy omillari. O'zbekiston hududidagi dehqonchilikning paydo bo'lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tezlashishini tushuntirish. O'zbek davlatchiligin shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish. Kushon davlati va madaniyatining tariximizdagi o'rnini bilish.

### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

1-asosiy savol bo'yicha:

Dastlabki shaharsozlik madaniyati va uning omillari. Xorazm va Baqtriya davlatlari. O'rta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzilmalari to'g'risida qadimgi yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar.(1.60-87; 2.45-52; 4.6-31; 5.3-22)

2-asosiy savol bo'yicha:

Antik davr davlatlari, ellinizm madaniyati. Qang' va Dovon davlatlari va ularga oid Xitoy manbalar. Arxeologik yodgorliklar va aholi mashg'ulotlari (1.99-103; 2.56-68; 3. 72-84.)

3-asosiy savol bo'yicha:

Kushon davlatiga asos solinishi. Davlat chegaralarining kengayishi. Kushonlar madaniyati aks etgan arxeologik yodgorliklar: Ayrитом, Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qoratepa. Kushonlar va buddaviylik.( 1.104-110; 2.68-71.)

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003.675 b.
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi T. : O'qituvchi. 1997. 527 b.
4. Sulaymonov R. Naxshab-unutilgan tamaddun sirlari. T. : Ma'naviyat, 2004. 46 b.
5. Asqarov A. Eng qadimiy shaxar T. : Ma'naviyat. 2001.23 b.
6. Eshov B. Sivilizasiya tizimida ilk shaharlar.T.:Zar qalam. 2004.139 b.
7. Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. T.2006. 236 b.
8. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari T.: Sharq 2001.220 b.

### **4-MAVZU: Buyuk ipak yo'lli va hozirgi zamon. Ajratilgan soat – 2 soat**

#### **Ko'rildigan savollar rejasি**

1. Eng qadimgi yo'llar. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk ipak yo'lli shuhratining yanada ortishi.
3. XVI asrdan boshlab Buyuk ipak yo'lli ahamiyatining pasayishi, uning sabablari.
4. Hozirgi davrda Buyuk ipak yo'lli an'analarini tiklash va rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.

#### **Darsning maqsadi:**

Sharq bilan G'arbni tutashtirgan Buyuk ipak yo'lli insoniyat taraqqiyotida muhim rolъ o'ynaganligini uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ahamiyatini o'rganish. XVI asrdan boshlab bu yo'lning tanazzulga uchrashi sabablarini, bugungi kunda uning an'analarini tiklash zaruriyati tug'ilganligini tushuntirish.

### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

1-asosiy savol bo'yicha:

" Lojuvard yo'lli", " Shoh yo'lli". Buyuk ipak yo'lliga asos solinishi. Chjan Szyanning O'rta Osiyoga sayohati. Bu yo'lning tarmoqlari.(1.110-114; 2.71-73;)

2-asosiy savol bo'yicha:

Buyuk ipak yo'lli shuhratining ortishida Amir Temur siyosatining o'rni. Savdo yo'llari havfsizligining ta'minlanishi. Samarqandning dunyoning yirik savdo markazlaridan biriga aylanishi.( 1.114; 2.73;3.91-97.)

3-asosiy savol bo'yicha:

Buyuk ipak yo'lining inqirozga uchrashi sabablar. Savdo yo'llarining dengizga ko'chishi. Buning ipak yo'lida joylashgan davlatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgani.( 1.114-115;

2. 74; )

4-asosiy savol bo'yicha:

Buyuk ipak yo'li an'analarini tiklash zaruriyati. YuNESKO bilan hamkorlikda "Ipak yo'li muloqot yo'li" mavzusida o'tkazilgan amaliy tadbirlar. (1.115; 2.74-75.)

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b.

2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

3. Karimov Sh.,Shamsuddinov R. Vatan tarixi T.: O'qituvchi.1997.527 b.

**5-MAVZU: Markaziy Osiyo xalqlarining IX-XII asrlar davri madaniyati**

*Ajratilgan soat – 2 soat*

**Ko'rildigan savollar rejasি**

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoitlar.

2. Ilm-fan ravnaqi. O'rta Osiyolik allomalar va ularning jahon Sivilizatsiyasi hazinasiga qo'shgan bebaho hissasi.

3. Badiiy adabiyotning rivoj topishi. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, Ahmad YAssaviy va boshqalar.

4. O'rta Osiyolik buyuk islomshunos olimlar. Imom al- Buxoriy. Imom at- Termizi. Imom al-Moturudiy

**Darsning maqsadi:**

IX-XII asrlarda Movarounnahrda moddiy va ma'haviy madaniyatning ravnaq topish shart-sharoitlari,jahon fani va Sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ulug' allomalarimiz haqida ma'lumot berish. Talabalar ongida vatanparvarlik, ilmga rag'bat hissini uyg'otish, ajdodlar bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo'llishga chaqirishdan iborat.

**Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

1-asosiy savol bo'yicha:

IX-XII asrlarda Movarounnahrda hukm surgan tinchlik va osoyishtalik, o'lkada moddiy va ma'naviy taraqqiyot uchun zamin hozirladi. Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolalariga mansub ma'rifatparvar hukumдорлар ilm-fan ravnaqiga rag'bat berdilar. ( 1.191-193;2.134-136;3.231-237.)

2-asosiy savol bo'yicha:

Muso al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning ilmiy kashfiyotlari va yaratgan asarlari. ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.( 1.194-203;2.136-139;3.234-256; 4.111-118; 5.78-81.)

3-asosiy savol bo'yicha:

Badiiy adabiyotning ravnaq topishi, Turkiy adabiyot taraqqiyoti. Firdavsiy, Rudakiy. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy ijodi faoliyati.( 1.203-208; 2.139-141; 3.254-265 4.112-114.)

4-asosiy savol bo'yicha:

IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik ta'limotining rivojlanishi. Imom Buxoriy, Imom at-Termizi, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro ijodi va faoliyati. (1.105-115;2.141-144; 3.273-290;6.7-31; 7.4-76.)

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent.:O'AJBNT markazi,2003. 675 b.

2. O'zbekiston tarixi:(Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

3. Karimov Sh.,Shamsuddinov R.Vatan tarixi T.:O'qituvchi.1997.527 b.
4. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti T.: Akademiya. 2000. 271 b.
5. Irisov A. Hakim ibn Sino T.:O'zbekiston. 1992.102 b.
6. Komilov N. Najmaddin Kubro T., 1995.
7. Shayx Najmaddin Kubro ( maqlolar) T.: Yozuvchi.1995,79 b.

## **6-MAVZU: MO'G'ULLAR BOSQINIGA QARSHI KURASH. MAHMUD TOROBİY QO'ZG'OLONI**

### **Ajratilgan soat – 2 soat**

*Ko'rildigan savollar rejasi*

1. Mo'g'ullar va Xorazmshohlar davlati o'tasidagi munosabatlar
2. Movarounnahr mudofasi. Temur Malik, Najmaddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi.
3. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni va uning ahamiyati.

**Darsning maqsadi:**

XIII asrdagi Xorazmshohlar va Mo'g'ullar davlati o'tasidagi siyosiy va iqlisodiy munosabatlar, Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning Movarounnahrga bostirib kirishi, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasorati haqida tushuntirib berish. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloning ahamiyatni bilish. Talabalarda Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'usini tarbiyalash.

**Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

**1-asosiy savol bo'yicha:**

XIII asr boshlariida Xorazmshohlar davlatida hukm surgan siyosiy-ijtimoiy inqiroz Sharqda kuchayib borayotgan Mo'g'ullar davlatini e'tiborini tortdi. Ikki davlat o'tasidagi elchilik munosabatlari va vaziyatning keskinlashuvi (1.221 230;2.146-149;3.300 316;4.119-120.)

**2-asosiy savol bo'yicha:**

Mo'g'ullar hujumi, mudofaa rejasi, Xorazmshohning xatosi va O'tror fojeasi. Temur Malik jasorati. Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi. Najmaddin Kubro vatanparvar siymo. Urganchning istilo qilinishi.(1.231-252;2.149-154;3.316-340; 4.119-122.)

**3-asosiy savol bo'yicha:**

Mo'g'ullar zulmi, mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy ahvol va qo'zg'olonning sabablari. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloning xalqimiz ozodlik kurashlari tarixidagi ahamiyati.(1.252-263;2.154-160; 3.340-346;)

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent.:O'AJBNT markazi,2003.675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Karimov Sh., Shamsuddinov R.Vatan tarixi T.: O'qituvchi. 1997. 527 b.
4. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti T.: Akademiya. 2000. 271 b.
5. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy Sulton Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiston. 2006. 383 b.

## **7-MAVZU: Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.**

**Ajratilgan soat – 2 soat**

*Ko'rildigan savollar rejasi*

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahr va Xurosonda moddiy madaniyat ravnaqi.
2. Temuriylar davrida ilm-fan. Ulug'bekning ilmiy maktabi.

3. Xattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati.
4. Badiiy adabiyot, Alisher Navoiy ijodiy merozi.

**Darsning maqsadi:**

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati o'ziga xos uyg'onish davri sifatida tariximizda muhim o'rinn tutishini, mamlakatda ilm-fan ravnaqi, moddiy va ma'naviy madaniyatning ravnaq topishi uning ahamiyatini tushuntirib berish. Talabalar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik hissini tarbiyalash.

**Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

**1-asosiy savol bo'yicha:**

Amir Temur va temuriylar qurdirgan inshoatlar. Qurilish va me'morchilik an'analari. Samarqandning poytaxt sifatidagi mavqening o'sishi.( 1.289-292;2.178-180;3.448-458.)

**2-asosiy savol bo'yicha:**

Amir Temurning ilm-fanga homiyligi, Ulug'bekning ilmiy merozi. Rasadxona va falakshunos olimlar. Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Jamshid Koshiy ( 1.289-294;2.178-160;3.459-469.

**3-asosiy savol bo'yicha:**

Bu davrda xattotlikning san'at darajasiga ko'tarilishi. Sultonali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy,Mirak Naqqosh ijodi. Kamoliddin Behzod ijodi ta'sviriy san'atda yuksak cho'qqiga erishganligi. Musiqa san'atining yuksak bosqichga ko'tarilishi.( 2.181-182;3.501-507.4.142-143.)

**4-asosiy savol bo'yicha:**

Alisher Navoiy O'zbek adabiyotining asoschisi. Mumtoz adabiyotning tamal toshini qo'yan Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy ijodi. "Hamsa", "Hazoyinul -maoniy", "Muhokamatul lug'atayn", " Majolis ul-Nafois"ning adabiy taraqqiyotdagi ahamiyati.(1.293-298; 2.182-184; 3.485-498.)

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent.: O'AJBNT markazi,2003.675 b.
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Karimov Sh.,Shamsuddinov R.Vatan tarixi T.:O'qituvchi.1997.527 b.
4. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti T.: Akademiya. 2000. 271 b.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar T.:O'qituvchi. 1994.
6. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. T.1996.
7. Temur tuzuklari. T.G'.G'ulom nomli Adabiyot va san'at nash. 1996.343 b.
8. Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. T.A.Qodiriy.1996. 77 b.

**8-MAVZU: Rossiya bosqini arafasida O'zbek xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati**

**Ajratilgan soat – 2 soat**

Ko'rildigani savollar rejasi

1. Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.Ingliz-rus raqobati.
2. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. Qo'qon xonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Qo'qon adabiy muhiti.
4. Rossiyaning Turkistonni bosib olishi va Turkistonda mustamlakachilik boshqaruv tizimining vujudga keltirilishi.

5. Chor Rossiyasi hukmron doiralarining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati: o'lka iqtisodiyotining chorizm manfatlariga bo'ysundirilishi.
6. Chorizmning aholini ko'chirish siyosati, uning asoratli oqibatlari.
7. Chor mustamlakachi ma'murlarning o'lka xalqlarining ma'naviy-madaniy hayotiga salbiy ta'siri

### **Darsning maqsadi:**

Temuriylar inqirozga uchragach, Shayboniyalar davlatining tashkil topishi va uchta xonlikka bo'linib ketishi kelgusida o'zaro urushlar inqirozlarni boshlab berganligi bu taraqqiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatganligini tushuntirib berish. Rossiya bosqini arafasida xonliklarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganish. Rossiyaning Turkistondagi istilochilik yurishlari, Chorizmning o'lkadagi boshqaruv tizimi, mustamlakachilik siyosati, uning xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatiga salbiy ta'sirini tushuntirish. Talabalarni istiqlolga sadoqat, Vatanga muhabbat, yurtga elkadoshlik ruhida tarbiyalash.

### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

#### **1-asosiy savol bo'yicha:**

Mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi. Buxoro amirligining siyosiy tarixi.(Muhammad Rahimxon,Doniyolbiy, Shoxmurod, Haydar, Nasrullo, Muzaffar)Buxoro amirligidagi saroy mansablari. Amirlikning iqtisodiy va madaniy hayoti. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati (1.314-320;2.191-193;3.191-214.)

#### **2-asosiy savol bo'yicha:**

Xiva xonligida qo'hg'irotlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. XIXasrning boshlarida Xiva xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Munis, Ogahiyning madaniy hayotdagи o'rni.(1.323-329;2.204-206;3.235-255.)

#### **3-asosiy savol bo'yicha:**

Qo'qon xonligidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot. Buxoro va Qo'qon munosabatlari. Qo'qon xonligi va Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi. Qo'qon adabiy muhiti. Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno,Mahzuna.( 1.329-334; 2.207-217; 3.214-234)

#### **4-asosiy savol bo'yicha:**

Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi. Toshkent mudofaasi, Turkiston geniral gubernatorligining tashkil topishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligining yarim mustamlakaga aylantirilishi.(1.335-347; 2.221-227.)

#### **5-asosiy savol bo'yicha:**

O'lka iqtisodiyotining Rossiya manfatlariga bo'ysundirilishi. O'lka boyliklarini talash, iqtisodiyotning xom ashyo tizimiga moslashtirilishi. Mustamlakachilarining iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti.(1.345-349; 2.231-236.)

#### **6-asosiy savol bo'yicha:**

Chorizmning aholini ko'chirish siyosati. Ruslashtirish va uning xalqimiz ma'naviy madaniyatiga ta'siri hamda oqibatlari. Dastlabki rus qishloqlarining tashkil etilishi. Rus-tuzem maktablari faoliYati,ruscha turmush tarzini targ'ib qilinishi.(1.349-351; 231-236,)

#### **7-asosiy savol bo'yicha:**

Rossiyaning buyuk davlatchilik ruhidagi shovinistik siyosati. Mustamlakachilar mahalliy aholini milliy qadriyatlari, urf-odatlarini oyoq osti qilinishi, ma'naviy zulmning kuchayishi. Ko'p asrlik an'analarining buzilishi va uning oqibatlari. (1.350-356;234-236.)

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

3. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti T.: Akademiya. 2000. 271 b.
4. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
5. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
6. Ahmadjonov G'. A. Rossiya imperiyasi Markazi Osiyoda T. 2003. 270 b.
7. Tarix shohidligi va saboqlari T.: Sharq, 2001. 463 b.

### **9-MAVZU: Turkistonda jadidchilik harakati**

#### **Ajratilgan soat – 2 soat**

##### *Ko'rildigan savollar rejasি*

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy – siyosiy vaziyat. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.
2. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar, ma'rifiy qarashlar va ularning ilg'or, progressiv mazmun – mohiyati.
3. Jadidlarning o'lka xalqlari orasida olib borgan madaniy-ma'rifiy faoliyati.
4. Jadidchilik harakati namoyandalarining Turkistondagi demokratik va milliy istiqlolchilik harakatlariga o'tkazgan muhim ta'siri.

#### **Darsning maqsadi:**

Jadidchilikning Turkistonda taraqqiyatparvarlik, ilm-fanga rag'bat va dunyoviylikning yangi ko'rinishi sifatida paydo bo'lganligi, jadidlarning xalqimiz milliy uyg'onishining asoschilari sifatida maydonga chiqqanligini, ularning ilgari surgan g'oyalarini tushuntirish. Talabalar ongida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, milliy g'urur hissini singdirish.

#### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

##### **1-asosiy savol bo'yicha:**

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ismoilbek Gaspirinskiy va uning jadidchilikka asos solishi. Turkistonda jadidchilikning yoyilishi va sabablari.(1.359-362; 2.243-244.)

##### **2-asosiy savol bo'yicha:**

Jadidlar ilgari surgan ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ozodlik G'oyalarining ahamiyati. Jadidchilikning muntazam madaniy-ma'rifiy harakat sifatida paydo bo'lishi. Jadidlarning asosiy maqsadlari. (1.362-366; 2-244-247.)

##### **3-asosiy savol bo'yicha:**

Jadidlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Iqtidorli yoshlarni chet ellarga o'qishga jo'natish. Turkistonda milliy matbuotga asos solinishi. Milliy adabiyot va teatrning ravnaqi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev faoliyati. (1.362-374; 2.245-248.)

##### **4-asosiy savol bo'yicha:**

Jadidlarning milliy ozodlik va demokratik harakatning rahbarlari sifatida maydonga chiqdilar. Ular Turkistonda yuz bergan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etdilar. Yurtimizdag'i ozodlik va milliy istiqlolchilik harakatlarida ularning g'oyaviy rahnomoligi.( 1.374-380; 2.243-248.)

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T. : Ma'naviyat. 2002. 463 b.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T. : Universitet. 1999. 218 b.

## **10-MAVZU: Mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat.**

### **Ajratilgan soat – 2 soat**

#### *Ko'rildigan savollar rejası*

1. Turkiston muxtoriyati va uning fojiali taqdiri.
2. FarG'ona vodiysi–qurolli harakat markazlaridan biri. Bu erdag'i harakatlarning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari.
3. Buxoro va Xorazmda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat.

#### **Darsning maqsadi:**

Turkiston muxtoriyatining o'l kamizda birinchi demokratik davlat ekanligi, uning fojeali taqdiri. Sovet hokimiyatiga qarshi yurtimizda qurolli harakatning boshlanishi sabablari, harakatlantiruvchi kuchlari va ahamiyatini tushuntirish. Talabalar tafakkurida istiqlol g'oyaligiga sadoqat, yurtga muhabbat, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish.

#### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

##### **1-asosiy savol bo'yicha:**

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning shovinistik siyosati. Turkiston muxtoriyati o'l kamiz aholisi hohish irodasining ifodasi sifatida maydonga keldi. Uning sovetlar tomonidan tor-mor keltirilishi 381-395; 2.254-259.)

##### **2-asosiy savol bo'yicha:**

Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat. Farg'ona vodiysi qurolli harakatning markazi sifatida. "Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hokimiyati" va Madaminbek. Harakatning mohiyati va harakatlantiruvchi kuchlari.(1395-403; 2.268-271.)

##### **3-asosiy savol bo'yicha:**

Sovetlarga qarshi qurolli harakatning bosqichlari. Buxoro va Xorazm hududlarida ushbu harakatning yoyilishi, ularning etakchilari. Ibrohimbekning Sharqiy Buxorodagi qarshilik harakati. Qurolli harakatning mag'lubiyati sabablari va oqibatlari.(1.403-426;2273-277.)

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Rajabov U., Haydarov M. Turkiston tarixi T.: Universitet.2002. 167b.
4. Ziyoeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. T.2000. 174b.
5. A'zamxo'jaev S. Turkiston Muxtoriyati T.: Ma'naviyat. 2000. 167b.

## **11-MAVZU: Sovetlar davrida iqtisodiy va ma'naviy qaramlikning oqibatlari**

### **Ajratilgan soat – 2 soat**

#### *Ko'rildigan savollar rejası*

1. Sovet hokimiyatining 20-30 yillarda O'zbekistonda o'tkazgan indisturlashtirish va dehqon xo'jaliklarini jamolashtirish siyosati va uning asoratli oqibatlari.
2. 50-80 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy hayoti, inqirozli holatga tushishi va uning sabablari.

#### **Darsning maqsadi:**

Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati. Yangi iqtisodiy siyosat, er-suv islohoti va dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish hamda uning oqibatlari. Yurtimiz iqtisodiyotining markazga qaramligi va inqirozi sabablarini tushuntirish. Talabalarda vatanparvarlik, yurtparvarlik, hissini uyg'otish.

#### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

##### **1-asosiy savol bo'yicha:**

Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.

20-yillarda industirlashtirish siyosati. Er-suv islohoti, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati va uning asoratli oqibatlari. Quloqlashtirish, texnikaviy ta'minot masalalari. (1.427-452; 2.286-299.)

**2-asosiy savol bo'yicha:**

50-80 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti. O'zbekistonda paxtachilikning rivojlantirilishi, yangi erlarni o'zlashtirilishi. Paxta Yakkahokimligi va uning oqibatlari. Respublikadagi ma'naviy-madaniy qaramlik va uning oqibatlari. Qatag'onlikning Yangi to'lqini, "paxta ishi". (1.502-528; 2.299-315.)

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. O'zbekiston tarixi (R. Murtazaeva tahriri ostida) T. 2005. 536 b.
4. Mustabid tuzumming O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. T.: Sharq. 2000. 431 b.
5. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiy munosobatlar (70-80 yillar misolida) T.: Sharq. 1999. 159 b.

**12-MAVZU: O'zbekiston mustaqil davlat. O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat fuqarolik jamiyatasi asoslарining shakllanishi**

**Ajratilgan soat – 2 soat**

*Ko'rildigan savollar rejasi*

1. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning umumxalq tomonidan ma'qullanishi.
2. O'zbekistonning Davlat ramzları, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va ularning ahamiyati.
3. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning qonun ijodkorligi.
5. Siyosiy islohotlar. Davlat boshqaruv hokimiyati organlarining tashkil etilishi.
6. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi va ularning faoliyati.
7. Sud islohoti. O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari.

**Darsning maqsadi:**

O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi uning tarixiy ahamiyatini, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatasi asoslарining barpo etilishini, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan ketayotganligini tushuntirish. Talabalar ongida mustaqillik va istiqlol g'oyalarni shakllantirish. Jamiyatni siyosiy, demokratik islohatlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichga ko'tarilganligini, davlat qurilish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasiga katta ahamiyat berilayotganligini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlarining faoliyati, sud sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida tushuntirish. Jamiyatni siyosiy, demokratik islohatlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichga ko'tarilganligini, davlat qurilish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasiga katta ahamiyat berilayotganligini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlarining faoliyati, sud sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida tushuntirish.

**Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

**1-asosiy savol bo'yicha:**

O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonotining qabul qilinishi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining tuzilishi. Mustaqillik to'g'risida referendum va

Prezidentlik saylovining o'tkazilishi.(1.529-543; 2.392-396.)

2-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i, madhiyasi, gerbining qabul qilinishi. O'zbekiston Konstitutsiyasi-demokratik davlat qurishning asosi. Uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega voqeа hisoblanadi. (1.543-546; 2.396-400.)

3-asosiy savol bo'yicha:

Taraqiyotning "O'zbek" modeli. O'zbekistonning bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li va uning besh tamoyili: Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Davlat bosh islohotchi; Qonun ustivorligi; Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish.(1.547-555; 2.400-401.)

4-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati. Uning ikki palatali parlamenti (Qonunchilik palatasi, Senat) O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning huquqiy bazasini mustahkamlovchi qonunlar yaratish, qabul qilingan qonun hujjatlarni ijrosini nazorat qilish.(1.555-558; 2.402-405.)

5-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekistonda boshqaruв tizimi tubdan isloh qilindi. Oliy Majlis, milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan ijrioya hokimiyati –Vazirlar Mahkamasи tuzildi. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi (1.556-558;2.402-406.)

6-asosiy savol bo'yicha:

Fuqarolarni ng o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi. Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zaruriyati. (1.556-558;2.402-406.)

7-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risi"dagi qonun asosida o'tkazilgan sud islohotlari.Sud hokimiyati tizimi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lif olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa huquqlarni qonun bilan himoya qilinishi.(1.559-564;2.406-411.)

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b

2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

3. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. T. : Sharq. 2000. 223 b.

### **13-MAVZU: O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi**

#### **Ajratilgan soat – 2 soat**

##### *Ko'rildigan savollar rejasi*

1. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirishda o'ziga xos yo'li.

2. Iqtisodiy islohotlar. Ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar tabaqasining shakllanishi.

3. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar.

4. O'zbekistonning kuchli ijtimoiy siyosati.

## **Darsning maqsadi:**

O'zbekistonning bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li, iqtisodiy islohotlar, bozor infratuzilmasini shakllantirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar haqida tushuntirish. Talabalar ongida milliy G'urur, vatanparvarlik, istiqlol G'oyalariga sadoqat ruhini shakllantirish.

## **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

### **1-asosiy savol bo'yicha:**

I. Karimovning "O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li" asari. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li bozor iqtisodiyoti va demokratik tamoyillar qaror topgan ilg'or davlatlar tajribasiga, respublikamiz iqtisodiyotining haqiqiy holati va imkoniyatlariga, xalqning mentaliteti va tarixiy an'analariga, aholining tub o'zgartirishlarga tayyorgarlik darajasiga tayangan holda I. Karimov tomonidan ishlab chiqildi. (1.547-555; 400-401.)

### **2-asosiy savol bo'yicha:**

O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'naliishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkdorlar sinfining shakllanishi. Islohotlarning borishida o'rtta va kichik biznesni rivojlantirish masalasi.(1.576-582; 2.418—426.)

### **3-asosiy savol bo'yicha:**

Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar. Qishloq xo'jaligida islohotlar, uning vazifalari va yo'naliishlari. Moliya bank tizimi. Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi.(1.582-593; 2.418-434.)

### **4-asosiy savol bo'yicha:**

Bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish asosiy tamoyil qilib belgilandi. Respublikada alohida tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishining rivojlangan tizimi bunyod etildi. Yosh oilalarni qo'llab- quvvatlash dasturi. (1.591-593; 2.431-432.)

## **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b

2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

## **14-MAVZU: O'zbekistonda ma'nnaviy qadriyatlarning tiklanishi** **Ajratilgan soat – 2 soat**

### **Ko'riladigan savollar rejasi**

1. O'zbekistonda ma'nnaviy qadriyatlarning tiklanishi.
2. O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi, uning mohiyati va tarixiy ildizlari.
3. O'zbekistonda diniy qadriyatlar va islom ma'nnaviyatining tiklanishi.

## **Darsning maqsadi:**

O'zbekistonda ma'nnaviy qadriyatlarning tiklanishi, milliy istiqlol g'oyasi uning mohiyati va tarixiy ildizlari, diniy qadriyatlar va islom ma'nnaviyatining tiklanishi to'g'risida tushuntirish. Talabalar ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat hissini tarbiyalash.

## **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

### **1-asosiy savol bo'yicha:**

Mustaqillik sharofati tufayli ma'nnaviy qadriyatlarning tiklanganligi, Ramazon va Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'zning qayta tiklanishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, o'zbek xalqi qadr-qimmatining tiklanishi.( 1.593-597;2.435-436.)

### **2-asosiy savol bo'yicha:**

Milliy istiqlol g'oyasini yaratish va shakllantirishning zarurati va ahamiyati. Insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurashning mavjudligi. Milliy istiqlol g'oyasining

asosiy tamoyillari, hamda tarixiy ildizlari. Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nimadan iborat. (1.604-605; 2.449-452.)

3-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekistonda diniy qadriyatlarning tiklanishi. Diniy bag'rikenglik va uning tarixiy ildizlari. "Vijdon erkinligi to'g'risida"gi qonun. Islom ma'nnaviyatining tiklanishi. Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, At-Termiziyy, Moturudiy, Najmuddin Kubro merosining o'rganilishi va keng targ'ib qilinishi.(1.595-597; 2.435-436.)

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b

2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.

### **15-MAVZU: O'zbekiston va jahon hamjamiyati.**

#### **Ajratilgan soat – 2 soat**

##### *Ko'rildigan savollar rejasি*

1. O'zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi, uning tamoyillari.

2. O'zbekistonning jahon hamjamiatiga qo'shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi.

3. O'zbekiston va MDH.

4. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida qardosh davlatlar bilan ko'p tomonlama va ikkitomonlama hamkorlik aloqalari.

5. Respublikaning jahoning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarining kengayib borishi.

#### **Darsning maqsadi:**

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiatiga qo'shilishi, uning xalqaro maydonda nufuzining ortib borishi, O'zbekistonning geosiyosiy o'rni, xorijiy mamlakatlar bilan teng hamkorlik aloqalarini olib borishi va bu munosabatlarning kengayib borishi to'g'risida tushuntirish. Talabalarни vatanparvarlik, milliy g'urur, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash.

#### **Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:**

1-asosiy savol bo'yicha:

Xalqaro vaziyatning o'zgarishi. Havfsizlikka tahdidning kuchayishi, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekistonning xalqaro maydonda tinchliksevar mustaqil davlat sifatida tan olinishi. O'zbekistonning geosiyosiy o'rni masalasi.(1.614-616; 2.453-458.)

2-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi. Mamlakatimiz jahon hamjamiatining teng huquqli a'zosi. YuNESKO bilan hamkorlik. O'zbekistonning BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Juhon sog'lijni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi, Xalqaro pochta ittifoqi, Xalqaro olimpiya qo'mitasi va boshqalar bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining a'zosi hisoblanadi.(1.617-626; 2.458-462.)

3-asosiy savol bo'yicha:

Mustaqil davlatlar hamdo'stligining tashkil topishi. O'zbekistonning MDH bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari. O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. O'zbekiston MDH davlatlari bilan siyosiy iqtisodiy madaniy va harbiy sohada hamkorlikni yo'lga qo'yan.(1.631-635; 2.464-472.)

4-asosiy savol bo'yicha:

Markaziy Osiyo yagona hudud. Ularning din, e'tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosobatlarining o'zaro munosobatlarga ta'siri. Markaziy Osiyo mintaqasidagi muammolarni birgalikda hal qilish zaruriyatining mavjudligi. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotining faoliyati mintaqa xalqlari hayoti va kelajak taraqqiyotida muhim o'r'in tutadi (1.635-640; 2.473-480.)

5-asosiy savol bo'yicha:

O'zbekistonning yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi. O'zbekistonning Sharq va Tinch okean havzasi mamlakatlari hususan Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy bilan hamkorlik aloqalari. O'zbekiston AQSh, Evropa davlatlari munosabatlari va hamkorligi.(1.626-631;2.480-498.)

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) Toshkent. : O'AJBNT markazi, 2003. 675 b
2. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik)Toshkent. : Iqtisod-moliya, 2006, 520 b.
3. Usmonov Q., O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. T.: Moliya.2003. 83 b.

## **II. TALABALAR MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI**

Kurs bo'yicha mustaqil ish hajmi 56 soat belgilangan. Mustaqil ish topshiriplaridan tashqari uyga vazifa sifatida asar tahlili, ko'rgazmali qurol tayyorlash, Internetdan ma'lumot olish va uni tahlil qilish, ma`ruza yozish, esse yozish, seminarlarga tayyorgarlik ko`rish kabi ishlar belgilangan.

### **1-topshiriq. I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q» asari**

- 1.1. Insonning o`zligini anglash Vatan tarixi, tili, madaniyati va qadriyatlarini bilishdan boshlanishini tushuntiring
- 1.2. Komil insonni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyatini ochib bering
- 1.3. Tarix – xalq ma'naviyati asosi ekanligini asoslab bering

### **2-topshiriq. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi va hozirgi zamon**

- 2.1. Turkiy xalqlarning kelib chiqishidagi qarashlarni tahlil qiling
- 2.2. Turkiy elatlarning tarqalishi mintaqalarini ajratib ko`rsating
- 2.3. O'zbek davlatchiligi tarixida turkiy davlatlar va ularda hukmronlik qilgan sulolalar haqida ma'lumot bering

### **3-topshiriq. Temur tuzuklari.**

- 5.1. Temur tuzuklari davlat va jamiyatni idora qilishga doir qonun-qoidalar to`plami ekanligini isbotlang
- 5.2. «Kuch – adolatdadir» iborasini talqin eting
- 5.3. «Temur tuzuklari» ahamiyatini ochib bering

### **4-mustaqil topshiriq: Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g`alabaga qo'shgan hissasi**

- 6.1. Ikkinci jahon urushi kelib chiqishi sabablarini, fashgizmning bosqinchilik, millatchilik qiyofasini ochib bering
- 6.2. Frontda o'zbek xalqi farzandlarining jasoratini ta'riflang
- 6.3. O'zbek xalqining g`alabaga qo'shgan hissasini misollar asosida ko`rsating

### **5-mustaqil topshiriq: O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini asoslarining shakllanishi**

- 7.1. Hokimiyat va ma'muriy organlarda milliy, huquqiy demokratik davlat qurish asoslarining yaratilishi haqida fikr yuriting
- 7.2. O'zbekistonda hokimiyat bo`linishini izohlang

7.3. O`zbekistonning saylov tizimi haqida tushuncha bering

7.4. Ikki palatali parlament shakllanishi ahamiyatini ochib bering

**6-mustaqlil topshiriq: O`zbekistonning milliy istiqlol g`oyasi**

8.1. Mustaqillik yillarda ma'naviy hayotda sodir bo`lgan muhim o`zgarishlarni tavsiflang

8.2. Milliy g`oya, milliy mafkura haqida tushuncha bering

8.3. Mustaqillik yillarda O`zbekistonda fan, madaniyat va san'at rivojlanishini sharhlab bering

**Talabaning mustaqil ishi (TMI) I.Karimov asarini tahlil qilish uchun tavsiya etilgan manbalar ro`yxati:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – T.:Sharq, 1998.

2. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.- T.:O`zbekiston,1992

3. Karimov I.A. O`zbekiston bozor munosabatlariiga o`tishning o`ziga xos yo`li.- T.:O`zbekiston, 1993

4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.- T.:O`zbekiston,1994

5. Karimov I.A. Savdo yo`lidan Ipak yo`lini tiklash sari.- Asarlar, 2 jild. –T.:O`zbekiston, 1996. 366-368 b.

6. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo`lavarsin. Asaprlar. 4 jild.- T.,1996.

7. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g`ururimiz.- Asarlar. 5 j. T.,1996

8. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:O`zbekiston,1997

9. Karimov I.A. O`zbekiston XX1 asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.:O`zbekiston,1997

10. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.- T.,2000

11. Karimov I.A. Milliy istiqlol g`oyasi xalqni-xalq, millat-millat qilishga xizmat etsin.- T.,2002

12. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajadagi odamlar deb hisoblashar edilar – T.:O`zbekiston,2005

13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-T.:O`zbekiston, 2005.

14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklar hamda manfaatlari - eng oliy qadriyat. - T.:O`zbekiston, 2006

### **III. NAZORAT SAVOLLARI**

1. O`zbekiston tarixi fanining vazifalari nimadan iborat?
2. O`zbekiston tarixida qanday davrlashtirish turlari mavjud?
3. O`zbekiston hududida paleolit davriga oid qaysi yodgorliklarni bilasiz?
4. O`zbekistondagi mezolit davriga oid qaysi yodgorliklar bor?
5. Neolit davri inqilobi deb nimaga aytildi?
6. Paleolit so`zining ma'nosi nima?
7. Neolit davri qaysi asrlarni o`z ichiga oladi?
8. «Avesto» qachon va kim tomonidan yaratilgan?
9. «Avesto»ning qaysi qismi devlarga qarshi qonunlardan iborat?
10. «Avesto»da Gava deb qaysi yurt nazarda tutilgan?
11. O`zbek davlatchiligi tarixida nechta bosqichni ajratish mumkin?
12. Qadimgi Baqtriya hududida hozirgi qaysi hududlar kirgan?
13. O`zbekiston hududidagi eng dastlabki davlatlar qaysilar?
14. O`zbek xalqining nechta shakllanish davri ajratiladi?
15. O`zbek atamasi nimadan kelib chiqqan?
16. Buyuk Ipak yo`li necha asr mavjud bo`lgan?
17. Kushonlar sultanatida qaysi dinga e'tiqod qo`yilgan?
18. Buyuk Ipak yo`lining Movarounnahrdagi tarmoqlari qaysi shaharlardan o`tgan?
19. Somoniylar davlatining asoschisi kim bo`lgan?
20. «Fozil odamlar shahri» asari kimning qalamiga mansub?
21. Abu Ali ibn Sino nechanchi yillarda yashagan?
22. Saljuqiyalar davlatining asoschisi kim?
23. Arablarning Movarounnahrga dastlabki yurishi qachon bo`lgan?
24. Mahmud Torobiy kimga qarshi qo`zg`olon ko`targan?
25. Muqanna kim bo`lgan?
26. Jaloliddin Manguberdi kim bo`lgan?
27. IX-XII asrlar uyg`onish davri ilm-faniga qaysi allomalar katta hissa qo`shtigan?
28. Mo`g`ullar Movarounnahrn qachon bosib olgan?
29. Mo`g`ullarga qarshi ozodlik kurashini kimlar olib borgan?
30. Amir Temurning yurishlari tarixda qanday ataladi?
31. Amir Temur qachon siyosiy sahnaga chiqqan?
32. "Loy jangi" qachon va qayerda bo`lgan?
33. Ayl, xushun, hazora qanday atamalar?
34. Anqara jangida Amir Temur kimga qarshi urushgan?
35. Mirzo Ulug`bek qachon hukmronlik qilgan?
36. To`xtamishxon qaysi davlat hukmdori va uning Amir Temur bilan so`nggi jangi qachon bo`lgan?
37. 1469 yilda Xurosonda kim hukmronlik qilgan?
38. Shayboniyxon Samarqand taxtini qachon egallagan?
39. Qoraxoniylar davlatida hukmdor qaysi unvon bilan atalgan?
40. G`aznaviy davlatiga qachon asos solingan?
41. Xiva xonligi qachon tashkil topgan?
42. Ashtarxoniylar kimlar bo`lgan?
43. 1868 yil Rossiya bilan Buxoro amirligi o`rtasidagi bitimga muvofiq qaysi hududlar Rossiyaga o`tdi?
44. Xiva xonligi qachon tashkil topgan?
45. Qo`qon xonligi qachon tashkil topgan?
46. Turkiston general-gubernatorligi qachon tuzilgan?
47. Anvar poshsho kim bo`lgan?
48. Jadidlar nashr qilgan gazeta va jurnallar qaysi qatorda ko`rsatilgan?

49. Xiva xonligida qaysi sulola vakillari hukmronlik qilgan?
50. Buxoro amirligining so`nggi amiri kim bo`lgan?
51. Qo`qon xonligining so`nggi xoni kim bo`lgan?
52. Xiva xonligining so`nggi xoni kim bo`lgan?
53. Buxoro amirligida qaysi sulola vakillari hukmronlik qilgan?
54. Qo`qon xonligida qaysi sulola vakillari hukmronlik qilgan?
55. Turkiston muxtoriyati qachon tashkil topdi?
56. Jizzax qo`zg`olonini keltirib chiqargan sabablari nimadan iborat?
57. «Vabo» qo`zg`oloni qachon va qayerda bo`lib o`tgan?
58. Birinchi general-gubernator kim bo`lgan?
59. «Ruslashtirish» siyosati deganda nima tushuniladi?
60. 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligiga qaysi hududlar qo`sildi?
61. Abdurahmon oftobachi kim bo`lgan?
62. Dukchi Eshon kim bo`lgan?
63. Andijon qo`zg`oloniga kim rahbarlik qilgan?
64. Jadidlar kimlar bo`lgan?
65. Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi qachon ochildi?
66. Lotin alifbosidan kirill alifbosiga qachon o`tildi?
67. Farg`onadagi istiqlolchilik harakati yo`lboshchilarini kim edi?
68. Xorazmdagi istiqlolchilik harakatiga kimlar rahbarlik qildi?
69. Buxorodagi istiqlolchilik harakati yo`lboshchilarini kim bo`lgan?
70. Iстиqlolchilik harakati necha davrga bo`lib o`rganiladi?
71. O`zbekiston SSR ning dastlabki poytaxti qaysi shahar bo`lgan va poytaxt qachon Toshkentga ko`chirilgan?
72. Milliy davlat chegaralanishi qachon o`tkazildi?
73. "Hujum" harakatining maqsadi nima edi?
74. Sovet tuzumining dastlabki qatag`onlik davri nimada namoyon bo`ldi?
75. «18-lar guruhi»ning faoliyati bolsheviklarning qaysi siyosatiga qarshi qaratilgan edi?
76. Ikkinci jahon urushi frontlarida jasorat ko`rsatgan o`zbek xalqi farzandlaridan kimlarni bilasiz?
77. Ikkinci jahon urushi yillarda O`zbekiston ilm-fani sohasida qanday voqealarni sodir bo`ldi?
78. Orol fojeasining mohiyati nimada?
79. Lotin alifbosidan kirill alifbosiga qachon o`tildi?
80. Jadidlar nashr qilgan gazeta va jurnallar qaysi qatorda ko`rsatilgan?
81. Turkiston muxtoriyati qachon tashkil topdi?
82. Sovet tuzumining dastlabki qatag`onlik davri nimada namoyon bo`ldi?
83. "Davlat tili to`g`risida"gi Qonun qachon qabul qilindi?
84. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti lavozimiga kim va qachon tasdiqlandi?
85. "Ta'lim to`g`risida"gi Qonunning maqsadi nimadan iborat?
86. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilindi?
87. Xorijiy investitsiyalar nimaga qaratilgan?
88. O`zbekiston davlat mustaqilligining qo`lga kiritilishining ahamiyati nimada?
89. Qonunchilik palatasi nima?
90. Qachon Islom Karimov O`zbekistonning birinchi Prezidenti bo`lib saylandi?
91. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha marta qayta tahrir qilindi?
92. O`zbekistonda nechta va qaysi siyosiy partiyalar faoliyat ko`rsatmoqda?
93. TRASEKA nima?
94. O`zbekistonda nechta bayram kuni dam olish kuni deb e'lon qilingan?
95. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligi qachon e'lon qilindi?

96. O'zbekiston mustaqilligini nechta mamlakat tan olgan?
97. O'zbekiston Davlat Bayrog'i qachon qabul qilindi?
98. O'zbekiston Davlat Madhiyasi qachon qabul qilindi?
99. O'zbekiston Davlat Gerbi qachon qabul qilindi?
100. Qonun chiqarish organlari deganda nima tushuniladi?
101. Sud hokimiysi organlariga nimalar kiradi?
102. O'zbekistonda ijob etuvchi hokimiyat organlariga nimalar kiradi?
103. O'zbekiston qachon BMTga a'zo bo'ldi?
104. O'zbek modeli deganda nima tushuniladi?
105. O'zbekistonda ikki palatali parlamentga saylovlari qachon bo'lib o'tdi?
106. Senat nima?
107. "UzDEUavto" qo'shma korxonasi qachon o'z ishini boshladi?
108. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?
109. O'zbekistonda nechta davlatning elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda?

#### **IV. O`TILGAN MAVZULAR BO`YICHA YAKUNIY XULOSALAR**

1. O'zbekiston tarixi umumjahon insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o'rghanish predmetiga O'zbekiston hududidagi tarixiy voqealar, ulardago umumiyoq aloqadorlik va yaxlit birlik, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.
2. O'zbekiston hududida paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davri yodgorliklari ko'plab topilgan bo'lib, arxeologlar tomonidan o'rghanilgan.
3. Neolit davri madaniyatları, ibridoq tasviriy san'at namunalari, bronza davri yodgorliklari O'zbekiston hududi ham jahon sivilizatsiyasining ilk o'choqlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda.
4. O'zbek xalqining shakllanishida uch bosqich ajratiladi: er.av. III-II asrlar, eramizning IX-XII asrlar, XV-XVI asrlar.
5. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar shahar-davlatlar tipida bo'lган.
6. Antik davrdayoq o'zbek xalqining qadimgi ajdodlari ahmoniyalar va yunon-makedonlar bosqinchiligiga qarshi qahramonona kurashib kelgan.
7. O'zbekiston hududi qadimgi sivilizatsiyalar o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashgan bo'lib, bu erdan Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari o'tgan.
8. Turon zamini tarixida Qang', Dovon, kushonlar, Eftaliylar davlatlari, Turk hoqonligi muhim o'rin egallagan.
9. Arablar istilosini natijasida bu hududda islom dini yoyilib, jahonga mashhur Imom al Buxoriy, Iso at-Termiziyy, Moturidiy, Marg'inoniy kabi muhaddis olimlar etishib chiqqan. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlari paydo bo'lган.
10. IX-XII asrlar Markaziy Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish davri hisoblanadi.
11. Mo'g'ullar istilosini natijasida talon-tarajilik va vayronagarchilik O'rta osiyo hududidagi yirik shaharlarni xarobaga aylantirgan. Mo'g'ullarga qarshi Najmuddin Kubro, Mahmud Torobi, Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi ozodlik harakatlari ko'tarilgan.
12. XIV asrda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur faoliyati natijasida yirik markazlashgan davlat tuzildi.
13. Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi Temuriylar Renessansi degan ibora bilan ataladi.
14. Qoraxoniylar, Tohiriyalar, Somoniylar, Xorazmshohlar davlatlari O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'ringa ega.
15. XVI-XIX asr birinchi yarmida O'zbekiston hududida Qo'qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi mavjud bo'lib, ularda qo'ng'irotlar, minglar, mang'itlar sulolasining ahamiyati katta bo'lган.
16. XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan.
17. Chorizm Turkiston hududida o'zining boshqaruv tizimini o'rnatib, Turkiston general-gubernatorligini tashkil etgan. Xiva xonligi va Buxoro amirligi chor ma'muriyatiga qaram bo'lган.

18. Chorizm mustamlakachiliga qarshi Turkiston xalqlarining kurashi ayniqsa Andijon, Toshkent, Jizzax qo`zg`olonlarida namoyon bo`lgan.
19. XIX asr boshlarida Turkiston siyosiy hayotida jadidlar muhim rol o`ynay boshladilar. Faoliyatlarining dastlabki davrida jadidlar madaniy-ma'rifiy islohotlar o`tkazishga katta ahamiyat bergenlar.
20. Shu tariqa O`zbekiston tarixining barcha davrlarida istilolar, o`zaro kurashlar, xalq g`alayonlari bo`lib o`tgan bo`lsa-da, Xorazmshohlar, Somoniylar, Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar davlatlari, xonliklar kabi davlatlar davlatchiligidiz tarixida muhim o`rin tutgan.
21. 1917 yil oxirida Turkistonda zo`ravonlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o`rnatildi. Turkiston o`lkasidagi dastlabki sovet hukumatining tarkibi mintaqada yevropalik aholi hukmonligini mustahkamlashga qaratilgan edi.
22. 1917 yil 27 noyabrda Turkiston muxtor respublika deb e'lon qilindi. Turkiston Muxtoriyati atigi 72 kun umr ko`rgan bo`lsa ham, u erksevar xalqimizning milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga da'vat etdi.
23. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat Farg`ona vodiysi, Xiva va Buxoro xalq respublikalari hududlariga keng quloch yoydi. Harakatning asosiy maqsadi sovet tuzumi va bolshevikcha rejimni tugatishdan iborat edi. Harakat 1935 yilga kelib mag`lubiyatga uchradi.
24. 1920-30 yillar davomida O`zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan yer-suv islohotlari, industrillashtirish va jamoalashtirish amalga oshirildi. Tadbirlarning barchasi O`zbekistonni markazning xom ashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan edi.
25. Sho`rolarning «madaniy inqilob» tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san'at, maorif, oliy ta'lim sohalarini o`z izmiga olib, kommunistik firqa mafkurasiga bo`ysundirdi.
26. 1924 yilda o`tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida O`zbekiston SSR tashkil etildi.
27. Mustabid sovet tuzumining qatag`onlik siyosati jiddiy va fojiali oqibatlarga olib keldi. Milliy ziyorilarning jismonan yo`q qilinishi oqibatida milliy madaniyatga katta putur yetkazildi.
28. Ikkitchi jahon urushi yillarda O`zbekiston xalqi frontda va front ortida katta jasorat ko`rsatdilar va fashistlar ustidan qozonilgan g`alabaga o`zlarining ahamiyatli hissasini qo`shdilar.
29. Urushdan keyingi yillarda sovet davlatining g`oyat mafkuralashgan iqtisodiy siyosati xalqimizning boshiga kulfatlar olib keldi. Paxta yakkaahokimligi Orol dengizining qurishiga va boshqa ekologik muammolarga olib keldi. Aholi turmush darajasi yil sayin pasayib bordi.
30. 1980 yillarda Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida kompartiyaning yakka hukmonligi kuchayib bordi. Siyosiy qatag`onlikning yangi bosqichi boshlandi. «O`zbek ishi», «Paxta» ishi tergovlari boshlanib, inson huquqlari behad toptaldi.
31. 1991 yil 1 sentyabrda O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi.
32. 1991 yil 29 dekabrda o`zbek xalqi o`z xohish-irodasi bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti etib Islom Karimovni sayladi.
33. 1992 yil 8 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
34. O`zbekistonda siyosiy, iqtisodiy islohotlar o`tkazilib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat asoslari barpo etildi.
35. 2004 yil dekabrda o`tkazilgan saylovlar natijasida O`zbekistonda ikki palatali parlament joriy etildi. Oliy Majlisda Qonunchilik palatasi va Senat faoliyat yurita boshladi.
36. 2007 yil dekabrida O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga o`tkazilgan saylovlar demokratik tamoyillar asosuda o`tganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. 4ta nomzod ichidan ko`pchilik ovoz bilan I.A.Karimov saylandi.

## V. FAN BO`YICHA YECHIMINI KUTAYOTGAN ILMIY MUAMMOLAR

1. Internetda o`zbek xalqining kelib chiqishi yuzasidan bahs-munozara hanuz davom etmoqda. Ayniqsa o`zbek va tojik atamalari borasida. Turonzaminda birinchi bo`lib o`zbeklar paydo bo`lganmi yoki tojiklarmi degan masala ustida ziddiyatli fikrlar mavjud. Sizning bu boradagi fikringiz qanday?
2. Jahon tarixchi va arxeolog olimlari tomonidan mintaqamiz Markaziy Osiyo (Central Asia), O`rta Osiyo (Middle Asia), Transoksiyana, O`rta Osiyo ikki daryo oralig`i, O`rta Osiyo va Qozog`iston kabi atamalar bilan atashadi. Fikringizcha mintaqamizning qadimgi davrini o`rganishda Markaziy Osiyo deb yuritish to`g`rimi yoki O`rta Osiyo deb yuritish ma`qulmi? Yoki umumiy xalqaro nom berish lozimmi? Nima uchun shunday o`ylaysiz?
3. Hozirgi o`zbek xalqining asosini shu hududlarda bir necha ming yillar davomida yashab kelgan massagetlar, shaklar, xorazmiylar, baxtarlar, sug`diylar, davanliklar tashkil etadi. Bu xalqlar tub joy aholisi bo`lganmi yoki ko`chmanchimi? Ularning turkiy qavmlarga mansubligi tasdiqlanganmi? Fikringizni asoslab bering.
4. O`zbekiston hududidagi eng qadimgi davlatlar Qadimgi Baqtriya va Qadimgi Xorazm hisoblanadi. Sizningcha So`g`d, Parfiya, Dovoni ham ular qatoriga kiritish to`g`ri bo`ladimi? Nima uchun shunday o`ylaysiz?
5. Ma'lumki, 2005 yilda Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi. Ayrim xorijiy olimlar Xorazmda akademiya bo`Imagan, Bag`donna bo`lgan, degan fikr bildirishadi. Sizning bu fikrga munosabatingiz qanday?
6. Ma'lumki, O`zbekiston hududida mavjud bo`lgan xonliklarni ko`p yillar davomida qo`ng`irotlar, minglar, mang`itlar sulolalari boshqargan. Ularning o`zaro urush va nizolarining sababi nimada? Ularning o`zaro munosabatlarini qanday izohlay olasiz?
7. Sovet tuzumining qataq`onlik siyosatini o`rganishda qataq`onlikni 3 davrga ajratishadi. Bu to`g`rimi? Ularni davrlarga ajratish kerakmi yoki bir butunlikda o`rganish lozimmi? Fikringizni asoslab bering.
8. Bugungi kunda O`zbekiston iqtisodiyoti katta yutuqlarga erishganligi jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmoqda. Shunga qaramasdan iqtisodiyotimizda qator muammolar mavjud. Sizningcha, ular nimadan iborat va ularni qanday bartaraf etish mumkin?
9. Ma'lumki mustaqillik yillarida ma`naviy merosimizni, ma`naviy va diniy qadriyatlarni tiklashga katta ahamiyat berildi. Bugungi kunda respublikamizda davlat va dinning o`zaro munosabatlarini qanday baholaysiz?
10. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyodagi qardosh mamlakatlar o`rtasida ko`p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik rivojlanmoqda. Bu jarayonda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar alohida o`rin tutadi. Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti faoliyatini qanday baholaysiz? Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropa-Osiyo Iqtisodiy hamjamiyati o`rtasida farq bormi?

## VI. ASOSIY VA QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR RO`YXATI

### ***10.1. Asosiy adabiyotlar (darslik va qo`llanmalar)***

1. O`zbekiston Respublikasining КонституциЯси. – Т.:O`zbekiston, 2003
2. Karimov I.A. O`zbekiston: миллиу истиқпол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1 жилд.- Т.:O`zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Баркамол авлод – келажак поудевори.- Т.:O`zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.- Т.:Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Karimov I.A. O`zbekiston XX1 asr бысаG'асида: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.- Т.:O`zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. O`zbekiston – бозор муносабатларига ўтишning ўзига хос уўли.- Т.:O`zbekiston, 1993.
7. Karimov I.A. Озод ва обод Ҷатан, эркин ва фаровон ҳаёт – пироард мақсадимиз.- Т.:O`zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Миллиу истиқпол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir.- Т.:O`zbekiston, 2000
9. O`zbekiston tarixiu – Т.:Yangi asr avlodi, 2005
10. O`zbekiston tarixi.- Т.:Yangi asr avlodi, 2003.
11. Abdushukurova I., Erbo`tayeva O`., Xoligitova N. O`zbekiston tarixi fanidan o`quv-uslubiy majmua- Guliston:Universitet, 2006
12. O`zbekiston tarixi. – Т.:Universitet, 1999
13. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi – Т.:Ўқитувчи, 1997
14. O`zbekistonning Yangi tarixi. Turkiston чор RossiYasi мустамлакачилиги davrida. 1 kitob- T.:Sharq, 2000.
15. O`zbekistonning Yangi tarixi. 2 kitob. O`zbekiston совет мустамлакачилиги davrida.- Т.,2000
16. O`zbekistonning Yangi tarixi. 3 kitob. Mustaqil O`zbekiston tarixi. – Т.,2000.

### ***10.2. Qo`shimcha adabiyotlar (ilmiy adabiyotlar)***

3. Абдунабиев А.Г. Bklad в мировую цивилизацию.- Т.,1998.
4. Абу Тоҳирхыжа. СамариYa; Наршахиу. Buxoro tarixi; Баёніу. Шажарауи Хоразмшоҳиу; Ибрат.ФарG'она tarixi.- Т.:Мерос, 1991.
5. Abulg'oziy. Shajarayi turk.- Т.:Cho'lpon, 1992.
6. Абу Раҳон Беруниу. Qadimgi халқлардан қолган ёдгорликлар.- 1 ж.- Т.:Fan, 1968.
7. Азамат Зиё. O`zbek davlatчилиги tarixi.- Т.:Sharq, 1998
8. Алиев А. Маҷмудхўжа Беҳбудиу.- Т.:Ёзувчи, 1994
9. Амир Олимхон. Buxoro xalqining hasrati tarixi.- Т.:Fan, 1991
10. Аҳмедов А. Ulug'bek Муҳаммад ТараG'ay.- Т.,1994
11. Ahmedov B. O`zbek ulusi.- Т.,1992
12. Авесто. Яшт китоби.- Т.:Sharq,2001
13. Бобобеков Х. Қўқон tarixi.- Т.:Fan,1996
14. Бунёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар davlati.- Т.,1998
15. Буюк сиумолар, алломалар.Уч kitob.-Т., 1995, 1996, 1998.
16. Zaki Validiy. O`zbek urug'lari.- Т.,1992
17. Зиёев X. O`zbekiston мустақиллиги uchun kurashlapning tarixi.- Т.,2001
18. Иброҳим Карим. Madaminbek.- Т.:Ёзувчи, 1993.
19. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.- Т.,1990
20. Маҳкам Аскар. Авесто.- Т.,2001
21. Муртазаева Р. ва б. O`zbekiston tarixi. Ma'ruzalap matni.- Т.,2000
22. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-xuquqiy asoslari. E.:O`zbekiston, 2007

23. Мұхаммаджонов А. Амир Темур va Темириулар davri.- Т.:Fan,1991
24. Мұминов И. Амир Temurning O'rta Osiyo tarixida туттан үрні va роли.- Т.:Fan, 1968
25. Насимхон Раҳмон. Турк ҳоқонлиги.- Т.,1993.
26. Temur тузуклари.- Т.,1991
27. Temur va Ulug'bek davri tarixi.- Т.,1996
28. Fozilbek Otabek о'g'li. Дүкчи Эшон фожеаси.- Т.,1992
29. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.- Т.,2001
30. G'ulomov C., Usmonov Q. Mustaqillik O'zbekistonra nima berdi.- Т.,2000
31. Маҳмудов М. Барҳаёт сиумолар (ҚатаГ'он қурбонлари ҳақида лавҳалар).- Т.,1991
32. Milliy istiqlol g'oysi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Т.,2001
33. Хўжамбердиев Ё. О'zbeklar иши.- Т.:Ёзувчи, 1990

### **10.3. Internetdan olish mumkin bo`lgan ma'lumotlar saytlari**

www.tarih.uz	http://www.e-tarix.uz/ - Tarix qidiruv tarmog'i
www.ref.uz	http://www.uz/ - Milliy qidiruv tizimi
www.ferghana.ru	http://www.uforum.uz/ - O'zbekiston forumchilari sayti
www.uzsci.net	http://guldu.zn.uz/- Guliston Davlat Universiteti ziyonetdagи blogi
www.uzreport.uz	http://www.ref.uz/ - Feferatlar kollektsiyasi
www.press-service.uz	http://www.dissertant.uz/ - Yosh olimlar portalı
www.kango.net.ru	http://www.goldenpages.uz/ - O'zbekistonning oltin sahifalari
uwed.uz	http://www.e-darslar.net/ - Elektron onlayn darslar manzili
academy.uz	http://www.vlibrary.freenet.uz/ — Elektron darsliklar kutubxonasi
catalog.dodo.uz	http://www.multimedia.uz/ — Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi
gucheb.org	http://www.talim.uz/ — Masofaviy o'qitish ta'lif markazi
ttesi.uz	http://www.gduportal.uz/ - Guliston Davlat Universiteti ichki axborot ta'lif portali
www. istedod.uz	http://www.edu.uz/- Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portali
www. akademik.ru	http://www.istedod.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iste'dod jamg'armasi
www. islom.uz	http://www.ziyo.net/ - O'zbekiston axborot ta'lif tarmogi
www. ziyo.net	i
www. pedagog.uz	http://www.guldu.uz/ - Guliston Davlat Universiteti sayti
www. kutubxona.uz	http://www.edu.ru/ – Rossiya federasiyasi ta'lif portal
http://www.gduportal.uz/ - Guliston Davlat Universiteti ichki axborot ta'lif portali	
http://www.edu.uz/- Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portali	
http://www.istedod.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iste'dod jamg'armasi	
http://www.ziyo.net/ - O'zbekiston axborot ta'lif tarmogi	

## G L O S S A R I Y

### Aa

**«Avesto» jamiyati** - uning asosini katta patriarchal oila tashkil etgan. U «nmana» deb atalgan. Shunday bir necha urug' jamoasi «vis» deb atalgan. «Varzana» deb esa hududiy qo'shnichilik jamoasining, qabilalar jamoasi esa — «zantu»ni tashkil qilgan.

**Ahuramazda** — Zardo'shiylik xudosi bo`lib, yorug'lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik kabi hamma ezzuliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo sifatida ifodalangan.

**Ahriman** — zulmat, qorong'ulik, ochlik, vabo, sovuq, zaharli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi yovuzliklar xodosi.

**Ahamoniylar** — mil. av.gi 558—330 yillarda eronda hukmronlik qilgan sulola. Ahamoniylar sulolasiga mil. av.gi VIII asrda elam yaqinidagi Parsa hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig'i Ahmon asos solgan. Kir I davrida O'rta Osiyo hududlari ham Ahamoniylar sulolasiga bo`ysundirilgan. Uning davrida Qadimgi SHarqning katta qismi o`z hukmronligiga bo`ysundiriladi va Ahamoniylarning buyuk imperiyasi tuziladi Ahamoniylar sulolasi vakillari: Ahmon (Xaxomanshi), CHish-pish, Kir I, Kambiz I, Kir II, Kambiz II, Doro I, Kserks I, Ortokseroks I, Kserks II, Sekudian II, Doro II, Ortokserks II, Ortokserks III, Arses, Doro III. Gerodotning yozishicha, Ahamoniylar bosib olgan hududlarni satrapliklarga bo`lib idora qilganlar. Ularning soni 20 ta bo`lgan. O'rta Osiyo hududi esa uchta satraplikka bo`lingan.

**Alaf puli** — O'rta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bor va uzumzorlardan olinadigan soliq.

**Amir Temur** — buyuk davlat arbobi va sarkarda. Amir Temur 27 mamlakatni o'ziga bo`ysundirib, o'z davlatini jahoning buyuk imperiyalari qatoriga ko'tardi. Uning hukmronligi davrida Movarounnahr dunyo taraqqiyoti bilan bevosita bog'lanib, jahoning ilg'or mamlakatlaridan biriga aylandi.

**Amir** — 1) Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so`zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma`nolarni bildirgan. Arablar ko`p joylarni bosib olib, o`z dinlariga o`tkazgandan so`ng arab halifaligiga qaram bo`lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan. 2) Mo'g'ullar istilosidan so`ng Oltin Urda, keyin O'rta Osiyo va eronda mug'ul va turk qabilalari birlashmasi — ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Sohibqiron Temurning unvoni ham amir bo`lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr oxiridan boshlab, Buxoroda mang'it sulolasiga mansub bo`lgan hukmdorlar ham o`zlarini amirlar deb yuritishgan.

**Amir al—mo'minin** — mo'minlarning hukmdori IIk Islom davrida halifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab halifa Umar olgan. Keyinchalik barcha halifalar degan ma`noni anglatadi.

**Amirlik** — musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqariladigan mamlakat XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

**Amiri lashkar** — Temuriylar davlatida keng tarqalgan eng yuqori oliy harbiy unvon. Keyinroq XIX asrda Qo`qon xonligida ham Oliy Bosh Qo`mondonga nisbatan ushbu unvon qo'llanilgan.

**Amlok** — katta er egalari, mulklar, er—suv, kishi tasarrufidagi narsa va buyumlar amlok deyilgan. Buxoro amirligida soliqni taqsimlash birligi hisoblangan. XVI — XIX asrlarda Buxoro va Qo`qon xonliklarida feodal er egaligining bir turi bo`lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun shaxzodalar, lashkarboshilar va amaldorlarga in`om qilingan er — suv amlok deyilgan.

**Animizm** — hayvon ruhlariga ishonish demakdir.

**Arbobona** — Buxoro amirligida arboblar foydasiga xalqdan yig'ib olinadigan soliq.

### Bb

**Baqtriya** - Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida

joylashgan qadimgi davlat birlashmasi. Yozma manbalarda u Baxdi («Avesto»da), Baqtrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. YUnion-rim mualliflarining asarlarida Baqtriana yoki Baqtriyada deb atalgan

**Baytullox** — Makka Islom dinining yagona markaziga aylanganligidan keyin Olloxning uyi — Ka`baga berilgan nom.

**Bid`at** — Islom dinidagi rasmiy ta`limotlarga qarshi yangi fikr va aqidalar Islom Muhammad (S A V )dan keyin paydo bo`lgan unsur va qoidalar.

**Buxoro amirligi** o`zbek xonliklari orasida o`zining hududiy o`rni, aholiey va tabiiy resurslari jixatidan muhim mavkega ega edi.

XIX asrga kelib Buxoro amirligining hududi qariyib 200 ming kv.km.ni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so`l qirg`og`idan boshlanib, Sirdaryogacha cho`zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik SHarqda Pomir tog`laridan g`arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo`lgan hududni egallardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziq qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnixon, Panj daryolari vodiyisida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg`ob daryosi voxalaridagi erlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

## Dd

**Day** — mil. av.gi V — IV asrlarda Sirdaryoning qui oqimlari atrofida yashagan sak (shak) qabilalaridan ayrim manbalarda ularning daxlar, toharlar deb ham atashgan. Spitamen Iskandarga qarshi kurashish uchun oxirgi marotaba day qabilasidan qo`shin to`plagan. Mil. av.gi IV asr oxiri — III asr boshlarida Sirdaryoning o`rta va qui oqimida yashagan saklarning Qang` davlati vujudga keldi. Keyinchalik daylarning Qang` davlatiga kirgan qavmlar ittifoqi siqib kirishga majbur bo`lishgan. Mil. av.gi 250 yilda daylar mahalliy Baqtriya aholisi bilan birgalikda Baqtriyani salavkiylardan ajratib oldilar va yangi davlatta asos soldilar. Shundan so`ng bu o`lkaning nomi Tohariston deb atala boshlagan.

**Devon** — somoniylar davrida boshqaruva shakli bo`lib, vazirlar maxkamasini vazifasini o`tagan. Devonbegi esa vazirlar maxkamasining bosh ma`muri bo`lgan. Somoniylar davrida shahar hokimi **rais** deb atalgan. Viloyat hokimlari esa ba`zan **vazir** deb atalgan.

**Doruga** — harbiy ma`mur.

**Dodrox** — amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo`lib, u Buxorodagi YUqori xizmat doirasida 10—toifadagi amal yoki mansab xigoblangan. U arz, iltimosnomalarni qabul qilib, ularga yozma va ogzaki javob kaytargan.

## Ee

**Ellinlashtirish** — SHarqda yunon madaniyatining yoyilish jarayoni, aralash madaniyatining — yunon va mahalliy SHarq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

**Eftallar** — O`rta Osiyo va o`nga yaqin mamlakatlar xalqlarining etnogenezi va tarixida muhim rol o`ynagan yirik qabilalar uyushmasi. Ularning kelib chiqishi to`g`risida turli fikrlar bayon etilgan. A. N. Bernshtamning fikricha, eftallar tarkib topgan erlar o`rta va qui, Sirdaryo hamda Amudaryoning yuqori havzasidir. S. P. Tolstov esa ularni Orol bo`ylaridan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Garchi eftallarning tarkib topgan joyi qat`iy aniqlanmagan bo`lsada, ular etnik elementlar aralashgan O`rta Osiyolik qabilalar negizida shakllanganligi ma`lum eftallar otashparast bo`lganlar, lekin keyinchalik ular orasida buddizm va xristianlikka e`tiqod qila boshlaganlar ham bo`lgan.

## Ff

**Fetishizm** (fr. fetich — tumor so`zidan olingan) — jonsiz predmetlarga e`tiqod qilishni anglatadi. Fetishizm predmeti bo`lib munchoq, tumor kabilalar asosiy o`rinni egallagan. Hozirgi dinlarda ham ba`zi bir predmetlar fetishizmga misol bo`la oladi. Masalan, Makkadagi Qoratosh islom dinida, krest (xoch) xristianlik dinida muqaddas sanaladi.

**Fiqx** — musulmon xuquqshunosligi, shariat qonun—qoidalarini ishlab chiqish bilan

shug'ullanuvchi Islom ilohiyotining bir sohasi. Fiqx diniy xuquqshunoslik sifatida ikki sohada — shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al—fiqx) va shariatni aniq sohalarga tadbiq qilish (furur` al—fied)dan iborat.

## Hh

**Harbiy demokratiya** - O`rtal Osiyodagi davlat birlashmalari shakllanmasdan oldingi davr — davlatga o`tish davrining boshqaruv shakli bo`lib, uni harbiy qabila boshliqlari boshqarganlar.

**Harbiy kommunizm** — sovet davlatining fuqarolar urushi sharoitidagi ijtimoiy—iqtisodiy siyosatidir. Aholining boy qismi mol—mulkini olishni, yalpi mehnat majburiyati joriy etishni, yirik, o`rtal va qisman kichik sanoatni tez sur`atlar bilan davlat ixtiyoriga o`tqazishni nazarda to`tardi. Tijorat ta`qiqlandi, qishloq xo`jalik maxsulotlarining ortiqcha qismini davlatga topshirish majburiyat qilib qo`yildi.

## Ii

**Islom** — dunyoda eng ko`p tarqalgan dinlardan biri bo`lib, unga e`tiqodda bo`lganlarni musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo — Alloha e`tiqod qiladi. Islom dini VII asrda Arabistonda vujudga kelgan. Muhammad Payg'ambar islom dinining asoschisidir. Islom dini bugungi kunda arab davlatlarida, Turkiya, eron, Afg'oniston, Pokiston, Indoneziya, O`zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqa bir qator mamlakatlarda asosiy din hisoblandi.

**Ilohiyot** — diniy aqidalar va ular x:aqidagi ilohiy ko`rsatmalarni o`z ichiga olgan diniy ta`limot. Ilohiyot hozir ham diniy Madrasa, institut va universitetlarda o`qitiladi. Islomda ilohiyot ilk shakllanishi davridan boshlab Kalas deb nomlangan

**Investitsiya** — sarmoyaning biron–bir korxona, ishga uzoq muddatga joylashtirish.

**Inflyatsiya** — qog'oz pullarning qadrsizlanish va real tovar taklifiga nisbatan muomalada ularning ko`payib ketishi bilan bog'liq bo`lgan qobiliyatning pasayish jarayoni.

**Integratsiya** (lot. Integratio, integer dan — butun) — biror bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish, iqtisodda xo`jalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo`lib, bo`nga xalqaro mehnat taqsimotining chugurlashtirish ob`ektiv ravishda sabab bo`ladi. U turli mamlakatlarning o`zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy iqtisodning yagona xo`jalik organizmiga birlashuvida ifodalananadi, hamda bu protsessni tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

**Ixshid** — Sug'd hokimlarining nasabi, unvoni. Tarixiy ma`lumotlarga Sug'd arab halifaligi tomonidan istilo qilingunga qadar bu erda 13 ixshid hukmronlik qilib turgan.

**Izofa** — qo'shining zahira qismi.

**Iqto`** — o`rtal asrlarda YAqin va O`rtal SHarq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga in`om qilingan chek er. Odatda Iqto` umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtida qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilish mumkin bo`lgan. Iqto` haqidagi dastlabki ma`lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manbalarida uchraydi. IX asrga kelib halifa tomonidan arab amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham Iqto` deb atala boshlagan. Amir o`zi hukmronlik qilaetgan ushbu viloyatlar solig'ini butunlay yoki qisman o`zlashtirish xuquqiga ega bo`lgan. Iqto` erlari davlat mulki hisoblangan, lekin IX asrdan boshlab feodalning xususiy mulkiga aylana boshlagan. Temuriylar davrida Iqto` o`rnida tiyul va Suyurg'ol, boburiylar saltanati davrida esa jog'ir atamalari qo'llanilgan.

## Jj

**Jadidlar** — yangi usul tarafdorlari. XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik namoyondalari milliy davlatchilik g'oyalarini ham ko`tarib chiqdilar. Ular o`z g'oyalarida to`la ma`nodagi mustaqil, ozod, hur davlatni va adolatli davlat tuzumini tarannum qildilar. Jadidchilik harakatining ulug' namoyondalari Munavvar Qori, Fitrat, Behbudiy, Cho'lpion va boshqalar o`z asarlarida bu davlat tamoyillari va afzalliklarini madh qilganlar.

## Kk

**Kadivarlar** – ilk o`rta asrlar mulkchiligi munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik er egalari bo`lmish dehqonlar bilan bir qatorda o`z erkidan mahrum bo`lgan, mo`tlaqo yersiz va mulksiz kambag`al ziroatchi tabaqa, ya`ni ilk o`rta asrlarning ijtimoiy hayotida dunyoga kelgan va yerdor dehqonlar tabaqasiga qaram bo`lgan qishloq jamoasining, yangi mehnatkash, mazlum aholining vakillari edi. Keyinchalik ular dehqonchilik xo`jalikning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylandi.

**Kashovarz** - ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a`zolari. «**Kashovarz**» – ya`ni, yerni xaydovchi, yerni omoch bilan ag`daruvchi, «**qo`shchi**» deb yuritiladi. Dehqonchilik mahsulotlarining deyarli asosiy qismi mana shu qo`shchi — kashovarzlarning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilar edi.

**Kushon podsholigi** – milodiy 1 asrning boshi yoki o`rtalarida Yuechjilarning Kushon (Xitoychada Guyshuan) podsholigining kuchayishi natijasida paydo bo`lgan. «**Kushon**» atamasi sulola yoki qabila nomidan kelib chiqqan. Kushonlarning ilk hududlari shimoliy Baqtriya, Tojikiston, O`zbekistonning janubida joylashgan. Podsholikni asoschisi YAbg'u (qirol), keyinroq esa podsho nomini olgan Kudzula Kadfiz (Kadfiz I) davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston va Tojikistonning kattagina qismini bosib oldilar. Uning vorisi Vima Kadfiz davrida kushonlarga Xindistonning kattagina qismi buysunadigan bo`ldi. Kanishka I davrida Kushon podsholigi o`zining rivojlangan pallasini boshidan kechirdi. O`rta Osiyoda kushonlarning shimoliy chegaralari O`zbekiston janubidagi Xisor tog' tizmalaridan o`tgan, hamda tog'li dovon (Darband) da chegara devorlari qurilgan. Kushon podsholigi davrida turli eralar mavjud bo`lgan. (Salavkiylar, Vikroma, Saka eralari va boshqalar). SHuningdek, Kanishka I hukmronligi davrida Kanishka erasi boshlangan. Ushbu era dlvrida quyidagi podsholar hukmronlik qilgan:

Kanishka I — 1—23 yillar,

Vasishka — 24—28 yillar,

Xuvishka — 28—60 yillar,

Kanishka 11—41 yil;

Vasudeva (Kanishka III) — 64—98 yillar.

Kushon davlati teokratik davlat bo`lib, podsho mamlakachning bosh kohini bo`lib ham hisoblangan. Podsholik satrapliklarga bo`linib, satraplar birmuncha mustaqil siyosat olib borganlar. Kushon podsholigi quldorchilik davlati bo`lib, aholining asosiy qismi qishloq aholisidan iborat bo`lgan. Diniy siyosatda kushon podsholari erkinlikni ta`minlaganlar, chunki davlat hududida buddizm, zardo`shtiylik keng tarqalgan bo`lsa, davlatning boshqa joylarida xind, eroni, yunon va misr dinlari tarqalgan. Pul munosabatlari savdo va hunarmandchilikning keng rivojlanishi bilan shakllangan. Pul tizimi oltin va mis tangalardan iborat bo`lgan. III asrning birinchi yarmi yoki o`rtalarida Kushon davlati tugatiladi. Baqtriya — Tohariston sosoniyalar qo`liga o`tib, sosoniyalar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Ular esa o`z navbatida Kushonlar nomi ostidagi yorliq bilan davlatni idora qilganlar.

## Mm

**Maroqanda** — Samarcandning yunoncha nomi. Mil. av.gi VII — VI asrlarda Maroqanda o`rnida mudofaa devorlar bilan o`ralgan qishloq bo`lgan. YUnion tarixchilari Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Strabonning ma`lumotlariga ko`ra mil. av.gi 329 yilida A.Makedonskiy So`g'diyona poytaxti Maroqandni zabit etib, vayron qilgan, so`ngra o`zining harbiy garnizoni uchun qal`ani qayta tiklagan. So`g'diyalar Spitamen boshchiligidida bu bosqinchilarga qarshi kurashgan, qo`zg'olon bostirilgach, Makedonskiy Marokandni yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Semizkent, Samarcand nomini olgan.

**Massagetlar** – Kaspiyorti va Orol dengizi yaqinida va Sirdaryoning quyi oqimida mil. av. VI – IV asrlarda yashagan qabilalar guruhining umumiyl nomi. Massagetlar haqida fanda har xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, Massagetlar nomi «muso» —

«baliq» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, «baliqxo`rlar» ma`nosini bildiradi. Keyingi tekshirishlar natijasida massagetlarning «mae», «saka» va «ta» so`zlaridan iborat bo`lganligi va saklarning katta uyushmasi degan ma`noni bildirishi aniqlangan. YUNON tarixchisi Gerodotning ta`riflashicha, massagetlar piyoda va otda jang qilganlar, otlarning ko`kraklariga Sovut kiydirganlar. Massagetlar o`z podshosi To`maris boshchiligidagi eron bosqinchilariga qarshi kurashganlar. Mil. av.gi VI asrda ular o`z erlarini boshqa qabilalar xujumidan himoya qilish maqsadida harbiy qabila ittifoqiga birlashganlar

**Masjid** – sajdagox, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo`lib, namoz o`qiydigan joy. Masjidlar asosan musulmonlarning kundalik besh vaqt namoz o`qishi uchun mo`ljallangan muqaddas joy. Juma va Xayit namozlari esa jome` masjidlarida o`qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad Payg'ambar qurdirgan.

**Madrasa** – Musulmon ilohiyotining masalalarini sharhlab berib turadigan markaz. U Madrasa sifatida arablarda VII — VIII asrlarda paydo bo`lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiyot mакtablari tarkib topib, Madrasa deb atala boshlangan. Madrasalar xonlar va yirik er egalari va boshqa davlatmand kishilar tomonidan qurdirilgan. Mutavalli vaqfdan tushgan daromadni mudarris, mullavachcha, imom va boshqalarga taqsimlangan. Madrasaga maktabni tugatgan o`siprinlar qabul qilingan. O`rta Osiedagi madrasalarda arab va fors tishlida yozilgan «Avvali ilm» kitobi o`qitilgan. Ayrim madrasalarda tibbiyot, aruz ilmi falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o`qitilgan. Madrasaning har bir bosqichida o`qish muddati 3—4 yil davom etgan.

**Movarounnahr — arabcha** so`z bo`lib, lug'aviy ma`nosi daryo ortidagi er, degan ma`noni bildiradi. Arablar O`rta Osiyon bosib olgandan keyin Amudaryodan shimgolacha qarab cho`zilgan O`rta Osiyo erlarini Movarounnahr deb atashgan.

**Mutavalliy** — Vaqf mulkiga va undan keladshan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Vaqf erlarni ijara berish, vaqf mulkida xo`jalikishlarini yuritishni ham mutavalliy bajargan.

**Muxtasib** — musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Ko`pincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf — odatlarga amal qilish hamda bozorlardagi narx—navo va o`lchov asboblarining to`g`riliqi ustidan nazarat qilib turgan XIX — XX asrlarda Buxoroda muxtasib rais deb ham atalgan.

## Nn

**Noyib** — O`rta asrlarda musulmon davlatlarida o`lka yoki viloyat hukmdori Oltin O`rdada noyib xonning yirik viloyatlaridagi yordamchisi.

## Oo

**Ossuariy** — «**suyakdon, ostodon**». Zardo`shtiylik urf—odatiga ko`ra o`lgan kishi dafn qilinmagan. Jasadni qushlarga yem bo`lishi uchun maxsus baland joyga quyilgan. Suyaklari tozalanib, qushlarga yem bo`lmasligi uchun maxsus idish «**ossuariy**» larda saqlaganlar. Ular **nous** deb ataluvchi maxsus binolarga qo`ylgan.

**Otaliq** — dastlab saljuqiylar sulolasi davrida (1038—1194) xon e`tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. Otaliq «Ota o`rniga ota» degan mazmunga ega bo`lib, uning vazifikasi shaxzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog`atga etganlariga qadar boshqarishdan iborat bo`lgan. Tarixda ba`zi otaliqlar hokimiyatni o`z qo`llariga olgan hollar ham bo`lgan. Chunonchi, ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida (1599—1753) Balxda Maximudbiy otaliq (XVIII asr boshlari), Mangitlar sulolasi hukmronligi davrida (1753—1920) Buxoroda Muhammad Raxim otalik (1753—1758) mana shunday yo`l orqali hokimiyatni egallagan.

## Pp

**Parvonachi** — XVII — XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo`lgan mansab, vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlarini yozib tegishli kishilarga etkazib

turgan. YUqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi tomonidan bitilgan farmonni uch kun mobaynida o`z sallasiga qistirib yurishlari lozim edi.

**Parkana (Dovon) davlati** - Fargona vodiysida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi II asrda Parkana mustaqil davlat edi. Eramizdan avvalgi 104-101 yillarda Parkana 2 marta Xitoyliklar hujumiga uchragan. Lekin Xitoyliklar muhim natijaga erisha olmaganlar. Parkanada 70 ta katta va kichik shaharlar bo`lgan. Ularning umumiy hukmdori Guyshan deb atalgan.

### **Qq**

**Qang'li** — turkiy qabilalar uyushmasi O`rxun—Enisey yozuvlarida «**kanharas**» deb atalgan, xitoy manbalarida Qang' davlati Qang'yuy deb atalgan. Qang'lilar mil. av.gi III asr oxirlarida Sirdaryo bo`ylarida yirik Qang' davlatini tuzganlar Poytaxti — Qang'dez bo`lib, mil. av.gi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan. X asr oxirlarida ularning katta bir qismi shimoliy — g'arbg'a siljib, emba va Ural (YOyik) daryolari oralig'ida joylashgan. XI asrda ularning ko`pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya va Vengriya erlariga o'tib mahalliy aholiga, ayrim guruhlari esa Volga bo`ylariga kelib boshqird, tatar xalqlariga qo`shilib kelgan. XI asrning oxiri — XII asrning boshlarida Qang'lilarning katta guruhi Sirdaryo bo`ylariga qaytib kelganlar. O`rta asrlarda qang'lilar O`rta Osiyo davlatlarining ichki siyosatida faol ishtirok etganlar. Qang'lilar yarim o`troq holda yashab dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ular bir necha urug'larga bo`linishgan Jumladan, sariq — qang'li, qora—Qang'li, qizil— Qang'li, bobo—Qang'li, olmish—qang'li, bo`ka—qang'li va hokazo.

**Qang'** - miloddan avvalgi II asr urtalarida va I asr oxiriga gullab yashnagan davlat. Qang' davlati Xorazm hududlarida tashqil topdi va miloddan avvalgi 170 yilda unga So`gdiyona, Choch qo'shib olindi.

**Qur'on** – Musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad Payg'ambarning Makka va Madinada olib borgan og'zaki diniy targ'ibotlari to`plamidan iborat. Qur`onda islam qoidalari, e`tiqod talablari, xuquqiy va ahloqiy normalari o`z ifodasini topgan. Islam an`anasida Qur'on Alloh tomonidan Muhammad Payg'ambarga ramazon oyining 27 – kuni kechasi vahiy qilinib, ro`za tutilgan. Uning 27 — kuni kechasi «**laylot ul—qadr**», ya`ni qudrat kechasi, ilohiyot qudrati namoyon bo`lgan kecha deb ulug'lanadi. Qur'on kitobini «**Qur`oni Karim**», «**Qur`oni Masjid**» deb sifatlashadi.

**Qo`qon xonligi** XIX asrning birinchi yarmida hududiy jixatdan O`rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik Sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo`lgan. Qo`qon xonligi bilan Rossiya o`rtasida Mirzachul va Muyunkul chullari yastanib etgan. Xonlikning janubiy chegaralari Korategin, Kulob, Darvoz, SHurnon singari tog`li o`lkalarni o`z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez — tez to`qnashuvlar bo`lib turgan. Qo`qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o`laroq, sersuv daryolar, sulim vodiylar, serhosil erlarga boy edi. Xonlikning markazi Qo`qon, Marg'ilon, O`zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farrona vodiysi edi. Toshkent, Turkiston, CHimkent, Avliyoota, Pishpak, So`zak, Okmachit kabi yirik shaharlar ham Qo`qon xonligi tasarrufida edi.

### **Rr**

**Ratifikatsiya** (lot. Ratus — tasdiklangan va fasere dan qilmok) — ahdlashuvchi davlatlarning muxtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomaga yoki bitimning olib davlat hokimiyyati organlari tomonidan tasdiklanishi. Ratifikatsiya shartnomaga yuridik kuch beradi.

### **Ss**

**Saklar** — milodan avvalgi I ming yillik va milodning boshlarida O`rta Osiyo va SHarqiy Turkistonning shimoliy — SHarqiy hududlarida yashagan chorvador qabilalar. Qadimgi fors manbalarida saklar uch guruhga bo`linganligi ko`rsatilgan:

- 1) saka — xaumovarka;

- 2) saka — tigraxauda;
- 3) saka — tiaytaradarayya.

Saklar forslar armiyasi tarkibida yunon—fors urushlarida qatnashgan. Aleksandr Makedonskiy, so`ngra salavkiylar o`zlarining O`rta Osiyodagi mulklariga xavf solgan saklarga qarshi kurash olib borganligi manbalarda qayd qilingan. Mil. avv. II asr o`rtalarida saklar boshqa ko`chmanchi qabilalar bilan birga Parfiya podsholigi erlariga bostirib kirganlar. Ammo ular qattiq qarshilikka uchrab Darang'iyonga siqib chiqarilgan. Saklar Darang'iyonada o'troq joylashganligi uchun unga Sakiston, ya`ni Saklar mamlakati deb nom berilgan.

**Satraplik** — Ahamoniylar, salavkiylar, Parfiya va sosoniylar davlatlaridagi ma`muriy — hududiy tuzilma. Forscha «**Xshatra**» — «**viloyat**» so`zidan kelib chiqqan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to`lashga majbur bo`lgan.

**Satrap** — viloyat boshlig'i bo`lib, u cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Mil. av.gi IV asrning oxirlarida O`rta Osiyoga Aleksandr Makedonskiyning yurishi boshlanadi. Bu davrda O`rta Osiyo xalqlarining harbiy san`ati yuqori darajada bo`lgan. Xanjar «**akg'ainak**» atalgan, jangovor bolta «**sagiris**» deb nomlangan.

**Sivilizatsiya** - dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishini aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo`lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma`naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar bilan izohланади.

**Spitamen** —O`rta Osiyoning yirik qo`mondoni va Makedonskiyga qarshi mil. av.gi 329—327 yillarda Marokandda ko`tarilgan qo`zg'olon rahbari.

**So`g'd yozuvi** — miloddan oddingi ming yillikning oxirlarida oromiy alifbosidan ajralib chiqqan. Arab yozuvi singari o`ngdan chapga qarab yozilgan va o`qilgan. Qadimgi manbalarda so`g'd alifbosida 25 harf mavjudligi ta`kidlangan, biroq turli joylardan topilgan so`g'd yozuvi yodgorliklarida harflarning umumiy sonida farqlar bor. So`g'd yozuvining milodning boshlariga oid qadimgi na`munasi Samarcand yaqinidagi Toli barzu degan joydan topilgan.

**Sohibqiron** — 1. Quyosh tizimidagi katta sayeralardan ikkitasini bir — birini tusish paytida to`g'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduzlar Zuxra va Mushtariy sayeralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjimlarning fikriga ko`ra, bunday odam baxtli, ulug' martsyuali bo`lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so`zining asl ma`nosи «baxtier podshox», «qudratli podshox» demakdir. 2. SHarq mamlakatlarida obro`li, g'olib podsholarga berilgan unvon. O`rta Osiyoda dasglab Amir Temurga shunday unvon berilgan. Ma`lumki, Amir Temur o`zining harbiy muvaffakiyatlariga o`zining kuchli qo`shini bilan erishgan. U qo`shinni o`ntalik askariy birikmalardan iborat lashkarlardan tuzgan. Lashkar ush minglik bo`lsa — **tuman**, minglik esa — **xazora**, yuzlik — **xushun**, unlik esa — **xayl** deb nomlangan. Ularga boshchilik qilgan lashkarboshilar esa **tuman ogasi, mirikazora, qo`shinboshi, aylboshi** deb yuritilgan

**Somoniylar dablati** - IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning barcha viloyatlari Somoniylar tasarrufiga o'tdi. Somohiylar sulolasи asoschisi Somomxudot edi. Bu paytda Nasr ibn Ahmad bilan uning ukasi Buxoro noibi Ismoil o`rtasida ziddiyat kuchayib, 888 yilda jangga olib keldi. Bu jangda Ismoil golib keldi va u butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo`lib qoldi. Ismoil Somoniy Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlat tuzishga intildi. 900 yilda butun Xuroson somoniylar qo`li ostiga o'tdi Somoniylar poytaxti Buxoro islom dinining markazlaridan biriga aylandi

**Suyurg'ol** — biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko`rsatgan shaxslarga berilgan in`om. Suyurg'ol berilgan er nasldan — naslga meros bo`lib o`tgan. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib olgan daromadi va mahalliy aholidan o`z ixtiyoricha foydalanish

huquqiga ega bo`lgan. O`rta Osiyoda Suyurg`ol Amir Temur hukmronligi davri (1370—1405)da keng tus olgan. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning ayrim viloyatlarini shu erlearning sobiq egalariga, o`z o`g`illariga, nevaralariga, ba`zan alohida xizmat ko`rsatgan amirlarga, qo`shin boshliqlariga Suyurg`ol qilgan. XVI asrdan boshlab Suyurg`olning avvalgi tartibi o`zgardi. SHayboniylar hukmronligining so`nggi yillari va ashtarxoniylar hukmronligi davrida ayrim qishloqlar er maydonlari, xatgo shu erlardan undirilgan soliqlarning bir qismi ham Suyurg`ol tariqasida beriladigan bo`ldi. XVIII — XIX asrning birinchi yarmida suyurg`ol harakteri tubdan o`zgarib, uning faqat merosiyligi saqlanib qoldi.

## Tt

**Tarixiy xotirasix kelajak yo`q** - 1998 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bir gurux tarixchi —olimlar bilan uchrashuvida qilgan ma`ruzasining nomi. Unda o`zbek davlatchiligi tarixining anik yo`nalishiga, uning ilmiy-metodologik kontseptsiyalariga doir muhum fikr-mulohazalarni bayon qildi.

**Temur tuzuklari** – o`rta asrlarning ulkan davlatini idora etishda Amir Temur feodal boshqaruvi tizimining asosiy qonun-qoidalari – “tuzuklar” ni yaratdi. Islom dini mafkurasi va ahkomlariga suyanib, u o`z “tuzuklar”i asosida el-yurtni boshqardi va mamlakatni obod etdi.

Totemizm - ibridoiy jamoa odamlarining dastlabki e`tiqodlaridan bo`lib, u tabiat oldidagi nochorchiliklaridan yuzaga kelgan. Ibtidoiy jamoa odamlari totemlarga — hayvon va o`simliklarga sig`inishgan. Har bir qabila o`zining totemiga ega bo`lgan. O`z navbatida ushbu totemni o`ldirish, iste`mol qilish ta`qiqlangan.

**Tohariston** - mil.av. II-I asrlarda mustaqil davlat sifatida maydonga keldi. Bu davlat Yunon-Baqtriya davlati o`rnida paydo bo`ldi.

**Turk hoqonligi** - VI asrning 2-yarmida Oltoydagi turkiy xalqlar Yettisuv xalqlari bilan Turk hoqonligiga birlashgan. Hoqonlikni ilk bor aka-uka Ilixon, Bumin va Istemilar boshqargan. Hoqonlik markazi Oltoy edi. 560-570 yillarda hoqonlik qudratli davlatga aylandi. Bu davrda turklar Xitoya bir necha bor harbiy yurishlar qilgan. 580 yillarda hoqonlik 2 qismga sharqiy va g`arbiy qismlarga bo`linib ketadi. 630 yildan g`arbiy turk hoqonligi yuksala boshlaydi. Uning chegaralari Hind daryosi qirg`oklarigacha borgan.

**Turkiston muxtoriyati** - Turkiston jadidlarining va milliy vatanparvarlarning sa`y-harakati bilan 1917 yil noyabr oyida Turkiston muxtoriyati - Qo`qon muxtoriyati Qo`qon shaxrida tashqil qilindi va davlatning nomi Turkiston muxtoriyati deb nomlandi. Muxtoriyat 1917 yil 28 noyabrdan e`tiboran hokimiyatni muvaqqat Turkiston Soveti va «Turkiston xalq majlisiga» topshirdi. Sovetlarning Muxtoriyatga qarshi qurolli harakati 1918 yil fevral oyida boshlandi va fevral oyi o`rtalarida muxtoriyat tamoman yo`q qilindi.

## Uu

**Ushr** — musulmon mamlakatlarida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig`i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik maxsulotlari va boshqalardan olingan.

## Vv

**Vaqf** — davlat tomonidan shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar, ixtieriy daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bo`lib o`tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol—mulk ya`ni er—suv, bino va boshqalar vaqf deyiladi. Vaqfdan keladigan daromadlar diniy muassasalar va ularda xizmat kiladigan din peshvolariga berilgan.

## Xx

**Xalifa** — o`rinbosar, noib, muovin Musulmon jamoasi va musulmon teokratik davlati (Arab halifaligi)ning diniy va dunyoviy boshlig`i. U Muhammad Payg`ambarning o`rinbosari, ummaviylar davridan boshlab esa Allohnning erdag`i noibi hisoblangan. Birinchi to`rt halifa (Abubakr, Umar, Usmon, Ali) «**al—Xulafo ar—roshidun**» nomi bilan mashxur bo`lganlar. Ular Muhammad payg`ambardan so`ng arab halifaligini boshqarganlar

1. Abubakr (632—634)

2. Umar (634–644)
3. Usmon (644 – 656)
4. Ali (656 – 665)

Ummaviylardan keyin abbosiylar, shuningdek fotimiylar sulolası vakillari ham halifa unvoni bilan hokimiyatini boshqarganlar.

**Xiva xonligi** janubda Eron, sharada Buxoro amirligi, G'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo`lgan Suvsiz va poensiz Korakum, qizilkum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo`yan edi. Amudaryo soxillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko`hna Urganch, Xazorasp, Ko`ng'irot, Xo`jayli, Kudar (hozirgi Chimbay) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. Xiva shaxri O`rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo`lib, 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti bo`lgan.

Qoraqpoklar yashaydigan Amudaryoning quyi xavzasasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi.

**Xiroj** — YAqin va O`rta SHarq mamlakatlarda, jumladan, O`rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan er solig'i. Xiroj arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo`qon xonliklarida hamda Buxoro amirligida joriy yig'ish uchun har bir viloyatlarga sarkor, devonbegi va kotib saylangan. Xiva xoni Muhammad Raxim I xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. Bunda xiroj olingan hosil miqdoridan emas, balki er egasining xo`jaligi va er maydoniga qarab olingan. Qo`qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xiroj bu erda natura o`rniga pul bilan yiriladigan bo`lgan.

**Xon** — turkiy xalqlar va mo`g`ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshoxlar davrida viloyat yoki shahar hokimi, mo`g`ul feodal imperiyasida ulus boshlig'i davlatlarda oliy hukmdor xon, podshoxlik qilmagan. CHingiziyarda esa sulton deb yuritilgan Qo`qon, Buxoro (1753 yilgacha) va Xiva xonligida hukmdorlar o`zlarini xon deb ataganlar.

**Xonlik** — xon tomonidan boshqariladigan davlat. O`rta Osiyoda XVI asr oxirida ikkita xonlik — Buxoro va Xiva xonligi vujudga kelgan. XVIII asrda Qo`qon xonligi vujudga kelgan. XVIII asr oxirning oxirgi choragidan Buxoro —amirlik deb yuritilgan.

**Xo`ja** — tom ma`noda, asosan YAqin va O`rta SHarq. xalqlari o`rtasidagi feodal ijtimoiy tabaqa. Xo`jalar sayidlardan keyingi o`rinda turgan. Keng ma`noda feodal jamiyatdagagi hukmron tabaqalar vakili. Xo`jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba`zi ma`lumotlarga qaraganda xo`jalar dastlabki to`rt halifa — Abu Bakr, Umar, Usmon, Alidan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarining nasli deb hisoblanadi. Xo`jalar Islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma`lum imtiyozlarga ega bo`lganlar. Ular ko`p hollarda o`lim, tan jazosi, urushlarda qatnashishi hamda soliq to`lashdan ozod etilganlar. Xo`jalar qizini fuqaroga berish man etilgan.

**Xorazm** Amudaryoning quyi oqimida yashagan o`troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti Xvariazm («Avesto»da), Xvarizmish (Bexistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon) asarlarida yozib qoldirilgan.

## Yy

**Yuechji** — ulkan ko`chmanchi qabila bo`lib, eramizdan avvalgi II asr o`rtalarida Tyan'shan tog'lari g'arbidan Dun'xuandan sharqqa tomon Labnor ko`ligacha bo`lgan hududda, hozirgi Xitoyning Gan'su provintsiyasi hududlariga to`g'ri keladi. YUEchjilar haqida ma`lumotlar. Qadimgi Xitoy yozma manbalari (Ban Gu, Sima TSzyan')da uchraydi. YUEchjilar Kushon podsholigi tizimida katta rol' uynagan. etnik tarkibi haligacha o`rganilmagan (SHarqiy eronliklar, xindoYevropaliklar, turklar).YUEchjilar tili Baqtriya shaharlardan va qabilalarining nomlaridan bo`lak saqlanib qolmagan. etnik qiyofalari Holchayondagi skul'pturalarda, tangalarda va boshqa yodgorliklarda saqlanib qolgan.Mil.

av.gi II asr o`rtalarida Yuechjilar Xunnlar siquvi ostida Ili daryosi vodiysiga qochishga majbur bo`lganlar keyinroq mil. av.gi II asr o`rtalarida Xunnlar tazyiqi kuchaygach, janubga Shimoliy Baqtriya hududlariga ko`chganlar. G`arb ko`chgan Yuechjilar «**Katta yuechj:i**», Nan'shan toglarida qolganlari esa «**Kichik Yuechj:i**» nomini oldilar. Keyinroq Yuechjilar butun Baqtriyani ishg'ol qildilar va o`zlarining konfederativ davlatini tuzdilar. Bu konfederatsiyalar:

- |                  |           |
|------------------|-----------|
| 1. Xyumi (Syumi) | 4. Xisi.  |
| 2. Shuanmi       | 5. Xuanmi |
| 3. Guyshuan'     |           |

## Zz

**Zardo`shtiylik** - mil. av.gi 1 ming yillikning birinchi yarmida O`rta Osiyoda keng tarqalgan din. Zardo`shtiylik diniga ko`ra olov (quyosh), er, suv, havo muqaddas sanalgan Zardo`shtiylik dinini aoschisi Zardo`sht (turli tillarda Zaratushtra, Zorast, Zardo`sht) ismidan olingan. Uning tug'ilgan yili noma'lum. Mil. av.gi I ming yillikning birinchi choragida yashagan. U biz o`z ta`limotini Xorazm yoki Baqtriyada targ'ib qilgan. U 77 yoshida dushmanlari qo`lida xalok bo`lgan Keyinroq Yevropada bu din targ'ibotchisini Zoroastr (yunoncha «**astron**»—**yulduz**) deb atay boshlaganlar, chunki Yunonistonda uni alloma — munajjim tarzida ardoqlaganlar. Shu nomdan kelib chiqib, uning ta`limotini zoroastrizm deb yuritganlar. Zardo`shtiyning g`oyalari mil. av.gi IV asrda to`planib 21 kitob qilinadi. Ular «**Avesto**»ning asosini tashkil etgan. Matnlarda yozilgan tafsiflar «**Zand**» deb ataladi. «**Katta Avesto**»dan ayrim muhim oyatlar tanlab olinib, Xorazm, Baqtriya, Margiyona va So`tdiyona haqida qimmatli ma`lumotlar mavjud.

**Zakot** — Islom dini besh asosiy talablaridan biri bo`lib, mol — mulk va daromaddan beriladshan sadaqa, xayr—exson, soliq. SHariatga muvofik muaiyan boylikka ega bo`lgan katta eshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlaridan qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho`ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo`lgan. Zakot kambag'allar, etim—esirlar kasallar va xech kimi yo`q, ayollar o`rtasida taqsimlanishi lozim bo`lgan.

## O'o'

**O`rta asrlar davri** uzoq davrni — milodning V—XVII asrlarini o`z ichiga olib, uni dunyoning barcha xalqlari o`z boshlaridan kechirganlar. Ma`lumki, Qadimgi dunyo tarixida quzdorlik jamiyati asosan SHarq mamlakatlarida o`zining yuksak cho`qqisiga erishgan edi. Uning so`nggi davrida yuksak rivojlanishi markazi asta sekin G`arb dunyosiga ko`chdi.

O`rta asrlar tarixidagi eng muhim voqealar qatorida xristian va islom dinlarining paydo bo`lishini alohida ta`kidlash lozim. Xuddi ana shu o`rta asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar ham sodir bo`lib o`tdiki, u Yevropa xalqlari hayotida yangi davrni ochib berdi. Kapitalistik munosabatlar, ilk kapitalistik korxonalar ham o`rta asrlarning so`nggi davrida shakllandi. Lekin o`rta asrlar davri urushlar, ocharchilik va tabiiy sharoitlar ancha qiyin kelgan yillar bilan ham izohlanadiki, albatta, bu ham o`sha davr tarixida o`zining mash`um asoratlarini saqlab qolgan.

O`rta asrlar tushunchasini mazmunan boyitgan feodalizm — kishilik jamiyatni taraqqiyotida V asr oxiridan va XVII asrning o`rtalarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Feodalizm o`z taraqqiyoti yo`lida uch bosqichni bosib o`tdi. Feodalizm genezisi (V asr oxiridan XI asrgacha), rivojlangan feodalizm (XI — XV asrlar), so`nggi feodalizm (XVI asr va XVII asrning birinchi yarmi). Jahonning ayrim mintaqalarida feodal munosabatlari saqlanibgina qolmay, balki uning hukmron mavkei keyingi davrlarda ham davom etdi va endi uning mazmuni (kishilik jamiyatni tarixi masshtabida) uning o`sib borayotgan darajasi bilan emas, balki maydonga kelayotgan va tobora mustahkamlanib borayotgan kapitalistik munosabatlarning darajasi bilan belgilanadigan bo`lib qolgan edi.

## Sh sh

**Shayboniyilar davlati** — XVI asrda Temuriylarga tegishli yerlarni zabit etish natijasida

Shayboniyalar davlati vujudga keldi. Dastlabki davrlarda Shayboniyalar davlati ancha keng hududlarni qamrab olgan edi. Mavarounnahr uning uzagini tashqil qilgan. Uning tarkibiga Xorazm, Sirdaryo sohilidagi shaharlar, Toshkent va uning atrofidagi hamda Turkmanistonning Marv shahrigacha bo`lgan hududlar kirgan.

**Shariat** – Islom diniy xuquq tizimi. Unda sof xuquqiy masalalardan tashqari, ahloq, iy normalar va amaliy talablarga ham qonun tusi berilgan.

**Shulen** — XIII asrda olingan oziq — ovqat solig'i.

### Ch ch

**Chokar** — O`rta Osiyoda ilk feodalizm davrida feodallarga qarashli bo`lgan qurollangan yigitlar guruhi.

#### «AMIR TEMUR» BOSHQOTIRMASI

1	X	O`	J	A	I	L	G`	O	R				
2	J	A	H	O	N	G	I	R	M	I	R	Z	O
3	B	I	B	I	X	O	N	I	M				
4	A	N	Q	A	R	A							
5	S	A	M	A	R	Q	A	N	D				
6	Z	A	N	G	I	O	T	A					
7	S	A	I	D	B	A	R	A	K	A			
8	M	I	R	Z	O	U	L	U	G`	B	E	K	
9	X	A	L	I	L	S	U	L	T	O	N		
10	A	B	U	S	A	I	D	M	I	R	Z	O	
11	A	L	I	YA	Z	D	I	Y					

1. Amir Temur tug`ilgan qishloq nomi.
2. Amir Temurning to`ng`ich o`g`li.
3. Amir Temurning suyukli xotini
4. Yildirim Boyazidga qarshi jang o`tkazilgan shahar.
5. Amir Temur davlatining poytaxti.
6. Toshkent yaqinida Amir Temur qurdirgan maqbara.
7. Amir Temurning pirlaridan biri.
8. «Tarixi arba` ulus» asarining muallifi.
9. Amir Temurdan so`ng Samarqand taxtini egallagan shahzoda.
10. Amir Temurdan so`ng Mavarounnahr va Xurosonni qayta birlashtirgan temuriy shahzoda.
11. «Zafarnoma» asarining muallifi.

## KLASTER USULI





